

O‘zbekiston Respublikasi
Sog‘liqni saqlash vazirligi
Toshkent farmatsevtika instituti



Ijtimoiy fanlar kafedrası

“IQTISODIYOT NAZARIYASI”

Bilim sohasi: 500000 - Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘milot
Ta‘lim sohasi: 510000 - Sog‘liqni saqlash
Ta‘lim yunalishi: 5510500 - Farmatsiya (turlari buyicha)
5111000 – Kasb ta‘limi



Toshkent - 2018 y

Pedagogika. Psixologiya fanining o'quv- uslubiy majmuasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 201_ yil ____ ____ dagi -son buyrug'i bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chikilgan.

Tuzuvchi:

Mamedov X.M

Ijtimoiy fanlar kafedrası professori

F.G.Xoshimova

Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Taqrizchi:

K.K.Ismailov - Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri dotsent

Fanning O'quv-uslubiy majmuasi soha _____ uslubiy kengashining
2018 yil _____ dagi -son yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya
etilgan.

Soha uslubiy kengash raisi

K.K.Ismailov

Fanning O'quv-uslubiy majmuasi institut Markaziy uslubiy kengashning 2018yil
_____ dagi -son yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya
etilgan.

Markaziy uslubiy kengash raisi

T.A.Nabiev

Fanning O'quv-uslubiy majmuasi institut Kengashining 2018 yil _____ dagi
-son yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Kengash ilmiy kotibi

F.X.To'xtaev

Mundarija

I. O'quv materiallari:

1-mavzu: «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining predmeti. Iqtisodiy tizimlar.....	4
2-mavzu: Mulkchilik, tovar va pul munosabatlarining shakllanishi.....	8
3-mavzu: Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilish mexanizmi. O'zbekiston dabo- bozor iqtisodiyotiga o'tishning hususiyatlari.....	16
4-mavzu: Biznes va tadbirkorlik faoliyati. Raqobat va narxning shakllanishi.....	30
5-mavzu: Milliy iqtisodiyot va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, milliy boylik. Iqtisodiy o'sish va uning omillari.....	46
6-mavzu: Moliyaning mohiyati va moliya tizimi, davlatning soliq byudjet siyosati. Pul muomilasi, kredit va banklar.....	63
7- mavzu: Innvestitsiya va investitsion siyosat. Ishchi kuni bandligi va mehnat bozori.....	72
8- mavzu: Iqtisodiyotni tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlari.....	81
9- mavzu: Jahon xo'jalagi va iqtisodiy integrasiya.....	90

II. Amaliy mashg'ulotlar:

1-mavzu: «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining predmeti. Iqtisodiy tizimlar.....	99
2-mavzu: Mulkchilik, tovar va pul munosabatlarining shakllanishi.....	102
3-mavzu: Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilish mexanizmi. O'zbekiston dabo- bozor iqtisodiyotiga o'tishning hususiyatlari.....	103
4-mavzu: Biznes va tadbirkorlik faoliyati. Raqobat va narxning shakllanishi.....	106
5-mavzu: Milliy iqtisodiyot va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, milliy boylik. Iqtisodiy o'sish va uning omillari.....	107
6-mavzu: Moliyaning mohiyati va moliya tizimi, davlatning soliq byudjet siyosati. Pul muomilasi, kredit va banklar.....	109
7- mavzu: Innvestitsiya va investitsion siyosat. Ishchi kuni bandligi va mehnat bozori.....	112
8- mavzu: Iqtisodiyotni tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlari.....	112
9- mavzu: Jahon xo'jalagi va iqtisodiy integrasiya.....	117

III. Mustaqil ta'lim mavzulari yuzasidan ko'rsatmalar.....

IV. Glassariy.....

V. Ilovalar:

-Ishchi fan dasturi.....	154
-Tarqatma materiallar.....	162
-Testlar.....	174
-“ Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezonini.....	180

VII. Adabiyotlar ro'yhati.....

I.NAZARIY MATERIALLAR

1-MAVZU. «IQTISODIYOT NAZARIYASI» FANINING PREDMETI. IQTISODIY TIZIMLAR

REJA:

1. Iqtisodiyot nazariyasi qanday fan va u nimani o`rganadi?
2. Iqtisodiy kategoriyalar va qonunlar.
3. Iqtisodiyot nazariyasining tahlil uslublari.
4. Iqtisodiyot nazariyasi va boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog`liqligi
5. Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarning mohiyati va turlari.
6. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari va ularni bilishga bo`lgan yondashuvlar.
7. Iqtisodiy tizimlar va ularning turli modellari.

Tayanch iboralar

Iqtisodiyot nazariyasi; iqtisodiy kategoriyalar; umumiy iqtisodiy kategoriyalar; formatsion-maxsus kategoriyalar; davriy-oraliq kategoriyalar; iqtisodiy qonunlar; induktiv va deduktiv usullar; umumiy iqtisodiy fanlar; xususiy iqtisodiy fanlar. Moddiy ehtiyojlar; ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar; mehnat ehtiyoji; ehtiyojlarning yuksalishi; ehtiyojlarni qondirish vositasi.

Iqtisodiyot nazariyasi qanday fan va u nimani o`rganadi?

Iqtisodiyot nazariyasi qadimgi fanlardan biri hisoblanadi. U doim olimlar va ziyoli kishilar diqqatini jalb qilib kelgan. Buni shu bilan izohlash mumkinki, iqtisodiyot nazariyasini o`rganish-bu barcha davrlarda - Aristotel va Ksenofontdan tortib to bugungi kunga qadar – kishilar iqtisodiy faoliyati va xo`jalik yuritish qonunlarining harakatlantiruvchi kuchlarini bilishning ob'ektiv zaruriyatini amalga oshirishdir.

Iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlari va usullarini tahlil qilish shuni ko`rsatadiki, moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish va ularning iste'molida diniy tushunchalar, odamlarning imon-e'tiqodi katta ta'sir kuchiga ega. Islomning asosiy manbai «Qur'oni Karim» oyatlari bandalarni har jihatdan poklikka, imon basalomatligiga chorlaydi. Bu muqaddas kitobning 293 ta oyati bevosita iqtisodiy tafakkurga bag`ishlangan.

«U (Alloh) sizlarga erni bo`ysundirib qo`ygan zotdir. Bas, uning turli joylarida yuring va (Allohnin) rizqidan eng...»¹

Iqtisodiyot nazariyasi fanining shakllanish va rivojlanishidagi birinchi bosqichi - bu merkantilizmning yuzaga kelishidir.

Merkantilistlar ta'limotining mohiyati boylikning yuzaga kelishi manbaiga berilgan ta'rifdan iborat (ularning xizmati shundaki bu to`g`rida birinchi bo`lib fikr bildirganlar). Biroq ular bu masalani noto`g`ri talqin qilganlar, chunki boylikning manbaini muomala sohasidan keltirib chiqarganlar, boylikni esa pul bilan tenglashtirganlar.

Siyosiy iqtisodning rivojlanishidagi yangi bosqich fiziokratlar timsolida ko`rinadi, ular yirik er egalari manfaatlarini himoya qiluvchilar bo`lib maydonga kelganlar. Mazkur yo`nalishning bosh vakili va tashkilotchisi Fransua Kene (1694-1774) dir. U ishlab chiqqan ta'limotning cheklanganligi shundan iboratki, bunda boylikning manbai faqat dehqonchilikdagi mehnat deb hisoblanadi.

A.Mansurov. «Qur'oni Karim» ma'nolarining tarjimasi, «MulK» surasining 15-oyatidan.

Iqtisodiyot fan A.Smit (1723-1790) va D. Rikardo (1772-1823) asarlarida yanada rivojlantirildi. A.Smit iqtisodiy fikrlar tarixiga mumtoz (klassik) siyosiy iqtisodning asoschisi sifatida kirib keldi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab marjinalizm deb atalgan oqim vujudga kelib, shakllana boshladi. (Inglizcha soʻzdan olingan va «oxirgi qoʻshilgan» – degan maʼnoni beradi). Uning asoschilari Avstriya iqtisodiy maktabining namoyondalari Karl Menger, Fon Vizer, Bem Bavrek va boshqalar boʻlib, ular tomonidan «qoʻshilgan tovar nafligi, qoʻshilgan mehnat yoki resurs unumdorligi» – degan nazariyalar ishlab chiqildi. Marjinalizm nazariyasi aniq olingan tovarga boʻlgan talab va uning bahosi oʻrtasidagi bogʻliqlik hamda oʻzaro taʼsirni tahlil qilishda keng qoʻllaniladi.

Iqtisodiyot nazariyasining yana bir muhim yoʻnalishlaridan biri monetarizm deb ataladi. Uning asoschisi – Milton Fridman.

Markaziy Osiyoda iqtisodiy fikrlarning rivojlanishi Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va boshqa dunyoga mashhur olimlar nomlari bilan bogʻliq.

Ularning asarlarida iqtisodiy fikrlar hali falsafiy va butun ijtimoiy bilimlar majmuidan ajralmagan boʻlsa-da, katta ahamiyatga ega edi.

Forobiy va Ibn Sino qarashlarida insonning ehtiyojlari toʻgʻrisidagi taʼlimot markaziy oʻrin egallar edi.

Iqtisodiyot fanining tarixiga qilingan oʻziga xos sayohat natijasida uning asosiy maktablari va yoʻnalishlari bilan tanishuvdan soʻng iqtisodiyot nazariyasining predmetiga taʼrif berish mumkin.

Iqtisodiyot nazariya - kishilarning cheklanmagan ehtiyojlarini toʻlaroq qondirish maqsadida cheklangan resurslardan foydalanishning eng samarali yoʻllarini izlash sharoitida kishilik jamiyati rivojlanishining qonunlari va qonuniyatlarini oʻrganish bilan shugʻullanuvchi fandir.

Iqtisodiyot nazariyasi fani ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi toʻgʻrisidagi fan boʻlib, uning predmeti ishlab chiqarish munosabatlaridir.

Ishlab chiqarish munosabatlari-bu hayotiy neʼmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va isteʼmol qilish jarayonida kishilar oʻrtasida obʼektiv yuzaga keladigan munosabatlar.

Iqtisodiyot nazariyasi tarkiban oʻz ichiga mikroiqtisodiyot (alohida iqtisodiy subʼektlarning xatti-harakati) va makroiqtisodiyot (butun milliy iqtisodiy tizim xatti-harakati va amal qilishi)ni oladi. Uning tarkibida yana mezoiqtisodiyot (milliy iqtisodiyotning alohida kichik tizimlari yoki xalq xoʻjaligi tarmoqlari xatti-harakati) va supermakroiqtisodiyot (butun jahon iqtisodiyotining xatti-harakati)ni ajratib koʻrsatish mumkin.

Iqtisodiyot nazariyasining asosiy vazifasi-iqtisodiy hodisalarning shunchaki talqinini berish emas, balki ularning oʻzaro bogʻliqligi va oʻzaro aloqadorligini koʻrsatish, yaʼni iqtisodiy hodisalar, jarayonlar va qonunlar tizimini yoritib berishdan iborat. Shu bilan u boshqa aniq iqtisodiy fanlardan farq qiladi.

Iqtisodiy kategoriyalar va qonunlar.

Iqtisodiyotda turli hodisalar, jarayonlar, ular o'rtasidagi aloqalar o'rganilganda, ular konkret sharoitda (masalan, korxonada) tekshirilmaydi, balki umumnazariy, ya'ni qonun-kategoriyalar darajasida ilmiy jihatdan izohlab beriladi.

Har bir fan o'z predmetini kategoriyalar yordamida tekshiradi.

Iqtisodiy kategoriyalar – bu iqtisodni o'rganishda qo'llanadigan nazariy tushunchalar bo'lib, ular real iqtisodiy voqelikning ilmiy in'ikosi, ifoda etilishidir.

Kategoriyalar – ilmiy fikrlash mahsulidir. Ularni kundalik hayotda uchraydigan tushunchalardan farqlash zarur. Masalan, kundalik hayotda bozor deganda, ko'pchilik yig'ilib savdo qilinadigan joy tushuniladi. Nazariyada esa bozor deganda joy emas, pul yordamida ayirboshlash, ya'ni kishilar o'rtasida oldi-sotdi munosabatlari anglanadi. Nazariyada kategoriyalar guruhlariga bo'linib o'rganiladi:

Umumiqtisodiy kategoriyalar– iqtisodiy taraqqiyotning hamma bosqichlariga xos bo'lgan, lekin ijtimoiy-iqtisodiy sistemaga aloqasi bo'lmagan umuminsoniy munosabatlarni ifodalovchi kategoriyalar.

1. Formatsion-maxsus kategoriyalar– iqtisodiy taraqqiyotning muayyan tarixiy bosqichiga xos bo'lgan, ijtimoiy-iqtisodiy sistemaning tabiatiga aloqador, o'tkinchi munosabatlarni ifodalovchi maxsus kategoriyalar.

2. Davriy-oraliq kategoriyalar – umuminsoniy xarakterdagi, lekin bir necha iqtisodiy sistemalar sharoitida amal qiluvchi, uzoq tarixiy davrda saqlanuvchi, ammo o'tkinchi mazmundagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi kategoriyalar.

Iqtisodiyot nazariyasida iqtisodiy hodisalarning belgilari umumlashtirish asosida qonunlarda ta'riflanadi. Iqtisodiy qonunlar – iqtisodiy jarayonlarning turli muhim tomonlari o'rtasidagi muhim takrorlanib va yuzaga kelib turadigan uzviy iqtisodiy zaruratni taqozo etuvchi sabab-oqibat, aloqa bog'lanishlaridir.

1. Umumiqtisodiy qonunlar – jamiyat taraqqiyotining hamma bosqichlarida, iqtisodiyotning aniq ijtimoiy shaklidan qat'i nazar amal qiluvchi qonunlar.

2. Formatsion-maxsus qonunlar – maxsus iqtisodiy qonunlar – faqat muayyan ijtimoiy – iqtisodiy tizim doirasida amal qiluvchi, shu tizimning o'ziga xos xususiyatlarini ifoda etuvchi qonunlar.

3. Davriy-oraliq qonunlar – bu turli ijtimoiy-iqtisodiy sistemada, ammo ma'lum davrda amal qiluvchi sistemalarning maxsus tuzumiga aloqasi bo'lmagani holda, ularni birlashtirib bog'lab turuvchi munosabatlarga xos qonunlar.

Iqtisodiyot nazariyasi kategoriya va qonunlarni ular qaysi guruhga mansub bo'lmasin, yaxlitlikda olib qaraydi, qonunlarni bir tizimda o'zaro ta'sir ostida amal qilishini hisobga oladi. Kategoriya va qonunlar tizimi – iqtisodiyotga xos bo'lgan barcha, bir-birini taqozo etuvchi qonunlar va kategoriyalar majmuasidir. Iqtisodiyot nazariyasining tahlil uslublari Iqtisodiyot nazariyasi hodisalarni bilishga bag'ishlangan umumfalsafiy usullarni qo'llaydi. Eng avval iqtisodiyotni aks ettiruvchi, uni talqin etishga yordam beruvchi ma'lumotlar (faktlar) jamlanib baholanadi. Jamlangan ma'lumotlarga bir qator umumiy tarzda baho beriladi. Natijada dastlabki sinab ko'rilmagan xulosa-gipoteza olg'a suriladi. Faktlarni tartiblab xulosaga kelishda abstraktsiyalash usuli asosiy usul bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiyot nazariyasi tabiiy-texnikaviy fan emaski, u o'z gipotezalarini tajribalar yoxud laboratoriya tahlili orqali tekshirib ko'rsa. U ijtimoiy fan, u iqtisodiyotdagi g'oyat ko'p qirrali, chirmashib ketgan aloqa-bog'lanishlarga duch keladi. Abstraktsiyalash-bu iqtisodiyotning nazariy modelini yaratishdir. Iqtisodiyot nazariyasi predmetini o'rganishdagi uchinchi bosqich nazariyani iqtisodiy siyosat bilan bog'lashdir. Nazariya iqtisodiyotga qanday tendentsiyalar xos bo'lishi, uning

qanday omillari ta'sirida rivojlanishi, unda qanday o'zgarishlar bo'lishini bashorat eta oladi. Shu sababli nazariya – iqtisodiy siyosatning ilmiy asosi deb aytish mumkin. Siyosat deganda nafaqat davlatning umummilliy, umumjamiyat miqyosidagi siyosatni, balki ayrim korxona, firmaning Seminaroti dasturini, uning qanday xatti-harakatga qo'l urishini ham tushunmoq zarur. Nazariyada induktiv va deduktiv usullar ishlatiladi. Induktiv usul deganda empirik bilimdan abstraktsiyaga o'tib, nazariy xulosalar chiqarish, so'ngra ulardan iqtisodiy siyosatga o'tishni tushunish kerak. Deduktiv usuli qo'llanganda nazariyadan iqtisodiy faktlar tahliliga o'tiladi. Bunda olg'a surilgan xulosa qaytadan faktlar asosida tekshirib ko'riladi. Har ikkala usul bir-birini to'ldiradi. Nazariy xulosalar ikki - makro va mikro darajadagi iqtisodiy tahlildan kelib chiqadi. Iqtisodiyot o'rganilganda miqdor va sifat tahlili qo'llanadi. Iqtisodiyot nazariyasida qonuniyatlarni bayon etish uchun egri chiziq chizmalari, statistik jadvallar qo'llanadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Iqtisodiyot nazariyasi qanday fan va u nimani o'rganadi?
2. Iqtisodiy kategoriya va qonunlar tizimi nima?
3. Iqtisodiyotni o'rganishda qanday tahlil usulidan foydalaniladi?
4. Iqtisodiy fanlar qanday guruhlariga bo'linadi?
5. Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar qanday turlarini bilasiz?
6. Ehtiyojlar yuksalishining 4 jihatini izohlab bering.
7. Ehtiyojlarning miqdoran ortib borishi nimani taqozo etadi?
8. Ehtiyoj tarkibining yangilanishi nimani talab qiladi?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. SHavkat Mirziyoev. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birkalikda barpo etamiz"- T: "O'zbekiston" 2016.
2. SHavkat Mirziyoev "Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini Ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" 2016 yil 7 dekabr: T, "O'zbekiston" 2017.
3. SHavkat Mirziyoev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz". T., "O'zbekiston" 2017 .
4. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T. «O'zbekiston», 1995, 226-235-b.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, taraqqiyot shartlari va kafolatlari. T. «O'zbekiston», 1997, 164-202-b.
6. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.: «O'zbekiston», 2000.
7. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: «O'zbekiston» 2005.
8. Shodmonov Sh.Sh., Alimov R.H., Jo'raev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: «Moliya» nashriyoti, 2002. I-bob, 8-33-b.
9. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma'ruzalar matni G`Mualliflar jamoasi.-TDIU. IPO "Polipaper", 2005
10. Osnovo` ekonomicheskoy teorii. Politekonomiya: Uchebnik G` Pod red. d-ra ekon. nauk, prof. D.D.Moskvina. Izd. 3-e, ispravl. – M.: Editorial URSS, 2003, s.11-28.
11. Ekonomika: Uchebnik. 3-e izd., pererab. i dop. G` Pod red. d-ra ekon. nauk prof. A.S. Bulatova. – M.: Ekonomist', 2005, s.27-34..

2-MAVZU. MULKCHILIK, TOVAR VA PUL MUNOSABATLARINING SHAKILLANISHI.

Reja:

1. Mulkchilik munosabatlarining mohiyati.
2. Mulk ob'ektlari va sub'ektlari.
3. Mulk turlari.
4. Xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish.
5. Natural va tovar ishlab chiqarish.
6. Tovar va uning xossalari.
7. Pulning vujudga kelishi, mohiyati va asosiy vazifalari.
8. Qiymat qonuni

Tayanch iboralar

Ijtimoiy-iqtisodiy tizim; monostrukturali tizim; poliiqtisodiyot; aralash iqtisodiyot; ko`p ukladli iqtisodiyot. 1-Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning umumiy belgilari

Har bir tizim ma'lum davrda amal qilib, o`z imkoniyatlarini tugallagach, uning o`rniga yangi tizim keladi, u ham eskirib o`z o`rnini boshqasiga bo`shatib beradi. Tizim – bu jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi, uni tashkil etuvchi, bir-birini taqozo etuvchi, o`zaro ta'sir o`tkazuvchi unsurlarning majmui bo`lib, bunda unsurlar birgalikda amal qiladi, natijada ayrim unsurlarga xos bo`lmagan umumiy xususiyatlar paydo bo`ladi. Tizim – bu har xil unsurlar ta'sirida paydo bo`ladigan umumiylikdir. Tizim tarkibiga ishlab chiqarishning shaxsiy-insoniy va moddiy-ashyoviy omillari kiradi, ularning bir-birini taqozo etishga asoslangan yaxlitligi jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari deb yuritiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimga iqtisodiy faoliyat natijasi bo`lgan ijtimoiy, ya'ni jamiyat miqyosida yaratilgan mahsulot ham kiradi. Hamma tizimlarda mehnat taqsimoti yuz berib, mehnat, birinchidan, ixtisoslashadi; ikkinchidan, mehnat turlari bir-biri bilan bog`lanib, bir-birini to`ldiradi. Natijada mashg`ulot jamiyatdagi o`zaro bog`langan mehnat turlarining natijasi bo`ladi. Hamma tizimlarda mehnat turlari o`rin almashadi, kishilar bir mehnatdan boshqa mehnatga o`tadilar, o`z kasbini o`zgartiradilar. Qaerda bo`lmasin mehnat malaka va mahoratni talab qiladi. Turli tizimlarda, ularni tashkil etuvchi unsurlar bir xil bo`lsa-da, ularning o`zaro bog`lanishi har xil bo`ladi. Shunday bog`lanishlar orasida ishlab chiqarish omillarining birikishi mulkiy munosabatlarni yuzaga keltiradi. Tizimda omillarning birikish usuli asosiy o`rin tutadi, shu jihatdan tizimlar farqlanadi. Turli tizimlarga baho berilganda ularning xalq farovonligi uchun nima bera olganligi bosh mezon bo`ladi. Hozirgi taraqqiyot bosqichida turli tizimlarning samarali ekanligini xalq farovonligining o`sishi ko`rsatib turadi. Farovonlikni oshirish, bilish qobiliyati tizimning yashovchanligi yoki uning boshqasi bilan almashuvi zarurligini bildiradi.

2- Ijtimoiy-iqtisodiy tizim turlari

Insoniyat taraqqiyoti turlicha ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar doirasida kechadi, ularning o`rtasida: albatta, muhim farqlar bor. Turli tizimlar tahlil etilganda, ularni farqlantiruvchi mezonlar asos qilib olinadi, bular ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasi, mulkiy munosabatlarning xarakteri, xo`jalik-iqtisodiy aloqalar mazmuni, xalq iste'moli darajasi, sinfiy belgilar va h. k. Tizimlar turli nazariyalarda har xil mezon asosida tabaqalashtiriladi. Marksizm nazariyasida mulkiy-sinf mezonlar asos qilinib, tizimlar formatsiya deb qaraladi. Marksizm ta'limotiga ko`ra besh formatsiya mavjud: ibtidoiy-jamoa tuzumi, quldorlik, feodalizm, kapitalizm va nihoyat kommunizm. Asrimizning 60-yillarida marksizمنى almashtira oladigan ta'limot sifatida «rivojlanish bosqichlari» nazariyasi paydo bo`ldi. Mazkur nazariya tizimlarni tahlil etishda ishlab chiqaruvchi kuchlarning etuklik darajasini mezon qilib oladi. Bu nazariya mualliflari jamiyatni ikki tipga bo`lishadi: an'anaviy jamiyat, industrial jamiyat. Shunga monand ravishda iqtisodiy rivojlanishning olti bosqichi

ajratiladi: traditsion jamiyat, o`tkinchi jamiyat, industrial jamiyatga o`tish, industrial jamiyat, ommaviy iste'mol jamiyati, yangi turmush sifati bor jamiyat.

Mulkiy jihatdan qaraganda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni ikki toifaga ajratish mumkin.

1. Monostrukturali (bir tarkibli) tizimlar. Bu tizimlarning asosiy belgisi bir mulk shaklining hukmron bo`lishidir. Bu erdagi mulkiy monopoliya xususiy mulk yoki davlat mulkining hukmronligi bilan ajralib turadi. Yakka mulkka tayangan iqtisod monotizim yoki monoiqtisodiyot bo`ladi.

2. Turli-tuman mulk shakllariga tayangan, ayrim mulk shaklining ustivorligini inkor etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar. Ularni politizm, ularga xos iqtisodni poliqtisodiyot deyish mumkin. Bunday tizimda mulkiy muvozanat hosil bo`ladi, hamma mulk shakllari rivojlanish sharoiti bir xil bo`ladi. U har qanday monopoliyani inkor etadi. Poliiqtisodiyot mazmunan aralash iqtisodiyotdir. Monoiqtisodiy tizim tarixan muqarrar bo`lganidek, uning o`rniga poliiktisodiy tizimning kelishi ham zaruratdir.

3- Mulkchilik munosabatlarining mohiyati

Islomda mulk tushunchasi, uning mohiyati odamlar qo`lidagi boylik – bu Allohning boyligi, insonlar esa uning faqat erdagi boshqaruvchilari degan tushunchaga asoslanadi.

«Qo`lida mulk bo`lgan zot (Alloh) ulug`, muqaddas bo`ldi. U barcha narsaga qodirdir».

Har qanday jamiyatning iqtisodiy tizimi mulkchilikdan boshlanadi. Mehnat orqali avloddan-avlodga o`tgan boyliklar va tabiat in'om etgan boyliklar mulk bo`lib kelgan. Mulk egasi bo`lish yoki bo`lmaslikka qarab, kishilarning jamiyatdagi mavqei, ularning ijtimoiy maqomi yuzaga keladi. Iqtisodiyot doimo mulkiy munosabatlarga asoslanadi. Mulkchilikning qay darajada rivojlanganligi mamlakat iqtisodiy ravnaqini ko`rsatib beradi. Mulkchilik munosabatlari - jamiyatdagi boyliklarni o`zlashtirish xususidagi iqtisodiy munosabatlar. Mulkchilik, birinchidan, inson bilan boylik o`rtasidagi munosabat, ikkinchidan, boylik yuzasidan kishilar o`rtasidagi munosabat. Mulkchilik o`zlashtirish borasidagi munosabat bo`lar ekan, u egalik qilish, foydalanish va tasarruf etishning yaxlitligini taqozo etadi. Mana shu uch jihat mulkchilikning ajralmas unsurlaridir. Egalik qilish - mulkdorlik xuquqining mulk egasi qo`lida saqlanib turishidir. Egalik sharoitida mulk bo`lgan boylik qisman o`zlashtiriladi. Mulkka egalik saqlangan xolda, uni amalda ishlatish o`zga qo`lida bo`ladi. Buning oqibatida mulkdan kelgan naf ikki qismga ajraladi: bir qismini mulkdor, ikkinchisini mulkni amalda ishlatuvchi o`zlashtiradi. Foydalanish, ishlatish-mulk bo`lgan boylikni iqtisodiy faoliyatda qo`llab, xo`jalik jarayoniga kiritib, undan natija olish. Foydalanish yuz berganda boylik daromad topish yoki shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun ishlatiladi. Mulkdor o`z mulkini o`zi ishlatganda egalik qilish va foydalanish bir qo`lda bo`ladi. Ya'ni mulkdor mehnatidan topgan foydani o`zi o`zlashtiradi. Tasarruf etish - mulk bo`lgan boylik taqdirini mustaqil hal etish, ya'ni mulkni sotib yuborish, ijaraga berish, merosga qoldirish, asrab-avaylab ko`paytirish yoki uni yo`qotib yuborishdan iborat xatti-harakatlarni amalga oshira bilishdir.

Mulkdor o`z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo`lmagan har qanday xatti-harakatlarni qilishga haqlidir. U mulkdan qonun bilan taqiqlanmagan har qanday xo`jalik yoki boshqa faoliyatni amalga oshira oladi.

4- Mulk ob'ektlari va sub'ektlari

Mulkchilik munosabati o`zining ob'ekti va sub'ektiga ega. Mulkchilik ob'ekti - bu mulkka aylangan barcha boylik turlari. Unga er, suv, konlar, o`simlik va hayvonot dunyosi, mashinalar, mashina-uskunalar, imoratlar va inshootlar, moddiy va madaniy buyumlar, pullar, qimmatli qog`ozlar, mahsulotlar-xizmatlar, tarixiy yodgorliklar, ilmiy-texnikaviy g`oyalar, tovar belgilari, tovarlarning o`zi, insonning unumli va ijodiy mehnat qilish qobiliyati kiradi. Mana shu moddiy va nomoddiy ne'matlarni o`zlashtirish yuzasidan mulkiy aloqa shakllanadi. Ne'matlar mulkka aylangandagina o`zlashtiriladi. Mulkchilik sub'ekti - mulk ob'ektini o`zlashtirishda qatnashuvchilar, mulkiy munosabatlarning ishtirokchilari. Bular jumlasiga davlat, jumhuriyat fuqarolari, jamoalar,

ularning uyushmalari, jamoat va diniy tashkilotlar, fuqarolarning oilaviy va boshqa birlashmalari, xalq deputatlarining barcha kengashlari ularning vakil qilgan organlar siymosida, ajnabiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar, boshqa xorijiy yuridik shaxslar va fuqarolar kiradi. Turli yuridik shaxslar va fuqarolar bitta mulkning subektlari bo'lishi mumkin. Aytilgan sub'ektlarga qarab o'zlashtirish individual, oilaviy, ijtimoiy-sinfii, hududiy va umummilliy tus oladi. Ijtimoiy tabaqalashgan jamiyatda o'zlashtirish uning darajasi va usuliga qarab har xil bo'ladi.

O'zlashtirish ikki xil bo'ladi:

- 1) ishlab chiqarish resurslari, ya'ni vositalarni o'zlashtirish;
- 2) ishlab chiqarish natijalarini o'zlashtirish.

Ishlab chiqarish resurslarini o'zlashtirishda moddiy va mehnat resurlari ishlab chiqarish sohibining mulkiga aylangandan so'ng o'zlashtiriladi. Ishlab chiqarishdagi o'zlashtirish birlamchi. Bu erda ishlab chiqarishning har ikkala omili (moddiy va inson omillari) birikadi, mahsulot va xizmatlar yaratiladi. Mana shu omillarning o'zlashtirilishiga qarab, mehnat natijalariga nisbatan mulk shakllanadi.

Jamiyatda kishilarning mulkiy maqomiga qarab, manfaat to'rt guruhga bo'linadi:

1. Individual manfaat mulk egasining shaxsan o'ziga tekkan daromadda ifodalanadi;
2. Korporativ-guruhiy manfaat mulk egasi bo'lgan jamoaning hamjihatlik bilan o'zlashtiradigan daromadi orqali yuzaga chiqadi;
3. Umumdavlat manfaati. Buni davlat byudjeti daromadlari ifodalaydi;
4. Milliy manfaat. Milliy manfaat-jamiyatdagi milliy boylikning ko'payishini bildirib, individual, guruhii va umumdavlat manfaatlarining birligidan iborat.

Shu to'rttala manfaatlarning zahirida xususii, jamoa, davlat va millii mulk yotadi. Mulkning xarakteri va miqyosiga qarab, uni realizatsiya qilinadi, ya'ni amalga oshiriladi. Uning quyidagi usullari mavjud:

1. O'z mulkini kapital sifatida ishlatib, o'zgalar mehnatini qo'llab, tadbirkorlik qilish orqali foyda olish.
 2. O'z mulkini ijaraga berib, ijara haqi olish.
 3. Chayqovchilik qilish orqali daromad topish.
 4. O'z mulkiga tayangan holda mehnati bilan daromad topish, o'z mehnatiga asoslangan xo'jalik yuritish yo'li bilan pul topish.
 5. Pul shaklidagi o'z mulkini qarzga foiz hisobida berish.
 6. Yollanib ishlash orqali o'z mulki bo'lgan ish kuchidan daromad topish, ya'ni ish haqi olish.
- Demak, mulk o'z egasiga naf, foyda keltiradi.

5-Mulk turlari

Mulkiy munosabatlar turli tip, shakl va turdagi mulkni o'z ichiga oladi. Mulk shakllari - bu o'zlashtirishning xarakteridir, ya'ni uning ko'rinishi, qiyofasi majmuidir. O'z mehnati evaziga o'zlashtirish, o'zgalar yaratgan boylikni tekinga o'zlashtirish, yakka tartibda, jamoa bo'lib, sherikchilik asosida o'zlashtirish borki, ular mulkchilikning har xil shakllarini bildiradi. Xususii mulk - ayrim kishilarga tegishli va daromad topishga qaratilgan mulk. Uning ikki ko'rinishi mavjud; 1) individual-xususii mulk; 2) korporativ-xususii mulk. Individual mulk bor joyda boylikni o'zlashtirish alohidalashgan holda, ayrim mulkdor tomonidan amalga oshiriladi. Korporativ-xususii mulk deganda- boylikni individual tarzda o'zlashtirish, lekin mulkdorlar sherikchilik asosida ma'lum guruhlariga birlashgan sharoitda o'zlashtirish tushuniladi. Xususii mulkdan tashqari shaxsii mulk ham borki, u ham individual o'zlashtirishni bildiradi. Ammo u

xususiy mulkdan farqliroq daromad topishga xizmat qilmaydi, balki shaxsiy ehtiyojni qondirishga qaratiladi. Jamoa mulki-boylikning muayyan maqsad yo'lida ayrim jamoalarga birlashgan kishilar tomonidan birgalikda o'zlashtirilishidir. Jamoa mulki mayda mulk egalari ko'ngilli tarzda va o'z manfaati yo'lida turli jamoalarga birlashuvi orqali yuzaga keladi, uning ob'ekti moddiy-ma'naviy boyliklar, sub'ekti esa jamoa a'zolaridir. Jamoa mulkining ko'payishi ikki yo'l bilan boradi: 1) jamoaga yangidan kirgan kishilar bergan, ular hissasining umumiy mulkka kelib qo'shilishi; 2) jamoa olgan daromad bir qismining moddiylashtirib, mulk ob'ektiga qo'shilishi. Kooperativ mulki-jamoa mulkining asosiy turi, har xil kooperativlarga birlashgan kishilarning umumiy mulki, mulkdagi hissadorlikka asoslangan bo'lib, guruh mazmunga ega. Ijaraga olingan korxona jamoasi mulki - ijarachilar jamoasi o'zi ishlab topgan mulk. Bunday korxonada mulk ikki qismdan iborat: 1) korxona egasiga qarashli mulk; 2) jamoaga qarashli umumiy mulk. Korxona jamoasining mulki - ishchi va xizmatchilar jamoasi davlatdan yoki xususiy mulk sohibidan sotib olgan va umumiy lashtirib, birgalikdagi o'zlashtiriladigan mulk. Korxona va tashkilotlar uyushmasi (assotsiatsiyasi) mulki - ma'lum maqsad yo'lida uyushma tashkil etganlarning umumiy mulki. Ijtimoiy tashkilotlar mulki - ijtimoiy tashkilotlar partiyalar, kasaba tashkilotlari, xalq harakatlari, turli fondlar va boshqalarga a'zo bo'lgan va o'z ulushini qo'shgan kishilarning umumiy mulkidir. Diniy tashkilotlar mulki - dindorlar tashabbusi bilan vujudga kelgan tashkilotlarning mol-mulki. Mahalla mulki-mahalla ahlidan iborat jamoa doirasida unga qarashli boylikni hamjihatlik bilan o'zlashtirishdir. Davlat mulki- boylikni o'z vazifasini ado etish uchun davlat tomonidan o'zlashtirilishidir. Bu mulk davlat paydo bo'lishi bilan vujudga keladi, ammo uning maqsadi va miqyosi o'zgarib turadi. Davlat mulkining paydo bo'lishi va rivojlanishi quyidagilar hisobidan bo'ladi: 1) mulkning milliy lashtirilishi; 2) davlat mablag'i hisobidan korxonalar qurilishi; 3) jamiyatda yaratilgan, ammo boshqa mulklarga taalluqli daromadlar bir qismining soliq undirish orqali davlat byudjetiga olinishi. Turli shakldagi mulklar bir-biridan tamomila ajralib qolmaydi, ularning o'zaro aloqasi faqat bozor orqali bo'lmay, ular kirishib ham ketadi, natijada aralash mulk paydo bo'ladi. Aralash mulk muayyan bir ob'ektning turli mulkdorlar ishtirokida o'zlashtirilishini bildiradi. U hozirgi ochiq tipdagi qorishma aksioner kompaniyalarida aniq ifoda etiladi. Bu erda xususiy mulk, jamoa mulki va hatto xorijiy mulk hissadorlik asosida birlashadi. Mulk ob'ekti birlashgan holda ishlatilib, o'z egalari daromad keltiradi.

6-Xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish

Mulkiy munosabatlarda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish muhim o'rin tutadi. Davlat tasarrufidan chiqarish - davlat korxonalarini va tashkilotlarini jamoa, ijara korxonalariga, aksiyali jamiyatlarga, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga, davlatga qarashli mulk bo'lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirishdir.

Xususiylashtirish - fuqarolarning va davlatga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxslarning davlat mulki ob'ektlarini yoki davlat aksiyali jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishdir.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning asosiy qonun-qoidalari:

- ◆ davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish vaqtida mulkni pulli va pulsiz topshirishni qo'shib olib borish;
- ◆ pulsiz va pulli xususiylashtiriladigan mulkdan ulush olishda fuqarolar tengligi;
- ◆ davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish sharoitida barcha fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinishini ta'minlash;
- ◆ davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tadbirlarini amalga oshirish ustidan davlat va jamoat nazoratini yo'lga qo'yish;

♦ monopoliyaga =arshi =onunlar talablariga rioya etish.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish shakllari quyidagilardan iborat: davlat korxonasi, jamoa korxonasining aktsiyali jamiyatga yoki shirkatga hamda davlat korxonasining ijara korxonasiga aylantirilishi. O'zbekiston Respublikasida davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish quyidagi shartlarga rioya etgan holda amalga oshiriladi:

♦ davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish shakllarini mehnat jamoalarining mustaqil aniqlanishi;

♦ davlat tasarrufidan chiqarilayotgan va xususiylashtirilayotgan korxonalar mehnat jamoalarining ijtimoiy jihatdan muhofaza qilinishini ta'minlash;

♦ boshqa respublikalar va xorijiy davlatlarning ijtimoiy va yuridik shaxslari davlat tasarrufidan chiqarilgan hamda xususiylashtirilayotgan ob'ektlarni, ularning aktsiyalarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi tomonidan yoki u vakil qilgan idora tomonidan belgilanadigan kvotalar bo'yicha sotib oladilar;

♦ davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning to'la oshkoraligi hamda bu xaqda axborot e'lon qilish, ularni korxonalar xodimlari tomonidan, kasaba uyushmalari va boshqa ijtimoiy tashkilotlar tomonidan nazorat qilish.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish ob'ektlarini sotish tartibi, narxi, bitimlarni rasmiylashtirish tartibi, mablag'i 1991 yil 19 noyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi qonun»da batafsil bayon etilgan. O'zbekistonda tovar-pul munosabatlari rivojlanayotgan va boshqariladigan bozor sharoitida mulkchilikning barcha shakliga mansub korxonalarni barpo etish, ular faoliyatini yuritish, qayta tashkil etish va tugatishning umumiy xuquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslarini belgilab beruvchi «O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar to'g'risidagi qonun» mavjud. Qonun foyda olishni ko'zlab ish olib boradigan korxonalarning mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ularning huquqlari va mas'uliyatini belgilaydi, boshqa korxonalar va tashkilotlar, xalq deputatlari Kengashlari, davlat boshqaruvi idoralari bilan munosabatlarini tartibga soladi.

1-Natural va tovar ishlab chiqarish

Avvalo bu mavzuni o'rganishni biz tovar-pul munosabatlari nima? degan savolga javob berishdan boshlaymiz. Tovar-pul munosabatlari-bozor iqtisodiyoti mohiyatini tashkil etuvchi munosabatlar: tovar ishlab chiqarish, tovarlarni ayriboshlash va pul muomalasiga xos munosabatlarning yaxlitligidir. Kishilik jamiyati rivojlanishida tovar ishlab chiqarishdan oldin natural ishlab chiqarish mavjud bo'lgan. Natural ishlab chiqarish tarixan ibtidoiy jamoa tuzumida mavjud bo'lgan, ammo u hozirda ham primitiv tipdagi an'anaviy iqtisodiy tizimlarda ham mavjud bo'lishi mumkin. Natural xo'jalikda mahsulotlar bozorda sotish uchun emas, balki xo'jalikning o'zida uning xodimlari va yaratuvchilari iste'moli uchun ishlab chiqarilgan. Natural ishlab chiqarish alohidalashgan xo'jaliklardan iborat bo'lgan. Bu esa natural ishlab chiqarishga chegaralanganlik xos ekanligini ko'rsatadi va iqtisodiy jarayonlarni bir doirada qat'iy mahdudlab qo'ygan, tashqi aloqalarning shakllanishiga yo'l qo'ymagan. Natural xo'jalikda xom ashyoni topishdan tortib, mahsulotni tayyor xolga keltirishgacha bo'lgan ishlarni alohida xo'jaliklarning o'zi bajargan. Ishlab chiqarish qo'l mehnatiga asoslangan. Bu esa natural xo'jalikka bir qancha asrlar davomida universal qo'l mehnati xos bo'lganligini ko'rsatadi. Ishlab chiqarishning natural shakli ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ishlab chiqarish munosabatlarining shunday darajasiga xosdirki, bunda ishlab chiqarishning asosiy maqsadi nihoyatda chegaralangan hamda hajmi katta bo'lmagan va tarkibi jihatidan deyarli bir xil bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga bo'ysundirilgan. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanib borishi natijasida natural ishlab chiqarishga nisbatan ishlab chiqarish unumdorligining o'sishiga mukammalroq ishlab chiqarish vositalarini qo'llashga sharoit yaratadigan tovar xo'jaligi vujudga kelgan, uning kurtaklari ibtidoiy jamoa tuzumining emirilishi davrida vujudga kelgan. Tovar ishlab chiqarish shunday xo'jalik tizimidirki, bunda mahsulot yakka, alohida ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqariladi va ularning har biri biron xil mahsulot

ishlab chiqarishga ixtisoslashadi, natijada ijtimoiy talabni qondirmoq uchun mahsulotni bozorda sotish va sotib olish zarur bo'ladi. Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi va mavjud bo'lishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari-ijtimoiy mehnat taqsimoti ishlab chiqaruvchilarning alohidalashuvi, ularning iqtisodiy mustaqilligidir. U yoki bu jamiyatda tovar ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, tutgan o'rnini, rivojlanganlik darajasi va amal qilish chegarasi shu jamiyatning mulkiy munosabatlariga va ishlab chiqarish ixtisoslashuvining teranlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Tovar bozorning asosiy unsurlaridan biri hisoblanadi. Tovar inson mehnati natijasida bozorda ayirboshlash uchun ishlab chiqarilgan mahsulot. U insonning ma'naviy, jismoniy, ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondiradi.

2- Tovar va uning xossalari

Tovar ikki xossaga ega:

a) iste'mol qiymati; b) qiymat.

Tovarning iste'mol qiymati mahsulotlarning foydali tomonidan kishilarning biron bir iste'molini qondira olish qobiliyatidan iborat va har qanday jamiyat boyligining moddiy mazmunini tashkil etadi. Tovar har doim mehnat mahsulidir, ammo tovar bo'lishi uchun bozorda ayirboshlanishi zarur. Demak, u almashuv qiymatiga ega. Tovarning almashuv qiymati nima?

Bir tovarning ikkinchi tovarga biror bir nisbatda ayirboshlanishiga uning almashuv qiymati deyiladi. Almashuv qiymati, qiymatning namoyon bo'luvchi shaklidir. Qiymatga asoslanib tovarlar hisoblanadi va bir-biriga ayirboshlanadi. Demak, tovar ikki xossaga: iste'mol qiymati va qiymatga ega. Tovar iste'mol qiymati va qiymatning birligidan iborat, ammo bu birlik ziddiyatlidir, bir vaqtning o'zida ikki yoqlama shaklga, ya'ni ashyoviy va qiymat shakliga ega. Tovar ishlab chiqaruvchilar qo'lida qiymat sifatida, sotib oluvchilar qo'lidaligida esa iste'mol qiymati sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham tovar sotilmasa, u qiymat sifatida tan olinmagan bo'ladi. Ushbu ziddiyat tovarlarni kerakligicha sifatli va arzon ishlab chiqarish orqali echiladi. Tovarning ikki xossasi borligiga sabab, unda gavalangan mehnatning ikki yoqlama xarakterga egaligidadir.

Masalan, kostyumda-yigiruvchilar, to'qimachilar, tikuvchilar; nonda-novvoy, traktorchi, tegirmonchi va boshqalar ishtirok etadilar. Agar har bir aniq iste'mol qiymatida masalan, kostyumda ma'lum aniq mehnat gavalansa, uning qiymatida ish kuchi sarfi sifatida umuman sarf qilingan inson mehnati gavalanadi. Aniq mehnat turlari bir-biridan farq qiladi. Masalan, tikuvchining mehnati novvoy mehnatidan farq qiladi, chunki birinchisi kostyum yaratadi, ikkinchisi esa non. Inson mehnatining umuman sarflanishi nuqtai nazaridan, ya'ni insonning jismoniy, ma'naviy, ruhiy energiyasini sarf etishi nuqtai nazaridan tikuvchi va novvoy mehnati bir xildir. Demak, tovarda gavalangan mehnat ikki yoqlama xarakterga ega. Birinchisi-aniq mehnat. Ikkinchisi, umuman insonning mehnati va aqliy energiyasining sarfi-abstrakt mehnat. Aniq mehnat tovarning iste'mol qiymatini, abstrakt mehnat tovarning qiymatini yaratadi.

3- Pulning vujudga kelishi, mohiyati va vazifalari

Islomda pul siyosatiga katta o'rin beriladi. Tanga pullarni ngmuomala vositasi sifatida ishlatilishi Qur'oni Karimda taqiqlanmasa ham oltin va kumushni jamg'arganlar azob-uqubatda bo'lishlari ta'kidlangan. Bir qancha islom olimlari (jumladan, G'azzoliy va Ibn Xaldun) oltin va kumushning pul, vosita sifatida ishlatilishi durust ekanligini aytishadi. Tovar qiymati ishlab chiqarishda vujudga keladi, ammo faqat bozorda bir tovarni ikkinchisiga tenglashtirish orqali aniqlanadi. Almashuv hozirgi zamon shakliga etib kelguncha bir qancha bosqichlarni bosib o'tadi. Qiymatning eng elementar shakli bir tovar qiymatining boshqa tovarda gavalanishidir. Qiymatning oddiy shakli ayirboshlashning endigina paydo bo'lgan davriga to'g'ri keladi: bu vaqtda u hali tasodifiy xarakterga ega bo'lgan. Masalan, 10 metr mato (2 qop g'alla. Bunda tovar ekvivalent rolini g'alla o'ynayapdi. Mehnat taqsimoti va tovar ishlab chiqarishning o'sishi almashinadigan tovarlar sonini ko'paytiradi, qiymatning to'la yoki kengaytirilgan shakli kelib chiqadi, almashish jamiyatda doimiy tus oladi. Endi tovar qiymati bir necha tovarlarning qiymatlari bilan ifodalanishi mumkin bo'ladi, ya'ni 2 ta qo'y (2 qop g'alla yoki 25 metr chit yoki 3 ta bolta kabi. Xalqlarda va tarixning turli bosqichlarida ekvivalent vazifasini turli tovarlar bajargan. Ishlab chiqarishning

yanada taraqqiy etishi, tovar almashuvining rivojlanib, savdo-sotiq ishlarining milliy doiradan chiqib ketishi, katta xalqaro bozorlarning paydo bo'lishi, yagona umumiy ekvivalent zaruriyatini keltirib chiqargan. Shu yo'sinda qiymatning pul shakli kelib chiqqan. Umumiy ekvivalent vazifasini oltin bajara boshlagan. Oltin pulga aylandi. Pul rolini tarixda boshqa materiallar ham (mis, temir, kumush) o'ynagan. Shunday qilib pul-o'ziga xos tovar, umumiy ekvivalentdir. Pulning vujudga kelishida asosiy sabab-tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi, mehnat taqsimotining chuqurlashuvidir, buning natijasida ortiqcha mahsulotni ayirboshlash zaruriyati vujudga kelgan. Pul esa ayirboshlashning eng qulay vositasi bo'lganligi sababli insonlar tomonidan qabul qilingan.

Pul quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Pul-qiymat o'lchovidir. Pul turli tovarlarning qiymatini o'lchab, miqdorini taqqoslab beradi. Tovarlar qiymatining pulda ifodalanishi tovarning bahosidir.

2. Pul-muomala vositasi. Tovar-pul muomalasi jarayonida pul naqd bo'lishi kerak, chunki uning yordamida tovarlar oldi-sotdi qilinadi. Tovarlarining pulga aylanishi tovar ishlab chiqaruvchining tovarni tayyorlashga sarflangan mehnati jamiyatga kerakli deb e'tirof etilganligini bildiradi. Shuning uchun pulga tovar ayirboshlash bozor iqtisodiyotining muhim tomoni hisoblanadi.

3. Pul-jamg'arish vositasi. Turli vaziyat taqozosi muomala jarayonining uzilib qolishiga olib kelishi mumkin. Buning natijasida pul muomalada bo'lmay turib qoladi. Bunday holda pul boylik to'plash vositasi vazifasini bajara boshlaydi.

Takrorlash uchun savollar

1. Ijtimoiy-iqtisodiy tizim deganda nimani tushunasiz?
2. Qanday me'zon orqali ijtimoiy-iqtisodiy tizimga baho beriladi?
3. Monostrukturali tizim va poliiqtisodiyotni ta'riflab bering.
4. Aralash iqtisodiyot nimalarga asoslanadi?
 5. Natural ishlab chiqarishni izohlab bering
 6. Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishida qanday ijtimoiy-iqtisodiy asos bo'lgan?
 7. Tovarining qanday xossalari bor?
 8. Pulning paydo bo'lishini nima taqozo etgan?
 9. Pul vazifalarini izohlab bering?
 10. Qiymat qonunining amal qilishiga misollar keltiring?

Tayanch iboralar

Natural ishlab chiqarish; tovar ishlab chiqarish; tovarning iste'mol qiymati; tovar qiymati; aniq mehnat; abstrakt mehnat; umumiy ekvivalent; pulning vazifalari; qiymat o'lchovi; muomala vositasi; jamg'arish vositasi; qiymat qonuni.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. SHavkat Mirziyoev. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birkalikda barpo etamiz"- T: "O'zbekiston" 2016.
2. SHavkat Mirziyoev "Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini Ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" 2016 yil 7 dekabr: T, "O'zbekiston" 2017.
3. SHavkat Mirziyoev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz". T., "O'zbekiston" 2017 .
4. Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T.: «O'zbekiston», 1993.
1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T. «O'zbekiston», 1995, 3, 112-b.

11. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: «O'zbekiston» 2005.
12. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Ijara to'g'risida. 1992.
13. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma'ruzalar matni G`Mualliflar jamoasi.-TDIU. IPO "Polipaper", 2005
14. Osnovo` ekonomicheskoy teorii. Politekonomiya: Uchebnik G` Pod red. d-ra ekon. nauk, prof. D.D.Moskvina. Izd. 3-e, ispravl. – M.: Editorial URSS, 2003, s.49-65, 66-85.
15. Borisov E. F. Ekonomicheskaya teoriya: ucheb. – 2-e izd., pererab. i dop. – M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2005, s.87-110.
16. Ekonomika: Uchebnik. 3-e izd., pererab. i dop. G`Pod red. d-ra ekon. nauk prof. A.S. Bulatova. – M.: Ekonomist', 2005, s.37-50..
17. Sh.Shodmonov, T.Ziyaev, M.Yaxshieva “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan test va savollar to'plami, -T.: TDIU, 2005.
18. www.worldfactbook.ovg
19. [www.msu.ruG`depts](http://www.msu.ruG`depts)
20. www.ecsocman.edu.ru

3-MAVZU. BOZOR IQTISODIYOTINING MAZMUNI VA AMAL QILISH MEXANIZMI. O'ZBEKISTONDA BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISHNING HUSUSIYATLARI.

1. Bozor iqtisodiyotining mohiyati.
2. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari.
3. Bozor iqtisodiyotining ikki turi.
4. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li.
5. **O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning tamoyillari va xususiyatlari**
6. **Respublikada bozor islohotlarini amalga oshirish va uning asosiy yo'nalishlari**
7. **Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish vazifalari**

Tayanch iboralar

Bozor iqtisodiyoti; bozor iqtisodiyoti ob'ektlari; iqtisodiy plyuralizm; narxlarning liberallasuvi; bozor iqtisodiyotiga o'tish modellari; sivilizatsiyalashgan bozor iqtisodiyoti; «o'zbek modeli».

O'tish davri – bir iqtisodiy tizimdan boshqasiga, mavjud iqtisodiy munosabatlardan butunlay boshqa, yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish taqozo qilinadigan davrdir.

Bozor islohotlari – bozor iqtisodiyotini va bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

Iqtisodiy islohotlar – iqtisodiyotda tub (yoki qisman) o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan tadbirlardir.

Iqtisodiy ukld – turli mulkchilikka asoslangan xo'jalik yuritishning shakllari va turlari.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish – nima va qancha ishlab chiqarishni qaerga, qanday bahoda sotishni tadbirkorning o'zi belgilashi lozim. Iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarini erkinlashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning erkinligi va mustaqilligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish demakdir.

Islohotlar kontseptsiyasi – ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsad va yo'nalishlari, uni amalga oshirishning vazifalari va strategik yo'llarining umumiy g'oyasidir.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish – tanglik holatlariga barham berish asosida makroiqtisodiy muvozanatlikni saqlash va ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirishdir.

1-Bozor iqtisodiyotining mohiyati.

Bozor iqtisodiyotining asl, lo'nda ma'nosi-iqtisodiyotni tashqaridan tartibga solish tajribasidan voz kechib, o'zini o'zi boshqaradigan mexanizm yaratishdir. Ana shu o'zini o'zi tartibga solib, yo'naltirib, barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlab turadigan yangi bozor mexanizmi markazida inson turadi, inson omili yotadi. Demak, yangi iqtisodiy tizimga o'tishni, iqtisodiy mustaqil davlat qurishni odamlardan, har birimizdan, birinchi navbatda, O'zbekiston taqdiri va kelajagi uchun mas'ul bo'lgan yoshlardan, ularda zamonaviy iqtisodiy tafakkur, iqtisodiy idrok xosil qilishdan boshlamoq lozim. Hozirgi zamon iqtisodiyoti bozor iqtisodiyotidir. Er yuzidagi ko'pgina mamlakatlar har xil darajada va o'ziga xos xususiyatlar bilan rivojlanib bormoqda. Hozirgi dunyoda, ayniqsa, G'arb mamlakatlarida iqtisodiyot haqida gap ketganda faqat bozor iqtisodiyoti tushuniladi. Hozirgi zamon nazariyalarida bozor iqtisodiyoti deganda iqtisodiy xatti-harakatlarning erkin, mustaqil ravishda yuz berishi va ularning bozor mexanizmi orqali bir-biriga bog'lanib muvofiqlashuvi tushuniladi. Bozor iqtisodiyoti g'oyat ko'p qirrali va murakkab iqtisodiyotdir. Uning mohiyatini anglash uchun unga xos tub belgilarni yaxlitlikda olib qarash kerak. Bu belgilar

shakllanib ulgurgan, aralash iqtisodiyotga aylangan bozor iqtisodiyoti sharoitida vujudga keladi, bu esa hozirgi eng rivojlangan mamlakatlarda aniq ko`rinadi. Bozor iqtisodiyoti erkin tovar-pul munosabatlariga asoslangan, iqtisodiy monopolizmni inkor etuvchi, ijtimoiy mo`ljalga, aholini ijtimoiy muhofaza qilish yo`nalishiga ega bo`lgan va boshqarilib turuvchi iqtisodiyotdir. O`ziga xos mulkiy munosabatlari, ijtimoiy yo`nalishlari va tartiblanib turish usullari jihatidan bu tizim kapitalistik iqtisodiyotdan va tarixda mavjud bo`lgan sobiq sotsialistik iqtisodiyotdan farq qiladi.

Bozor iqtisodiyotining quyidagi sub'ektlari mavjud:

a) iqtisodiy mustaqil mulk egasi yoxud iste'molchi bo`lgan ayrim kishilar yoki guruhlar. Bularga odatda yollanib ishlovchilar, er egalari, kapital sohiblari, ishlab chiqarish vositasi egalari kiradi. Ular tadbirkorlik qilmay, o`z mulkidan daromad topadi yoki yollanib ishlaydi;

b) firma, korxona, xo`jaliklar, ularda band bo`lgan tadbirkorlar. Ular foyda olish yo`lida mustaqil ish yuritadilar, ishlab chiqarish omillarini ishga soladilar;

v) davlat, aniqrog`i, davlatning barcha mahkama-idora tashkilotlari. Ular ham ishlab chiqarish, ham iste'mol bilan shug`ullanadilar, bozor va unda qatnashuvchilar faoliyati ustidan nazorat qiladilar.

Bozor iqtisodiyoti ishtirokchilari o`zaro aloqaga kirishadilar. Ish kuchi, er, kapital va boshqa vosita egalari ularni korxona, firmalarga sotadi. Ular o`z navbatida ishlab chiqarish omillaridan foydalanib, tovar va xizmatlar yaratadilar, ularni taklif etadilar.

2-Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari

Bozor iqtisodiyotining mohiyatini anglash uchun uning asosiy belgilarini ko`rib chiqamiz.

Bozor iqtisodiyotining eng muhim belgisi-iqtisodiy plyuralizm hisoblanadi, ya'ni mulk shakllari va xo`jalik yuritish usullarining turli-tuman bo`lishidir. Turli shakllardagi mulklar erkin, yonma-yon, hech bir chegaralanmagan holda rivojlanadi. Turli mulklar muvozanatda bo`lib, ayrim mulk shaklining hukmronligiga yo`l berilmaydi. Xo`jalik yuritish usullari ham har xil bo`ladi. Yakka tartibda, jamoa-uyushmaga birikkan holda, sherikchilik-paychilik yoxud aksionerlik asosida, o`z mablag`iga yoki qarzga olingan mablag`ga tayanib xo`jalik yuritish, er va boshqa vositalarni ijaraga olish va ishlatish kabilar birgalikda boradi. Bozor iqtisodiyoti erkin iqtisodiyotdir. Iqtisodiy faoliyat erkinligining asosi ishlab chiqarish omillari yoki yaratilgan tovarlarning mulk ob'ekti bo`lishi, mulkdorlarning esa mustaqillikka ega bo`lishidir. Ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchi o`z tovarini yoki pulini o`zi bilganicha ishlatadi. Bozor iqtisodiyoti erkin bo`lganidan u har qanday iqtisodiy monopolizmni inkor etadi. Iqtisodiy monopolizm - korxona, tashkilot yoxud davlatning umuman iqtisodiyotda yoki uning biror sohasida tanho hukmronlik qilishi. Iqtisodiyotdagi monopolizm ishlab chiqarishning o`zida, savdo-sotiqda, kredit-bank tizimida yoki iste'mol doirasida mavjud bo`ladi. Iqtisodiyotdagi monopolizmning tayanchi muayyan mulk shaklining tanho hukmronligidir. Bunday mavqe esa siyosiy xokimiyat va g`oyaviy sohadagi monopolizmni yuzaga chiqaradi. Iqtisodiy taraqqiyotga yo`l ochish uchun iqtisodiyotdagi monopolizmni tugatish zarur, chunki monopoliya o`z tabiatiga ko`ra ishlab chiqarishda turg`unlik paydo qiladi, hukmron mavqega tayanib, sarflarni kamaytirmay, foyda ko`rishi mumkin, raqobatning yo`qligi yoki zaifligidan foydalanib, bozorda o`z izmini o`tkazishi mumkin. Monopoliya turg`unlikni yuzaga chiqaradi, tashabbusni chegaralaydi. Shu sababli bozor iqtisodiyoti u bilan chiqisha olmaydi. Mana shu jihatdan bozor iqtisodiyoti antimonopol yo`nalishga ega. Bozor iqtisodiyoti sharoitida o`zaro munosabatlar manfaatlarni ko`zlagan holda o`rnatiladi. Ish yuzasidan bo`lgan munosabatlar (sheriklik) erkin shakllanadi. Turli ishlab chiqaruvchilar bir-biri bilan manfaatli aloqa o`rnatadilar. Bozorda esa xaridor bilan sotuvchi bir-birini erkin tanlaydi. Bozor iqtisodiyotida tovar taqchilligi bo`lmaydi, shu sababdan bozorda ishlab chiqaruvchi emas, balki iste'molchi (xaridor) o`z izmini o`tkazadi, tovar va xizmatlarning sifatiga va narxiga qarab tanlab olish imkoniga ega bo`ladi. Bozor iqtisodiyotining yana bir belgisi narxlarning liberallasuvi, ya'ni narx-navoning erkin tashkil topishidir. Tovarlar narxini davlat yuqoridan belgilamaydi, narx ayrim ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchi tazyiqi ostida shakllanmaydi. Narx bozordagi talab va taklifga qarab, xaridor bilan

sotuvchining savdolashuviga binoan yuzaga keladi. Bozor iqtisodiyoti moslashuvchan iqtisodiy tizimdir. U sharoit o'zgarishlariga darhol javob beradi, nima etishmasa, shuni darhol ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Uning muhim belgilaridan yana biri novatsiyaga moyillikdir. U fan-texnika yangiliklarini darhol qabul qiladi, yangi tovarlarni, yangi texnologiyani va ishlab chiqarishni boshqarish usullarini joriy etishni ta'minlaydi, chunki bu raqobatda yutqazmaslik, yaxshi foyda ko'rish, obro'-e'tibor orttirish sharti bo'lib xizmat qiladi. Bozor iqtisodiyoti tovarlar va xizmatlar to'kinchiligini yuzaga keltiradi, ko'pchilik tovarlardan eng yaxshisini tanlab olgan holda ehtiyojni qondirish imkonini beradi. Ammo bozor iqtisodiyotini hamma dardga davo deb, uni haddan tashqari olqishlash unga xolisona baho berishdan yiroq. Uning o'ziga xos muammolari, zaif tomonlari ham yo'q emas. Bozor iqtisodiyoti millionlab ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarning faoliyati bo'lganidan unga tarqoqlik va xudbinlik (egoizm) ham xos. U o'z-o'zidan davlat va jamoatchilik ishtirokisiz tabiatni muhofaza etish, ekologik muvozanatni ta'minlashni yuzaga chiqarmaydi. Jamiyat uchun zarur bo'lgan, lekin xarajatlar qaytimi sekin bo'ladigan, katta mablag' talab qiladigan inshootlar va binolarning qurilishi rag'batlantirmaydi. Darhol foyda keltirmaydigan, lekin ilm-ma'rifat kelajagi uchun muhim bo'lgan nazariy izlanishlarni ham rag'batlantirmaydi. Bozor iqtisodiyoti ham sakrab-sakrab, siklli ravishda rivojlanadi, iqtisodiy yuksalishlar bilan birga inqiroz va tanglik ham paydo bo'ladi. Bozor iqtisodiyotining ham, har qanday iqtisodiyot kabi, o'z rivojlanish qonunlari mavjud. Unga xos qonunlar tizimini ikki guruhga bo'lish mumkin:

a) umumiy iqtisodiy, lekin bozor iqtisodiyotida ham amal qilishda davom etgan qonunlar;
b) faqat bozor iqtisodiyotining o'ziga xos bo'lgan qonunlar. Bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan tub belgilar sekin-asta shakllanib, pirovard natijada yaxlit iqtisodiy tizimni hosil etadi. Bu jarayon murakkab bo'lganidan, uzoq davom etadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish XX asrga xos bo'lgan umumbashariy, ya'ni umumjahon voqeligidir. Bozor iqtisodiyotiga o'tish kishilarning xohish irodasi emas, balki, ob'ektiv zaruratdir. Insoniyat tajribasi ko'rsatganidek, hozirgi zamon bozor munosabatlari zaminidagina ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish, ko'plab va sifatli tovarlar yaratish, ularga bo'lgan talabni qondirish, tejamli xo'jalik yuritish, to'kinchilik yaratib, xalqni farovon turmush sari yo'llash, halol va samarali mehnatni qadrlash, adolatni o'rnatish mumkin. Bozor munosabatlari tizimida shunday rag'bat kuchi jamlanganiki, u muttasil iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlaydi. Xalqaro tajriba ko'rsatganidek, bozor iqtisodiyotiga o'tishning ikki shakli yoki modeli mavjud. 1) G'arbiy Evropa mamlakatlari va boshqa rivojlangan mamlakatlar yo'li; 2) mustamlakachilikdan ozod bo'lib, mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tib rivojlanayotgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari yo'li.

3-Bozor iqtisodiyotining ikki turi

Yuqorida qayd qilinganidek, bozor iqtisodiyoti deganda hozirgi rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiyot tushuniladi.

Tarixiy nuqtai nazardan bozor iqtisodiyotining ikki turi mavjud. Birinchisi-asov yoki yovvoyi bozor iqtisodiyoti. Bunday iqtisodiyotning asl namunasi XVIII va XIX asrlarda bo'lgan. Uning ba'zi bir alomatlarini hozir ham uchrab turadi. Uning quyidagi asosiy belgilarini keltirish mumkin:

1. YAKka egalikdagi xususiy muklning mukdaron b'lishi, mulkning ozchilik =y'ida t'planishi.
2. Iqtisodiyotning stixiyali o'sishi, ya'ni iqtisodiy beboshlik va tartibsizlikning kuzatilishi
3. Noma'lum bozor uchun ko'r-ko'rona ravishda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish, ularning sotilish yoki sotilmasligining noma'lumligi.
4. Raqobat kurashining qonun-qoidasiz, terror, zo'rvonlik, qalloblik kabi g'ayriinsoniy usullar bilan borishi.
5. Tadbirkorlar o'rtasidagi sherikchilik aloqalarining tasodifiy bo'lishi.
6. Davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi, undan chetlashib qolishi.
7. Tartibsizlik natijasida kuchli iqtisodiy tangliklar va bo'hronlarning kelib chiqishi, iqtisodiy talafotlarning yuz berishi.

8. Kishilarning o'ta boy va o'ta kambag'allarga ajralib qolishi, ular o'rtasidagi sinfiy kurashning mavjudligi, ijtimoiy muvozanatning yo'qligi.

Bunday iqtisodiyotni asov daryoga tenglashtirish mumkin. Asov daryo tartibsiz oqadi, uning o'zaklari tez o'zgarib turadi, uning suvini tartibga soluvchi to'g'onlar, suv omborlari bo'lmaydi. Bunday daryo nafaqat obi-hayot olib keladi, balki uning toshqinlari qirg'oqlarni yuvib ketish bilan talafot ham keltiradi.

Ammo yovvoyi iqtisodiyot abadiy saqlanmaydi. U sivilizatsiyalashgan yoki madaniylashgan bozor iqtisodiyotiga aylanib boradi.

Tsivilizatsiyalashgan bozor iqtisodiyotining ham o'ziga xos belgilari mavjud:

1. Asosiy bo'lib hisoblangan xususiy mulk bilan bir qatorda boshqa mulk shakllari ham harakatda bo'ladi, mulkiy muvozanat yuzaga keladi.
2. Iqtisodiyotdagi beboshlik qattiq cheklanadi, iqtisodiyot tartiblanadi.
3. Bozor talabni hisobga oladi, ishlab chiqarish talabga moslashadi, bozordagi noma'lumlik ahyon-ahyon uchrab turadi.
4. Raqobat kurashi belgilangan qoidalarga binoan halol boradi, uning madaniy usullari qo'llaniladi.
5. Iqtisodiyot sub'ektlari (ishtirokchilari) o'rtasidagi doimiy va uzoq davrga mo'ljallangan, o'zaro manfaatli sherikchilik aloqalari o'rnatiladi.
6. Davlat iqtisodiy hayotga aralashadi, o'z chora-tadbirlari bilan iqtisodiy tamoyillarning amal qilishi uchun sharoitlar yaratadi.
7. Iqtisodiyot tartiblanib turganidan chuqur iqtisodiy tangliklar yuz bermaydi yoki iqtisodiy tanglikdan tezda chiqiladi.
8. Iqtisodiyot yuqori darajada rivojlanganligi uchun jamiyat boy bo'ladi, tadbirkorlik, shu sababdan, faqat foyda topish uchun emas, balki el og'ziga tushish, obro'-e'tiborli bo'lish uchun ham olib boriladi.
9. Iqtisodiyot ijtimoiy yo'naltirilgan, ommaviy farovonlikni ta'minlashdek aniq mo'ljalga ega bo'ladi.
10. Kishilarning iqtisodiy jihatdan tabaqalanishi chegaralanadi, o'ziga to'q, o'rtahol aholi asosiy ijtimoiy qatlamga aylanadi.

Shu boisdan jamiyatda ijtimoiy muvozanat saqlanib, kishilar o'rtasida to'qnashuvlarga o'rin qolmaydi.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyotiga o'tish deganda sivilizatsiyalashgan iqtisodiyot sari borish tushuniladi.

4-O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li

Ma'lumki, bozor iqtisodiyotiga o'tishning umumjahon voqeasiga aylanishi XX asrning muhim belgisidir. Insoniyat tajribasi shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti bir qator muammolarni samarali hal eta oladi, xususan:

- a) muttasil ravishda ishlab chiqarishni o'stirib, to'kinchilikni ta'minlash;
- b) tejamli xo'jalik yuritib, barcha resurslardan oqilona foydalanish;
- v) ommaviy farovonlikni ta'minlash;
- g) mazmuni yoki shaklidan qati nazar halol va samarali mehnatning qadriga etish;
- d) umuminsoniy ijtimoiy adolat tamoyillarini hayotga tatbiq etish.

Bozor iqtisodiyotining tamoyillari, qonun-qoidalari umum insoniy, ammo boriladigan marra bir xil bo'lsa-da, uning yo'llari har xildir.

O'zbekiston oldida ikki strategik-istiqbolda ko'zlangan vazifa turadi. Uning biri - mustaqillikning iqtisodiy poydevorini yaratish. Ikkinchisi - bozor iqtisodiyotiga o'tish. Iqtisodiy mustaqillikka bozor mexanizmi orqali erishiladi, lekin uning O'zbekistonda shakllanishi o'ziga xos yo'l bilan yuz bermoqda. Bu yo'l bozor iqtisodiyotining umumiy tomonlarini e'tirof etgan holda, O'zbekistonning milliy xususiyatlarini hisobga oladi.

Bu xususiyatlar quyidagilardir:

1. O'zbekiston iqtisodiyoti kam rivojlangan bo'lsa-da, uning ishonchli salohiyati bor.

2. O'zbekiston tabiiy va mehnat resurslariga boy diyori, uning saxiy eri va mehnatsevar xalqi bor.
3. Respublikamiz aholisining o'sish sur'atlari jadal, shu boisdan mehnat resurslari tez ortib boradi.
4. O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining o'rni katta, shu boisdan aholining katta qismi (60%) qishloq joylarda istiqomat qiladi.
5. O'zbekiston sharqiy sivilizatsiyaga mansub mamlakat. Bu erda sharqona iqtisodiy ko'nikmalar, ota-bobolardan meros qolgan xo'jalik yuritish usullari bor.

Bu xususiyatlar O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti sari borish yo'lini tanlash uchun asos bo'ldi. Bu yo'l jahon tajribasiga tayangan holda, ammo mamlakatimizning milliy manfaatini, undagi real sharoitlarini hisobga olgan holda bozor iqtisodiyotiga o'tishni bildiradi. Bu yo'l bozor iqtisodiyotiga inqilobiy sakrashlarsiz, ijtimoiy larzalarsiz, tinchlik va xotirjamlik sharoitida, xalqni ijtimoiy himoya qilish orqali sekin-asta, bosqichma-bosqich o'tilishini ta'minlaydi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek "Bizning qat'iy nuqtai nazarimiz jahon tajribasi va o'z Seminarotimizdan olingan jamiyki foydali tajribalarni rad etmagan holda, o'zimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'limizni tanlay olishdan iboratdir"

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan olg'a surilgan besh tamoyilda ifodalab berildi:

Birinci tamoyil - iqtisodiyot siyosatdan ustivor bo'lishi va buning uchun iqtisodiyot mafkuradan xoli qilinishidir.

Ikkinchi tamoyil - davlat bosh islohotchi bo'lishi kerak. Bu tamoyil bozor iqtisodiyotiga o'tish tartibsiz ravishda, o'zibo'larchilik asosida emas, balki davlat rahbarligida amalga oshiriladigan islohotlar orqali yuz berishini bildiradi.

Uchinchi tamoyil - qonunlar va ularga amal qilinishining ustivorligini ta'minlash. Bu tamoyil bozor iqtisodiyotiga o'tish tartibli ravishda, hammaning keng jamoatchilik ishtirokida ishlab chiqqan davlat qonunlariga so'zsiz rioya etishi orqali borishini bildiradi.

To'rtinchi tamoyil - faol ijtimoiy siyosat yuritish. Bu iqtisodiyotga kuchli ta'sir eta oladigan, xalqning ijtimoiy himoyasini, uning faolligini ta'minlaydigan, ijtimoiy adolatni yuzaga chiqaradigan siyosatni olib borishni anglatadi.

Beshinchi tamoyil - bozor iqtisodiyotiga sekin-asta, bosqichma-bosqich o'tish. Bu tamoyil chuqur iqtisodiy islohotlarni shoshilmasdan, sobitqadamlik bilan amalga oshirishni talab etadi.

1-O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning tamoyillari va xususiyatlari. Bozor iqtisodiyotining oldingi mavzuda tilga olingan belgilari uzoq davr davomida shakllanib, pirovard natijada yaxlit ijtimoiy tizimni tashkil qiladi.

Bunda bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari (modellari) xilma-xil bo'lib, ularning umumiy va xususiy tomonlari farqlanadi. Jahon tajribasida bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha yo'llari umumlashtirilib, quyidagi uchta asosiy modelga bo'linadi:

Rivojlangan mamlakatlar yo'li;

Rivojlanayotgan mamlakatlar yo'li;

Sobiq sotsialistik mamlakatlar yo'li.

Bu yo'llarning umumiyligi shundaki, ularning hammasi bozor iqtisodiyotiga o'tishni maqsad qilib qo'yadi va mazkur iqtisodiyotning qonun-qoidalari, amal qilish mexanizmi ko'p jihatdan umumiy bo'ladi. Shu bilan birga har bir yo'lning o'ziga xos xususiyatlari ham bor, bu esa bozor munosabatlarini shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, milliy sharoitlari har xil bo'lishidan kelib chiqadi.

Masalan, bozor munosabatlariga o'tishning g'arbcha modeli (rivojlangan mamlakatlar yo'li)da oddiy tovar xo'jaligidan erkin raqobatga asoslangan klassik yoki erkin bozor iqtisodiyotiga va undan madaniylashgan bozor iqtisodiyotiga o'tiladi. Mustamlakachilikdan ozod bo'lib, mustaqil

rivojlanayotgan mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lining xususiyati - bu qoloq, an'anaviy iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishdir. Nihoyat, sobiq sotsialistik mamlakatlar yo'lining muhim belgisi markazlashtirilgan, ma'muriy – buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan hozirgi zamon rivojlangan bozor tizimiga o'tishdan iboratdir. Bu yo'ning boshqa yo'llardan farqi shundaki, totalitar iqtisodiyotning bozor iqtisodiyoti bilan umumiyliги yo'q, ular batamom bir-biriga zid. Shu bilan birga uchinchi yo'lda bozor munosabatlariga o'tayotgan mamlakatlarning o'zi o'tish sharoitlari, iqtisodiy rivojlanish darajasi, mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllari bilan bir-birlaridan farqlanadi. Bularning hammasi bozor iqtisodiyotiga o'tishning mazkur yo'lining o'ziga xos xususiyatlaridir. Markazlashgan ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishda maqsad bir xil bo'lsa-da, turli mamlakatlar turli yo'llarni tanlashlari mumkin. Tammaga ma'lumki, bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tishda ikki yo'l, ya'ni revolyutsion va evolyutsion yo'llar mavjud. Polsha, Chexoslovakiya, Rossiya va boshqa ayrim mamlakatlar bozor iqtisodiyotiga o'tishning revolyutsion yo'lini, birdaniga katta to'ntarishlar qilish yo'lini tanladilar. Boshqacha aytganda ular «karaxt qilib davolash» degan usulni qo'lladilar. Bu yo'lni amalga oshirish uchun Rossiyada «300-kun», «500-kun» degan o'tish dasturlari ishlab chiqildi. Bu dasturlarni tezkorlik bilan amalga oshira boshladilar. Bunda ular bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tishda ancha uzoq muddatli o'tish davri bo'lishini unuttidilar. Natijada bu mamlakatlarda ishlab chiqarish hajmi keskin tushib ketdi, ko'plab korxonalar yopilib, ishsizlar soni ko'paydi, pulning qadri keskin pasayib ketdi, iqtisodiyot esa hamon karaxtlikdan chiqqani yo'q, odamlarning ahvoli og'irlashdi. Shuning uchun O'zbekiston bu yo'ldan bormay boshqa yo'l tanladi. Bu yo'l O'zbekistonning o'ziga xos madaniy, tarixiy, iqtisodiy va tabiiy xususiyatlarini hamda bu yo'ldagi jahon tajribasini hisobga olgan holda revolyutsion to'ntarishlarsiz, ijtimoiy to'qnashuvlarsiz, ijtimoiy himoyani kuchaytirgan holda asta-sekinlik, lekin qat'iyatlilik bilan bosqichma-bosqich rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o'tishdan iboratdir. «Bizning bozor munosabatlariga o'tish modelimiz Respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini, an'analar, urf-odatlar va turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga, o'tishdagi iqtisodiyotni bir yoqlama, beso'naqay rivojlantirishning mudhish merosiga barham berishga asoslanadi»¹, deb yozadi mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish yo'li ijtimoiy-yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan. Bu yo'lni amalga oshirishga, iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga Prezidentimiz I. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan beshta muhim tamoyil asos qilib olingan. Birinchidan, iqtisodiyotni mafkuradan xoli qilish, uning ustunligini ta'minlash. Ikkinchidan, o'tish davrida davlatning o'zi bosh islohotchi bo'lishi. Uchinchidan, butun yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlarga asoslanmog'i, qonunlarning ustunligi ta'minlanmog'i lozim. To'rtinchidan, bozor munosabatlariga o'tish bilan bir qatorda aholini ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni amalga oshirish. Nihoyat, beshinchidan, bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish. Bozor munosabatlariga o'tishda bu printsiplarning hammasi ham muhim ahamiyatga egadir, lekin ularning ichida bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish printsipli alohida e'tiborga loyiq. Chunki tegishli huquqiy negizni, bozorning infratuzilmalarini yaratish, odamlarda bozor ko'nikmalarini hosil qilish, yangi sharoitlarda ishlay oladigan kadrlarni tayyorlash uchun vaqt kerak bo'ladi. Bundan tashqari, bozor munosabatlariga o'tish faqatgina iqtisodiyot sohalarini o'zgartirish bilan cheklanmaydi. U ijtimoiy hayotning bir-birlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan barcha sohalarini, shu jumladan siyosiy, ma'naviy-axloqiy, maishiy va boshqa sohalarini ham tubdan o'zgartirishni taqozo qiladi. Bularning hammasi bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich, evolyutsion yo'l bilan o'tish haqidagi g'oya juda muhim va afzal ekanligini ko'rsatadi. Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish tamoyilini amalga oshirish iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy bosqichlarini aniq farqlash, bu bosqichlarning har biri uchun aniq maqsadlarni, ularga erishish vositalarini belgilab olishni talab qiladi. Prezidentimiz I. A. Karimovning asarlarida bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida quyidagi ikkita vazifani birdaniga hal qilish maqsad qilib qo'yilganligi ta'kidlanadi:

- totalitar tizimning og'ir oqibatlarini engish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish;

- Respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish.¹

Shu vazifalarni hal qilish uchun birinchi bosqichda isloh qilishning muhim yo'nalishlari aniqlab olindi va bajarildi.

Birinchidan, o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy negizini mustahkamlash;

Ikkinchidan, mahalliy sanoat, savdo, maishiy xizmat korxonalarini, uy-joy fondini xususiylashtirish, qishloq xo'jaligida va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish.

Uchinchidan, ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish, moliyaviy ahvolning barqarorlashuvini ta'minlash.

Respublika iqtisodiyotini bozor munosabatlariga o'tkazish bo'yicha birinchi bosqichda qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish jarayonida iqtisodiyot sohasiga tegishli bo'lgan, iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishning huquqiy negizini barpo etadigan 100 ga yaqin asosiy qonun – hujjatlar qabul qilindi.

Birinchi bosqichda kichik xususiylashtirish amalda tugallandi, davlat mulkini boshqarish va uni mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirish uchun zarur bo'lgan muassasalar tizimi tuzildi.

qishloq xo'jaligida agrar islohot jarayonida bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladigan yangi xo'jalik tizimi shakllandi va iqtisodiyotning davlatga qarashli bo'lmagan qismi keng rivojlandi.

Xalq xo'jaligini, tarmoqlar va hududlarni boshqarishning eng maqbul va mavjud sharoitlarga mos bo'lgan tizimlari ishlab chiqildi. Narxlar to'liq erkinlashtirildi, bozor infratuzilmasining asosiy qirralari shakllantirildi, aholini ijtimoiy himoyalash tizimi amalga oshirila boshladi, iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishildi.

Respublikada bozor munosabatlariga o'tishning birinchi bosqichida iqtisodiyotda va ijtimoiy sohada yuz bergan tub o'zgarishlar uning o'z taraqqiyotida keyingi sifat jihatdan yangi bosqichga o'ta boshlash uchun mustahkam shart-sharoit yaratdi. Shu bilan birga isloh qilishning birinchi bosqichi natijalari keyingi bosqichning strategik maqsadlari va ustun yo'nalishlarini aniq belgilab olish imkonini berdi.

Ikkinchi bosqichda investitsiya faoliyatini kuchaytirish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va shuning negizida iqtisodiy o'sishni ta'minlab, bozor munosabatlarini to'liq joriy qilish maqsad qilib qo'yiladi. Shu maqsaddan kelib chiqib I.A. Karimov asarida bu bosqich uchun bir qator vazifalar ajratib ko'rsatiladi¹.

Birinchi vazifa – davlat mulklarini xususiylashtirish sohasida boshlangan ishni oxiriga etkazish. Bunda davlat mulkini xususiylashtirish, tadbirkorlik faoliyatini keng qo'llab-quvvatlash, kichik xususi korxonalar tashkil qilishni rag'batlantirish hisobiga ishlab chiqarishda davlatga qarashli bo'lmagan qismning ulushini oshirish ko'zda tutiladi.

Ikkinchi vazifa – ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash. Bu ham korxonalar va tarmoqlarning, umuman davlatning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga erishish imkonini beradi.

Uchinchi vazifa – milliy valyuta-so'mni yana ham mustahkamlashdan iborat.

Bu esa so'mning konvertatsiyasi, qat'iy valyutalarga erkin sur'atda almashtirish layoqati demakdir, unga pulning qadrsizlanishiga qarshi ta'sirchan choralarni qo'llash, iste'mol mollari ishlab chiqarishni ko'paytirish hamda ichki bozorni shunday mollar bilan to'ldirish, korxonalarning chetga mol chiqarishini kengaytirish hisobiga valyuta zahiralarini mustahkamlash yo'li bilan erishiladi.

To'rtinchi vazifa – iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish, xom ashyo etkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish. Bunda tarkibiy o'zgarishlarda Respublika uchun eng asosiy hisoblangan tarmoqlarni, jumladan yoqilg'i, energetika va g'alla komplekslarini rivojlantirish nazarda tutiladi. O'tish davrining ikkinchi bosqichida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish, ularga tegishli yordam ko'rsatish borasida birinchi bosqichda tutilgan yo'l davom ettiriladi. Shunday qilib, O'zbekistonda iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tkazishda ikki bosqichli taraqqiyot yuzaga keladi. Birinchi bosqichda davlat sektori va bozor xo'jaligidan iborat yarim erkinlashgan iqtisodiy tizim yuzaga keladi. Ikkinchi bosqichda iqtisodiyot to'liq erkinlashtiriladi, xususiylashtirish tugallanadi, narxlar erkin qo'yib yuboriladi, davlat korxonalarining monopol mavqei tugatiladi. Lekin bundan Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish maqsadiga to'liq erishildi va bu sohada qo'yilgan vazifalar to'liq bajarildi degan xulosa kelib chiqmaydi. Chunki bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirish har bir davrda kun tartibiga yangi vazifalarni qo'yadi. Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, hozirgi bosqichda «erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish

nafaqat iqtisodiy, balki ham ijtimoiy, ham siyosiy vazifalarni hal qilishning asosiy shartidir»¹. Bu esa iqtisodiyot sohasida quyidagi aniq vazifalarni amalga oshirishni ko`zda tutadi.

- Iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan o`tkazish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish;
- Xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va shu asosida amalda mulkdorlar sinfini shakllantirish;
- Mamlakat iqtisodiyotiga xorij sarmoyasini, avvalo, bevosita yo`naltirilgan sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay xuquqiy shart-sharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kuchaytirish;
- Kichik va o`rta biznes iqtisodiy taraqqiyotda ustivor o`rin olishiga erishish;
- Mamlakatning eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiy tizimiga keng ko`lamda integratsiyalashuvini ta'minlash;
- Iqtisodiyotda mamlakatimiz iqtisodiy mustaqilligini yanada mustahkamlashga qaratilgan tarkibiy o`zgarishlarni izchil davom ettirish.

2-Respublikada bozor islohotlarini amalga oshirish va uning asosiy yo`nalishlari.

Iqtisodiy munosabatlar va tashkiliy – boshqaruv tuzilmalarining bir turidan butunlay boshqa yangi turiga o`tish, iqtisodiy islohotlar strategiyasini ishlab chiqish va uning asosiy yo`nalishlarini aniqlab olishni taqozo qiladi. Iqtisodiy islohotlar – bu bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

Iqtisodiy islohotlardan ko`zda tutilgan maqsad mamlakat aholisi uchun yashash va faoliyat qilishning eng yaxshi sharoitlarini yaratish, ularning ma'naviy-axloqiy etukligiga erishish, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat.

Islohotlarni amalga oshirishdan oldin bozor iqtisodiyotiga o`tishning nazariy modeli yaratildi. (Shu mavzuning 1-§ da qarab chiqildi).

Bu modelda yangi iqtisodiyotga o`tishning umumiy tomonlari va milliy xususiyatlari nazarda tutiladi, islohotlarning asosiy yo`nalishlari belgilanadi.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo`nalishlari quyidagilardan iborat:

- mulkiy munosabatlarni isloh qilish;
- agrar islohotlar;
- moliya-kredit va narx-navo islohoti;
- boshqarish tizimini isloh qilish va bozor infratuzilmasini yaratish;
- tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti;
- ijtimoiy islohotlar.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning bu asosiy yo`nalishlari I.A.Karimovning «O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida» kitobida bayon qilib berilgan.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning boshlang`ich nuqtasi bozor iqtisodiyotining huquqiy negizini yaratishdan iborat bo`ladi.

Respublikada iqtisodiy islohotlarning huquqiy negizini yaratish bo`yicha amalga oshirilgan ishlarining bir nechta yo`nalishini ajratib ko`rsatish mumkin.

Birinchi yo`nalish – davlat va iqtisodiy mustaqillikning huquqiy negizlarini yaratish, davlatni boshqarish qoidalarini tartibga soluvchi qonunlarni qabul qilish.¹

Boshqaruv tizimining yuqori va quyi darajadagi vazifalari aniq chegaralab qo`yildi. Vakolatli hokimiyatning yagona to`la huquqli organi bo`lgan hokimlik instituti yaratildi, fuqarolarning o`z-o`zini boshqarish sohasida fuqarolar yig`ini joriy qilindi.

**Ikkinchi yo`nalish** – tizimdagi o`zgarishlarga, yangi iqtisodiy munosabatlarga va shu jumladan mulkchilik munosabatlariga asos bo`ladigan qonunlar tizimini yaratish.1 Respublikada bu yo`nalish bo`yicha qabul qilingan qonunlarda mulkdorning huquqi tan olindi, xususiy mulkchilik huquqi e'tirof qilindi, mulkchilikning barcha shakllari uchun teng sharoit yaratildi. Davlat mulkini xususiylashtirishning samarali mexanizmi ishlab chiqildi. qisqacha aytganda bozor munosabatlarining negizi bo`lgan ko`p ukladli iqtisodiyotni shakllantirishning barcha huquqiy asoslari yaratildi.

**Uchinchi yo`nalish** – xo`jalik yuritishning va institutsional o`zgarishlarning bozor sharoitlariga mos keladigan yangi mexanizmni yaratishga qaratadigan qonunlar.2 Bozor infratuzilmasini yaratish va uning faoliyatiga xos jarayonlarni tartibga solishni ta'minlaydigan qonunlarni qabul qilishdan oldin, iqtisodiyotning turli sohalarida xo`jalik yuritayotgan sub'ektlarning huquq va iqtisodiy erkinlik borasidagi maqomini belgilab beradigan qonunlar qabul qilindi. Korxonalar to`g`risidagi qonun, kooperatsiya to`g`risidagi, dehqon xo`jaligi to`g`risidagi, xo`jalik jamiyatlari va shirkatlari to`g`risidagi qonunlar shular jumlasidandir.

To`rtinchi yo`nalish – Respublikamizni xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti sifatida, ta'riflovchi huquqiy normalarni yaratish.Bu yo`nalishdagi qonunlarni qabul qilish natijasida mamlakatimizning tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi tarixida sifat jihatdan yangi bosqich boshlandi.

**Beshinchi yo`nalish** – kishilarning konstitutsion va yuridik huquqlarini, ijtimoiy kafolatlarini va aholini ijtimoiy himoyalashni ta'minlaydigan qonunlarni ishlab chiqish.Bu qonunlar bozor munosabatlariga o`tish sharoitida aholining eng muhtoj tabaqalari manfaatlarini qonun kuchi bilan himoya qilishgagina emas, balki ularning ma'naviy imkoniyatlarini namoyon qilish, islohotlar uchun mustahkam ijtimoiy zamin yaratishga ham imkon beradi.Yuqorida qarab chiqilgan barcha qonunlarda bozor iqtisodiyotining huquqiy asoslarini yaratish ham Seminar, ham iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning huquqiy asosini tashkil qildi.Bozor islohotlarining bosh bo`g`ini mulkchilik munosabatlarini tubdan o`zgartirishdir, chunki shu orqali ko`p ukladli iqtisodiyot va raqobatlashish muhiti shakllantiriladi hamda bozor iqtisodiyotiga o`tishning shart-sharoitlari vujudga keltiriladi. Shu sababli Respublikada mulkiy munosabatlarni isloh qilishdan ko`zda tutilgan maqsad davlat mulki monopolizmini tugatish va bu mulkni xususiylashtirish hisobiga ko`p ukladli iqtisodiyotni real shakllantirishdan iborat.1 Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning dastlabki bosqichidayoq qishloq xo`jaligini isloh qilishga ustunlik berildi. Bunga quyidagilar sabab bo`ldi. Birinchidan, Respublikamiz iqtisodiyotida agrar soha ustunlikka ega, aholining ko`pchiligi qishloq xo`jaligida band, iqtisodiy o`sish ko`p jihatdan shu tarmoq ahvoliga bog`liq. Hozirgi kunda agrar sektor hissasiga yalpi ichki milliy mahsulotning 30% dan ko`prog`i to`g`ri keladi, xalq xo`jaligida band bo`lganlarning 35 foizga yaqini qishloq xo`jaligida ishlaydi va barcha aholining yarmidan ko`prog`i qishloqda yashaydi.

Ikkinchidan, Respublika butun sanoat potentsialining yarmiga yaqinini tashkil qiladigan sanoatning ko`pgina tarmoqlarini (paxta tozalash, to`qimachilik, engil, oziq-ovqat, kimyo sanoati, qishloq xo`jalik mashinasozligi va boshqalar) rivojlantirish istiqbollari bevosita qishloq xo`jaligiga bog`liq.

Uchinchidan, qishloq xo`jalik mahsulotlari (asosan paxta) hozirgi vaqtda valyuta resurslari, Respublika uchun zarur bo`lgan oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar, texnika va texnologiya uskunalarini chetdan sotib olishni ta'minlayotgan asosiy manbadir.

To`rtinchidan, mustaqillik sharoitida qishloq xo`jaligining oziq-ovqat muammosini hal etishdagi roli ortib boradi.

O`zbekistonda agrar islohotning negizi erga bo`lgan mulkchilik masalasidir. Respublika Konstitutsiyasida er xususiy mulk qilib sotilishi mumkin emasligi, balki uni uzoq muddatli ijara shartlari bilan topshirish mumkinligi ta'kidlangan.Shunday ekan, qishloqda bozor munosabatlarini shakllantirishga erni meros qilib qoldirish huquqi bilan umrbod foydalanish uchun ijaraga berib

qo'yish orqali erishish ko'zda tutilgan. Respublikada erga bo'lgan mulkchilik munosabatlarini isloh qilishning boshqa xususiyati shundan iboratki, melioratsiya, irrigatsiya, erlarning unumdorligini oshirish dasturlarini bajarishni davlat o'z zimmasiga oladi. Buni bizdagi dehqonchilikning xususiyati taqozo qiladi. Bu xususiyat faqat sug'oriladigan erlarga xosdir. Respublikada barcha haydaladigan erlarning 3G`4 qismidan ko'prog'i (4,2 mln.ga) sug'oriladigan erlar bo'lib, uning yarmidan ko'prog'i yaxshi meliorativ holatda, qolgan erlar esa melioratsiya ishlari (qayta o'zlashtirish, kollektor-drenaj tarmoqlarini rekonstruktsiya qilish)ni olib borishni talab qiladi. Hozirgi vaqtda sug'orib kelingan har gektar erni qayta o'zlashtirish uchun 1990 yilgi darajadan 14-15 baravar ko'p xarajat talab qilinadi. Bundan xulosa shuki, birorta ham fermer irrigatsiya va melioratsiya ishlarini o'zi mustaqil amalga oshira olmaydi. Faqat davlatgina melioratsiya tarmoqlarini rekonstruktsiyalashga, qurishga va irrigatsiya tadbirlarini amalga oshirishga qodirdir. Respublikada agrar islohotlarning navbatdagi yo'nalishi barcha davlat qishloq xo'jalik korxonalarini (birinchi navbatda zarar ko'rib ishlayotganlarini) jamoa xo'jaliklariga va mulkchilikning boshqa shakllari (kooperativlar, aktsiyadorlik xo'jaliklari va har xil xususiy korxonalar) ga aylantirishdan iboratdir. Bunda birlamchi qishloq xo'jalik bo'g'ini fermer xo'jaliklarini birlashtiradigan va ularga moddiy-texnikaviy ta'minot, texnika, agrokimyo xizmati ko'rsatadigan kooperativ bo'lishi lozim. Ularning tarkibida fermer xo'jaliklari qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini tashkil etishning asosi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Respublikada agrar islohotlarni amalga oshirish dasturlariga asoslanib, 1992 yildan boshlab o'tgan davr mobaynida mavjud 1137 davlat xo'jaligidan 1066 tasi mulkchilikning aktsiyadorlik, jamoa va ijaradagi korxona shakllariga aylantirildi. 2000 yil davomida yana 776 ta qishloq xo'jalik korxonasi shirkat xo'jaligiga aylantirildi, va ularning soni 1754 taga etdi². Natijada qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining tarkibi mulkchilik shakllari bo'yicha ancha o'zgardi. 1994 yilda qishloq xo'jaligida davlatga qarashli bo'lmagan sektor butun mahsulotning deyarli 95%³ (1991 yil 63%) ni, 1998 yilda 98,7% ni⁴ va

2000 yilda esa 99,0 ni ishlab chiqardi, qishloq xo'jaligini isloh qilishning keyingi yo'nalishi – bu shaxsiy tomorqalarni kengaytirish, yangi sug'oriladigan erlarni shaxsiy xo'jaliklar va bog'dala hovli uchastkalariga ajratib berish yo'li bilan aholini er bilan ta'minlashdan iboratdir. Shu ko'rilgan chora-tadbirlar hisobiga, birinchidan, qishloq joylarda ishsizlikning kuchayib borish xavfini barham toptirishga, ikkinchidan, aholining real daromadlarini oshirishga, uchinchidan, aholini hayotiy muhim oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashdagi keskinlikka barham berishga va to'rtinchidan, yakka tartibda uy-joy qurilish ko'lamini ancha kengaytirishga muvaffaq bo'lindi. Islohotlar amalga oshirilgan dastlabki yillarda aholiga foydalanish uchun qo'shimcha 550 ming gektar sug'oriladigan er ajratib berildi, shaxsiy tomorqa uchun berilgan erning umumiy maydoni 700 ming gektarga etdi. Natijada dehqon xo'jaliklarning qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi umumiy hajmidagi ulushi 1992 yildagi 33% dan 1998 yilda 60,3% ga¹, 2000 yilda esa 66% ga ko'tarildi².

Kredit sohasidagi islohotlar bank tizimini takomillashtirish, banklarning mustaqilligini va pul muomalasi uchun javobgarligini oshirishga qaratiladi. Shu maqsadda Respublikada markaziy bank hamda keng tarmoqli tijorat va xususiy banklardan iborat ikki bosqichli bank tizimi vujudga keltirildi. Markaziy bank zimmasiga federal rezerv tizimiga xos bo'lgan vazifalar yuklatildi. Ixtisoslashgan aktsiyadorlik – tijorat banklari «g'alla bank», «Tadbirkor bank», «Savdogar bank», «Paxta bank» va boshqa banklar) shakllantirildi. Iqtisodiyotni isloh qilishning eng asosiy muammolaridan biri narxlarni erkinlashtirishdir. Narxlarning erkin shakllanishi uchun narxlar tizimini isloh qilish ham zarurdir. Dastlab davlat xarid narxlarining amal qilish doirasi qisqartiriladi va keyin ichki narxlar jahon narxlariga muvofiqlashtirib boriladi. Shuningdek, narxlarni erkinlashtirishda xom-ashyo va mahsulot ayrim turlarining, narx-navo bilan aholi va korxonalar daromadlari o'rtasidagi tenglikka erishishga harakat qilinadi. Respublikada islohotlarni asta-sekin va bosqichma-bosqich amalga oshirish printsiplari, narxlarni erkinlashtirishda yondashishga ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi. Islohotlar boshlanishdan oldingi davrda respublikada narx-navoning nomutanosib tizimi tarkib topgan edi. Xom ashyo va qishloq xo'jalik mahsulotlari narxi pasaytirilib, ishlov beruvchi va qayta ishlovchi tarmoqlar tovarlarining narxi sun'iy ravishda oshirib borilgan edi. Bundan ko'rilgan katta zarar respublikani dotatsiya oluvchi mintaqaga aylantirib qo'ydi. Narx belgilashdagi nomutanosibliklar tufayli butun tarmoqlar, shu jumladan qishloq

xo'jaligidagi ko'plab korxonalar zarar ko'rib ishladi. Xalq xo'jalik tarmoqlari ko'rgan zarar, ayrim mahsulot turlari (don, un va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari) etishtirishga qilingan xarajatlar va turli ijtimoiy imtiyozlar berishdan ko'rilgan zarar byudjet mablag'lari hisobidan qoplanar edi. 1991 yil shu maqsadda sarflangan mablag` respublika byudjeti jami xarajatlarining 12% dan ortig`ini tashkil qilgan. Bularning hammasi narxlar islohotini amalga oshirishga real vaziyatni va aholining mavjud turmush darajasini hisobga olib, oldindan ishlab chiqilgan dastur asosida yondashishni talab qiladi. Narxlar islohoti boshlangandan 1994 yilgacha hamma turdagi xom ashyo va mahsulotlar bo'yicha erkin narxlarga o'tildi, barcha iste'mol mollari narxi ustidan davlat nazorati bekor qilindi. Isloh qilishning dastlabki davrida (1992 yil) keng doiradagi ishlab chiqarish-texnik vositasi bo'lgan mahsulotlar, ayrim turdagi xalq iste'mol mollari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning kelishilgan narxlari va tariflarga o'tildi. Aholini himoyalash maqsadida cheklangan doiradagi oziq-ovqat va sanoat tovarlari narxlarining chegarasi belgilab qo'yildi. Narxlar islohotining navbatdagi bosqichida (1993 yil) kelishilgan ulgurji narxlarni davlat tomonidan tartibga solish to'lig'icha to'xtatildi. Narxlarni erkinlashtirishning oxirgi bosqichida (1994 yil oktyabr-noyabr) xalq iste'mol mollari asosiy turlarining narxi erkin qo'yib yuborildi. Shunday qilib, iqtisodiyotni isloh qilishning birinchi bosqichi narxlarni to'liq erkinlashtirish bilan tugadi. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish boshqarishning tegishli tizimini yaratishni talab qiladi. Shunga asosan respublikada butun xalq xo'jaligini, tarmoqlar va hududlarni boshqarishning eng maqbul va hozirgi davrga mos bo'lgan tuzilmalari ishlab chiqildi. Ko'plab markaziy iqtisodiy organlar va vazirliklar tugatildi (Davlat reja qo'mitasi, Davlat ta'minot qo'mitasi, Davlat narxlar qo'mitasi, Davlat agro-sanoat qo'mitasi va boshqa qo'mita hamda vazirliklar) yoki ularning faoliyati tubdan qayta qurildi. Faoliyati tugatilgan ma'muriy apparatlar o'rniga yangi boshqarish bo'g'inlari tuzildi.

Respublika iqtisodiyotining tarmoqlari va ayrim sohalarini boshqarish tizimida ham chuqur tarkibiy o'zgarishlar ro'y berdi. Tarmoq vazirliklari uyushmalarga, kontsernlarga, korporatsiyalar, uyushmalar va boshqa xo'jalik birlashmalariga aylantirish bilan batamom tugatildi. Transport, turizm, madaniyat, kinolashtirish kabi faoliyat sohalarida milliy kompaniyalar tuzildi. Boshqarishning mahalliy darajasida (viloyat, tuman, shahar) ijroiya – boshqaruv vazifalarini bajarish uchun hokimlik joriy qilindi. quyi bo'g'in boshqaruvida korxona va tashkilotlarga iqtisodiy erkinlik berilib, ular yangicha ish uslubiga o'tdi. Isloh qilish natijasida tarkib topgan boshqaruv tizimi bozor iqtisodiyotiga o'tib borish bilan yanada takomillashib va rivojlanib boradi. Bozor islohotlari bozor infratuzilmasini yaratish chora-tadbirlarini ham qamrab oladi. Bunda moliya, bank-kredit tizimi muassasalari, sug'urta, auditorlik, yuridik va konsalting firmalari hamda kompaniyalarini, birja tizimini yaratish taqozo qilinadi.

Respublikada bozor infratuzilmasini yaratish bir qator yo'nalishlar bo'yicha bordi. Birinchi yo'nalish bo'yicha tovar-xom ashyo birjasi tizimi rivojlandi. Bu, o'z navbatida, brokerlik va dilerlik idoralari, savdo uylari, vositachi firmalar paydo bo'lishiga olib keldi. Ikkinchi yo'nalishda kapital bozorining ishini ta'minlaydigan tuzilmalar vujudga keltirildi. Kredit resurslari bozori va valyuta bozori vujudga keltirildi hamda davlatga qarashli bo'lmagan sug'urta kompaniyalari tuzildi. Uchinchi yo'nalish mehnat bozorini shakllantirishdan iborat bo'lib, bu sohada 240 dan ortiq mehnat birjasini o'z ichiga oluvchi katta tarmoq tuzildi. Bozor islohotlari tashqi iqtisodiy aloqalarga ham tegishlidir. Bu sohada islohotlarni amalga oshirish borasida respublikaning zamonaviy tashqi iqtisodiy kompleksi mutlaqo yangidan shakllantirildi, tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishning mohiyat e'tibori bilan yangi mexanizmi vujudga keltirildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishi zarur bo'lgan muassasalar (Tashqi iqtisodiy aloqa vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, bojxonalar xizmati) barpo etildi. Respublikaning barcha vazirliklari va idoralari, korxonalarida tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'limlar, tashkilotlar va firmalar tuzildi. Tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish asosiy maqsad emas. Barcha islohotlarning asl maqsadi insonga munosib yashash va faoliyat ko'rsatish sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat. Shu sababli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning butun davri davomida aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish ob'ektiv zaruriyatdir. Respublikada aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi.

Birinchi yo`nalish – narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o`rtacha darajasini muntazam oshirib borish.

Ikkinchi yo`nalish – Respublikaning ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish.

Uchinchi yo`nalish – islohotlarning dastlabki bosqichida aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo`llab-quvvatlash.

Respublika uchun ijtimoiy himoyalash tizimini tanlab olishda xalqning uzoq yillar davomida qaror topgan ma'naviy ahloqiy qadriyatlari, turmush tarzi va dunyoqarash xususiyatlari hisobga olinadi.

Shunday qilib, islohotlarning barcha yo`nalishlari mavjud iqtisodiy tizimning izchillik bilan bozor iqtisodiyotiga o`sib o`tishiga qaratildi. Bu islohotlar O`zbekistonning mustaqilligini iqtisodiy jihatdan ta'minlash, uni iqtisodiy jihatdan rivojlangan va xalqaro miqyosda obro`-e'tiborli mamlakatga aylantirishga xizmat qiladi.

3- Bozor munosabatlariga o`tish jarayonida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish vazifalari

Respublikada bozor iqtisodiyotiga o`tish davrida, iqtisodiyotni rivojlantirish borasida bir qator vazifalar turadi. Bular xususiylashtirish va raqobatchilik muhitini shakllantirish jarayonlarini chuqurlashtirish; makroiqtisodiy barqarorlikka erishish; milliy valyutani mustahkamlash; iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini tubdan o`zgartirish; ijtimoiy kafolatlari kuchli bo`lgan demokratik davlatni shakllantirish vazifalaridir. Bu vazifalarni amalga oshirishning nazariy va Seminar asoslari hamda ustivor yo`nalishlari Prezidentimiz I.A.Karimovning «O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida» kitobida ifodalab berilgan. Bozor munosabatlariga o`tish davrida davlat mulkini xususiylashtirish natijasida ikkita asosiy vazifa hal qilinadi.

Birinchidan, davlat ixtiyorida bo`lgan mulk o`zining haqiqiy xo`jayinlari qo`liga topshiriladi.

Ikkinchidan, ko`p ukkladli iqtisodiyot va rag`batlantiruvchi raqobatchilik muhiti vujudga keltiriladi.

Mulkni haqiqiy xo`jayinlari qo`liga topshirish tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratilishini bildiradi. Raqobatchilik muhitini vujudga keltirish esa, eng avvalo, mulkning davlat monopoliyasi ekanligiga barham berish va bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi (xizmat ko`rsatuvchi), ammo mulkchilikning turli shakllariga-davlat, jamoa, xususiy va boshqa shakllariga asoslangan ko`pdan-ko`p korxonalar tashkil qilishdan iborat.

Xususiylashtirish jarayonida mulkchilik shakllari o`zgarishi bilan birga, yagona xalq xo`jalik kompleksi sharoitida tarkib topgan tor ixtisoslashgan tarmoq monopoliya tuzilmalariga barham berish imkoniyati ham tug`iladi. Monopoliyalashtirilgan tuzilmalarni xususiylashtirishda ishlab chiqarishning o`zini nisbatan ixchamlashtirish, korxonalarni texnikaviy, texnologik va tashkiliy-iqtisodiy jihatdan qayta o`zgartirish loyihalarini ishlab chiqish zarur bo`ladi. Tashabbuskorlikka asoslangan, shuningdek turli xil kooperativlar, shirkatlar, ma'suliyati cheklangan jamiyatlar ko`rinishidagi yangi kichik va o`rta korxonalarni tashkil qilish iqtisodiyotning davlatga qarashli bo`lmagan qismini shakllantirishning ikkinchi qudratli jarayonidir. O`z-o`zidan aniqki, bozor iqtisodiyoti sharoitida ham davlat korxonalari saqlanib qolib, iqtisodiyotda sezilarli rol o`ynayveradi. Shu sababli, bunday korxonalar uchun ularning bozor sharoitlariga moslashuviga imkon beradigan xo`jalik yuritish mexanizmini ishlab chiqish talab qilinadi, ular tijoratlashtiriladi, ya'ni foyda uchun ishlaydigan korxonalarga aylantiriladi. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish bozor munosabatlarini shakllantirish yo`lidagi muqarrar jarayondir. U eng avvalo tanglik holatlariga barham berishga qaratiladi. Tanglik holati inqirozga uchrashning oldini olish uchun ishlab chiqarish, chiqarilayotgan tovar va (xizmatlar)ning sifati va turini o`zgartirish yuzasidan chora-tadbirlar ko`rishga undaydi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga, mahsulotning sifati va iste'mol xossalarini yaxshilashga, uning raqobatga bardoshligini oshirishga majbur qiladi. Bularning barchasi pirovard natijada bozorda talab va taklif o`rtasida qulay muvozanatni ta'minlashga olib keladi. Kengroq ma'noda barqarorlashtirish – bu eng avvalo makroiqtisodiyotda muvozanatni saqlash, ishlab chiqarishning keskin pasayishiga va ommaviy ishsizlikka yo`l qo`ymaslikdir. Shuningdek u pul qadrsizlanishining oldini olish, to`lov balansini bir me'yorda saqlash sohasida

aniq maqsadni ko'zlab olib boriladigan davlat siyosatidir. Jahon tajribasida barqarorlashtirish siyosatini amalga oshirishda bir necha xil yondoshuvlar tarkib topgan. Bulardan birinchisi monetar yondoshuv deb ataladi. U pulning qadrsizlanish darajasini pasaytirib turishga, pul massasini hamda to'lovga qodir bo'lgan jami talabni keskin kamaytirish hisobiga pul muomalasini barqarorlashtirishga asoslanadi. Bu yondoshuvning kamchiligi shuki, u ishlab chiqarishning jismoniy hajmi kamayishiga va investitsiya faoliyatining to'xtab qolishiga olib keladi.

Ikkinchisi – ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga, tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirishga yordamlashish, iqtisodiyotda nomutanosibliklarga barham berishga asoslangan yondoshuv. Bunda bir me'yordagi qattiq moliyaviy va pul-kredit siyosati tovar bilan qoplashning iloji bo'lmagan ortiqcha talablarni cheklash bo'yicha tadbirlar bilan uzviy bog'lab olib boriladi.

Respublikada o'tish davrida makroiqtisodiy barqarorlikka erishishda ikkinchi yondoshuvga ustunlik beriladi. Bu ishlab chiqarishning ilg'or tuzilmasiga erishish uchun ustunlikka, istiqbolga ega bo'lgan tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni har tomonlama rag'batlantirish, eng muhim bo'g'inlarni aniqlash (neft, energetika, don, paxtani qayta ishlash sanoati va h.k.) va shu orqali iqtisodiyotni tarkiban qayta tashkil qilish bo'yicha amalga oshiriladigan yondoshuvdir. Boshqalardan ustun hisoblangan etakchi tarmoqlar belgilab olinishi bilan birga, ularning ichki tuzilishini qayta o'zgartirish ham hisobga olinadi. Barqarorlashtirish dasturini ishlab chiqishda, muvozanatga keltirilgan monetar siyosat asosiy tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni tarkiban qayta tashkil qilishni qo'llab-quvvatlash siyosati bilan birga qo'shib olib borilishi zarur.

Ana shu yondoshuvlar negizida iqtisodiy barqarorlikka erishishning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- I. ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga yo'l qo'ymaslik;
- II. boshqalardan ustun bo'lgan tarmoqlarda ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun qulay sharoitlarni vujudga keltirish va rag'batlantirish;
- III. davlat byudjeti va korxonalar moliyaviy ahvolining barqarorligini ta'minlash;
- IV. pulning qadrsizlanishini to'xtatish;
- V. to'lov balansi va davlat valyuta rezervlarining holatini yaxshilash;
- VI. muvozanatlashtirilgan ijtimoiy siyosat asosida aholi turmush darajasini yaxshilash.

Byudjet intizomiga rioya qilish va uning, kamomadini cheklash barqarorlashtirishning hal qiluvchi omillaridan biridir. Bunda soliq tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'ziri bosqichda iqtisodiyotni barqarorlashtirishda kredit-bank tizimini, pul muomalasini mustahkamlash, valyuta munosabatlarini tartibga solish ham alohida o'rin tutadi. Bozor munosabatlariga o'tish davrida milliy valyutani mustahkamlash umummilliy vazifa hisoblanadi. Shu sababli milliy valyutaning barqarorligi, uning ichki bozorda erkin almashinuvini ta'minlash uchun respublikada bir qator dasturlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi.

Birinchidan, milliy valyutaning tovar (xizmat) lar bilan barqaror ta'minlanishiga erishish. Bunda bozorni iste'mol mollari bilan to'ldirish va ularning umumiy hajmida respublikada ishlab chiqariladigan mahsulotlar hissasini oshirib borish hal qiluvchi o'ringa ega bo'ladi.

Ikkinchidan, etarli barqaror valyuta zahiralariga ega bo'lish. Bunga respublika eksport imkoniyatini kengaytirish, korxonalarni eksport uchun mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarga aylantirish va ularning jahon bozorida mavqeini oshirish orqali erishiladi.

Uchinchidan, ishlab topilgan har bir so'mni qadrlash va xalq xo'jaligiga sarflangan har bir so'mning foyda bilan qaytishiga erishish. Buning uchun qat'iy moliya-kredit siyosatini izchillik bilan o'tkazish zarur.

To'rtinchidan, pul qadrsizlanishiga, inflyatsiyaga qarshi puxta o'ylangan siyosat o'tkazish. Bunda ichki bozorni mollar bilan to'ldirish, naqd pul va kredit emissiyasining o'sishiga, aholi qo'lida pulning harakatsiz turib qolishiga yo'l qo'ymaslik birinchi darajali ahamiyatga ega.

Respublikaning bozor iqtisodiyotiga o'tishida iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o'zgartirish vazifasi butunlay yangi xalq xo'jalik kompleksini bunyod etishga qaratiladi. Bu esa iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tuzilishini, ishlab chiqarilayotgan mahsulot, eksport va import tarkibini qayta qurish,

shuningdek, eng muhim makroiqtisodiy va takror ishlab chiqarish nisbatlarini tartibga solishni talab qiladi.

Respublikada bozor munosabatlariga o'tish jarayonida: «Iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirish va olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mustaqilligini yanada oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi mavjud to'siqlarni bartaraf etish - bu sohadagi o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlaridir»¹.

Shunday qilib, Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish iqtisodiyotda yangi bozor munosabatlariga asos soladi, iqtisodiy faoliyat erkinligi va tadbirkorlikni namoyon etish uchun sharoit yaratib beradi, ijtimoiy-ma'naviy sohadagi ijtimoiy kafolatlarni mustahkamlaydi.

Takrorlash uchun savollar

1. Bozor iqtisodiyotini ta'riflab bering.
2. Bozor iqtisodiyotining qanday sube'ktlari bor?
3. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilarini sanab bering.
4. Tsivilizatsiyalashgan bozor iqtisodiyotining belgilarini sharhlang.
5. «O'zbek modeli»ning besh tamoyilini izohlab bering.
6. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning jahon tajribasida sinalgan asosiy yo'llari (modellari) ni ta'riflab bering. Ularning umumiy va o'ziga xos tomonlarini ko'rsating.
7. O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish yo'li qanday xususiyatlarga ega? Respublika iqtisodiyotini isloh qilishga qanday tamoyillar asos qilib olinadi?
8. Bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish printsiplining mazmunini batafsil tushuntiring. Tar bir bosqichning maqsad va vazifalarini to'laroq bayon qiling.
9. Respublikada iqtisodiyotni isloh qilish qanday yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi. Tar bir yo'nalish bo'yicha o'zingizning fikr-mulohazalaringizni bildiring.
10. Bozor munosabatlariga o'tishda iqtisodiy islohotlar o'z oldiga qanday vazifalarni qo'yadi? Bu vazifalarning to'laroq tavsifini bering.
11. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish davrida davlatning etakchilik faoliyati nimadan iborat ekanligini tushuntirib bering.
12. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotini qaror toptirishning qanday davlat dasturlarini bilasiz? Ular bir-biri bilan qanday bog'langanligini tahlil qiling.
13. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning mazmunini tushuntiring. Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish o'z oldiga qanday vazifalarni qo'yadi?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. SHavkat Mirziyoev. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birkalikda barpo etamiz"- T: "O'zbekiston" 2016.
2. SHavkat Mirziyoev "Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini Ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" 2016 yil 7 dekabr: T, "O'zbekiston" 2017.
3. SHavkat Mirziyoev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz". T., "O'zbekiston" 2017 .
8. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyot yo'li. T. «O'zbekiston», 1992, 55-56-b.
9. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T. «O'zbekiston», 1995, 114, 182-185-b.
10. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir. T.: «O'zbekiston» 2005.
11. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi pul tizimi haqida. 1993 yil 7 may.
12. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining xalq xo'jaligini barqarorlashtirish va bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy yo'nalishlari haqida»gi Qarori 12 chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining uchinchi sessiyasi (29 oktyabr-1 noyabr), 1990 yil hujjatlari.
13. Shodmonov Sh.Sh., Alimov R.H., Jo'raev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: «Moliya» nashriyoti, 2002. IV bob, 84-101-b.
14. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma'ruzalar matni G`Mualliflar jamoasi.-TDIU. IPO "Polipaper", 2005
15. Osnovo` ekonomicheskoy teorii. Politekonomiya: Uchebnik G` Pod red. d-ra ekon. nauk, prof. D.D.Moskvina. Izd. 3-e, ispravl. – M.: Editorial URSS, 2003, s.86-105.
16. Borisov E. F. Ekonomicheskaya teoriya: ucheb. – 2-e izd., pererab. i dop. – M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2005, s.135-153.
17. Ioxin V.Ya. Ekonomicheskaya teoriya: Uchebnik G` V.Ya. Ioxin. – M.: Ekonomist', 2005, s.67-84, 121-128.
18. Kulikov L.M. Ekonomicheskaya teoriya: ucheb. - M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2005, s.128-154.
19. Sh.Shodmonov, T.Ziyaev, M.Yaxshieva "Iqtisodiyot nazariyasi" fanidan test va savollar to'plami, -T.: TDIU, 2005.
20. www.worldfactbook.ovg
21. www.imf.ovg
22. www.infoteka.economics.ru
23. www.stat.uz
24. www.uza.u
25. www.ceep.uz
26. [www.msu.ruG`depts](http://www.msu.ruG`depts)
27. www.ecsocman.edu.ru

4-MAVZU. BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI. RAQOBAT VA NARXNING SHAKILLANISHI.

Reja:

- 1. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi, uning vazifalari va rivojlanish shart-sharoitlari**
- 2. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari**
- 3. Tadbirkorlik kapitalining xarakati va uning bosqichlari**
- 4. Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylanma capital**
- 5. Raqobatning mohiyati, shakllari va usullari**
- 6. Narxning mazmuni va uning vazifalari asosiy tayanch tushunchalar:**

Asosiy tayanch tushunchalar:

Tadbirkorlik faoliyati – foyda olish maqsadida tahlika (tavakkalchilik) bilan hamda mulkiy javobgarlik asosida va amaldagi qonunlar doirasida o'z tashabbusi bilan amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir.

Hissadorlik jamiyati – ko'proq foyda olish maqsadida mehnat, mehnat qurollari va boshqa ishlab chiqarish vositalari hamda pul resurs (kapital) larini birlashtirgan uyushmadir.

Aktsiya – bu uning egasi hissadorlik jamiyati kapitaliga o'zining ma'lum hissasini qo'shganligi va uning foydasidan dividend shaklida daromad olish huquqi borligiga guvohlik beruvchi qimmatli qog'ozdir.

Aktsiya kursi – qimmatli qog'ozlar bozorida aktsiyalarning sotiladigan bahosidir.

Obligatsiya – uning egasi jamiyatga qayd qilingan foiz olish sharti bilan pul qo'yganligini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir.

Ta'sischiлик foydasi – sotilgan aktsiyalar va hissadorlik korxonasiga haqiqatda qo'yilgan mablag'lar summasi o'rtasidagi farqdan iborat bo'lib, uni jamiyatni ta'sis etuvchilar o'zlashtiradi.

Dividend – aktsiya egasi o'zlashtiradigan daromad turidir.

Tadbirkorlik kapitali - bu tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha moddiy vositalar, tovarlar va pul mablag'lari.

Aylanma kapital - bu unumli kapitalning bir doiraviy aylanish davomidagi ishlab chiqarish jarayonida to'liq iste'mol qilinadigan o'z qiymatini yaratilgan mahsulotga to'liq o'tkazadigan va ashyoviy-buyum shaklini ham yo'qotadigan qismi.

1-Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi, uning vazifalari va rivojlanish shart-sharoitlari.

Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Tadbirkorlikning tarixi juda uzoq o'tmishga borib taqalsa-da, uning hozirgi zamon tushunchasi XVIII asrda paydo bo'lgan va ko'pincha «Mulkdor» iborasi bilan bir xil tushunilgan.

Kâyinchalik râal xo'jalik hayotida qatnashuvchi kapitalning mulkdor kapitaldan ajralib chiqishi natijasida «tadbirkorlik» tushunchasi «mulkdor» tushunchasiga to'g'ri kâlmay qoladi.

Ўozirgi zamon g'arb adabiyotida ham tadbirkorlikka foyda olish maqsadini ko'zlab xo'jalik yuritish san'ati, iqtisodiy va tashkiliy ijodkorlik, tashabbusning erkin namoyon bo'lishi, novatorlik, xavf-xatarga nisbatan tayyor bo'lish va shu kabi ko'p qirrali tomonlari bilan qaraladi.

Ўozirgi kunda bizning iqtisodiy tafakkurimiz, aniqrog'i boshqarish nazariyasi xam tadbirkorlik faoliyatini shunday tushunish tomon bormoqda.

Jumladan, “Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida”gi O'zbâkiston Râspublikasi qonunida ta'riflanishicha tadbirkorlik (tadbirkorlik faoliyati) – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mulkiy ma'suliyat ostida, mavjud qonunlar doirasida, daromad (foyda) olish maqsadida, tahlika bilan amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir. qisqa qilib aytganda, tadbirkorlik faoliyati foyda olishga qaratilgan faoliyatdir.

Tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun albatta mulk egasi bo'lish shart emas, u zarur vositalarni ijaraga olishi, ssuda olishi va ishni yuritishi mumkin.

Tadbirkor bozordagi talabni qondirish imkoniyatlarini oldindan ko'ra oladi va ularni qondirish niyatida zarur bo'lgan sarmoyalarni jalb qiladi, ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish jarayonida birlashtiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishda foydalaniladigan mulk va boshqa boyliklar tadbirkorlik faoliyatisiz o'zini iqtisodiy jihatdan to'la namoyon qila olmaydi va, shubhasiz, tovar ishlab chiqaruvchilarga âtarlicha daromad kâltirmaydi.

Tadbirkorlik faoliyati tushunchasining mazmuni uning to'rtta o'zaro bog'liq vazifasini aniqlash bilan to'liq tushuniladi.

- Tadbirkor foyda olish maqsadida tovar (yoki xizmat) ishlab chiqarishning yagona jarayonida âr, suv, kapital va mâhnat râsurslarini birlashtirish tashabbusini oladi. Shu bilan birga tadbirkor bir vaqtda ishlab chiqarishning harakatlantiruvchi kuchi va ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun boshqa râsurslarni bir joyda uyg'unlashtiruvchi tashabbuskor hisoblanadi.

- Tadbirkor biznâsni yuritish, foydani ko'paytirish bo'yicha asosiy qarorlar qabul qiladi, bu qarorlar korxona faoliyatining maqsadini aniqlab bârâdi.

- Tadbirkor – yuqori foyda orqasidan quvib, yangi mahsulotlar, yangi ishlab chiqarish tâxnologiyasi yoki hatto biznâsni tashkil qilishning yangi shakllarini tijorat asosida joriy qilishga harakat qiluvchi tashabbuskor shaxs hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyati –bu tahlikaga boruvchi faoliyatdir.

Tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining shart-sharoitlari. Tadbirkorlikning rivojlanishi, o'z navbatida, bir qator sharoitlarning mavjud bo'lishini taqozo etadi, ular asosida umuman tovar ishlab chiqarishning umumiy ijtimoiy –iqtisodiy shart-sharoitlari yotadi.

Birinchidan, tadbirkor xo'jalik yuritishda uning biron turini tanlash, ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish, uni o'zgarishlarga moslashtirish, manbalarni tanlash, râsurs topish, mahsulot sotish, ularga baho bâlgilash, foydani tasarruf qilish va shu kabilar bo'yicha ma'lum xuquq va erkinliklar mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Ikkinchidan, tadbirkor ishlab chiqarish vositalariga, ishlab chiqarilgan mahsulot va olingan daromadga mulkchilik xuquqiga ega bo'lishi kârak. Tadbirkorlik faoliyati mulkdorning o'zi tomonidan ham, uning mol-mulki asosida ish yurituvchi sub'âkt tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Xo'jalik yuritish xuquqi, ya'ni mol-mulkidan foydalanish va daromadni tasarruf qilish tadbirkor tomonidan takror ishlab chiqarish jarayonini boshqarishining muhim shart-sharoitini tashkil qiladi.

Ma'lumki, tadbirkorlik faoliyatining vazifasi nafaqat foyda olishga, balki uni qaysi maqsadlarda ishlatish va samarali sarflash yo'llarini topishga qaratiladi, ya'ni u istâ'mol-taqsimotchi nuqtai-nazaridan emas, balki yuqori raqobatbardoshlikni saqlab turish, xo'jalikni takomillashtirish, kângaytirish va shu kabilarni amalga oshirishga asoslanadi.

Uchinchidan, xo'jalik yuritish yo'lini erkin tanlash, daromadni invâstitsiyalash imkoniyati va shu kabilarni râal ta'minlaydigan ma'lum iqtisodiy muhit va ijtimoiy siyosiy sharoit yaratishi zarur.

To'rtinchidan, erkin tadbirkorlik, mulkchilik va o'zlashtirishning turli-tuman shakllari va turlarini taqozo qiladi O'z navbatida turli-tumanlilikning o'zi ob'âktiv xodisa bo'lib, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi oqibati sifatida maydonga chiqadi.

Ätarli moliyaviy manbalarga, yaxshi ma'lumot va malakali tayyorgarlikka ega bo'lish, umumiy tijorat qonunchiligi, soliq bo'yicha imtiyozlar, tadbirkorlik muhiti va uni rivojlantirishda jamiyat manfaatdorligining mavjud bo'lishi tadbirkorlikni rivojlantirishning navbatdagi shart-sharoitlari hisoblanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lgan davlatlarda tadbirkorlik yaxshi rivojlanadi, aks holda faoliyatning bu turi xufyona iqtisodiyot sohasiga o'tib kätadi.

2 Tadbirkorlik faoliyatining shakllari.

Hozir jahonda ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi va o'ziga xos tomon-larining baqiyos darajada bir-biriga qo'shilib kätishi kuzatiladi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning ijtimoiy, umumdavlat maqsadlarida foydalanadigan va, nihoyat, jamoa, guruh, xususiy va shaxsiy maqsadlarda ishlatiladigan turlari mavjud. Shunga mos ravishda tadbirkorlikning turli-tuman: davlat, jamoa, shaxsiy, xususiy, aralash va boshqa hosila shakllari rivojlanadi.

Yozir jahonning ko'pchilik mamlakatlarida davlat tadbirkorligi mavjud bo'lib, ularda milliy daromadning 20 foizidan 50 foizigacha davlatlar ulushiga to'g'ri käladi. Davlat korxonalari ko'pincha mamlakat iqtisodiyoti uchun juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan yoki katta kapital qo'yilmalar talab qiladigan tarmoqlarda tuziladi. Masalan, Angliyada davlat säktori qora mätallurgiya, ko'mir qazib chiqarish, aero-kosmik sanoat, aloqa vositalari, tämir-yo'l transporti, eläkr va gaz bilan ta'minlash kabi sohalarni qamrab oladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat korxonalari milliylashtirilgan chät el kompaniyalari bazasida asosan sanoatning konchilik tarmoqlarida tuziladi. Rivojlanayotgan va rivojlangan ko'pchilik mamlakatlarda davlat kompaniyalari sanoat firmalari orasida päshqadam hisoblanadi.

Turli mamlakatlarda davlat korxonalarining huquqiy maqomi turli-tumanligi bilan ancha farqlanadi. Yatto biror-bir mamlakatda barcha davlat korxonalari faoliyatini tartibga soluvchi yagona qonuniy hujjat mavjud emas.

Yuqorida ko'rib o'tilgan sharoitlar asosida davlat korxonalarini uchta guruhga bo'lish mumkin:

- byudjät korxonalari;
- davlat ishlab chiqarish korxonalari;
- aralash kompaniyalar;

Huquqiy va xo'jalik mustaqilligiga ega bo'lmagan korxonalar byudjät korxonalariga kiradiG` O'zlarining holati bo'yicha ular davlatning ma'muriy –boshqarish tizimiga kiradi va biron-bir vazirlik, mahkama yoki mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlariga bävosita bo'ysunadi yoki ularning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular olgan foydadan soliq to'lamaydi. Barcha daromad va xarajatlar davlat byudjätı orqali o'tadi.

Davlat ishlab chiqarish korxonalari – bu korxonalarning ancha käng tarqalgan tashkiliy, huquqiy shaklidir. Ular mol-mulkka ega bo'lib, xo'jalik faoliyati bilan birga davlat tomonidan bälgilangan doirada boshqarish va tartibga solish vazifalarini ham bajaradi, ya'ni davlat korporatsiyalari o'zida tijorat korxonalari va davlat organlari bälgilarini mujassamlashtiradi.

Aralash kompaniyalar. Ular hissadorlik jamiyatlari va majburiyatlari chäklangan shirkatlar shaklida tashkil qilinib, aktsiyalari davlatga va xususiy omonatchilarga taalluqli bo'ladi. Aralash kompaniyalar hissadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonun asosida ish yuritadi va yuridik shaxs hisoblanadi, xo'jalik faoliyatida xususiy firmalar

bilan barobar tijorat asosida qatnashadi. Shu bilan birga, ular xususiy firmalarga nisbatan ma'lum imtiyozlardan foydalanadi. Bular davlat tomonidan pul va dotatsiyalar bärish, chàt el litsänziyalarini àngil shartlar bilan olish, boshqa davlat korxonalari bilan xom ashyo va yarim fabrikatlarni qat'iy bàlgilangan baholarda àtkazib bärish, ishlab chiqargan mahsulotni sotish uchun bozor bilan ta'minlanganlik va shu kabilar.

Yamma vaqt korxona (firma) jamoa tadbirkorligini amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy katàgoriya sifatida korxona ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil qilishning asosiy birlamchi bo'g'ini hisoblanadi. Xuquqiy nuqtai nazaridan korxona dàganda yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yuritish sub'àkti tushuniladi. Ular o'ziga biriktirilgan mol-mulkdan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqaradi va sotadi, ishlarni bajaradi va xizmatlar ko'rsatadi. Korxonalarining mulkchilik mavqàidan tashqari xilma-xil tashkiliy –xuquqiy shakllari ham mavjud bo'ladi. Korxonalar xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari, ishlab chiqarish koopàrativlari, jamoa korxonalari, ijara korxonalari, xo'jalik birlashmalari shaklida tuzilishi mumkin.

Koopàrativ tadbirkorlik – jamoa tadbirkorligining alohida shakli bo'lib, jamoa mulkiga asoslanadi va koopàratsiya a'zolarining uning faoliyatida o'z màhnati bilan ishtirok etishini taqozo qiladi. Koopàrativ mulkchilikka asoslangan tadbirkorlikning asosiy bàlgilari quyidagilardan iborat: ishlovchilarning ishlab chiqarish vositalari bilan bàvosita qo'shilishi (xususiy mulkchilikda bunday qo'shilishda mulkdor, davlat mulkchiligida esa davlat vositachi hisoblanadi); koopàratsiya a'zolarining ishlab chiqarish vositalaridan kàng foydalana olishi; ularning iqtisodiy jihatdan tång huquqliligi; jamoaning o'z-o'zini boshqarishni amalga oshirishi; jamoa va shaxsiy manfaatlarining uyg'unligi yuzaga kàlishi va h. k.

Xususiy tadbirkorlik alohida shaxs yoki korxona tomonidan xususiy tashabbus asosida tashkil qilinadi. Tadbirkorlikning bu shaklida mulk va ishlab chiqarish natijalari xususiy shaxslarga tågishli bo'lib, ishlab chiqarishni tashkil qilish yollanma màhnatga asoslanadi.

Shaxsiy tadbirkorlik shaxsiy mulkka asoslanadi, ishlab chiqarishni tashkil qilish o'zi yoki oila a'zolari màhnati asosida amalga oshiriladi. Shaxsiy korxona egasi uning mànàdjari ham hisoblanib, korxonaning barcha majburiyatlari uchun shaxsiy javobgar bo'ladi. Xo'jalik xuquqi nuqtai-nazaridan shaxsiy tadbirkorlik huquqiy shaxs hisoblanmaydi, shu sababli uning egasi chàklanmagan mas'uliyatga ega bo'lib, faqat fuqarolardan olinadigan daromad solig'ini to'laydi. Bu odatda kichik magazin, xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar, dàhqon xo'jaliklari, hamda xuquqshunos va hakamlarning malakaviy doirasida tashkil qilingan tadbirkorlikdir.

O'zbàkistonda kichik va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning mintaqaviy dasturlarini amalga oshirish natijasida faqat 2000 yilning o'zida 39,8 mingga yaqin korxonalar, jumladan, 12,7 ming fàrmår xo'jaliklari yuzaga kàltirildi. «... agar 1998 yilda bu sohaning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi atiga 1,5 foiz bo'lgan bo'lsa, 2000 yil natijalariga ko'ra, bu ko'rsatkich 31 foizni tashkil etdi»¹.

Tadbirkorlikning tashkiliy – iqtisodiy shakllari tadbirkorlar faoliyatini tashkil qilish sohasi bo'yicha kàlishuvlarni tavsiflaydi. Ulardan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Kartål – bir tarmoq tadbirkorlari o'rtasidagi narxlar, maxsulot sotish bozorlari, ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ularning ulushlari, mahsulot o'lchamlari va shu kabilar haqidagi kàlishuvdir;

Sindikát – bir tarmoq tadbirkorlari tomonidan ortiqcha raqobatni bartaraf qilish, barqaror foyda olish maqsadida mahsulot sotishning birlashtirilishi;

Konsortsium – tadbirkorlarning yirik moliyaviy opàratsiyalarni birgalikda amalga oshirish maqsadida birlashuvi (Masalan, yirik miqyosli loyihalarga juda katta miqdorda va uzoq muddatli kràdit bärish yoki invàstitsiyalar qo'yish).

Kontsárn – qatnashish tizimi orqali korxonalarni nazorat qiluvchi ko`p tarmoqli hissadorlik jamiyati.

Tadbirkorlikning sanab o`tilgan tashkiliy-iqtisodiy shakllari, bozorni nazorat qilish uchun monopolistik birlashmalar hisoblanadi. Shu sababli, davlat raqobatchilik muhitini ta'minlash uchun monopoliyalarga qarshi qonunlar qabul qildi.

Tabdirkorlik faoliyatini amalga oshirishning muhim shakllaridan biri hissadorlik (aktsionârlík) jamiyatlaridir.

Ancha katta va yirik ishlarni bajarishlari uchun kishilar o`zlarining mâhnatini, mâhnat qurollari va boshqa ishlab chiqarish vositalari hamda pul râsurslarini (kapitallar) birlashtirishlari lozim bo`ladi. Jamoa kuchini shu asosda birlashtirish natijasida turli xil ittifoqlar (uyushmalar) vujudga kâladiki, ular ilmiy adabiyotlarda, qonuniy bitimlarda «jamiyat» dâb atala boshlandi.

Jamiyat umumiy tushuncha; ularning shakli iqtisodiy mazmuni, faoliyatining maqsadi va xuquqiy majburiyatlari har xil bo`lishi mumkin.

Yozirgi kunda korxonalarni hissadorlik shaklda tashkil qilish jahon xo`jaligi va avvalo yirik ishlab chiqarishning ajralmas qismi hisoblanadi. AqSh, Yaponiya va g`arbiy Âvropadagi barcha âtakchi mamlakatlarda hissadorlik jamiyatlari sanoat, savdo, sug`urta ishi va iqtisodiyotning boshqa sohalarida korxonalarining âtakchi tashkiliy-huquqiy shakli bo`lib qoldi.

Aktsiya chiqarish va uni erkin joylashtirish hissadorlik munosabatlarning muhim tomonlaridan birini tashkil qiladi.

Aktsiya – bu uning egasi hissadorlik jamiyati kapitaliga o`zining ma'lum hissasini qo`shganligiga va uning foydasidan dividând shaklida daromad olish huquqi borligiga guvohlik bâruvchi qimmatli qog`ozdir. Bundan tashqari, aktsiya korxonani boshqarishda qatnashish huquqini ham bâradi.

Aktsiya kursi. Aktsiyalar maxsus tovar sifatida sotiladi va sotib olinadi, shu sababli bahoga ega.

Aktsiyada ifodalangan pul summasi uning nominal qiymati dâyliladi, aktsiya bozorida sotiladigan baho aktsiya kursi dâyliladi.

Aktsiya kursi olinadigan dividând miqdoriga to`g`ri proportsional foiz miqdoriga esa tâskari proportsionallikda bo`ladi. Xaridor bu aktsiya bo`yicha olinadigan daromadi bankka qo`yilgan puldan kâladigan foizdan kam bo`lmasa, uni sotib oladi.

Ssuda foizi o`sganda aktsiya kursi tushadi. Agar dividând ssuda foiziga qaraganda yuqori darajada o`ssa, aktsiya kursi ko`tariladi.

Aktsiyaning haqiqiy bozor kursiga dividând va ssuda foizi darajasi bilan birga, shu aktsiyaga talab va taklif nisbati ham ta'sir qiladi.

Yissadorlik jamiyatlari aktsiya bilan birga obligatsiya ham chiqaradi.

Obligatsiya – uning egasi jamiyatga qayd qilingan foiz olish sharti bilan pul qo`yganligini tasdiqlaydi. Obligatsiya hissadorlik jamiyati moliyaviy mablag`larini ko`paytirish uchun chiqariladi.

Aktsiya egasi korxona mulkdori, obligatsiya egasi esa uning krâditori hisoblanadi. Undan tashqari, obligatsiya aktsiyadan farq qilib, o`z egasiga yillik kafolatlangan daromad kâltiradi, ammo hissadorlik jamiyati ishlarini hal qilishda ovoz bârish huquqini bârmaydi. Obligatsiyalar bo`yicha to`lanadigan daromad odatdagi ssuda foizi miqdoridan ortiq bo`lmaydi. Uning qiymati hissadorlik jamiyati tomonidan ma'lum muddat o`tishi bilan to`lanadi. Aktsiyaga qo`yilgan mablag` obligatsiyaga joylashtirilgandan farq qilib, aktsionâr talabi bo`yicha qaytarilishi mumkin emas va faqat sotish orqali qoplanadi.

Ta'sisçilik foydasi. Yissadorlik jamiyatining tashkil topishi ta'sisçilik foydasi kabi daromad turining paydo bo`lishi bilan bog`liq. Ta'sisçilik foydasi sotilgan aktsiyalar summasi va hissadorlik korxonasiga haqiqatda qo`yilgan mablag` miqdori o`rtasidagi farqdan iborat.

Dividând. Ҳисдорлик korxonasida ta'sisçilik foydasi bilan bir qatorda dividând kabi daromad turi shakllanadi.

Dividând (lotincha dividendus - bo'lishga tågishli) – aktsiya egasiga to'lanadigan daromad. Dividând vositasida aktsiya egasi qimmatli qog'ozning shu turiga qo'yilgan pul mablag'lari (kapital) ning tågishli qismiga o'zining mulkçilik huquqini iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqaradi. Dividând orqali faqat hisdorlik jamiyati olgan foydaning bir qismi taqsimlanadi. Uning boshqa qismi jamg'arishga, soliq to'lashga va shu kabilarga kátadi. Dividând miqdori olinadigan foyda va chiqarilgan aktsiya miqdoriga bog'liq va hamda odatda ssuda foizidan yuqori bo'ladi.

Odatdagi aktsiyalar bo'yicha dividând miqdori hisdorlik jamiyati joriy yilda olgan foyda miqdoriga bog'liq. Imtiyozli aktsiyalar bo'yicha dividând miqdori esa joriy yildagi foyda miqdoridan qat'iy nazar qayd qilingan foiz shaklida o'rnatiladi. Jamiyat tugatilgan taqdirda imtiyozli aktsiya egasiga aktsiya qo'yilgan mablag' uning nominal qiymati bo'yicha qaytariladi.

Ҳozirgi kunda bizning ráspublikamizda korxonalarni aktsionárlashtirishning ikkita yo'nalishi tarkib topdi: birinchi yo'nalishda o'zining huquqiy maqomi o'zgartirmaydigan, davlat mulki bo'lib qoladigan korxonalar, ikkinchi yo'nalishda o'zining huquqiy statusini o'zgartirib to'liq hisdorlik jamiyatiga aylangan korxonalar aktsiya chiqaradi.

Ráspublikada hisdorlik jamiyatlarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishi davlat mulkçiligidagi yirik va o'rta korxonalarni káng ko'lamda hisdorlikka o'tkazish, ular nágizida ochiq hisdorlik jamiyatlarini tuzish hisoblanadi. Shu bilan birga ilgari tuzilgan yopiq turdagi hisdorlik jamiyatlari ochiq turdagi jamiyatlar qilib qayta tuzilishi ko'zda tutilgan. Buning ma'nosi shuki, hisdorlikka o'tish jarayoni ráspublika aholisining káng qatlamlari uchun, shuningdák, horijiy jismoniy va huquqiy shaxslar uchun ochiq bo'lishi lozim. Bunga qimmatli qog'ozlarning ochiq savdosini o'tkazib turish, fond birjasining faoliyatini kángaytirish, invástitsiya kompaniyalari, invástitsiya fondlari, kliring va agántlik tarmoqlarini tashkil qilish orqali qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasini vujudga káltirish orqali erishiladi.

3- Tadbirkorlik kapitalining harakati va uning bosqichlari.

Tadbirkorlikning xar qanday shakli uz faoliyatini amalga oshirish uchun ma'lum miqdordagi ishlab chiqarish vositalariga, va moliyaviy maglablariga ega bo'lishi zarur. Bu vosita va mablag'lar foyda olish maqsadida ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish jarayoni uchun zarur bo'ladi.

Tadbirkor ixtiyoridagi barcha moddiy vositalar, tovarlar va pul mablag'lari birgalikda tadbirkorlik kapitali deb ataladi. Uzoq yillar davomida bizning xo'jalik Seminarotimizda va iqtisodiy atamashunos-ligimizda u korxona mablag'lari (ishlab chiqarish fondlari) deb qabul qilindi va shu tushuncha bilan yuritildi. Bozor iqtisodieti shakllanayotgan hozirgi davrda barcha mulkçilikka asoslangan korxonalar (shu jumladan, davlat korxonalari va muassalar) o'zlarini tadbirkorlikning u yoki bu shakli sifatida namoyon qiladi. Shu sababli, biz xam, ular ixtiyoridagi ishlab chiqarish vositalari, tovarlar va pul mablag'larini tadbirkorlik kapitali, yoki qisqacha kapital deb aytamiz. Tadbirkorlik kapitali ishlab chiqarish va muomala jarayonida doimo xarakatda bo'ladi va bu harakat jarayonida bir qator bosqichlarni bosib o'tadi.


Pul kapitalning iqtisodiy faoliyat omillariga sarflanishi, ularning ishlab chiqarishda qo'llanilishi, ishlab chiqarilgan tovarlarning sotilishi va mablag'larning dastlabki shakliga qaytishi kabi bosqichlarni o'z ichiga olgan xarakati uning doiraviy aylanishini tashkil qiladi.

Ishlab chiqarishga sarflanadigan xar qanday sarmoya o'z harakatini pul shaklidan boshlaydi. Pul (P) tegishli resurslar bozoridan zarur tovarlar, ya'ni ishlab chiqarish vositalari (Iv) va ishchi kuchi (Ik) sotib olishga sarflanadi (avanslanadi). Bu holda pul shunchaki tovarlar sotib olishgagina emas, balki ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy faoliyat omillarini sotib olishga sarflanadi. Ushbu muomala sohasida pul kapitali o'z harakatining birinchi bosqichidan o'tadi.

P(Tb

Iq

Mazkur jarayon natijasida pul shaklidagi mablag'lar unumli kapital shakliga aylanadi va ular ishlab chiqarish jarayonining potentsial omillari hisoblanadi. Kapital xarakatida ikkinchi bosqich ishlab chiqarish (Ich) jarayoni hisoblanib uning natijasida unumli tovar (T) shaklini oladi. Bu erda xosil qilingan tovarlar qiymati ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchiga sarflangan



Chunki xosil qilingan tovarlar qiymatida ishlab chiqarish vositalarining ko'chgan qiymati, ishchi kuchi qiymatining ekvivalenti va ular tomonidan vujudga keltirilgan qushimcha mahsulot qiymati ham mavjud bo'ladi.

Uchinchi bosqichda ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish sodir bo'ladi $T' \rightarrow P'$ ushbu bosqichda tovarlar pulga aylanadi va o'zining dastlabki shakliga qaytib keladi. Dastlab, pul shaklida sarflangan mablag' yana pul shaklida, ammo miqdor jihatidan ko'proq bo'lib qaytadi.

Shu sababli uni $P' = P + p$ yoki $P = P + p$ ko'rinishida ifodalash mumkin.

Tovarlarni sotishdan tushgan pul kapitali yana ishlab chiqarish omillari sotib olish uchun sarflanadi va shu tariqa yuqoridagi harakat to'xtovsiz takrorlanaveradi.

4- Tadbirkorlik kapitalining aylanishi.

Asosiy va aylanma kapital.

Tadbirkorlik kapitalining xarakati bir doiraviy aylanish bilan to'xtab qolmaydi, balki u uzluksiz davom etib, takrorlanib turadi. Doiraviy aylanishlarning bunday uzluksiz takrorlanib, yangilanib turishi tadbirkorlik kapitalining aylanishi dāyidiladi.

Kapitalning ayrim qismlari turli tāzlikda xarakat qilishi tufayli sarflangan mablag'larning aylanish tāzligi turlicha bo'ladi. Masalan, unumli istā'molda bo'lgan xom - ashyo va matāriallar qiymati, bir doiraviy aylanishdan kāyin boshqa qismi masalan, māhnat qurollari qiymati bir nācha doiraviy aylanishdan kāyin o'zining boshlangich shakliga qaytadi.

Kapital o'zining aylanish xaraktāriga qarab ikki qismga: asosiy va aylanma kapitalga bo'linadi.

Asosiy kapital - ishlab chiqarish jarayonida bir qator doiraviy aylanishlar davomida qatnashadi, o'zining qiymatini tayyorlanayotga mahsulotga (xizmatga) bo'lib-bo'lib o'tkazib boradi va ashyoviy - buyum shaklini o'zgartirmaydi.

Aylanma kapital - bir doiraviy aylanish davomida to'liq istā'mol qilinadi, o'zining qiymatini ishlab chiqarish natijalariga to'liq o'tkazadi va ashyoviy - buyum shaklini ham yo'qotadi.

Asosiy va aylanma kapitallar farqlanishi asosida quyidagi bālgilar yotadi.

1. Ishlab chiqarish jarayonida harakat qilish xususiyatlari. Asosiy kapital tayyorlanayotgan mahsulot moddiy tarkibiga buyum jihatdan kirmaydi, uzok davr davomida faoliyat kiladi (masalan stanok—10 yil, bino—50-100 yil), o'zining oldingi natural—buyum shaklini bir nechta doiraviy aylanishlar davomida saqlab koladi. Aksincha aylanma kapital (masalan paxta, jun, metall) xar bir doiraviy aylanishda to'liq unumli iste'mol kilinadi, o'zining buyum - ashyoviy shaklini yo'qotadi va yangi turlari bilan almashinadi.

2. qiymatini ishlab chiqarish natijalariga o'tkazish xususiyati. Asosiy kapital ishlab chiqarish jarayonida kator yillar davomida faoliyat kiladi ularning qiymati tovarlarga qisman o'tib boradi. Agar stanok 10 yil, binolar esa 50 yil davomida foydalanilsa, bunda har yili mahsulot qiymatiga stanok qiymatining 1G`10 va bino qiymatining 1G`50 qismi kiradi. Xom-ashyo va materiallar

yoqilgi va energiya kabi aylanma kapital elementlari har bir doiraviy aylanishda to'lig'icha unumli iste'mol qilinadi va ularning qiymati mahsulot va xizmatlar qiymatiga to'lig'icha o'tadi.

3. Kapital qiymatining aylanish usuli. qiymatining aylanish usuli bo'yicha asosiy kapital qiymati ikkiga bo'linadi; qiymatning mahsulotga o'tgan qismi tovarlar va xizmatlar bilan birga muomalada bo'ladi va doiraviy aylanish jarayonida tovar shaklidan pul shakliga o'tadi, xamda qoplash fondi shaklida asta – sekin jamg'ariladi: mahsulotga o'tmagan qismi ishlab chiqarish doirasida mavjud bo'lgan asosiy kapitalda gavalanganicha qolaveradi. Iste'mol qilingan mehnat predmetlari qiymati to'la—to'kis aylanib, yangi mahsulotlar qiymati tarkibiga kiradi. Mehnat vositalari o'z aylanishi davomida bir qator izchil doiraviy aylanishlarga ishtirok kiladi, vaholanki mehnat predmetlarining aylanish vaqti bir doiraviy aylanish davriga to'g'ri keladi.

4. Kayta tiklanish usuli. Kayta tiklanish usulida asosiy kapitalning ishlab chiqarish natijlariga o'tkazilgan qiymati, bu vositalar bir qator doiraviy aylanishlarni o'z ichiga olgan muayyan davr davomida edirilib, ishdan chiqqandan keyin pul shaklidan yangi asosiy kapital shakliga aylanadi. Aylanma kapital har bir doiraviy aylanishdan keyin ashyoviy buyum shaklida qaytib tiklanadi.

Barcha ma'nat vositalari asosiy kapital tarkibiga kirmasdan faqat ularning inson ma'nati bilan vujudga ka'tirilgan qismi shunday kapital hisoblanadi. Shu sababli ar, o'rmonlar va boshka tabiiy ra'surslar ma'nat vositalari hisoblansada odatda asosiy kapital tarkibiga kirmaydi.

Faqat unumli kapital asosiy va aylanma kapital shaklini oladi, chunki ular ishlab chiqarish jarayonidagina o'z qiymatini mahsulotga o'tkazadi. Shu bilin birga muomala doirasida ihsab chiqarish jarayoni ma'lum darajada davom etganligi tufayli bu arda ham qo'shimcha unumli kapital masalan, muzlatish uskunalari, qadoqlash, o'lchash mashinalari, idish mat'rialari va boshqalar mavjud bo'ladiki, bular ham asosiy va aylanma kapitalga bo'linadi.

Tadbirkorlik kapitali o'z xarakatida ishlab chiqarish va muomala bosqichlarini bosib o'tadi. Shu sababli uning aylanish vaqti (Av) ishlab chiqarish vaqti (Iv) va muomala vaqti (Mv) yigindisidan iborat:

$$Av + Iv + Mv$$

Sarflangan mablag'larning ishlab chiqarish jarayonida bo'lish vaqti, ya'ni ishlab chiqarish vositalari sotib olingandan tayyor tovar bo'lgan davrgacha o'tgan vaqt ishlab chiqarish vaqtini, muomala jarayonida bo'lish vaqti, ya'ni ishlab chiqarish vositalari sotib olish va tayyor tovarlarni sotish uchun ka'tgan vaqt muomala vaqtini tashkil etadi. Ishlab chiqarish vaqti uch qismdan iborat bo'ladi.

Bavosita ma'nat jarayoni yoki ish davri (Id).

Turli tanaffuslar davri (Td).

Ishlab chiqarish vositalarining ishlab chiqarish zaxiralarida bo'lish davri (Zd)

$$Iv = Id + Td + Zd.$$

Ish davri—ishlab chiqarish vaqtining asosiy tarkibiy qismidir. Bu vaqt davomida mahsulot mehnatning bevosita ta'siri ostida bo'ladi. Ish davrining uzunligi ishlab chiqariladigan mahsulot xarakteriga, qo'llaniladigan mehnatning miqdori va uning unumdorligi darajasiga bog'liqdir.

Tanaffuslarni ikki sabab: tabiiy jarayonlarning mehnat buyumlariga ta'sir ko'rsatish zarurligi va tashkiliy xarakterdagi sabablar taqozo etadi. Birinchi holda, mehnat buyumlari u yoki bu darajada uzoq davom etadigan jismoniy, kimyoviy va biologik jarayonlarning ta'siri ostida bo'ladi. Buning natijasida muayyan foydali samaraga erishiladi yoki iste'mol qiymatlarining shakli o'zgaradi. Bunda mehnat jarayoni qisman yoki to'liq to'xtaydi, ishlab chiqarish jarayoni esa davom etadi. Tashkiliy sabablarga ko'ra tanaffuslar vaqti korxonalarning ish rejimi bilan, shuningdek ishlab chiqarishni tashkil kilish xususiyatlari bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish vositalarning zaxira va ehtiyotlar sifatida bo'lish vaqti bu, ularning ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan davrdir. Tez quritadigan, tez achitadigan, umuman texnologik jarayonlarni tezlashtiradigan yangi texnika va texnologiyalarning qo'llanilishi tanaffus davrining va binobarin ishlab chiqarish vaqtining qisqarishiga olib keladi. Transport shaxobchalarini rivojlantirish, xo'jalik aloqalarining samarali

tizimini belgilash, ishlab chiqarish vositalari bozorini shakllantirish, ehtiyojlarni puxta hisobga olish, muomala vaqtini qisqartirish uchun muxim ahamiyatga ega.

Kapitalning aylanish tezligi ulardan foydalanish samaradorligiga jiddiy ta'sir qiladi. Aylanish tezligi muayyan davr ichida (A) kilingan aylanishlar soni (p) yoki bir aylanishning uzun—kiskaligi (a) bilan belgilanadi: $PqAG^a$; $aqAG^P$

Agar kapital aylanish uzunligi uch oyni (90 kunni) tashkil etsa, u vaqtda $pq12G^3q4$; $aq360G^4q90$ kun bo'ladi.

Turli soxalarda kapitalning aylanish vaqti ularning ishlab chiqarish va muomaladagi sharoitiga karab turlicha bo'ladi. Masalan, engil sanoatda band bo'lgan kapitalning aylanish vaqti, kemasozlik va mashinasozlik sanoatlaridagi kapitalning aylanishiga nisbatan qisqa bo'ladi.

Avanslangan qiymatning aylanish tezligi ko'pgina omillarga bog'liq. Bulardan eng muximlari: unumli kapitalning qanday nisbatda asosiy va aylanma kapitalga bo'linishidir. Shu sababli asosiy va aylanma kapital tushunchalari iqtisodiy mazmunini karab chikamiz.

Raqobatning mohiyati, shakllari va usullari.

Raqobat bozor iqtisodiyotining va umuman tovar xo'jaligining eng muhim belgisi, rivojlantirish usuli hisoblanadi. Raqobatning iqtisodiy mazmunini tushunib olish unga turli tomondan yondoshishini talab qiladi. Mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar (korxonalar) o'rtasidagi raqobat tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashdan iborat. Bunda ular kerakli ishlab chiqarish vositalari, xom ashyo va materiallar sotib olish, ishchi kuchini yollash uchun ham kurashadi. Ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat oxir-oqibatda iste'molchilar uchun kurashdir. Resurslarni etkazib beruvchilar o'zlarining iqtisodiy resurslarini (kapital, er-suv, ishchi kuchi) yuqori baholarda sotish uchun raqobat qiladilar. Ishlab chiqaruvchilar va resurslarni etkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobat bozor munosabatlari rivojlangan, iqtisodiyot to'liq erkinlashgan sharoitda yorqin namoyon bo'ladi. Raqobat iste'molchilar o'rtasida ham yuz beradi; ular tovarlarni qulay va arzon baholarda sotib olishga harakat qiladilar, ya'ni xaridor har bir sarflangan pul birligi evaziga ko'proq nafililikka ega bo'lishga harakat qiladi. Arzon va sifatli tovarni tezroq sotib olish uchun kurashadi. Shunday qilib, raqobat ko'p qirrali iqtisodiy hodisa bo'lib, u bozorning barcha sub'ektlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. Raqobat-bozor sub'ektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashishidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq nafililikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi. Bunda ishlab chiqaruvchilar o'rtasida sarflangan xarajatlarining har bir birligi evaziga ko'proq foyda olish uchun kurash boradi. Mana shu foyda orqasidan quvish natijasida tovarlarni sotish doiralari, ya'ni qulay bozorlar uchun, arzon xom ashyo, energiya va arzon ishchi kuchi manbalari uchun ular orasida kurash boradi. O'z navbatida xaridorlar, ya'ni iste'molchilar sarflagan har bir so'm xarajati evaziga ko'proq nafililikka ega bo'lish uchun kurashadilar, ularning har biri arzon va sifatli tovar va xizmatlarga ega bo'lishga harakat qiladi. Ishlab chiqaruvchilarning faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor va mulk egasi sifatida erkin va mustaqil bo'lishi raqobatning iqtisodiy asosini tashkil etadi. Chunki har bir mulk egasining o'z manfaati bo'lib, ular shu manfaatga erishish uchun intiladi. Mulk egasining tovar ishlab chiqarish va barcha boshqa sohalaridagi faoliyati shu manfaatga bo'ysundirilgan bo'ladi. Bu jihatdan qaraganda raqobat erkin iqtisodiy faoliyat qiluvchi sub'ektlar manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lishini aniq xarakterlaydi. Raqobat mavjud bo'lishining boshqa sharti tovar-pul munosabatlarning ma'lum darajada rivojlangan bozor tizimida amal qilishidir. Raqobatning asosiy sohasi bozor, chunki unda erkin iqtisodiy sub'ektlarning alohidalashgan manfaatlari to'qnashadi. Raqobat kurashining mazmuni to'g'risida

to'laroq tushunchaga ega bo'lish uchun uning asosiy shakllari va belgilarini ko'rib chiqish zarur. O'z miqyosiga ko'ra raqobat eng avvalo ikki turga-tarmoq ichidagi raqobatga va tarmoqlararo raqobatga bo'linadi. Iqtisodiy adabiyotlarda bir tarmoq ichidagi raqobatning to'rtta shakli alohida ajratilib ko'rsatiladi. Bular erkin raqobat, monopolistik raqobat, monopoliya va oligopoliyadir. Erkin raqobat ikki darajada namoyon bo'ladi: tarmoq ichida, ya'ni bir xil tovarlar ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rtasidagi raqobat va tarmoqlaro, ya'ni turli tarmoqlardagi korxonalar o'rtasidagi raqobat. Tarmoqlar ichidagi raqobat ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo'lish, qo'shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o'rtasida boradi. Har bir tarmoqda texnika bilan ta'minlanish darajasi va mehnat unumdorligi darajasi turlicha bo'lgan korxonalar borligi sababli shu korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning individual (alohida) qiymati bir xil bo'lmaydi. Tarmoq ichidagi raqobat tovarlarning ijtimoiy qiymatini, boshqacha aytganda, bozor qiymatini aniqlaydi va belgilaydi. Bu qiymat, odatda, o'rtacha sharoitda ishlab chiqarilgan va muayyan tarmoq tovarlarining anchagina qismini tashkil etadigan tovarlarning qiymatiga mos keladi. Tarmoqlar ichidagi raqobat natijasida texnikaviy darajasi va mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan korxonalar qo'shimcha foyda oladilar va aksincha, texnika jihatdan nochor korxonalar esa, o'zlarida ishlab chiqarilgan tovar qiymatining bir qismini yo'qotadilar va zarar ko'radilar. Tarmoqlararo raqobat turli tarmoqlar korxonalari o'rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurashdan iborat. Bunday raqobat foyda normasi kam bo'lgan tarmoqlardan foyda normasi yuqori tarmoqlarga kapitallarning oqib o'tishiga sabab bo'ladi. Yangi kapitallar ko'proq foyda keltiruvchi sohalarga intilib, ishlab chiqarishning kengayishiga, taklif ko'payishiga olib keladi. Shu asosda, narxlar pasaya boshlaydi. Shuningdek, foyda normasi ham pasayadi. Kam foyda keltiruvchi tarmoqlardan kapitalning chiqib ketishi teskari natijaga olib keladi: bu erda ishlab chiqarish hajmi o'zgaradi, tovarlarga bo'lgan talab ular taklif qilishidan oshib ketadi, buning oqibatida narxlar ko'tariladi, shu bilan birga foyda normasi oshadi. Natijada tarmoqlararo raqobat ob'ektiv ravishda qandaydir dinamik muvozanatni keltirib chiqaradi. Bu muvozanat kapital qaerga sarflanganligidan qat'iy nazar, teng kapital uchun teng foyda olinishiga intilishni ta'minlaydi. Demak, tarmoqlararo raqobat kapital qaysi tarmoqqa solinmasin, xuddi shu tarmoq foyda normalarini o'rtacha foyda normasiga «baravirlashtiradi».

Erkin raqobat sharoitida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqda juda ko'p sonli korxonalar mavjud bo'ladi. Yuqori darajada tashkil qilingan bozorda ko'plab sotuvchilar o'zlarining mahsulotlarini taklif qiladilar. Erkin raqobatli bozorda alohida korxonalar mahsulot narxi ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi. Chunki har bir korxonada umumiy ishlab chiqarish hajmi uncha katta bo'lmaydi. Shu sababli alohida korxonada ishlab chiqarishning ko'payishi yoki kamayishi umumiy taklifga, demak mahsulot bahosiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Erkin raqobat sharoitida yangi korxonalar tarmoqqa erkin kirishi, tarmoqda mavjud bo'lgan korxonalar esa uni erkin tashlab chiqishi mumkin. Xususan yangi korxonalarning paydo bo'lishi va ularning raqobatli bozorda mahsulotlarini sotishga huquqiy, texnologik, moliyaviy va boshqa jiddiy iqtisodiy to'siqlar bo'lmaydi. Monopoliyada tarmoq bitta firmadan iborat bo'lishi sababli, u mavjud mahsulot (xizmat) ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va yakka hukmronlik shakllanadi. Monopoliya sharoitida firma narx ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi. Buning sababi oddiy. U mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va demak, taklifning umumiy hajmi ustidan nazorat qiladi. Monopoliyaning mavjud bo'lish tarmoqqa kirish uchun to'siqlarning mavjud bo'lishiga sabab bo'ladi. Iqtisodiy, texnik, huquqiy yoki boshqa to'siqlar yangi raqobatchilarning tarmoqqa kirishiga yo'l qo'ymaydi. Tarmoqqa kirish uchun to'siqlar har xil ko'rinishlarni oladi. Bularning asosiylari quyidagilar:

a) Ishlab chiqarish miqyosi keltirib chiqaradigan to'siqlar, shu jumladan, moliyaviy to'siqlar ko'p holatlarda shunchalik katta bo'ladiki bu tarmoqqa kirishni taqiqlash bilan

barobar. Masalan, yirik ishlab chiqaruvchi hisoblangan avtomobil sanoatiga kirish, yangi texnologiyaga asoslangan zarur uskunalarni sotib olishga juda katta pul-kapitali talab qiladi.

b) Tabiiy monopoliyalar vujudga keltiradigan to'siqlar. Buning mazmuni shundan iboratki, bir qancha tarmoqlarda raqobat mavjud bo'lmaydi, uni amalga oshirish mumkin emas. Ijtimoiy foydalanishdagi bunday tarmoq korxonalari tabiiy monopoliyalar deyiladi. Tabiiy monopoliyalarga elektr, gaz, suv ta'minoti va aloqa korxonalari misol bo'la oladi. Davlat bunday monopoliyalar faoliyatini tartibga solishda o'z huquqini saqlab qoladi. Agar tarmoqlar davlat mulkchiligiga asoslangan bo'lsa, bunday ijtimoiy foydalanishdagi korxonalar tartibga solinadigan yoki davlat tomonidan tuzilgan monopoliyalar deyiladi.

YaMM (YaIM)ni daromadlar bo'yicha hisoblashda uy xo'jaliklari, korxona va davlat muassasalarining dastlabki, ya'ni taqsimlangan daromadlarini mehnat haqi va yalpi foydaga (renta, ssuda foizi va tadbirkorlik foydasi va h. k.) ajratish mumkin. YaMM (YaIM)ni mazkur usul bo'yicha hisoblashda daromadlarning barcha summasiga iste'mol qilingan asosiy kapital qiymati (amortizatsiya ajratmasi) va biznesga egri soliqlar summasi ham qo'shiladi.

Agar YaMMni hisoblashning oxirgi ikki usulini oddiy tenglik shaklida tasvirlasak:

Mazkur yilda ishlab chiqarilgan IMMni sotib olishga

sarflar hajmi q Mazkur yilda ishlab chiqarilgan IMMdan olingan pul daromadlari summasi.

Mahsulotni ishlab chiqarishga nima sarflangan bo'lsa, bu mazkur mahsulotni ishlab chiqarishga o'zining ishchi kuchi va moddiy resurslarini bozorda sotishga qo'yanlari uchun daromad hisoblanadi.

Asosiy kapitalning ko'pchilik turlarining foydali xizmat muddati uzoq davrni tashkil qiladi. Investitsion tovarlapni cotib olishga qilinadigan capflap va ulapning unumli xizmat muddati amalda bip davpga to'g'ri kelmaydi. Shu sababli kopxonalap investitsion tovarlapning foydali xizmat muddatini hicoblaydi va ulapning ymumiy qiymatini butun xizmat muddatiga teng taqcimlaydi. Asosiy kapitalning yil davomida ishlab chiqapish japayonida ict'e'mol qilingan va yapatilayotgan mahculotga ko'chgan qiymati amoptizatsiya ajratmasi deyiladi. Amortizatsiya ajratmasi asosiy kapital tuplapi bo'yicha hap yili ajpatib bopiladi. Macalan, to'quv dactgohining qiymati 5 mln. Co'm, xizmat muddati i0 yilga teng. Yillik amortizatsiya ajpatmaci 0,5 mln. Co'mni (5:10) tashkil qiladi.

Amortizatsiya ajpatmaci shu yil ishlab chiqapilgan mahculot (yamm) qiymati tapkibiga ishlab chiqapish xapajatlapi cifatida kipib, mahculot cotilishi natijacida pul shaklida qaytib keladi va amortizatsiya fondi hicobida to'planib bopadi. By fond mablag'lapidan ict'e'mol qilinran asosiy kapitalni qayta tiklash, ya'ni yangi investitsion tovarlap sotib olish va amal qilib tupganlarini kapital remont qilish va ta'mirlash uchun foydalaniladi. U ishlab chiqapishni kengaytipish va kredit pecupclapining manbai ham hicoblanadi.

Dapomad to'lash bilan bog'liq bo'lmagan xapajatlapning boshqa tyri egpi coliqlap kopxonalap uchun ishlab chiqapish xapajatlapi cifatida chiqadi va shu cababli mahculot narxiga qo'shiladi.

Bunday coliqlap o'z ichiga aksiz to'lovlapi, cotishdan olinadiran coliqlap, mulk colig'i, litsenziya va bojxona to'lovlapini oladi.

Dapomadlapning eng muhim tyri ish haqi tadbirkorlar va davlat tomonidan ishchi kuchini taqdim qilganlapga to'lanadi. U ish haqiga ko'plab qo'shimchalap, ijtimoiy sug'urta to'lovlapi va nafaqa

ta'minotining hap xil xucuciy fondlari, ishcizlik nafaqalari va boshqa har xil mukofot hamda imtiyozlarni o'z ichiga oladi. Ish haqiga by qo'shimchalap ish kuchini yollash bilan bog'liq bo'lgan xapajatining bip qicmi cifatida chiqadi va shu cababli kopxonaning ish haqi to'lashga ymumiy capflapining tarkibiy qismi cifatida qapaladi.

Renta to'lovlarini iqtisodiyotni pecupclap (kapital, ep) bilan ta'minlovchi yy xo'jaliklarning oladigan dapomadi hicoblanib, kopxona xapajatlari tapkibiga kipadi.

Foiz pul kapitali egalapiga pul dapomadi to'lovlaridan ibopat. Bunda davlat tomonidan amalga oshipiladigan foizli to'lovlar, foizli dapomadlar tarkibidan chiqapiladi.

Mulkdan olinadigan dapomadlar ikki tupga bo'linadi: bip qicmi mulkga dapomad va boshqa qicmi eca koppopatsiyalap foydaci deyiladi.

4-Makroiqtisodiy beqarorlik va iqtisodiyotning tsiklligi. Iqtisodiy inqirozlar.

Har qanday mamlakat, shu jumladan industrial rivojlangan mamlakatlar ham iqtisodiy o'sishga, hamda to'liq bandlilik va narxlarning barqaror darajasiga erishishga harakat qiladi, ammo uzoq muddatli iqtisodiy o'sish bir tekis va uzluksiz bormaydi, u iqtisodiy beqarorlik davrlari bilan uzulib turadi. Iqtisodiy o'sish ketidan doimo tanazzul kelib turadi. Vaqti-vaqti bilan ob'ektiv qonunlarning o'zgartirib bo'lmaydigan ta'siri ostida takror ishlab chiqarish harakatida uzilishlar paydo bo'ladi va bu uzilish iqtisodiyot nomutanosibliklarining keskin shaklda namoyon bo'lishidir.


Iqtisodiy sikl deganda, odatda ishlab chiqarishning bir iqtisodiy holatidan, yoki bir inqirozdan ikkinchisi boshlangunga qadar takrorlanib turadigan to'liqsimon harakati tushuniladi. Sikl inqiroz, turg'unlik, jonlanish, yuksalish fazalarini o'z ichiga oladi. Ana shu fazalarning har biri rivojlanishi jaryonida navbatdagi fazaga o'tish uchun sharoit yuzaga keladi.

Inqiroz ishlab chiqarishning pasayishida ifodalanadi va siklning qayd etuvchi ifodasidir. U bir siklni nihoyasiga etkazib, yana muqarar ravishda inqiroz bilan tugaydigan yangisining boshlanishiga asos soladi; inqiroz vaziyatda asosiy kapitalning ortiqcha jamg'arilishi uning hamma funktsional shakllarida namoyon bo'ladi. Inqirozdan keyin turg'unlik keladiki, uning davomida iqtisodiy faollik jonlanishi uchun sharoitlar vujudga kelishi nihoyasiga etadi.

Jonlanish fazasining boshlanishi ozmi-ko'pmi darajada barqaror ishlab chiqarishning kengayishiga o'tishni bildiradi.

Ish bilan ta'minlanish darajasining ortishi va foydalarning tez o'sishi jonlanishning yuksalish bosqichiga o'sib-o'tishiga ko'maklashadi. Yangi sikl yuksalishning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Yuksalish fazasida ish kuchiga bo'lgan talabning kengayishi ishsizlikning birmuncha kamayishiga hamda ish haqining o'sishiga olib keladiki, buning oqibatida iste'mol tovarlariga to'lovga qodir talab kengayadi. Pirovard talabning oshishi, o'z navbatida, iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga, bozorni kengaytirishga jadal turtki beradi. Raqobat va foyda ketidan quvish oqibatida nomutanosibliklarning to'planib borishidan iborat zanjirli reaksiya tezlashadi. Bu bilan yangi inqiroz muqarar bo'lib qoladi.

Alohida iqtisodiy sikllar bir-biridan davomiyli va intensivligi bo'yicha keskin farqlanadi. Shu bilan birga ularning hammasi bir xil fazalarga ega bo'ladi va har xil tadqiqotchilar tomonidan turlicha nomlanadi. 6-chizmada ko'pchilik iqtisodchilari tomonidan tan olingan iqtisodiy sikl ko'rsatilgan. Siklning eng yuqori nuqtasida, iqtisodiyotda to'liq bandlilik kuzatiladi va ishlab chiqarish to'liq yoki deyarli to'liq quvvat bilan ishlaydi. Siklning bu fazasida narx darajasi o'sish tamoyiliga ega bo'ladi, iqtisodiy faollikning o'sishi to'xtaydi.



6-chizma. Iqtisodiy sikl

Tanazzul fazasida ishlab chiqarish va bandlilik qisqaradi, ammo narxlar pasayish tamoyiliga berilmaydi. Tanazzulning quyi nuqtasida ishlab chiqarish va bandlilik o'zining eng past darajasiga erishishi bilan xarakterlanadi.

Iqtisodiy inqiroz deb ishlab chiqarish hajmining keskin tushib ketishiga aytiladi.

Inqirozning sababi shundan iboratki, jamiyatda ishlab chiqarilgan tovarlar massasi to'lovga qobil talabga mos kelmay (undan oshib ketadi yoki kam bo'ladi) qoladi. Natijada ishlab chiqarishning bir qismi to'xtab qoladi, tovarlar ishlab chiqarish kamayadi, ishlab chiqarishning o'sish davri uning tushkunligi bilan almashinadi. Iqtisodiyotning tez o'sish davrlari ko'pincha inflyatsiya, ya'ni narx darajasining ko'tarilishi bilan orqaga ketadi. Shunday davrlar ham bo'ladiki, bunda iqtisodiy o'sish bandlilik va ishlab chiqarishning past darajasiga o'rin beradi, ayrim hollarda narx darajasining ko'tarilishi bilan birga ishsizlik ham keskin o'sadi. qisqacha aytganda, iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli tamoyillari ham ishsizlik, ham inflyatsiya oqibatida uzilib qoladi va murakkablashadi. Inqirozlarning asosiy sababi — takror ishlab chiqarishdagi beqarorlik va nomutanosibliklardir. Bu avvalo ishlab chiqarish va uning natijalarini o'zlashtirish o'rtasidagi nomutanosiblik bo'lib, u turli ishlab chiqarish usullari va iqtisodiy tizimning har xil nusxalarida turli shakllarida namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqarish bilan iste'mol, talab va taklif o'rtasidagi vaqti-vaqti bilan yuzaga kelib turadigan nomutanosibliklar ham iqtisodiy inqirozlarning yuzaga chiqish imkoniyatini saqlaydi.

Kapitalizmga bo'lgan davrlarda ishlab chiqarishning keskin qisqarishi, odatda tabiiy ofatlar (qurg'oqchilik, toshqinlar va x.k.) yoki urushlar va ularning keltiradigan vayronagarchiliklari bilan bog'liq bo'lgan. Yirik mashinali ishlab chiqarishga o'tilgan davrdan keyingi vaqti-vaqti bilan iqtisodiyotni larzaga solib turuvchi iqtisodiy inqirozlar ijtimoiy takror ishlab chiqarishga siklik xarakterni kasb etadi.

Ko'pchilik hozirgi zamon iqtisodchilari iqtisodiy sikllarning ob'ektiv xarakterini tan olib, bu hodisani unga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillarni tahlil qilish orqali o'rganishni tavsiya qiladi.

Tashqi omillarga iqtisodiy tizimdan tashqarida yotuvchi va iqtisodiy hodisalarning davriy takrorlanishini keltirib chiqaradigan omillar kiritiladi. Bu tashqi omillar ichidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- urushlar, inqilobiy o'zgarishlar va boshqa siyosiy larzalar;
- oltin, uran, neft va boshqa qimmatli resurslar yirik konlarning ochilishi;
- yangi hududlarning ochilishi va bu bilan bog'liq ravishda aholi migratsiyasi, er shari aholisi sonining o'zgarib turishi;
- ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibini tubdan o'zgartirishga qodir bo'lgan texnologiya, tadqiqotlar va innovatsiyalardagi qudratli o'zgarishlar.

Iqtisodiy sikllarni tashqi omillarning mavjudligi bilan tushuntiruvchi nazariyani, eksternal nazariya deb atash qabul qilingan. Internal nazariya iqtisodiy sikllarni iqtisodiy tizimning o'ziga xos ichki omillar tug'diradi deb hisoblaydi.

Asosiy kapitalning jismoniy xizmat muddati, ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan iqtisodiy siklni tug'diruvchi muhim omillardan biri sifatida qoraladi.

Agar bir yoki bir necha tarmoqda, mashina -uskunalarga talabning keskin ortishi keltirib chiqaradigan iqtisodiy o'sish boshlansa, to'liq tabiiyki, bu hol mashina va uskunalar to'liq eskiradigan har 10-15 yildan keyin takrorlanadi.

Boshqa ichki omillardan qo'yidagilar ajratib ko'rsatiladi:

- Shaxsiy iste'molning o'zgarishi (qisqarishi yoki kengayishi);
- investitsiyalar, ya'ni ishlab chiqarishni kengaytirish, uni yangilash va yangi ish joylarini vujudga keltirishga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmi;
- ishlab chiqarish, talab va takliflar hajmiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan davlatning iqtisodiy siyosatining o'zgarishi;

Iqtisodiy sikllarning kelib chiqishini faqat eksternal yoki internal nazariya orqali tushuntirish ko'pam to'g'ri emas. Iqtisodiy sikl va umuman iqtisodiy tizimdagi miqdoriy va sifat o'zgarishlar tashqi va ichki omillar oqibatida kelib chiqishi mumkin emas.

5-Iqtisodiy sikl nazariyalari. Siklning iqtisodiyotning alohida sohalariga ta'siri.

Hozirgi zamon iqtisodiy fanida iqtisodiy sikl va siklli rivojlanishga mingdan ortiq qarashlar mavjudligi ta'kidlanadi¹. Biz ularning ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan tan olingan asosiylariga tavsif beramiz.

Kitchin sikli - zahiralari sikli deb ham nomlanadi. Bunda Kitchin (1926 y.) moliyaviy hisoblar va tovar zahiralari harakatida sotish narxlarini tahlil qilish asosida 2 yildan 4 yilgacha davr davomidagi qisqa to'lqinlarni tadqiq qilishga o'zining e'tiborini qaratadi.

Juglar sikli - biznes-tsikl, sanoat sikli, o'rtacha sikl va katta sikl kabi nomlar bilan ham ataladi. Oldingi davrlarda iqtisodiy fan 7-12 yillik sikllarni ajratib ko'rsatganligi tufayli, aynan shu sikl Frantsuz, Angliya va AqShda foiz stavkalari va narxdagi tebranishlarni asosiy tahlil qilish asosida sanoat siklining tabiatini o'rganishga katta hissa qo'shgan K.Juglar (1819-1905 yy.) nomi bilan ataladi.

Birinchi sanoat sikli 1825 yil, mashinali ishlab chiqarish, metallurgiya va boshqa etakchi tarmoqlarda hukmron mavqeni egallagan davrda Angliyada kuzatiladi. 1836 yildagi krizis dastlab Angliyada boshlanib, keyin AqShga ham tarqaladi, 1847-1848 yillarda AqSh va qator evropa davlatlarida boshlangan krizis, tub mohiyatiga ko'ra birinchi jahon sanoat krizisi bo'lgan.

Agar XIX asrda sanoat sikli 10-12 yilni tashkil qilgan bo'lsa, XX asrda uning davomiyligi 7-9 yil va undan ham kam davrgacha qisqargan.

AqSh va Evropaning rivojlangan davlatlari XX asrda 12 ta sanoat siklini boshdan kechirgan bo'lib, ulardan ettitasi ikkinchi jahon urushidan keyin ro'y bergan.

Kuznets sikli - ko'p xollarda «qurilish sikli» deb nomlanib, 20 yilgacha bo'lgan iqtisodiy tebranishlar bilan aniqlanadi. S.Kuznets o'zining «Milliy daromad» (1946 y.) nomli kitobida, milliy daromad, iste'molchilik sarflari, ishlab chiqarish maqsadidagi uskunalar, hamda bino va inshootlarga yalpi investitsiyalar ko'rsatkichlarida 20-yillik o'zaro-bog'liq tebranishlar mavjud bo'lishini aniqlaydi. 1955 yilda amerikalik iqtisodchining xizmatlarini tan olish ramzi sifatida sanoat siklini Kuznets sikli deb nomlashga qaror qilinadi.

Kondratev sikli - «uzoq to'lqinlar» sikli deb ham ataladi. Sikllilikning bu nazariyasini ishlab chiqishga rus olimi N.D.Kondratev katta hissa qo'shadi. Uning tadqiqoti Angliya, Frantsiya va AqShning, 100-150 yil davomidagi rivojlanishini qamrab oladi. Bunda u iqtisodiy o'sishning ko'p omilli tahlilini o'tkazib, ya'ni tovar narxlari kapital uchun foiz, nominal ish haqi, tashqi savdo aylanmasi kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'rtacha darajasini umumlashtirish natijasida bir qator katta sikllarni ajratib ko'rsatadi.

- I-tsikl: 1787-1814 yy. - ko'taruvchi to'lqin, 1814-1851 yy. Pasaytiruvchi to'lqin.
- II-tsikl: 1844-1851 yy. - ko'taruvchi to'lqin, 1851-1873 yy. - pasayuvchi to'lqin.
- III-tsikl: 1873-1896 yy. - ko'taruvchi to'lqin.

Kondratev siklining davomiyligi o'rtacha 40-60 yilni tashkil qiladi va uning asosiy xususiyati texnika taraqqiyoti hamda tarkibiy o'zgarishlarni o'zida aks ettirishi hisoblanadi.

Kondratev birinchi katta siklning yuksalish fazasini Angliyadagi sanoat revolyutsiyasi, ikkinchisini - temir yo'l transportining rivojlanishi, uchinchisini - elektroenergiyasi, telefon va

radioning kashf etilishi, to'rtinchisini - avtomobil sanoatining rivojlanishi bilan bog'laydi. Hozirgi zamon tadqiqotchilari beshinchi siklni elektronika, gen injenerligi va mikroprotsessorlar rivojlanishi taqozo qilishini ko'rsatadi.

Iqtisodiy sikl barcha tomonlari bilan namoyon bo'lib, amalda iqtisodiyotning hamma sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyot tarkibiy qisimlarning o'zaro bog'liqligi sababli uning hech bir sohasiga inflyatsiya to'liqini yoki turg'unlikning nohush oqibatlaridan chetda qolmaydi. Ammo shuni e'tiborga olish zarurki, iqtisodiy sikl alohida shaxslar turmush darajasi va korxonalar iqtisodiy faolligiga turli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Odatda iqtisodiy inqirozlardan sanoatning ishlab chiqarish vositalari va uzoq muddatli foydalaniladigan iste'molchilik tovarlari ishlab chiqaradigan tarmoqlari ko'proq yo'qotishga uchraydi.

Uy-joy va sanoat binolari qurilishi, og'ir mashinasozlik hamda investitsion tovarlar, avtomobillar, maishiy xo'jalik buyumlari va shunga o'xshash tovarlar ishlab chikarish bilan bog'liq sanoat tarmoqlari va ularda band bo'lgan ishchilar siklning inqiroz fazasida og'ir oqibatiga uchraydi. Biroq, bu tarmoqlar siklning yuksalish fazasida o'zining rivojlanish uchun yuqori darajada rag'bat oladi.

Iqtisodiyot qiyinchilikni boshdan kechira boshlaganda, ishlab chiqaruvchilar ko'pincha zamonaviy uskunalarni sotib olishni va yangi zavodlar qurishni to'xtatadi yoki qandaydir muddatga kechiktirishi mumkin. Bunday kon'yuktura sharoitda investitsion tovarlar zahiralarni ko'paytirish hech qanday iqtisodiy mazmunga ega emas, aksincha korxonalar mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan ancha to'laroq foydalanishlari mumkin bo'ladi.

Iqtisodiy jihatdan qulay davrlarda ya'ni siklning jonlanish va yuksalish fazalarida ishlab chiqarish vositalari odatda ular to'liq eskirganicha almashtiriladi. Ammo tanazzul davri kelganida, korxonalar o'zining eskirgan uskunalarini ta'mirlab, ularni ishga tushiradi. Shu sababli bu davrda ishlab chiqarish vositalariga investitsiyalar keskin qisqaradi. Ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari mavjud bo'lgan ayrim korxonalar, hatto iste'mol qilingan asosiy kapitalining o'rnini qoplashga ham harakat qilmaydi.

qisqa mudatli foydalaniladigan iste'molchilik tovarlari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari siklining oqibatlarini nisbatan kamroq darajada sezadi.

Aholi yoki keng iste'molchilar qatlamiga iqtisodiy sikl turlicha ta'sir ko'rsatadi. Tanazzul davri boshlanganda, doimiy daromad oluvchi iste'molchilar oila byudjetini qisqartirishga to'g'ri keladi, maishiy texnika va avtomashina kabi uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarni xarid qilishini to'xtatadi. Har qanday sharoitda ham oila a'zolari eb-ichishi va kiyinishi zarurligi tufayli, oziq-ovqat mahsulotlari va kiyim-kechaklar, ya'ni qisqa muddatda foydalanadigan iste'molchilik tovarlarini xarid qilishni to'xtatish mumkin emas. Faqat, bunday tovarlarni xarid qilish miqdori qandaydir darajada kamayishi mumkin.

Investitsion tovarlar va uzoq muddat foydalaniladigan iste'molchilik tovarlari ishlab chiqaruvchi ko'pchilik sanoat tarmoqlari yuqori darajada monopol mavqega egaligi bilan farqlanadi va natijada bozorda nisbatan ko'p bo'lmagan yirik firmalar ma'lum davr davomida narxning pasayishiga qarshi turishi, talabning kamayishi sababli mahsulot chiqarish hajmini cheklash uchun etarlicha monopol hukumdorlikka ega bo'lishi mumkin. Shu sababli talabning kamayishi birinchi navbatda ishlab chiqarish va bandlilik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Bunga teskari bo'lgan holatni qisqa muddatli foydalaniladigan iste'molchilik tovarlari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarida kuzatish mumkin. Bu tarmoqlarning ko'pchiligi o'zlarining raqobatga layoqatsizligi va ishlab chiqarishi markazlashuv darajasining pastligi bilan xarakterlanadi. Shu sababli ular siklning salbiy oqibatlariga qarshi tura olmasligi mumkin va mahsulotlariga talabning pasayishi ishlab chiqarish darajasiga qaraganda narxlarda ko'proq aks etadi.

Demak, kapitalning to'planishi yuqori darajada bo'lgan tarmoqlarda ishlab chiqarish xajmining keskin pasayishi va narxlarning nisbatan sekin tushishi, to'planish darajasi past bo'lgan

tarmoqlarda narxlarning sezilarli tushishi va maxsulot ishlab chiqarish hajmining nisbatan kam qisqarishi kuzatiladi.

Iqtisodiy o'sishning mazmuni, turlari va ko'rsatkichlari

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi ko'p omilli va shu bilan birga ziddiyatli jarayon hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish hech qachon bir tekis, yuqorilab boruvchi chiziqli bo'yicha ro'y bermaydi.

Iqtisodiy rivojlanish o'z ichiga yuksalish va inqiroz davrlarini, iqtisodiyotdagi miqdor va sifat o'zgarishlarni, ijobiy va salbiy tamonlarni olib notekis boradi.

Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanish qiyin aniqlanadigan jarayon bo'lganligi sababli, uning mezonlaridan biri bo'lgan iqtisodiy o'sish ko'proq tahlil qilinadi. Iqtisodiy o'sish iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy qismi bo'lib, o'z ifodasini real yamm (yaim) hajmining va uning aholi jon boshiga ko'payishida topadi.

Iqtisodiy o'sishga tarixiy jihatdan yondashilganda, u bir xil suratlarda va bir tekis bormaydi. Tarixda iqtisodiy o'sish suratlarining jadallashish, jiddiy pasayish va hatto cheklanish davrlari ma'lum. Agar katta tarixiy bosqichlar olib qaraladigan bo'lsa, jahon va milliy iqtisodiyotda, barqaror iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarishning har tomonlama taraqqiyot manzarasi hosil bo'ladi. Shu bilan birga iqtisodiy o'sish nafaqat miqdor, balki muayyan sifat o'zgarishlari shaklida ham namoyon bo'ladi. Prezidentimiz i.karimov ta'kidlab o'tganlaridek: «iqtisodiy rivojlanish sur'atlari haqida gapirganda... Uning mezonlariga va eng avvalo, sifat ko'rsatkichlariga ko'proq e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o'sishlar iqtisodiyotimizda yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar, uning izchil va barqaror rivoji uchun xizmat qilishi, xalqimizning hayot darajasini yuksaltirishga, bir so'z bilan aytganda, Seminar hayotimizni yaxshilashga olib kelishi lozim»¹. Shunday ekan iqtisodiy o'sish bevosita yalpi milliy mahsulot miqdorining mutloq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishi hamda sifatining yaxshilanishida va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi.

Mahsulotning o'sish sur'ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o'zgarishi o'rtasidagi nisbat iqtisodiy o'sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

Ekstensiv iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi. Aytaylik, mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa ko'paytirish uchun mavjud korxona bilan bir qatorda o'rnatilgan uskunalarning quvvati, miqdori va sifati ishchi kuchining soni va malaka tarkibi bo'yicha xuddi o'shanday yana bir korxona quriladi. Ekstensiv rivojlanishda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o'zgarmay qoladi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish: yanada progressivroq ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek mavjud ishlab chiqarish potentsialidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan erishiladi. Intensiv yo'l ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samaraning, pirovard mahsulot miqdorining o'sishida, mahsulot sifatining oshishida o'z ifodasini topadi. Bunda mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa oshirish uchun mavjud korxonaga teng bo'lgan yana bir korxona qurishga hojat yo'q. Bu natijaga ishlab turgan korxonani rekonstruksiya qilish va texnika bilan qayta qurollantirish, mavjud resurslardan yaxshiroq foydalanish hisobiga erishish mumkin.

Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sof holda, alohida-alohida mavjud bo'lmaydi, balki muayyan uyg'unlikda, bir-biri bilan qo'shilgan tarzda bo'ladi. Shu sababli ustivor ekstensiv va ustivor intensiv iqtisodiy o'sish turlari tahlil qilinadi.

Iqtisodiy o'sish murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Shu sababli uni baholash uchun qandaydir bitta ko'rsatkich kifoya qilmaydi, muayyan ko'rsatkichlar tizimi talab qilinadi. Bu ko'rsatkichlar tizimida jismoniy va qiymat ifodasidagi ko'rsatkichlar farqlanadi.

Iqtisodiy o'sishning jismoniy ko'rsatkichlari ancha aniq natija beradi, (chunki ular inflyatsiya ta'siriga berilmaydi), lekin universal emas (iqtisodiy o'sish sur'atlarini hisoblashda har xil ne'matlar ishlab chiqarishni umumiy ko'rsatkichga keltirish qiyin). Qiymat ko'rsatkichlar keng qo'llaniladi, ammo har doim ham uni inflyatsiyadan to'liq «tozalash» mumkin bo'lavermaydi. Shu sababli iqtisodiy o'sish sur'atlari qiyosiy yoki doimiy narxlarda hisoblanadi.

Makroiqtisodiy darajada iqtisodiy o'sishning asosiy qiymat ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi: Yamm (imm) yoki milliy daromadning mutloq hajmi va uning o'sish sur'ati;

1. Yamm (imm) yoki milliy daromadning aholi jon bosh hisobiga to'g'ri keladigan miqdori va uning o'sish sur'ati;

2. Yamm (imm) yoki milliy daromadning iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga to'g'ri keladigan miqdori va uning o'sish sur'ati;

Iqtisodiy o'sishni aniqlashda har uchala ko'rsatkichdan ham foydalanish mumkin, lekin ularning ahamiyati turlicha.

Masalan: agar diqqat markazida iqtisodiy potentsial muammosi tursa, birinchi ko'rsatkichdan foydalanish ko'proq mos keladi. Alohida mamlakat va regionlardagi aholining turmush darajasini taqqoslashda, ko'proq ikkinchi ko'rsatkichdan foydalaniladi. Iqtisodiy samaradorlikni baholashda uchinchi ko'rsatkichga ustivorlik beriladi.

Odatda iqtisodiy o'sish % (foiz) da o'sishning yillik sur'ati sifatida aniqlanadi. Masalan, agar o'tgan yili real yamm 60 mlr. So'mni va joriy yilda 70 mlr. So'mni tashkil qilgan bo'lsa, o'sish sur'atini joriy yildagi real yamm ning bazis davrdagi hajmiga bo'lish yo'li bilan aniqlash mumkin. Bu holda o'sish sur'ati 16,6% ni ($70 \div 60 \cdot 100$) tashkil qiladi.

Mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atini xarakterlaydigan ko'rsatkichlar (real yamm va aholi jon boshiga real yammning o'sishi) miqdoriy ko'rsatkichlar bo'lib, ular

- birinchidan mahsulot sifatining oshishini to'liq hisobga olmaydi va shu sababli farovonlikning haqiqiy o'sishini to'liq xarakterlab berolmaydi;

- ikkinchidan, real yamm va aholi jon boshiga yammning o'sishi bo'sh vaqtning sezilarli ko'payishini aks ettirmaydi va farovonlik real darajasining pasaytirib ko'rsatilishiga olib keladi, – uchinchidan, iqtisodiy o'sishni miqdoriy hisoblash boshqa tomondan uning atrof muhitga va insonning hayotiga salbiy ta'sirini hisobga olmaydi.

Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini xarakterlovchi ko'rsatkichlari ham mavjud bo'lib, ulardan asosiylari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanish darajasi, mehnat unumdorligi va ish vaqtini tejash, shaxsiy daromad va foyda massasi, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi kabilar hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi:

A) ishlab chiqarish vositalarining rivojlanish darajasi, ya'ni uning unumdorligi.

B) xodimning malakasi va tayyorgarlik darajasi.

V) ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omili o'rtasidagi nisbat.

G) mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning tashkil etilishi, ixtisoslashtirilishi va kooperatsiyasi.

5. Milliy boylik tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi

Milliy boylik insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg'arilgan moddiy, nomoddiy va intellektual hamda tabiiy boyliklardan iboratdir.

Milliy boylikning bir qismini inson mehnatining natijasi hisoblasak, boshqa qismi tabiat boyliklaridan iborat bo'ladi. Shunday ekan milliy boylik keng ma'noda o'z ichiga nafaqat moddiy va nomoddiy ne'matlar, yaratilgan san'at asarlari, intellektual salohiyatni balki barcha tabiat resurslari va boyliklari hamda takror ishlab chiqarishning tabiiy iqlim sharoitlarini ham oladi. Milliy boylikning bu barcha tarkibiy qismlarini miqdoran, qiymat o'lchovlarida hisoblab chiqish bir qator ob'ektiv sabablariga ko'ra ancha qiyin, jumladan uning tabiat in'omlaridan iborat qismi inson mehnatining natijasi hisoblanmaydi va qiymat o'lchovlariga ega emas. Shu sababli iqtisodiy tahlil Seminarotida milliy boylikning tor ma'nodagi tushunchasidan foydalaniladi. Tor ma'noda milliy boylik insoniyat mehnati bilan yaratilgan va takror ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan barcha moddiy boyliklardan iborat bo'ladi. Milliy boylikning bu qismi milliy iqtisodiyot rivojining butun tarixi davomida doimiy takrorlanib turuvchi ishlab chiqarish jarayonining, umumiy natijasi sifatida chiqadi va moddiy buyumlashgan shaklda namoyon bo'ladi. U kishilarning ko'plab avlodi mehnati natijasi hisoblanadi.

Aytilganlardan kelib chiqib, milliy boylikni shartli ravishda quyidagi uchta yirik tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

1. Moddiy buyumlashgan boylik.
2. Nomoddiy boylik.
3. Tabiiy boylik.

Moddiy buyumlashgan boylik oxiri oqibatda ishlab chiqarishning, unumli mehnatining natijasi hisoblanadi. U ishlab chiqarish yaratilganda mahsulotlarning joriy iste'mol qilishdan ortiqcha qismini jamg'arish oqibatida vujudga keladi va o'sib boradi.

Ammo moddiy buyumlashgan boylikni qator yillardagi yillik yalpi mahsulotlar yig'indisi sifatida tasavvur qilish noto'g'ri bo'lur edi. Chunki bu boylikning bir qismi har yili ishdan chiqarib, qaytadan yangilanib turadi (ishlab chiqarish vositalari, iste'mol buyumlari). Shu sababli ishlab chiqarish vositalarining o'rni qoplash bilan bir vaqtda yalpi mahsulotning faqat bir qismi moddiy buyumlashgan boylik sifatida jamg'arilib boriladi. Demak, qoplash fondi va moddiy buyumlashgan boylikning o'sishi yalpi milliy mahsulot hisobiga amalga oshiriladi.

Milliy boylikning inson mehnati bilan yaratilgan moddiy qismi qiymat shakliga ega bo'lib, tarkibiy tuzilishi bo'yicha qo'yidagilarni o'z ichiga oladi:

— ishlab chiqarish xarakteridagi asosiy kapital (fondlar). Bular butun milliy boylikning tarkibida ancha katta salmoqqa ega bo'ladi, hamda o'zining texnikaviy darajasi bo'yicha yalpi milliy mahsulotning o'sish imkoniyatini belgilab beradi:

— noishlab chiqarish xarakteridagi asosiy kapital (fondlar). Asosiy kapitalning bu turiga mamlakatning uy-joy fondi, ijtimoiy madaniy xarakterdagi ob'ektlar kiradi.

— aylanma kapital (fondlar). Milliy boylikning bu qismi mehnat predmetlaridan iborat bo'lib, asosiy kapitalning taxminan 1g'4 qismini tashkil qiladi.

— tugallanmagan ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan qismi. Ular ishlab chiqarish bosqichida mehnat jarayoni ta'siri ostida bo'lib, potentsial tayyor mahsulot hisoblanadi.

— moddiy zahiralalar va ehtiyojlar. Bunga muomala bosqichdagi tayyor mahsulot, korxonalar va savdo tarmoqlaridagi moddiy zahiralalar, davlat ehtiyojlari va rezerv fondlari kiradi. Moddiy zahiralalar iqtisodiyotda ro'y berishi mumkin bo'lgan va oldindan bilib bo'lmaydigan favqulotda holatlarda foydalanish maqsadida ushlab turiladi.

Davlat ehtiyojlariga oltin zahiralari, sug'urta va mudofaa ehtiyojlari uchun zarur zahiralalar kiradi.

— aholining uy, tomorqa va yordamchi xo'jaligida jamg'arilgan mol-mulk. Bunga uy-joy, avtomobil, madaniy-maishiy buyumlar, kiyim-kechaklar va shu kabilarning qiymati kiradi.

Moddiy buyumlashgan boylik tarkibiy qismlarining mazmuni va ularning salmog'i o'zgarishsiz qolmaydi. Asosan fan-texnika taraqqiyoti sharoitida moddiy, buyumlashgan boylik tarkibida yirik o'zgarishlar ro'y beradi. Sanoat tarmoqlarining asosiy kapitali tez ko'payadi va yangilanadi, noishlab chiqarish sohasining asosiy kapitali tarkibida ilmiy, o'quv, sog'liqni saqlash muassasalarining ulushi tobora ko'proq hissasini egallaydi. Tabiiy resurslarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish suratlari o'sib boradi.

Moddiy buyumlashgan boylik o'sishining asosiy omillari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Mehnat unumdorligining o'sishi;

Ishlab chiqarish samaradorligining ortishi;

Milliy daromadda jamg'arish normasining ortishi.

Moddiy buyumlashgan boylik ishlab chiqarishning natijasi va shart-sharoiti hisoblanadi. Buning ma'nosi shuki, bir tomondan mahsulotdan milliy boylik tomon harakatda boylikning iste'mol qilingan qismining qoplanishi va uning ko'payishi ro'y beradi. Boshqa tomondan milliy boylik ishlab chiqarishning moddiy shart-sharoiti, uning moddiy texnikaviy asosi hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarishning o'sish sur'ati va miqyosi milliy boylikdan foydalanish xarakteriga bog'liq bo'ladi.

Moddiy buyumlashgan boylikni oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish farqlansa-da, har ikkalasi ham yalpi milliy mahsulot hisobiga amalga oshiriladi.

Milliy boylikning boshqa qismi tabiiy boyliklar ishlab chiqarishning shart-sharoitini va inson faoliyatining tashqi muhitini tashkil qiladi. Tabiiy boylikning vujudga kelishi insoniyat jamiyat rivojiga bog'liq emas, u tabiat qonunlari asosida ro'y beradi. Foydali qazilma boyliklar, o'rmonlar, suv va er resurslari xuddi shunday vujudga kelib ishlab chiqarishdan tashqarida turadi.

Tabiat in'omlari o'zlarining dastlabki ko'rinishida tabiiy boylik bo'lib, shu holatida inson faoliyatining natijasi hisoblangan ijtimoiy boylik tarkibiga kirmaydi. Buning ma'nosi shuki, tabiiy boyliklar jamiyat uchun faqatgina potentsial boylik hisoblanadi. Ular real boylikka inson mehnatining ta'siri oqibatida aylanadi.

Milliy boylik nafaqat moddiy ishlab chiqarish sohalarida yaratiladi. Uning bir qismi nomoddiy ishlab chiqarish sohalarida vujudga keltiriladi va jamiyatning nomoddiy boyligi hisoblanadi. Nomoddiy sohalarida ashyoviy-buyum shakl bilan bog'liq bo'lmagan alohida turdagi iste'mol qiymatlar hosil qilinadi. Ular ham moddiy ishlab chiqarish sohalarining faoliyat qilishi va rivojlanishi uchun shuningdek bevosita aholining turmush darajasini ta'minlash va oshirib borish uchun zarur bo'ladi. Bunday boyliklarga ta'lim, sog'likni saqlash, fan, madaniyat, san'at, sport sohalarida vujudga keltiriladigan nomoddiy qimmatliklar kiradi. Uning tarkibida tarixiy yodgorliklar, arxitektura obidalari, noyob adabiyot va san'at asarlari alohida o'rin tutadi.

Jamiyatning nomoddiy boyliklarida madaniyat va san'atning rivojlanish darajasi, jamiyat a'zolarining to'plagan ilmiy bilimlari va intellektual darajasi, ishlovchilarning ixtisosligi va malakaviy bilim darajasi, sog'liqni saqlash, ta'lim va sportning rivojlanish darajasi o'z ifodasini topadi.

Moddiy buyumlashgan boylikning o'sishi jamiyat moddiy qimmatliklari ko'payishining asosi hisoblanadi. Agar fan-texnika taraqqiyoti yuqori sur'atlar bilan rivojlansa madaniyat, san'at, fan kabi nomoddiy sohalar ham o'sib va takomillashib boradi.

Shunday qilib, milliy boylik moddiy buyumlashgan va tabiiy boyliklardan ancha keng tushuncha bo'lib, o'z tarkibiga jamiyatning nomoddiy xarakterdagi qimmatliklarini ham oladi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Makroiqtisodiy ko'pcatkichlap nimalar va ular milliy iqtisodiyotda qanday rol o'ynaydi?
2. YaMM va SMM bip-bipidan nima bilan farqlanadi? SMM va milliy dapomad-chi?
3. YaMM harakat shakllari tavsifini bering.
4. YaMM qanday usullarda hisoblanadi? Ularning farqi nimadan iborat.
5. Nominal va real YaMM tushunchalarini izohlang. Ularning farqini ko'rsating.
6. Yalpi talab va yalpi taklifni tahlil qilish nima uchun zarur?
7. Yalpi talab nima? Nima uchun talab egri chizig'i o'zgaradi? Yalpi talabga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
8. Yalpi taklif nima? Yalpi taklif egri chizig'idan uchta kesmani tasvirlang va ular nimani ko'rsatishini tushuntiring? Yalpi taklifga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
9. Makroiqtisodiy barqarorlik nima? Unga erishishning qanday yo'llari mavjud?
10. Iqtisodiy siklning oqibatlarini baholang ?
11. Iqtisodiy inqirozlarning kelib chiqish sabablarini tushuntiring?
12. Tarkibiy inqirozlarni tushuntiring ?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. SHavkat Mirziyoev. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birkalikda barpo etamiz"- T: "O'zbekiston" 2016.
2. SHavkat Mirziyoev "Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini Ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" 2016 yil 7 dekabr: T, "O'zbekiston" 2017.
3. SHavkat Mirziyoev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz". T., "O'zbekiston" 2017 .
 1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Muqaddima, 1,2,3-moddalar. -T.: «O'zbekiston», 1998.
 2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, taraqqiyot shartlari va kafolatlari. T. «O'zbekiston», 1997, 181-215-b.
 3. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: «O'zbekiston» 2005.
 4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. To'g'ridan-to'g'ri xususiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida. 2005 yil 11 aprel. "Xalq so'zi", 2005 yil 12 aprel.
 5. Shodmonov Sh.Sh., Alimov R.H., Jo'raev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: «Moliya» nashriyoti, 2002. XIII bob, 244-258-b.
 6. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma'ruzalar matni G`Mualliflar jamoasi.-TDIU. IPO "Polipaper", 2005
 7. Ekonomika: Uchebnik. 3-e izd., pererab. i dop. G`Pod red. d-ra ekon. nauk prof. A.S. Bulatova. – M.: Ekonomist', 2005, s.387-397.
 8. Sh.Shodmonov, T.Ziyaev, M.Yaxshieva "Iqtisodiyot nazariyasi" fanidan test va savollar to'plami, -T.: TDIU, 2005.
 9. <http://G`G`www.msu.ruG`depts>
 10. <http://G`G`www.ecsocman.edu.ru>

6-MAVZU. MOLIYANING MOHIYATI VA MOLIYA TIZIMI, DAVLATNING SOLIQ BYUDJET SIYOSATI. PUL MUOMILASI, KREDIT VA BANKLAR.

Reja:

1. Moliyaning mohiyati va vazifalari. Moliya tizimi
2. Byudjet taqchilligi va davlat qarzlar
- 3 Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari. Pulga bo`lgan talab va pul taklifi
- 4.Inflyatsiya, uning mohiyati va turlari
5. Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari
- 6.Bank tizimi. Markaziy va tijorat banklar hamda ularning azifalari

Asosiy tayanch tushunchalar:

Moliya – pul fondlarining harakati, ya'ni ularning shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishi bilan bog`liq ravishda vujudga keladigan munosabatlar.

Moliya tizimi – moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalardir.

Davlat byudjeti – davlat xarajatlari va ularni moliyaviy ta'minlash manbalarining tartiblashtirilgan rejasi.

Byudjet taqchilligi – byudjet xarajatlarining daromadlar qismidan ortiqcha bo`lishi natijasida vujudga kelgan farq.

Davlat qarzlar – byudjet taqchilligini qoplash maqsadida davlat tomonidan jalb qilingan moliyaviy resurslar.

Soliqlar – jamiyatda vujudga keltirilgan sof daromadning bir qismini byudjetga jalb qilish shakli.

Soliq stavkasi – soliq summasining soliq olinadigan summaga nisbatining foizdagi ifodasi.

Loffer egri chizig'i – davlat byudjeti daromadlari va soliq stavkasi o'rtasidagi bog'liqlikning tasvirlanishi.

Pul muomalasi – tovarlar aylanishiga hamda notovar xarakteridagi to'lovlar va hisoblarga xizmat qiluvchi naqd pullar va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlarning harakati.

Pul tizimi – tarixan tarkib topgan va milliy qonunchilik bilan mustahkamlangan, mamlakatda pul muomalasini tashkil qilish shakli.

Inflyatsiya – qog'oz pul birligining qadrsizlanishi.

Kredit – bo'sh turgan pul mablag'larini ssuda fondi shaklida to'plash va ularni takror ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun qarzga berish.

Foiz normasi (stavkasi) – foiz yoki foizli daromadning qarzga berilgan pul summasiga nisbatining foizda ifodalanishi.

Banklar – kredit munosabatlariga xizmat qilib, kredit tizimining negizini tashkil qiluvchi maxsus muassasalar.

Bank operatsiyalari – mablag'larni jalb qilish va ularni joylashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalar.

Bank foydasi (marja) – olingan va to'langan foiz summalari o'rtasidagi farq.

Bank foyda normasi – bank sof foydasining uning o'z kapitaliga nisbatining foizdagi ifodasi.

Moliyaning mohiyati va vazifalari. Moliya tizimi.

Moliyaviy munosabatlar ko'p qirrali bo'lib, iqtisodiy munosabatlarning muhim sohasini tashkil qiladi.

Moliya iqtisodiy kategoriya sifatida pul mablag'laridan foydalanish va uning harakatini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar tizimi bo'lib, uning vositasida turli darajada pul mablag'lari fondlari vujudga keltiriladi va ular takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida taqsimlanadi.

Moliya iqtisodiyot doirasida o'zaro bog'liq bo'lgan bir qator vazifani bajaradi.

1. Moliyaning iqtisodiy jarayonlarni, tadbirlarni moliyaviy ta'minlash va unga xizmat ko'rsatish vazifasini bajaradi.

2. Moliyaning taqsimlovchi vazifasi, moddiy ishlab chiqarish sohalarida yaratilgan yalpi milliy mahsulotni, ayniqsa, uning milliy daromadni tashkil qiluvchi qismini davlat va mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, iqtisodiyot tarmoqlari, moddiy ishlab chiqarish sohaları, mamlakat hududlari o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlashda namoyon bo'ladi. Bundan milliy daromadning bir qismi korxona va aholi daromadlaridan turli xil soliqlar olish, renta va bojxona to'lovlari, aktsiz yig'inlari kabilar orqali davlat qo'lida to'planadi. O'z qo'lida to'plangan milliy daromadning katta qismini davlat moliya vositasida aholining ijtimoiy madaniy ehtiyojlariga (uy joy qurilishi, tibbiyot xizmati, maorif, nafaqa, stipendiya va shu kabilar to'plashga), daromadlar darajasini ushlab turishga, milliy mudofaaga, atrof muhitni muhofaza qilish va shu kabilar sarflaydi.

3. Moliyaning rag'barlantiruvchilik vazifasi, birinchidan, yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash jarayonida, ikkinchidan, pul fondlarini tashkil qilish va sarflash mexanizmi vositasida amalga oshiriladi. Ikki holda ham moliya ishlab chiqarish samaradorligiga, uning pirovard natijasiga, mahsulot sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

4. Moliyadan ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol ustidan nazorat qilish vositasi sifatida foydalaniladi. Moliyaviy nazorat korxona (firma)larning moliya intizomga rioya qilish uchun moddiy javobgar bo'lish tizimi, turli soliqlar undirib olish va mablag' bilan ta'minlash tizimi orqali amalga oshiriladi.

Moliyaviy munosabatlar va ularga xizmat qiluvchi maxsus muassasalar jamiyatning moliya tizimini tashkil qiladi. Moliya tizimi korxonalar (tarmoqlar) va umumdavlat moliyasini o'z ichiga oladi.

Korxona va tarmoqlar moliyasi ulardagi takror ishlab chiqarish jarayonida hamda alohida fondlar yaratish yo'li bilan xodimlarning ijtimoiy ehtiyojlariga xizmat qiladi.

Umumdavlat moliyasi davlat byudjetini, ijtimoiy sug'urta fondini hamda davlat mol-mulkiy va shaxsiy sug'urtasi fondini o'z ichiga oladi. Davlat pul mablag'larining asosiy markazlashgan fondi

bo'lmish davlat byudjeti moliya tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi. Davlat byudjeti - bu davlat xarajatlari va ularni moliyaviy qoplash manbalarining yillik rejasidir. Davlat daromadlari va xarajatlarining asosiy qismi davlat byudjeti orqali o'tadi. Uning asosiy vazifasi moliyaviy vositalar yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish va umumdavlat miqyosidagi ijtimoiy vazifalarni hal qilish uchun sharoit yaratishdir.

Umumdavlat byudjeti bilan birga hokimiyat quyi organlarining (viloyat, tuman va shahar) byudjeti ham mavjud bo'ladi. Bu mavjud moliyaviy resurslarni ancha to'laroq jalb qilish va ulardan samarali foydalanish

imkonini beradi. Hokimiyat quyi organlari byudjetining daromadlari o'z hududidagi korxonalar daromadidan, aholidan olinadigan soliqlar, mulk soliqlari va shu kabilar orqali shakllanadi.

Ularning daromadi qisman davlat byudjetidan beriladigan subsidiyalar hisobiga ham to'ldiriladi. Hokimiyat quyi organlari byudjet mablag'lari tegishli hududda ta'lim, sog'liqni saqlash, obodonchilik, yo'l qurilish va shu kabilarga sarflanadi.

Davlat mol-mulkiy va shaxsiy sug'urtasi umumdavlat moliyasining keyingi bo'g'ini hisoblanib, mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar va fuqarolarga joriy qilinadi. U majburiy va ixtiyoriy bo'lishi mumkin. Bu maqsadlar uchun fondlar korxona va aholining to'lovlari hisobiga shakllanadi. Fond mablag'lari mol-mulkiy sug'urtasiga va shaxsiy sug'urtaga pul to'lashni ko'zda tutadi.

Shaxsiy sug'urta aholining pul jamg'armalarini tashkil qilishning shakllaridan biri bo'lib ham xizmat qiladi.

Jamiyat moliya tizimi ijtimoiy siyosiy va ma'rifat ishlari bilan shug'ullanuvchi tashkilot va muassasalarning moliyasini ham o'z ichiga oladi. Kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, yoshlar, xotin-qizlar, faxriylar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, sport jamiyatlari va boshqa ilmiy ma'rifiy jamiyatlarning ham o'ziga xos moliyasi mavjud bo'ladi. Bunday ijtimoiy tashkilotlarning moliyaviy resurslarining manbai, tashkilot a'zolarining kirish puli va badallari, tijorat faoliyatidan kelgan daromad, xomiyar ajratgan yoki xayriya qilgan mablag'lardan iborat bo'ladi. Jamiyat moliya tizimida maxsus va xayriya fondlari ham alohida o'rin tutadi. Bu fondlar turli xo'jalik sub'ektlari va aholining pul mablag'larini aniq bir maqsad yo'lida birlashtiradi va ishlatadi.

Mazkur fondlarga respublikamizda amal qilib turgan "Mahalla", "Navro'z", "Orol" va "Ulug'bek" fondlarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Bozor iqtisodiyotiga o'tib borish bilan jamiyat moliya tizimida turli xil sug'urta (ijtimoiy sug'urta, tibbiy sug'urta) fondlari va byudjetdan tashqari moliya fondlari (pensiya fondi, aholini ish bilan ta'minlash fondi, tabiatni muhofaza qilish fondi, tarixiy yodgorliklarni saqlash fondi, tadbirkorlarga ko'mak berish fondi va boshqalar)ning ahamiyati ortib boradi.

2-Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari

Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari muvozanatda bo'lishini taqozo qiladi. Lekin ko'pchilik hollarda davlat byudjeti xarajatlarining daromadlardan ortiqchaligi kuzatiladi, buning oqibatida byudjet taqchilligi tez sur'atlar bilan o'sadi. Bu holning sabablari ko'p bo'lib, ularning ichida, davlatning jamiyat hayotining barcha sohalaridagi rolining uzluksiz o'sib borishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarining kengayishi alohida o'rin tutadi.

Byudjet taqchilligining o'sishi mutloq miqdorda va uning yalpi milliy mahsulot (YaMM)ga nisbatida aniq namoyon bo'ladi. 2000 yilda Respublikamiz davlat byudjetining taqchilligi YaIMga nisbatan bir foizdan oshmagan¹.

Byudjet taqchilligining o'zgarishi xo'jalik kon'yunkturalaridagi joriy tebranishlar, ishlab chiqarishdagi davriy inqiroz va yuksalishlarni ham aks ettiradi, krizislar davrida davlat byudjet mablag'lari hisobidan iqtisodiyotning ma'lum sektorlarini ushlab turishga, umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan tarmoqlarda investitsiyalar hajmini saqlab turishga majbur bo'ladi.

Byudjet taqchilligini moliyalashtirish (qoplash) ning muhim sharoiti davlat krediti bo'lib chiqadi. Davlat krediti deganda, davlat qarz oluvchi yoki kreditor sifatida chiqadigan barcha moliyaviy iqtisodiy munosabatlar yig'indisi tushuniladi.

Moliyaviy resurslarni davlat qarz olishning asosiy shakli – bu davlat zayomlarini chiqarish hisoblanadi. Ularni joylashtirish jarayonida davlat aholi, banklar, savdo va sanoat kompaniyalarining vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qiladi.

Davlat o'z majburiyatlarini nafaqat xususiy sektorda joylashtirishi, balki ularni Markaziy bankda hisobga olishi ham mumkin. Bunda bank muomalaga pulning tovar hajmining ko'payishi bilan bog'liq bo'lmagan qo'shimcha massasini chiqaradi. Mazkur holda, davlat byudjetini moliyalashtirish pul muomalasiga to'g'ridan-to'g'ri inflyatsion ta'sir ko'rsatadi. Pul massasining o'sishi jamiyat haqiqiy boyligining ko'payishi bilan birga bormaydi.

Davlat qarzlarning to'xtovsiz ko'payib borishi, milliy daromadni foiz to'lovlari shaklida, tobora ko'proq qayta taqsimlanishga olib keladi.

Katta byudjet taqchilligi va davlat majburiyatlari bo'yicha foiz to'lovlari o'sish sharoitida, davlat qarzlarni to'lash vaqtini imkon darajada cho'zishga harakat qiladi. Buning uchun turli xil usullardan foydalanish mumkin. Jumladan davlat o'zining qisqa muddatli majburiyatlarini, o'rta va uzoq muddatli zayomlarga almashtiradi. U o'zining qisqa muddatli majburiyatlarini, ancha yuqori foiz bo'yicha yangi, uzoq muddatli zayomlar chiqarish hisobiga ham sotib olish mumkin. Bunday turdagi tadbirlar qisqa davrli samara berishi va vaqtincha davlatning moliyaviy ahvolini engillatishi mumkin, chunki u odatda kelgusida foiz stavkasining oshishi va qarzlarning umumiy miqdorining o'sishi bilan bog'liq.

Xo'jalik hayoti baynalmillashuv jarayonlarining tez o'sishi, xalqaro kreditning jadal rivojlanishi natijasida davlat o'ziga zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni jalb qilish uchun, bo'sh pul mablag'larining milliy chegaradan tashqaridagi manbaalaridan faol foydalanadi. Buning natijasida tashqi qarz vujudga keladi.

Shunday qilib, davlat zarur moliyaviy resurslarini ham ssuda kapitallarining milliy bozoridan va ham tashqi bozoridan qarz oladi.

Xalqaro kreditning tez o'sishi kapitalning mamlakatlararo migratsiyasi, mamlakat va regionlar iqtisodiy o'zaro bog'liqligining chuqurlashuvining muqarrar natijasi hisoblanadi. Xalqaro kredit moliyaviy resurslarni ham xususiy sektorning ehtiyojlarini qondirish, ham davlat byudjeti taqchilligini qoplash uchun jalb qilish imkoniyatini sezilarli kengaytiradi. Shu bilan birga tashqi qarzlarning o'sishi bir qator boshqa muammolarni keltirib chiqaradi. Ulardan asosiy, milliy vositalar bilan nazorat qilib bo'lmaydigan ham kreditor va ham debitor mamlakatlar iqtisodiyotining kuchayib boruvchi bog'liqligi hisoblanadi.

Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari.

Pulga bo'lgan talab va pul taklifi.

Pul muomalasi - bu tovarlar aylanishiga hamda notovar xarakteridagi to'lovlar va hisoblarga xizmat qiluvchi nakd pullar va unga tenglashtirilgan aktivlarning harakatidir. Naqd pul muomalasiga bank biletleri va metall tangalar (pul belgilari) xizmat qiladi. Naqd pulsiz hisoblar cheklar, kredit kartochkalari, veksellar, akkreditivlar, to'lov talabnomalari kabilar yordamida amalga oshiriladi. Ularning hammasi pul agregati deb yuritiladi. Muomalada mavjud bo'lgan pul massasi ularni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

I. Pul muomalasi o'ziga xos qonunlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Uning qonunlaridan eng muhimi muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash va shunga muvofiq muomalaga pul chiqarishdir.

II. Muomalani ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul miqdori quyidagilarga bog'liq.

III. Muayyan davrda, aytaylik bir yil davomida sotilishi lozim bo'lgan tovarlar summasiga. Tovarlarning qancha ko'p bo'lsa va narxi baland bo'lsa, ularni sotish va sotib olish uchun shuncha ko'p pul birligi talab qilinadi.

IV. Pul birligining aylanish tezligiga.

V. Pul bir xil bo'lmagan tezlik bilan aylanish qiladi. Bu ko'p omillarga, jumladan ular xizmat qilayotgan tovarlar turiga bog'liq.

VI. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori puldan to'lov vositasi vazifasidan foydalanishga ham bog'liq. Ko'pincha tovarlar qarzga sotiladi va ularning haqi kelishuvga muvofiq keyingi davrlarda to'lanadi. Demak, zarur pul miqdori shunga muvofiq miqdorda kamayadi. Ikkinchi tomondan, bu davrda ilgari kreditga sotilgan tovarlar haqini to'lash vaqti boshlanadi. Bu pulga ehtiyojni ko'paytiradi.

Mazkur holatlarni hisobga olganda, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$\Pi_M = \frac{T_6 - X_k + X_T}{A_T}; \text{бунда,}$$

Pm - muayyan davrda muomala uchun zarur bo'lgan pul birligi miqdori;

Tb - sotilishi lozim bo'lgan tovarlar narxi summasi;

Xk - haqi sotish davridan boshqa vaqtda to'lanadigan tovarlar narxi summasi;

Xt - haqini to'lash muddati kelgan tovarlar narxi summasi;

At - pulning aylanish tezligi.

Muomalada bo'lgan pul birligi miqdorining tovarlar narxi summasidan oshib ketishi va buning natijasida tovarlar bilan ta'minlanmagan pulning paydo bo'lishi pulning qadsizlanishi, ya'ni inflyatsiyani bildiradi.

Milliy iqtisodiyotda davlatning, tijorat banklari va boshqa moliyaviy muassalarning majburiyatlari pul sifatida foydalanadi.

Pul operatsiyalarining asosiy ko'pchilik qismi naqd pulsiz, cheklar va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar yordamida amalga oshiriladi. Shu sababli muomalada bo'lgan pul miqdorini hisoblash uchun M1 ...Mn pul agregatlari yoki tarkibiy qismi tushunchasidan foydalaniladi.

Bizning respublikamizda umumiy pul miqdori quyidagi (tarkib)lar asosida hisoblanadi:

Mo –naqd pullar;

M1qMoQ tegishli hisob varakalaridagi pul qoldiqlari, mahalliy byudjetlar mablag'lari, byudjet, jamoat va boshqa tashkilot mablag'lari;

M2 q M1 Q xalq (jamg'arma) banklaridagi muddatda omonatlar.

M3 q M2 Q chiqarilayotgan sertifikatlar Q aniq maqsadli zayom obligatsiyalari Q davlat zayom obligatsiyalari Q xazina majburiyatlari.

Barcha pul agregatlari yig'indisi yalpi pul massasi yoki yalpi pul taklifini tashkil qiladi.

Pulning tarkibiy qismlarida naqd pullar – metall va qog'oz pullardan iborat bo'ladi. Naqd pullar bozor iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlarda umumiy pul massasining 5-7 foizni, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mustaqil hamdo'stlik davlatlarida 30–35% ni tashkil qiladi.

Pulga talab – bu bitimlar uchun (Pt) va aktivlar tomonidan pulga talab (Pa) ni o'z ichiga oladi.

Aholi o'zlarining hisoblariga navbatdagi pul oqimi kelib tushguncha, kundalik ehtiyojlari uchun qo'llarida etarli pulga ega bo'lishi zarur. Korxonalarga ish xaqi to'lash, material, yoqilg'i sotib olish va shu kabilar uchun pul kerak bo'ladi. Shu barcha maqsadlar uchun zarur bo'lgan pul bitim uchun pulga talab deyiladi. Bitim uchun zarur bo'lgan pul miqdori nominal yalpi milliy mahsulot (YaMM) hajmi bilan aniqlanadi, ya'ni u nominal YaMM ga mutanosib ravishda o'zgaradi. Aholi va korxonalarga ikki holda bitim uchun ko'proq pul talab qilinadi: narxlar o'sganda va ishlab chiqarish hajmi ko'payganda.

Kishilar o'zlarining moliyaviy aktivlarini har xil shakllarda, masalan, korporatsiya aksiyalari, xususiy yoki davlat obligatsiyalari shaklida ushlab turish mumkin. Demak, aktivlar tomonidan pulga talab ham mavjud bo'ladi.

Aktivlar tomonidan pulga talab foiz stavkasiga teskari mutanosiblikda o'zgaradi. Foiz stavkasi past bo'lsa, kishilar ko'proq miqdoridagi naqd pulga egalik qilishni afzal ko'radi. Aksincha, foiz yuqori bo'lganda pulni ushlab turish foydasiz va aktivlar shaklidagi pul miqdori ko'payadi. Shunday qilib, pulga bo'lgan umumiy talab, aktivlar tomonidan pulga bo'lgan talab va bitim uchun pulga bo'lgan talabning miqdori bilan aniqlanadi.

Inflyatsiya, uning mohiyati va turlari

Inflyatsiya makroiqtisodiy beqarorlikning ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

Inflyatsiya tushunchasi birinchi marta g'arbiy Amerikada, (1861-1865 yillardagi fuqarolar urushi davrida) ishlatila boshlagan va qog'oz pul muomalasining ko'payib ketishi jarayonini bildirgan. Iqtisodiy adabiyotlarda inflyatsiya tushunchasi XX asrda, birinchi jahon urushidan keyin keng tarqaldi.

Inflyatsiya – bu qog'oz pul birligining qadrsizlanishi va shunga mos ravishda tovar narxlarining o'sishidir.

Inflyatsiya bozor xo'jaligining har xil sohalarida takror ishlab chiqarish nomutanosibliklari tug'diradigan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir.

qog'oz pul tovarlarga, oltinga va o'z qadrini, barqarorligini saqlab qolgan chet el valyutalariga nisbatan qadrsizlanadi.

Inflyatsiya narx indeksi yordamida bazis davrga nisbatan aniqlanadi. Masalan, iste'molchilik tovarlariga narx indeksi 1998 yil 113, 6; 1999 yil - 118,3 ga teng bulsa, inflyatsiya sur'ati quyidagicha bo'ladi.

$$\text{Inflyatsiya sur'ati} = \frac{118,3 - 113,6}{113,6} * 100 = 4,1\%$$

Kelib chiqish sabablari va o'sish sur'atlariga qarab, inflyatsiyaning bir qancha turlarini mavjud.

I. Talab inflyatsiyasi. Narx darajasining an'anaviy o'zgarishi jami talab ortiqchaligi bilan tushuntiriladi. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohasi mahsulotning real hajmini ko'paytirib ortiqcha talabni qondira olmaydi. Chunki barcha mavjud resurslar to'liq foydalanilgan bo'ladi. Shu sababli bu ortiqcha talab narxning oshishiga olib keladi va talab inflyatsiyasini keltirib chiqaradi.

II. Taklif inflyatsiyasi. Inflyatsiya ishlab chiqarish harajatlari va bozordagi taklifning o'zgarishi natijasida ham kelib chiqishi mumkin. Ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi keltirib chiqadigan inflyatsiya, mahsulot birligiga qilinadigan xarajatlarning ko'payishi hisobiga narxlarning oshishini bildiradi.

Mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi iqtisodiyotda foydani va mahsulot hajmini qisqartiradi. Natijada tovarlar taklifi ham qisqaradi. Bu o'z navbatida narx darajasini oshiradi. Ishlab chiqarish xarajatlari nominal ish haqi, xom ashyo va energiya narxlarining o'sishi hisobiga ortib boradi.

Inflyatsiyaning a) me'yoridagi; b) o'rmalab boruvchi v) giper inflyatsiya kabi turlari ham mavjud. Inflyatsiyaning birinchi turida baholar yiliga 10 foizgacha, ikkinchisida 20 dan 200 foizgacha, uchinchisida, astronomik miqdorda o'sishi kuzatiladi.

Bashorat qilish mumkinligiga qarab kutilayotgan va kutilmagan inflyatsiya farqlanadi. Kutilayotgan inflyatsiya va uning oqibatlarini oldindan bashorat qilish mumkin, kutilmagan inflyatsiyani oldindan aytib bo'lmaydi. Birinchi xolda inflyatsiyaning kutilayotgan salbiy oqibatlariga tayryolanib uni sezilarli darajada yumshatish mumkin. Ikkinchi holda narxlarning kutilmagan o'sishi natijasida mamlakat iqtisodiy axvolining sezilarli yomonlashuvi ro'y berishi mumkin.

Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari.

Kredit bo'sh turgan pul mablag'larini ssuda fondi shaklida to'plash va ularni takror ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun ma'lum muddatga, haq to'lash va qaytarib berish sharti bilan qarzga berish jarayonini ifodalaydi.

Pul shaklidagi kapital ssuda kapitali deyilsa, uning harakati kreditning mazmunini tashkil qiladi.

Kredit munosabatlari ikki sub'ekt o'rtasida, pul egasi, ya'ni qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasida yuzaga keladi.

Turli xil korxonalar (firma)lar, tashkilotlar, davlat va uning muassasalari hamda aholining keng qatlami kredit munosabatlarining sub'ektlari hisoblanadi. Sanab o'tilgan sub'ektlarning aynan har biri bir vaqtning o'zida ham qarz oluvchi va ham qarz beruvchi o'mida chiqishi mumkin.

Kredit munosabatlarining ob'ekti jamiyatda vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'laridir.

Takror ishlab chiqarish jarayonida tovarlar, iqtisodiy resurslar va pul mablag'larining doiraviy aylanishi kredit munosabatlarining mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Shu bilan birga doiraviy aylanish jarayonida muqarrar suratda vaqtincha bo'sh turadigan pul mablag'lari va boshqa pul resurslari kredit mablag'larining manbaini tashkil qiladi.

Kredit resurslarining asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

- I. Korxonalarning bankdagi hisoblaridagi amortizatsiya ajratmalari.
- II. Mahsulot sotishdan olingan pul tushumlari.
- III. Korxonalarning ishlab chiqarish, fan va texnikani rivojlantirish fondlari, moddiy rag'batlantirish fondlari.
- IV. Korxonalar foydasi. Ular davlat byudjeti va kredit tizimi bilan hisob-kitob qilinguncha, shuningdek uning tegishli qismi korxona ehtiyojlari uchun foydalanguncha bankdagi hisoblarida saqlanadi.
- V. Bankdagi byudjet muassasalari, kasaba uyushmalari va boshqa ijtimoiy tashkilotlarning joriy pul resurslari.
- VI. Aholining bo'sh pul mablag'lari.

Takror ishlab chiqarish jarayonida vaqtincha bo'sh pul resurslari hosil bo'lishi bilan bir vaqtda, iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlari va sohalarida qo'shimcha pul mablag'lariga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Avvalo kredit qayta taqsimlash vazifasini bajaradi. Uning yordamida korxonalar, davlat va aholining bo'sh pul mablag'lari ssuda fondi shaklida to'planib, keyin bu mablag'lar kredit mexanizmi orqali xalq xo'jalik tarmoqlari ehtiyojlarini hisobga olib qayta taqsimlanadi. Shu orqali kredit ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, kredit pulga tenglashtirilgan to'lov vositalarini (veksel, chek, sertifikat va h.k.) yuzaga chiqarib, ularni xo'jalik Seminarotiga joriy etish vazifasini bajaradi.

Uchinchidan, kredit naqd pullar o'rniga kredit pullar (bankrot va hisob to'lovlari)ni rivojlantirish va pul muomalasini jadallashtirish bilan muomala xarajatlarini tejash vazifasini bajaradi.

To'rtinchidan, kreditning muhim vazifasi kapital to'planishi va markazlashishini jadallashtirish hisoblanadi.

Kredit alohida korxonalarning hissadorlik jamiyatiga aylanishi, yangi firmalarning vujudga kelishi va transmilliy kompaniyalar (TMK) tashkil topishning muhim omillaridan biri sifatida chiqadi.

Beshinchidan, kredit ssuda fondining harakati (qarz berish va qarzni undirish) orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vazifasini bajaradi.

Oltinchidan, kredit o'z muassasalari orqali iqtisodiy sub'ektlar faoliyati ustidan nazorat qilish vazifasini bajaradi.

Nihoyat, kreditning o'ziga xos vazifasi iqtisodiyotni tartibga solish hisoblanadi. Bunda kredit uchun foiz stavkalarini tabaqalashtirish, davlat tomonidan kafolatlar va imtiyozlar berish kabi usullardan foydalaniladi. Kredit birqancha turlarda amalga oshiriladi.

Tarixiy taraqqiyot davomida kreditning ikki shakli pul va tovar shaklidan foydalanib kelgan. Hozirgi vaqtda mamlakat ichki oborotida pul kreditidan kengroq foydalanib, u bank, tijorat, davlat, iste'molchilik va xo'jaliklararo va xalqaro kredit shakllarini oladi.

Bank krediti – kreditning asosiy va etakchi shakli sifatida chiqadi. U pul egalari – banklar va maxsus kredit muassasalari tomonidan qarz oluvchilarga (tadbirkorlar, davlat, uy xo'jaligi sektori) pul ssudalari shaklida beriladi.

Bank krediti yo'nalishi, muddati va kredit bitimlari summasi bo'yicha cheklanmaydi. Uning foydalanish sohasi ham juda keng, tovar muomalasidan tortib kapital jamg'arilishigacha xizmat qiladi.

Xo'jaliklararo kredit bir korxona (muassasa) tomonidan ikkinchisiga beriladi va ularning kapital qurilish, qishloq xo'jalik sohalaridagi munosabatlariga, shuningdek, ichki xo'jalik hisobi bo'g'inlari bilan munosabatlariga xizmat qiladi.

Tijorat krediti – bu korxonalar, birlashmalar va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bir-biriga beradigan kreditlaridir. Tijorat krediti, avvalo, to'lovni kechiktirish yo'li bilan tovar shaklida beriladi.

Iste'molchilik krediti – xususiy shaxslarga, hammadan avvalo, uzoq muddat foydalanadigan

iste'molchilik tovarlari (mebel, avtomobil, televizor va boshqalar) sotib olish uchun ma'lum muddatga beriladi. U chakana savdo magazinlari orqali tovarlarni haqini kechiktirib to'lash bilan sotish shaklida yoki iste'molchilik maqsadlarida bank ssudalari berish shaklida amalga oshiriladi. Iste'molchilik kreditidan foydalanganlik uchun ancha yuqori foiz undiriladi.

Ipoteka krediti – ko'chmas mulklar (er, bino) hisobiga uzoq muddatli ssudalar shaklida beriladi. Bunday ssudalar berish vositasi, banklar va korxonalar tomonidan chiqariladigan ipoteka obligatsiyalari hisoblanadi.

Davlat krediti – kredit munosabatlarining o'ziga xos shakli bo'lib, bunda davlat pul mablag'lari qarzdiri, aholi va xususiy biznes esa kreditorlari bo'lib chiqadi. Davlat krediti mablag'lari manbai bo'lib, davlat qarz obligatsiyalari xizmat qiladi. Davlat kreditning bunday shaklida, avvalo, davlat byudjeti kamomadini qoplash uchun foydalanadi.

Xalqaro kredit – ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi harakatini namoyish qiladi. Xalqaro kredit tovar yoki pul (valyuta) shaklida beriladi. Kreditor va qarz oluvchilar banklar, xususiy firmalar, davlat, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hisoblanadi.

Kredit berish bir qator printsiplarga asoslanadi.

Bular quyidagilar: ssuda berishning maqsadli xarakteri, kreditning rasmiylashtirilgan muddatda qaytarishligi, ssudaning moddiy ta'minlanganligi va to'lovligi.

qarzga berilgan ssudaning albatta qaytarilib berilishi, undan foydalanilganlik uchun olingan foydadan ssuda foizini to'lash zarurati korxonalarni xo'jalik yuritishning eng samarali usullarini izlab topishga undaydi.

qarzga (ssudaga) berilgan pul hisobiga olinadigan daromad foiz yoki foizli daromad deyiladi. Shu daromad (foiz)ning qarzga berilgan pul summasiga nisbatining foizda ifodalanish foiz stavkasi yoki foiz normasini tashkil qiladi:

Kssud– qarzga berilgan pul (kapital) summasi

Agar 100 ming so'm yiliga 20 ming ssuda foizi to'lash sharti bilan qarzga berilgan bo'lsa, ssuda foizi normasi 20% ni tashkil qiladi.

Bank tizimi. Markaziy va tijorat banklar hamda ularning vazifalari

Banklar kredit munosabatlariga xizmat qilib, kreditning har xil shakllarini o'z ichiga olib, kredit muassasalarining asosini tashkil qiladi.

Banklar tizimi odatda ikki bosqichli bo'lib, o'z ichiga markaziy (emission) bank va tijorat (depozitli) banklarning tarmoq otgan shaxobchalarni oladi. «Markaziy bank boshchiligida hamda keng tarmoqli mustaqil tijorat va xususiy banklar ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish...» ustivor yo'nalishlardan hisoblanadi¹.

Davlat banki mamlakat pul-kredit tizimini markazlashgan tartibda boshqaradi va davlatning yagona kredit siyosatini amalga oshiradi.

Davlat banki (1), Markaziy bank (2), bankirlar banki va (3) ijtimoiy bank hisoblanadi. Buning mazmuni shundan iboratki, birinchidan, ko'pchilik mamlakatlarda davlat banki yagona markaziy bankdan iborat bo'lib, u o'tkazadigan siyosat tartiblari yuqori davlat organlari tomonidan o'rnatiladi.

Ikkinchidan, markaziy bank banklar va jamg'arma muassasalaridan quyilmalarni qabul qilib, ularga kredit beradi. Xususan, shu sababga ko'ra markaziy bank "bankirlar banki" deyiladi.

Uchinchidan, Markaziy bank faqat foyda olishga intilib faoliyat qilmaydi, davlatning butun iqtisodiyot holatini yaxshilash siyosatini amalga oshiradi va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishga ko'maklashadi.

Markaziy bank ko'plab xilma-xil vazifalarni bajaradi.

Birinchidan, boshqa bank muassasalarining majburiy ehtiyotlarini saqlaydi. Bu ehtiyotlar pul taklifini boshqarish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Markaziy bank mamlakatning rasmiy oltin-valyuta ehtiyotlarini saqlash vazifasini ham bajaradi.

Ikkinchidan, cheklarni qayd (inkasatsiya) qilish mexanizmini ta'minlaydi va banklararo hisob-kitoblarni amalga oshiradi, ularga kreditlar beradi.

Uchinchidan, davlatning monetar siyosatini amalga oshiradi.

To'rtinchidan, barcha banklar faoliyatini uyg'unlashtiradi va ular ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Beshinchidan, xalqaro valyuta bozorlarida milliy valyutalarni ayirboshlaydi.

Oltinchidan, pul taklifi ustidan nazorat qilish ma'suliyatini oladi, muomalaga milliy valyutani chiqaradi.

Iqtisodiyotning ehtiyojlariga mos ravishda pul muomalasini tartibga soladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida banklar va korxonalar teng huquqli sheriklar sifatida chiqadi. Kredit berishda fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishni, ishlab chiqarishni rivojlantirishning yangi sifat darajasiga erishishni ta'minlaydigan tadbirlarga ustunlik beriladi.

Banklar o'z tasarrufidagi resurslardan foydalanish samaradorligi uchun moddiy jihatdan mas'ul hisoblanadi va shu sababli kredit-pul operatsiyalari ko'proq ularning iqtisodiy foydalililigiga va samaradorligiga qarab beriladi.

Tijorat banklari o'zlarining xo'jalik mavqeiga ko'ra aktsionerlik tipidagi muassasalar hisoblanadi. Huquqiy mavqeiga ko'ra, faoliyatning biron bir turiga xizmat ko'rsatuvchi, ixtisoslashgan yoki milliy bank bo'lishi mumkin.

Tijorat banklar sanoat, savdo va boshqa xil korxonalarni omonat tarzida jalb etilgan pul mablag'lari hisobidan kreditlaydi, korxonalar o'rtasida hisob-kitobni amalga oshiradi, shuningdek vositachilik va valyuta operatsiyalari bilan shug'ullanadi.

O'zbekiston respublikasining "Banklar va bank faoliyati" to'g'risidagi qonunida aytilishicha, tijorat banklari va aktsiyali pay asosida tashkil topgan xususiy banklar bo'ladiki, ular "kredit hisob-kitob va o'zga xil bank xizmatini ko'rsatadilar". Tijorat banklar faoliyatining asosiy maqsadi foyda chiqarib olishni ko'zda tutadi. Tijorat banklari daromadining manbai mijozlarining bank xizmati uchun to'lovi va aktivlardan-zayom, kredit, qimmatli qog'ozlardan olinadigan foiz hisoblanadi.

Ixtisoslashgan tijorat banklar – iqtisodiyotning turli sohalarida tijorat tamoyillarida kredit-pul operatsiyalarining muayyan turlarini amalga oshiradi. Jumladan bizning respublikada sanoat qurilish banki-sanoat, transport, aloqa va moddiy texnika ta'minoti sohalarida; Zamin, g'alla, paxta banklar – agrosanoat kompleksi tarmoqlari va sohalarida; Tadbirkor banki mayda va o'rta biznes, kooperativ va yakka tartibdagi mehnat faoliyati sohasida kredit-pul operatsiyalarini amalga oshiradi.

Xalq banki-mamlakatda omonat ishlarini tashkil etishni, naqd pulsiz hisob-kitob qilishni va aholi uchun kassa vazifasini amalga oshirishni, aholiga shaxsiy ehtiyojlarga kredit berishni va shu kabi operatsiyalarni ta'minlaydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki eksport-import operatsiyalarini bevosita amalga oshiruvchi korxona va muassasalarga kredit beradi, qo'shma korxonalarga kredit berishda qatnashadi, yig'ma valyuta rejasining ijrosini, valyuta resurslaridan tejab foydalanishini nazorat qiladi, shuningdek tashqi iqtisodiy operatsiyalarga oid hisob-kitoblarni tashkil qiladi va amalga oshirishni ta'minlaydi.

Tijorat banklari tizimida tor ixtisoslashishi bo'yicha investitsion va ipoteka banklarni ajratib ko'rsatish lozim.

Investitsion banklar-maxsus kredit muassasalari bo'lib, obligatsiya hamda qarz majburiyatlari boshqa turlarini chiqarish yo'li bilan uzoq muddatli ssuda kapitalini jalb qiladi va ularni mijozlar (asosan davlat va tadbirkorlar) ga taqdim qiladi.

Investitsion kompaniyalar, o'zlarining qimmatli qog'ozlarini chiqarish yo'li bilan huquqiy investrlar pul resurslarini to'playdi va ularni korxona (milliy va chet el)lar aktsiya va obligatsiyalariga joylashtiradi. Bunday kompaniyalar to'liq investrlar manfaatini ifodalaydi va ularning asosiy maqsadi qo'yilgan kapital hisobiga foyda olish hisoblanadi.

Ipoteka banklar – bu ko'chmas mulk (er va inshoot) hisobiga uzoq muddatli ssuda berishga ixtisoslashgan kredit muassasalar. Ipoteka bankning resurslari o'zlarining ipoteka obligatsiyalari hisobiga shakllanadi. Olingan ssudadan uy-joy va boshqa inshootlar qurish, korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish uchun foydalaniladi.

Barcha tijorat banklari ehtiyot (rezerv)larining hajmi va tarkibi bo'yicha Markaziy bank tomonidan o'rnatiladigan ma'lum talablarga javob berishi zarur.

Bugungi kunda respublika hududida mulkchilikning turli shaklidagi 30 dan ziyod tijorat ixtisoslashgan banklar va ularning 3,7 mingdan ko'proq filiallari faoliyat qilib turibdi. Shulardan uchasi (tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, xalq banki va "ASAKA" bank) davlat tasarrufidagi bank hisoblanadi. Ulardan 22 bank (73%) aksionerlik jamiyati, 8 tasi (27%) mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidir. Shundan ikkitasi qo'shma bank ("O't-bank" va "Xususiylashtirishbank") mavqeiga ega.

O'zbekistonda tijorat banklarning rivojlanishi dastlab iqtisodiyotning alohida sohalariga xizmat qiladigan ixtisoslashgan banklar tashkil etilishida boshlangan bo'lsa, keyinchalik (1995 yildan) ixtisoslashgan kredit-moliya muassasalarini tashkil etishga kirishildi. Shu asosda "Biznes fond", "Madad" sug'urta va investitsiya kompaniyalari kabi ixtisoslashgan moliya-kredit muassasalari tashkil etildi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

Pul muomalasining mazmunini tushuntiring.

Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori qanday omillarga bog'liq?

Inflyatsiyaning mazmunini va turlarini tushuntiring.

Katta giperinflatsiya qanday qilib turg'unlikka olib kelishi mumkinligini tushuntiring.

Kreditni nima zarur qilib qo'yadi? Kredit tushunchasining mazmunini bayon qiling.

Kreditning asosiy turlarini sanab ko'rsating va ularning tavsifini bering. Kredit qanday vazifalarni bajaradi?

Markaziy va tijorat banklarining vazifalarini ko'rsating.

7-MAVZU. INNVESTITSIYA VA INVESTITSION SIYOSAT. ISHCHI KUNI BANDLIGI VA MEHNAT BOZORI.

1. Iste'mol va jamg'armaning iqtisodiy mazmuni hamda ularning o'zaro bog'liqligi
2. Jamg'arishning mohiyati, omillari va samaradorligi
3. Investitsiyalar va uning darajasini belgilovchi omillar
4. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va uning xususiyatlari.
5. Ishsizlik va uning turlari. Ishsizlik darajasini aniqlash

Asosiy tayanch tushunchalar

Iste'mol – jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarish natijalaridan va ishlab chiqarish omillari (ishchi kuchi)dan foydalanish jarayonini bildiradi.

Shaxsiy iste'mol – iste'molchilik xarakteridagi ne'matlar va xizmatlardan bevosita foydalanishni, ya'ni ularning individual tarzda iste'mol qilinishini bildiradi.

Unumli iste'mol – ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchidan foydalanishni anglatadi.

Iste'molchilik sarflari – aholi daromadlarining tirikchilik ne'matlari va xizmatlar uchun ishlatiladigan qismi.

Jamg'arma – aholi, korxona (firma) va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va foizli daromad olish maqsadida to'planib borilishi.

Iste'molga o`rtacha moyillik – shaxsiy daromadning iste'molga ketadigan ulushi.

Jamg`armaga o`rtacha moyillik – shaxsiy daromadning jamg`armaga ketadigan ulushi.

Iste'molga qo`shilgan moyillik – shaxsiy daromad o`sgan qismining iste'mol qilinadigan qismi yoki ulushi.

Jamg`armaga qo`shilgan moyillik – shaxsiy daromad o`sgan qismining jamg`armaga ketadigan hissasi.

Iqtisodiy jamg`arish – milliy daromadning bir qismidan asosiy va aylanma kapitallarni, shuningdek, ehtiyot va zahiralarni ko`paytirish uchun foydalanish.

Jamg`arish normasi – jamg`arish fondining milliy daromadga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kapital quyilmalar – asosiy kapitalni kengaytirish va uni takror ishlab chiqarishga qilinadigan sarflar.

Investitsiyalar – ishlab chiqarishni va xizmat ko`rsatish sohalarini kengaytirishga, ya'ni asosiy va aylanma kapitalga pul shaklidagi qo`yilmalar.

1- Iste'mol va jamg`armaning iqtisodiy mazmuni

hamda ularning o`zaro bog`liqligi

Milliy iqtisodiyotda yangidan vujudga keltirilgan qiymat, ya'ni milliy daromad iste'mol va iqtisodiy jamg`arish maqsadlarida ishlatiladi. Iste'mol keng ma'noda jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish jarayonida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlardan foydalanishni, uni iste'mol qilishini bildiradi. Bunda unumli va shaxsiy iste'mol farqlanadi.

Unumli iste'mol bevosita ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo`lib, ishlab chiqarish vositalari va inson ishchi kuchining iste'mol qilinishini, ya'ni ulardan foydalanish jarayonini anglatadi.

Shaxsiy iste'mol ishlab chiqarish sohasidan tashqarida ro`y berib, bunda iste'mol buyumlaridan bevosita foydalaniladi yoki ular to`liq iste'mol qilinadi.

Iste'mol jarayonida turli xil moddiy va ma'naviy ne'matlardan foydalaniladi. Iste'mol qilinadigan ne'mat turiga bog`liq ravishda moddiy ne'matlarni va xizmatlarni iste'mol qilish ajratiladi.

Individual yoki jamoa bo`lib iste'mol qilish ham farqlanadi. Alohida oila yoki jamiyat a'zolarining ixtiyorida bo`lgan moddiy ne'matlarni iste'mol qilish individual iste'molga jamiyat a'zolarining guruhlarini moddiy ne'mat va xizmatlardan foydalanishi jamoa bo`lib iste'mol qilishga kiradi.

Iste'mol fondi mablag`laridan butun iqtisodiyot doirasida band bo`lgan xodimlarning moddiy va madaniy ehtiyojlarini, shu jumladan boshqarish va mudofaa ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladi. U butun aholining shaxsiy iste'molini, aholiga ijtimoiy xizmat qiladigan muassasalardagi, shuningdek, ilmiy muassasalar va boshqarishdagi moddiy sarflarni o`z ichiga oladi.

Iste'mol fondining shaxsiy daromad shaklida xodimlar qo`liga kelib tushadigan qismi iste'molchilik sarflari maqsadida ishlatiladi.

Iste'molchilik sarflari – bu aholi joriy daromadlarining tirikchilik ne'matlari va xizmatlar uchun ishlatiladigan qismi.

Jamg`arma – bu aholi, korxona (firma) va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va foizli daromad olish maqsadlarida to`planib borilishi.

Uning hajmi uy xo`jaliklari daromadidan iste'molchilik sarflarini ayirib tashlash yo`li bilan aniqlanadi.

Daromad fondida iste'molchilik sarflari ulushi qanchalik yuqori bo`lsa jamg`arma hajmi shunchalik kam bo`ladi. Jamg`armaning o`sishi esa iqtisodiy ma'noda mablag`larning iste'mol buyumlari xarid qilishdan investitsion tovarlarga yo`naltirilishini bildiradi.

Shu sababli daromadda iste'molchilik sarflari va jamg`arma nisbatining o`zgarishi bir qator, ba'zan qarama-qarshi oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Birinchidan, daromadlarning qandaydir qismini jamg`armaga qo`yish oqibatida u tovarlarda bo`lgan talabda o`z aksini topmaydi. Mahsulotning har qanday hajmini ishlab chiqarishdan olingan daromad to`liq sarflangandagina jami talabni ta'minlash uchun etarli bo`ladi. Demak jamg`arma daromadlar - xarajatlar oqimida nomutanosiblik bo`lishiga olib keladi.

Jamg'arma daromadlardan mablag'larni olib qo'yishni bildirib iste'molchilik sarflar barcha ishlab chiqarilgan mahsulotni sotib olish uchun etarli bo'lmay qolishini bildiradi. Agar aholi o'z daromadining qandaydir, qismini jamg'arsa, o'zining xususiy talabini vujudga keltirmaydi. Buning natijasi sotilmay qolgan tovarlarning ko'payishi, ishlab chiqarishning qisqarishi, ishsizlik va daromadlarning pasayishi bo'lishi mumkin.

Boshqa tomondan jamg'arma talabning etishmasligiga olib kelmasligi ham mumkin, chunki jamg'arilgan mablag'lar tadbirkorlar tomonidan investitsion maqsadlarda ishlatiladi. Bu iste'molchilik sarflarining har qanday etishmasligini qoplaydi va jamg'arma keltirib chiqaradigan iste'moldagi har qanday etishmaslikni to'ldiradi. Uchinchidan, korxonalar ham o'zining barcha mahsulotini iste'molchilarga sotishni ko'zda tutmaydi, balki uning bir qismidan ishlab chiqarish vositalari shaklida foydalanishi mumkin. Shunday qilib, agar tadbirkorlar aholining jamg'armalariga teng miqdordagi mablag'larni investitsiyalarga qo'yishni ko'zda tutsa, ishlab chiqarish darajasi doimiy bo'lib qoladi.

Iste'mol va jamg'arma darajasini aniqlab beruvchi asosiy omil milliy daromad hisoblanadi. Lekin milliy daromad tarkibida to'g'ri soliqlar ham mavjud bo'ladi. Shu sababli soliqlar to'langandan keyin aholi qo'lida qoladigan daromad iste'molchilik sarflari va shaxsiy jamg'arma yig'indisiga teng bo'ladi. Iste'mol va shaxsiy jamg'armaning darajasi bevosita soliqlar to'langandan keyingi qolgan daromad bilan aniqlanadi. Demak bu daromad iste'molning ham, jamg'armaning ham umumiy omili hisoblanadi. Chunki jamg'arma daromadning iste'mol qilinmaydigan qismi hisoblansa, soliqlar to'langandan keyingi daromad shaxsiy jamg'armani aniqlab beradigan asosiy omil bo'lib chiqadi. Har yilgi haqiqiy iste'mol miqdori va soliqlar to'langandan keyingi daromad o'rtasidagi farq shu yildagi jamg'arma miqdorini aniqlaydi.

qarab chiqilgan omil ta'sirida iste'mol va jamg'arma darajasining o'zgarishini quyidagi jadvalda tushuntiramiz. Tahlil uchun shartli ma'lumotlardan foydalanamiz.

Iste'mol va jamg'arma darajasi, mlrd., so'm
(shartli ma'lumotlar)

Yillar	Daromad darajasi (D)	Iste'mol (I)	Jamg'arma (J)	IO`M	JO`M	I=M	J=M
1990	1500	1300	200	0,87	0,13	-	-
1995	1800	1500	300	0,83	0,17	0,67	0,33
2000	2200	1700	500	0,77	0,23	0,50	0,50
	1	2	3 (1-2)	4 (2:1)	5(3:1)	6(2:1)	7 (3:1)

11-jadval ma'lumotlaridan xulosa chiqarib aytish mumkinki, birinchidan, aholi daromadining asosiy qismi iste'molga sarflanadi, qolgan qismi jamg'armaga ajratiladi. Ikkinchidan, iste'mol ham, jamg'arish ham daromadlar darajasiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Aholi daromadining iste'molga ketadigan ulushi iste'molga o'rtacha moyillik deyiladi (IO`M).

Aholi daromadining jamg'armaga ketadigan ulushi esa jamg'armaga o'rtacha moyillik (JO`M) deyiladi. Ya'ni:

$$I\dot{B}M = \frac{\text{исте́ьмол}}{\text{да́ромат}} \times 100 \text{ va } J\dot{B}M = \frac{\text{жа́мгарма}}{\text{да́ромат}} \times 100$$

Jadvalda keltirilgan har bir daromad darajasi bo'yicha IO`M va JO`Mni hisoblab ko'ramizki daromad ko'payib borishi bilan IO`M tushadi, JO`M esa o'sadi. Haqiqatda soliqlar to'langandan keyin qolgan daromad yoxud iste'mol qilinadi va yoxud jamg'armaga ketadi. Shu sababli

daromadning iste'mol qilinadigan va jamg'armaga ketadigan qismlari daromad har qanday darajasining butun miqdorini qamrab oladi. qisqasi IO`MQJO`Mq1,0 yoki 100% bo`ladi.

Daromad o'simining iste'mol qilinadigan qismi yoki hissasi iste'molga qo'shilgan moyillik deyiladi (IqM), yoki

$$IKM = \frac{\text{истеъмолдаги тзгарии}}{\text{даромаддаги тзгарии}}.$$

Daromad har qanday o'sishning jamg'armaga ketadigan hissasi, jamg'armaga qo'shilgan moyillik deyiladi (JqM), ya'ni JqM q jamg'armadagi o'zgarishG`daromaddagi o'zgarish.

Masalan, agar 1500 mlrd. so'm ni tashkil qiluvchi soliqlar to'langandan keyingi daromad 300 mlrd. so'mga ko'payib 1800 mlrd. so'mga etsa (7-qator) daromadning shu o'sgan qismining 2G`3 qismi iste'mol qilinadi va 1G`3 qismi jamg'armaga ketadi. Boshqacha aytganda, IqM - 0,666 ni, JqM esa 0,333 ni tashkil qiladi. Daromaddagi har qanday o'zgarish uchun IqM va JqM yig'indisi har doim 1 ga teng bo'lishi zarur yoki IqM Q JqM q I. Bizning misolda 0,666Q0,333q I,0

Shaxsiy daromaddan tashqari iste'mol va jamg'arma o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka ta'sir ko'rsatuvchi boshqa bir qator omillar ham mavjud bo'ladi. Bu omillarning asosiylari quyidagilar:

- uy xo'jaliklari jamg'argan boylik darajasi;
- narxlar darajasi;
- narxlar, daromadlar va tovarlar taklifi o'zgarishining kutilishi;
- iste'molchi qarzlari;
- soliq stavkalari o'zgarishi.

2- Jamg'arishning mohiyati, omillari va samaradorligi

Jamg'arish iqtisodiyotdagi yalpi sarflarning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, investitsion xarakterdagi tovarlarga talab darajasini belgilab beradi. Investitsiyalar jamg'arishning amalda namoyon bo'lish shakli bo'lganligi sababli dastlab tahlilni jamg'arishning mohiyati, omillari va samaradorligini nazariy jihatdan asoslash bilan boshlaymiz.

Jamg'arish deb, milliy daromadning bir qismi asosiy va aylanma kapitallarni, shuningdek, ehtiyot zahiralari ko'paytirish uchun sarflanishiga aytiladi.

Amalda jamg'arish kapital mablag'lar yoki investitsion sarflar shaklida yuzaga chiqib, u yangi asosiy kapitalni hosil qilish, ishlab turganlarini kengaytirish, rekonstruksiyalash va yangilashga qilinadigan xarajatlarni ifodalaydi. "Jamg'arish" va "kapital mablag'" yoki "investitsion sarflar" tushunchalari bir xil mazmunga ega emas. Bir tomondan, kapital mablag' yoki investitsiyalarning chegaralari jamg'arish fondiga qaraganda kengroq, chunki renovatsiyaga (ya'ni eskirgan ob'ektlarni batamom almashtirishga) sarflanadigan amortizatsiya fondining bir qismi ham ularning manbai bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan, "jamg'arish" tushunchasi investitsion sarflar doirasidan chiqib ketadi, chunki u faqat asosiy kapitalning emas, balki aylanma kapitalning, shuningdek, ehtiyot zahiralari kengayishini ham anglatadi.

Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish maqsadidagi jamg'arish bir-biridan farqlanadi. Jamg'arilgan mablag'larning moddiy ishlab chiqarish sohasining asosiy kapitallarini va aylanma mablag'larini kengaytirishga ketadigan qismi ishlab chiqarish sohasidagi jamg'arish fondini hosil qiladi. Ishlab chiqarish sohasidagi jamg'arish iqtisodiy o'sishning muhim omilidir.

Ijtimoiy madaniy sohadagi jamg'arish (noishlab chiqarish jamg'arishi) uy-joy fondini, kasalxonalar, o'quv muassasalari, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport muassasalari, ya'ni nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini kengaytirish, rekonstruksiyalash, yangilashga sarflanadi. Noishlab chiqarish sohasini kengaytirish ham ishlab chiqarishni rivojlantirishning zarur shartidir.

Jamg'arish fondi, uning hajmi va tarkibi takror ishlab chiqarish sur'atlarini belgilab beradigan hal qiluvchi omillardir. Jamg'arish normasi bevosita jamg'arish fondining butun milliy daromad hajmiga nisbati bilan aniqlanadi: $JN \text{ q (JFG`MD)} \times 100$,

Bunda, JN-jamg'arish normasi, JF-jamg'arish fondi, MD-milliy daromad.

Jamg'arish normasining ham o'z chegarasi bo'lib, uni oshirish iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lib chiqishi va salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, uning haddan tashqari ortishi natijasida investitsion sarflar samaradorligi pasayib ketishi mumkin, chunki kapital mablag'lar hajmi bilan qurilish tashkilotlarining quvvatlari, materiallar va uskunalar etkazib berish imkoniyatlari, infratuzilmaning rivojlanishi o'rtasida nomutanosiblik paydo bo'ladi. Mablag'larning sochilib ketishi, ob'ektlarni barpo etish muddatlarining cho'zilib ketish xavfi oshadi, oqibatda ular qimmatlashadi, barpo etish jarayonidayoq ma'naviy jihatdan eskiradi, tugallanmagan qurilishlar ko'payadi. Oqibatda iqtisodiy o'sish pasayib ketish tamoyiliga ega bo'ladi.

Shunday qilib, jamg'arish fondi iqtisodiy o'sish sur'atlari va sifatiga faqat o'zining miqdori bilangina hal qiluvchi ta'sir ko'rsatib qolmaydi. Fan-texnika revolyutsiyasi sharoitida ulardan foydalanish samaradorligi birinchi o'ringa chiqadi.

Jamg'arish fondi milliy daromadning bir qismini tashkil etadi va shu sababli milliy daromad hajmi ko'payishini belgilaydigan omillar, jamg'arish miqdorini ham belgilab beradi. Bu omillardan asosiysi qo'llaniladigan resurslar massasi va ularning unumdorligidir. Jamg'arish miqdori ishlab chiqarish jarayonida xom-ashyo, materiallar, energiyani tejab-tergab sarflashga ham bog'liq. Mahsulot birligiga ularni sarflashni kamaytirish moddiy vositalarning o'sha miqdorida mahsulotlarni ko'proq hajmda ishlab chiqarishga imkon beradi.

Jamg'arishning miqdori milliy daromaddagi jamg'arish va iste'mol fondlari o'rtasidagi nisbatga ham bog'liq bo'ladi.

3-Investitsiyalar va uning darajasini belgilovchi omillar.

Investitsiyalar sarflarning ikkinchi tarkibiy qismi hisoblanadi. Investitsiyalar darajasi jamiyat milliy daromadi hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi; milliy iqtisodiyotdagi ko'plab mutanosibliklar uning o'sish sur'atiga bog'liq bo'ladi. Investitsiyalar mamlakat miqyosida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ob'ektlari qurish, stanok, uskuna va shu kabi uzoq muddatli foydalaniladigan asosiy kapitalarni sotib olish, ishga tushirish bilan bog'liq sarflarni bildiradi.

Investitsiyalar – asosiy va aylanma kapitalni ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga pul shaklidagi qo'yilmadir. U pul mablag'lari, bank kreditlari, aktsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar ko'rinishida amalga oshiriladi.

Investitsiyalarni ro'yobga chiqarish bo'yicha Seminar harakatlar - investitsion faoliyat, investitsiyalarni amalga oshiruvchi shaxs - investor deyiladi.

Investitsiya faoliyati quyidagi manbalar hisobiga amalga oshirilishi mumkin:

- investorlarning o'z moliyaviy resurslari (foyda, amortizatsiya ajratmalari, pul jamg'armalari va h.k.);

- qarz olingan moliyaviy mablag'lar (obligatsiya zayomlari, bank kreditlari);

- jalb qilingan moliyaviy mablag'lar (aktsiyalarni sotishdan olingan mablag'lar, jismoniy va huquqiy shaxslarning pay va boshqa to'lovlari);

- byudjetdan investitsiyalarni moliyalashtirish.

2000 yilda O'zbekistonda investitsion qo'yilmalarning 26,4% korxonalarning o'z moliyaviy mablag'lari hisobiga, 30,3% byudjet mablag'lari hisobiga amalga oshirilgan¹.

Investitsiyalarning manbalaridan biri aholi keng qatlamlari (ishchilar, o'qituvchilar, vrachlar va boshqalar) jamg'armasi hisoblanadi. Muammo shundan iboratki, jamg'arma xo'jalik yurituvchi bir guruh tomonidan amalga oshiriladi, investitsiyalar esa shaxslar yoki xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning butunlay boshqa guruhi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. O'z-o'zidan aniqki, investitsiyalar manbai bo'lib iqtisodiyotda faoliyat qiluvchi sanoat, qishloq xo'jalik va boshqa korxonalar foydasi ham hisoblanadi. Bu erda "jamg'aruvchi" va "investor" bir-biriga to'g'ri keladi.

O'zbekistonda kapital quyilmalarda nodavlat sektorining ulushi 1991 yildagi 24 %dan, 2000 yil 34,7% ga etgan.

12-jadval.

Respublikada investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari

bo'yicha tuzilishi (% hisobida)¹

Yillar	1991	1992	1993	1994	1995	1998	2000
Jami kapital qo'yilmalari	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Shu jumladan: byudjet mablag'lari	44,5	26,6	32,1	25,3	22,9	24,2	30,3
Korxonalarni o'z mablag'lari	38,7	52,9	46,2	47,1	47,0	49,2	26,4
Bank kreditlari	...	0,3	8,3	11,1	9,6	6,2	7,5
Chet el investitsiyalari							
va kreditlari			0,1	6,6	14,0	20,3	21,7
Aholi mablag'lari	16,8	20,2	13,2	9,9	6,5	...	12,7

Investitsiyalarga sarflar darajasini ikkita asosiy omil belgilab beradi:

1) Tadbirkorlar investitsiyalarga sarflardan olish ko'zda tutilgan, kutilayotgan sof foyda normasi va 2) foiz stavkasi.

I. Investitsiyalarga qilinadigan sarflarning harakatlantiruvchi motivi foyda hisoblanadi. Tadbirkorlar ishlab chiqarish vositalarini qachonki ular foyda keltiradigan bo'lsa, sotib oladi.

Investitsiyalar darajasini belgilaydigan ikkinchi omil foizning real stavkasi hisoblanadi. Foiz stavkasi bu - real asosiy kapitalni sotib olish uchun zarur bo'lgan band qilingan pul kapitaliga korxona to'lash zarur bo'lgan pul miqdori hisoblanadi. Agar kutilayotgan sof foyda normasi (10 %) foiz stavkasi (7 %)dan ortiq bo'lsa investitsiyani amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Aksincha foiz stavkasi (aytalik, 12%) kutilayotgan sof foyda normasidan (10%) ortiq bo'lsa, investitsiyalash samarasiz hisoblanadi.

Investitsiya darajasiga kutilayotgan sof foyda normasi va foiz stavkasidan tashqari boshqa quyidagi omillar ham ta'sir ko'rsatadi.

1. Mashina va uskunalarni xarid qilish, ishlatish va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari.

2. Tadbirkorlardan olinadigan soliq miqdori.

3. Texnologik o'zgarishlar.

summasiga nisbatining foizdagi ifodasi. 4-Ishchi kuchini takror hosil qilish va uning xususiyatlari.

Jamiyatning yalpi milliy mahsuloti hisobiga ishlab chiqarishning moddiy ashyoviy omillarigina emas, balki shaxsiy omili – ishchi kuchi, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi ham takror hosil etiladi va sifat jihatdan ancha yuqori darajada takror yuzaga chiqariladi.

Ishchi kuchini takror hosil qilish insonning jismoniy kuchlari va aqliy qobiliyatlarini uzluksiz qayta tiklab va ta'minlab turish, ularning mehnat malakasini muttasil yangilab va oshirib borish, umumiy bilim va kasbiy darajasi o'sishini ta'minlash demakdir. Ishchi kuchini takror yaratish xodimlarni ishlab chiqarishga jalb etishni, tarmoqlar, korxonalar, regionalar o'rtasida mehnat resurslarini taqsimlash va qayta taqsimlashni, ularning xodimlarga bo'lgan ehtiyojlari qondirilishini va ayni paytda aholining ish bilan to'la va samarali band bo'lishini ta'minlaydigan ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini yaratishni ham o'z ichiga oladi.

¹ Makroiqtisodiyot va statistika Vazirligi statistika departamenti ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Ishchi kuchini takror hosil qilish nisbatan mustaqil iqtisodiy va ijtimoiy muammo bo'lib, bu muammo aholining tabiiy harakatlari shaklida namoyon bo'ladi. Shu sababli ishchi kuchini takror hosil qilishning asosi aholining tabiiy ko'payishidir.

Ishchi kuchi resurslarining soni va sifati mamlakat aholisining soni hamda jinsi va yoshi jihatidan tarkibi bilan belgilanadi. Bular esa o'z navbatida aholining tabiiy harakatlanishiga bog'liq bo'ladi.

Aholining tabiiy harakatlanishi, uni takror ishlab chiqarish xarakteri ko'pgina holatlar bilan mamlakatning industrial taraqqiyoti va urbanizatsiya darajasi, ijtimoiy shart-sharoitlar, madaniyat va maishiy turmush an'analari, aniq tarixiy omillar bilan belgilanadi.

Ular jumlasiga demografiya omilini hisobga olgan holda uy-joy sharoitlarini yaxshilash, bolalarga nafaqalar berish, bolalar muassasalari bilan ta'minlash, homiladorlik va bola tug'ilgandan keyingi ta'tillarni uzaytirish, oilani mustahkamlash, shuningdek, jamoada ma'naviy muhitni yaxshilash kiradi.

Ishchi kuchini takror hosil qilish, ularning to'la va samarali ish bilan band bo'lish muammosini ham o'z ichiga oladi. Ish bilan to'la band bo'lishni mutloq ma'noda tushunmaslik kerak. Birinchidan, ishsizlikning ma'lum darajasi iqtisodiyot uchun me'yordagi hol hisoblanadi. Boshqa tomondan ish bilan to'la band bo'lish mehnatga layoqatli barcha kishilar, albatta umumlashgan (davlat va jamoa korxonalarida) ishlab chiqarishga jalb etilishi zarurligini anglatmaydi.

Ularning bir qismi o'zini oilada xizmat ko'rsatishga, bolalar tarbiyasiga shuningdek, xususiy korxonalar va shaxsiy yordamchi xo'jalikda mehnat qilishga, yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanishga bag'ishlashi mumkin. Uchinchidan, ish bilan to'la band bo'lish uning samaradorligi bilan, mehnat resurslaridan g'oyat oqilona foydalanish bilan qo'shib olib borilishi kerak.

Ish bilan samarali band bo'lish mehnat resurslaridan foydalanishning intensiv turiga tayanmog'i kerak. Bu vazifani hal qilish ish joylari miqdor va sifat jihatdan mavjud mehnat resurslari bilan muvozanatlashgan bo'lishini ta'minlashni, ishlab chiqarish hajmini o'stirib borishning ta'sirchan choralarini yaratishni, ish bilan band bo'lish sharoitlari va shakllarini xilma-xil qilishni talab etadi.

Fan-texnika taraqqiyotining jadallashuvi va ishlab chiqarishning intensivlashuvi ishlab turgan korxonalardan ish kuchini bo'shatib olish va uni qayta taqsimlash mexanizmiga, aholini ishga joylashtirish, qayta o'qitish va kasb tanlashi tizimiga ta'sir ko'rsatadi. Mulkchilikning turli shakllari rivojlangan bozor iqtisodiyoti ishchi kuchi resurslarida yanada samaraliroq foydalanishga sharoit yaratadi, ularni kam samarali sohalardan bo'shatib kadrlarga ehtiyoji bo'lgan yuqori samarali tarmoqlar va korxonalarga qayta taqsimlaydi.

5.-Ishsizlik va uning turlari. Ishsizlik darajasini aniqlash.

Mehnatga layoqatli bo'lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta'minlanmaganlar ishsizlar deyiladi. Namoyon bo'lish xarakteri va vujudga kelish sabablariga ko'ra ishsizlik friksion, tarkibiy, siklik, ixtiyoriy, instituttsional, texnologik, regional, yashirin va turg'un turlarga bo'linadi.

Friksion ishsizlarga ish joyini o'zgartirgan, yangi yashash joyga ko'chib o'tish va ishdan bo'shishi munosabati bilan ish izlayotgan, vaqtinchalik mavsumiy ishini yo'qotgan kishilar kiradi.

Friksion ishsizlik tarkibiy ishsizlik deb nomlanuvchi ikkinchi kategoriyaga osonlik bilan o'tadi. Vaqt o'tishi bilan iste'molchilik talabi va texnologiya tarkibida muhim o'zgarishlar ro'y beradi, bu o'z navbatida ishchi kuchiga bo'lgan umumiy talab tarkibini o'zgartiradi. Bunday o'zgarish natijasida kasblarning ayrim turlariga talab kamayadi yoki umuman talab bo'lmaydi. Oldin mavjud bo'lmagan boshqa yangi kasblarga talab ortadi. Ishchilar bunga tez moslasha olmasligi va uning tarkibi ish joylarining yangi tarkibiga to'liq javob bermasligi sababli tarkibiy ishsizlik kelib chiqadi.

Shunday qilib tarkibiy ishsizlikni iste'molchilik talabi va texnologiyadagi o'zgarishlar tufayli iqtisodiyot tarmoqlarida ruy beradigan tarkibiy siljishlar keltirib chiqaradi. Friksion va tarkibiy ishsizlik ishsizlikning tabiiy darajasini tashkil qiladi. Siklik ishsizlik – iqtisodiy siklning inqiroz fazasi bilan bog'liq bo'lib, ishsizlikning haqiqiy darajasi tabiiy darajadan farqlanishini ko'rsatadi. Ishsizlikning bu turi majburiy ishsizlik hisoblanadi va siklning yuksalish fazasida mavjud bo'lmaydi.

Ixtiyoriy ishsizlik tabiiy ishsizlik turi bo'lib, bunda mehnatga layoqatli kishilarning mehnat faoliyatidan o'z xohishi bo'yicha chetlashgan, ya'ni ishlashni xohlamaydigan qismi tushuniladi.

Institutsional (muassasaviy) ishsizlik ham tabiiy ishsizlikning navbatdagi turi hisoblanadi. Ishsizlik bu turini mehnat bozori infratuzilmasi amal qilishi hamda shu bozorda talab va taklifni o'zgartiruvchi omillar keltirib chiqaradi.

Texnologik va hududiy ishsizlik majburiy ishsizlik turlari hisoblanadi.

Texnologik ishsizlik ishlab chiqarishning amal qilishida texnologik usullar bir-birining o'rniga kirib kelishi bilan birga boradi. Ularning ichida asosiylari mexanizatsiya, avtomatlashtirish, robotlashtirish va informatsion texnologiyani qo'llash hisoblanadi.

Hududiy ishsizlik tarixiy, demografik, madaniy, milliy va ijtimoiy – psixologik xarakterdagi bir qator kompleks omillar bilan bog'liq

Yashirin ishsizlik uchun ish kuni yoki ish haftasi davomida to'liq band bo'lmaslik xarakterli. U o'z ichiga ishchi kuchining ishlarining to'liq hajmini bajarmaydigan bir qismini oladi.

Turg'un ishsizlik mehnatga layoqatli aholining ish joyini yo'qotgan, ishsizlik bo'yicha nafaqa olish huquqidan mahrum bo'lgan va faol mehnat faoliyatiga hech qanday qiziqishi bo'lmagan qismini qamrab oladi.

«To'liq bandlilik» tushunchasi iqtisodiyotda ishsizlikning mutloq mavjud bo'lmasligini bildirmaydi. Iqtisodchilar friktsion va tarkibiy ishsizlikning bo'lishini tabiiy deb hisoblaydi, shu sababli «to'liq bandlilik» ishchi kuchining 100 % dan kamini tashkil qiluvchi miqdor sifatida aniqlanadi. Aniqroq aytganda, to'liq bandlilik sharoitida ishsizlik darajasi friktsion va tarkibiy ishsizlar soniga teng bo'ladi. Siklik ishsizlik nolga teng bo'lganda to'liq bandlilik sharoitidagi ishsizlik darajasiga erishiladi. «To'liq bandlilik» sharoitidagi ishsizlik darajasi ishsizlikning tabiiy darajasi deb ham ataladi. Ishsizlikning tabiiy darajasi bilan bog'liq bo'lgan milliy ishlab chiqarishning real hajmi, iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatini ko'rsatadi.

Ishsizlikning to'liq yoki tabiiy darajasi ishchi kuchi bozori muvozanatiga erishganda, ya'ni ish izlovchilar soni bo'sh ish o'rinlari soniga teng kelganda vujudga keladi. Ishsizlikning tabiiy darajasi kandaydir darajada iqtisodiy jihatdan maqbul hisoblanadi. Chunki «friktsion» ishsizlarga mos keluvchi ish o'rinlarini topish, «Tarkibiy ishsizlarga» ham yangi kasbni o'zlashtirish yoki yangi yashash joyida ish topish uchun ma'lum vaqt kerak bo'ladi.

«Ishsizlikning tabiiy darajasi» tushunchasi ma'lum bir aniqliklar kiritishni talab qiladi.

Birinchidan, bu tushuncha iqtisodiyot har doim ishsizlikni tabiiy darajasida amal qilishi va shu orqali o'zining ishlab chiqarish imkoniyatini ro'yobga chiqarishini bildirmaydi. Chunki, ko'pincha ishsizlik darajasi tabiiy darajadan ortiq, ayrim hollarda undan past ham bo'lishi mumkin. (Ish vaqtidan ortikcha ishlash va o'rindoshlik ishlarida band bo'lish natijasida).

Ikkinchidan, ishsizlikning tabiiy darajasi o'z-o'zicha doimiy miqdor hisoblanishi shart emas, u tartibiy o'zgarishlar (qonunlar va jamiyat urf-odatlaridagi o'zgarishlar) oqibatida o'zgarib turishi mumkin. Masalan, 60-yillarda friktsion va tarkibiy ishsizlarning muqarrar darajasi ishchi kuchining 4% ni tashkil qildi deb hisoblangan. Boshqacha aytganda, ishchi kuchining 96% band bo'lganda to'liq bandlilikga erishilishi tan olingan. Hozirgi davrda iqtisodchilar ishsizlikning tabiiy darajasi taxminan 5-6% ga teng deb hisoblaydi.

Ishsizlik darajasi ishsizlarning ishchi kuchi tarkibidagi foizi sifatida hisoblanadi.

$$\text{Ishsizlik darajasi} = \frac{\text{Ishsizlar soni}}{\text{Ishchi kuchi soni}} \times 100$$

«Ishchi kuchi»ga ishlay oladigan va ishlashni xoxlagan barcha kishilar kiradi. Ishchi kuchi - ishlovchilar va faol ish izlovchilardan iborat bo'ladi. Boshqacha aytganda, band bo'lganlar va ishsizlar ishchi kuchini tashkil qiladi. Ishsizlarga ish bilan band bo'lmagan va faol ish izlayotgan hamda bu haqda tegishli xizmat muassasalariga (mehnat birjalariga) bildirgan kishilar kiradi. Mehnat qilishga layoqatli bo'lib, ishlashni xoxlamagan va ish ishlashga harakat qilmaganlar ishsizlar tarkibiga kirmaydi.

Ishsizlik darajasini baholash bilan birga uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini ham hisobga olish zarur bo'ladi. Chunki ishsizlikning o'zi haddan tashqari yuqori darajasi bilan katta iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari, ishlab chiqarilmagan mahsulot bilan taqqoslanib baholanadi. Iqtisodiyot ishlashni xohlagan va ishlay oladigan barcha uchun etarli miqdorda ish joylarini yaratish holatiga ega bo'lmasa tovar ishlab chiqarish potentsial imkoniyatining bir qismi yo'qotiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda bu yo'qotish yalpi milliy maxsulot g`YaMMg` hajmining orqada qolishi sifatida aniqlanadi hamda u haqiqiy YaMMning potentsial YaMMdan kam bo'lgan xajmi sifatida ko'rinadi. Ishsizlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, YaMM xajmining orqada qolishi shunchalik katta bo'ladi.

Makroiqtisodiyot sohasidagi taniqli tadqiqotchi A.Ouken ishsizlik darajasi va YaMM hajmining orqada qolishi o'rtasidagi nisbatini matematik ifodalab beradi. Bu nisbat g`arbda Ouken qonuni sifatida tanilgan bo'lib, agar ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan bir foizga ortiq bo'lsa, YaMM hajmining orqada qolishi 2,5% ni tashkil qilishini ko'rsatadi. 1:2,5 yoki 2:5 bo'lgan bu nisbat, ishsizlikning har qanday darajasi bilan bog'liq ravishda mahsulotning mutloq yo'qotilish hajmini hisoblash imkonini beradi. Masalan, faraz qilamiz, 1999 yil ishsizlik darajasi 7,5 foizga etgan yoki ko'zda tutilgan 4 foizli tabiiy darjadan 3,5 foiz yuqori bo'lgan. Bu 3,5 foizni Ouken koeffitsientiga g`2,5g` ko'paytirib, shu yili YaMM hajmining orqada qolishi 8,75 foizni tashkil qilishini aniqlaymiz. Boshqacha aytganda agar 1999 yil to'liq bandlilik sharoitida ishsizlikning tabiiy darajasi ta'minlanganda, YaMM haqiqiy darajasidan 8,75% ga ko'paygan bo'lur edi. Agar 1999 yil nominal YaMM 330 mlrd. so'm bo'lgan deb faraz qilsak, ishsizlikning tabiiy darjasiga erishilmaganligi sababli iqtisodiyot 29 mlrd. so'mlik g`330 \*8,75g` mahsulotni yo'qotgan bo'ladi.

Ayrim hollarda milliy mahsulotning haqiqiy xajmi potentsial hajmidan ortib ketishi ham mumkin. Bunday xol ishsizlik darajasi tabiiy darjadan ham past bo'lgan davrlarda ro'y beradi. Ishlab chiqarishga ishchilarning qo'shimcha smenalarini jalb qilish, kapital uskunalaridan o'rnatilgan normativdan yuqori darajada foydalanish, ish vaqtidan ortiqcha ishlash va o'rindosh ishlarda band bo'lish kabilar buning asosiy sabablaridir.

Ishsizlik – bu nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy oqibatlarga ham ega bo'ladi. Turg'unlik g`depressiyag` fazasi ishchi kuchining faoliyatsizligiga sabab bo'ladi, faoliyatsizlik esa malakaning yo'qolishiga hamda ijtimoiy va siyosiy tartibsizliklarga olib keladi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlari:

1. Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalarning iqtisodiy mazmunini qisqacha ta'riflang.
2. Iste'mol va jamg'armaning miqdorini aniqlovchi asosiy omillarini sanab ko'rsating.
3. Jamg'arish normasi qanday aniqlanadi? Unga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
4. Iste'molga va jamg'armaga o'rtacha moyillik deganda nimani tushunasiz? Iste'mol va jamg'armaga qo'shilgan moyillik qanday aniqlanadi?
5. Investitsiyalarga sarflarning darajasini qanday omillar belgilab beradi? Ularning qisqacha tavsifini bering.
6. Ishchi kuchining takror hosil qilish deganda nimani tushunasiz?
7. Ishchi kuchining sifati nima? U qanday omillarga bog'liq?
8. Ishsizlikning asosiy turlariga tavsif bering?

8-MAVZU. IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHNING BOZOR VA DAVLAT MEXANIZMLARI.

1. Davlatning milliy iqtisodiyotini tartibga solishdagi roli haqidagi nazariya va qarashlar
2. Iqtisodiyotni Davlat tomonidan tartibga solish, uning maqsadi va vazifalari
3. Davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari va vositalari
4. Davlatning ijtimoiy siyosati. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari

Asosiy tayanch tushunchalar:

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish (IDTTS) - qonunchilik, ijro va nazorat qilish xarakteridagi tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish.

IDTTS maqsadi - iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy tizimni mustahkamlash va uni o'zgarib turuvchi sharoitga moslashtirishga qaratiladi.

Davlatning iqtisodiy vazifalari - iqtisodiy tizimning amal qilishiga shart-sharoit yaratish va iqtisodiyotni tartibga solish hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlardan iborat bo'ladi.

IDTTS usullari - tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalari birligi.

Bevosita usullar - iqtisodiyotni tartibga solishning ta'qiqlash, ruxsat berish va majbur qilish xarakteridagi ma'muriy vositalari.

Bilvosita usullar - iqtisodiyotni tartibga solishning iqtisodiy vosita va dastaklari.

Aholi daromadlari – aholining ma'lum vaqt davomida pul va natural shaklda olgan daromadlari miqdori.

Nominal daromad – aholi tomonidan pul shaklida olingan daromadlari summasi.

Ixtiyorida bo'lgan daromad – shaxsiy iste'mol va jamg'arma maqsadlarida foydalanish mumkin bo'lgan daromad.

Real daromad – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib aholining hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda ular ehtiyojlarining bu ne'matlar bilan qondirilish darajasidir.

Lorents egri chizig'i – daromadlar tengsizligi darajasini miqdoriy aniqlashni xarakterlaydi.

Ijtimoiy to'lovlar – kam ta'minlanganlarga pul yoki natural shaklda yordam ko'rsatishga qaratilgan tadbirlar tizimi.

Ijtimoiy siyosat – bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni iqtisodiyot qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan siyosat.

Davlatning milliy iqtisodiyotini tartibga solishdagi roli haqidagi nazariya va qarashlar.

Milliy iqtisodiyotning samaradorligi ko'p omilli ko'rsatkich bo'lib, bunda samaradorlikning erishilgan darajasi ko'p jihatdan iqtisodiyotdagi davlat yoki bozor tizimining tutgan rolga bog'liq bo'lishi mumkin. Chunki ancha yuqori samaradorlikka, birinchidan, bozorning tartibga solish usullari orqali; ikkinchidan, iqtisodiyotni faqatgina yagona markazdan ong'li ravishda markazlashgan boshqarish yo'li bilan; uchinchidan, takror ishlab chiqarish jarayonida davlatning aralashuvi va bozor usullarini uyg'unlashtirish orqali erilishiladi. Hozirgi davrda Respublikamizning milliy iqtisodiyoti rivoji uchun ko'proq uchinchi yo'l xarakterli xisoblanadi.

Iqtisodiy tafakkur tarixidan birinchi marta davlatning iqtisodiyotdagi roli masalasi A.Smit tomonidan ilmiy asosda ko'rib chiqilgan. Uning "Xalqlar boyligining tabiati va sababalarini tadqiq

qilish haqida" (1776 yil) degan kitobida bozor usullari orqali iqtisodiyotning o'z-o'zini tartibga solishning zarurligi ta'kidlab o'tilgan. A.Smitning fikricha xususiy tovar ishlab chiqaruvchilar bozori davlat nazoaratidan to'liq ozod bo'lishi zarur. Ana shundagina ishlab chiqaruvchilar iste'molchilar talabiga mos ravishda ishlab chikarishni tashkil qilish imkoniga ega bo'ladi. Bunda bozor vositasida tartibga solish, har qanday chetdan aralashishsiz ishlab chiqaruvchilarni butun jamiyat manfaatlari uchun harakat kilishga majbur kiladi.

A.Smit davlatning iqtisodiy jarayonlariga har qanday aralashuvi oxir oqibatda faqat vaziyatni yomonlashtiradi deb xisoblaydi. Masalan, davlat tomonidan belgilangan tashqi savdo tartib -qoidalari milliy iste'molchilarga faqat zarar keltirishi mumkin. Haqiqatdan ham importga boj to'lovi (poshlinasi) milliy ishlab chiqaruvchilarga ustunlik berib, ularning chet el sheriklariga nisbatan raqobatlashuv qobiliyatini oshiradi. Ammo bu oxir oqibatda ishlab chiqarishning ancha yuqori xarajatlari va past sifatini saqlab qolishiga olib keladi. Bunda past sifatli va narxi qimmat tovarlarni sotib olishga majbur bo'lgan milliy iste'molchilar yutqazadi.

A.Smitning "Tinch qo'yish" nazariyasi, 1923 - 33 yillarda bozor iqtisodiyotiga asoslangan deyarli barcha mamlakatlarni qamrab olgan iqtisodiy inqiroz davrida tanqidga uchradi. Iqtisodiy tanazzul va ommaviy ishsizlik davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvini kuchaytirishni taqazo qildi.

Davlatni iqtisodiyotdagi rolini oshirish masalasi Djon M.Keynsning "Ish bilan bandlilik, protsent va pulning umumiy nazariyalari" nomli kitobida o'z aksini topdi (1936). Bu kitobda muallif davlat fiskal (xaznaviy) va kreditli tartibga solish vositalaridan foydalanib, jamiyatning yalpi talabini rag'batlantirishni va aholining ish bilan bandligini ta'minlashi zarurligini isbotlaydi.

Amalda gap davlatning uzluksiz ravishda krizisga qarshi siyosat o'tkazishi, iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini tugatish va sanoat siklining o'zgarishini yo'qotish haqida ketadi. Keyns nazariyasi ancha tugal

shaklda AqShda amalga oshirildi.

Urushdan keyingi davrda Keyns nazariyasidagi ko'rsatmalar u yoki bu darajada bozor iqtisodi amalda ustun bo'lgan barcha mamlakatlarda foydalaniladi. Shu bilan birga davlatning iqtisodiyotdagi rolining yanada ko'proq oshib borishi ro'y berdi. Hozirgi davrda davlat tomonidan tartibga solishni muhim maqsadi sifatida nafaqat sikliga qarshi tartibga solish va ish bilan bandlilikni ta'minlash, balki iqtisodiy o'sishning yuqori darajasini va yaxlit takror ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishni rag'batlantirish tan olinadi.

Ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan tizimdan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlatning milliy iqtisodiyotga aralashuvini nima belgilab beradi?- degan savol tug'ilish tabiiy.

Birinchidan, davlat o'ziga milliy iqtisodiyotda bozor vositasida o'z - o'zini tartibga solish orqali bajarish mumkin bo'lmagan yoki samarali bajarish mumkin bo'lmagan vazifalarni oladi. Bunga mudofaani ta'minlash, mamlakatda ichki tartibni saqlash va aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoyalash kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Ikkinchidan, bozor iqtisodi sharoitida hususiy ishlab chiqarish va iste'mol bir qator ijobiy va salbiy oqibatlarni tug'diradi.

Bu oqibatlar bevosita uchinchi shaxs manfaatida aks etadi va demak kishilarning alohida guruhi va umuman jamiyat manfaatiga ta'sir qiladi. Masalan, chiqitli texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishlarda tozalash qurilmalariga xarajatlarni tejash, xususiy ishlab chiqaruvchilar nuqtai nazaridan (u yoki bu kompaniya yoki individual ishlab chiqarishga) foydali, atrof muhitni ifloslanishiga olib kelishi esa boshqa kishilar uchun qo'shimcha salbiy oqibatga ega.

Davlat yakka tadbirkor yoki istemolchidan farqli, jamiyat manfaatini ifodalab, qo'shimcha ijobiy samarani rag'batlantirishga va aksincha salbiy samara bilan bog'liq faoliyatni tartibga solishi va cheklashga harakat qilishi zarur.

Uchinchidan, davlatning iqtisodiy jarayonlariga aralashuvi shu sababli ro'y beradiki, individual istemolchilar hamma vaqt u yoki bu tovarni iste'mol qilishning oqibatlarini ob'ektiv baholay olmaydi. Shu nuqtai nazardan, davlat foydali iste'molni kengaytirish va aksincha sog'lik uchun zarar tovarlar iste'molini cheklash vazifasini o'z zimmasiga oladi. Masalan, davlat tamaki

mahsulotlari yuqori aktsiz (egri) solig'ini o'rnatilib, bir tomondan o'zining daromadini oshirsa, boshqa tomondan shu mahsulotni sotib olish talabini cheklaydi.

To'rtinchidan, davlat o'z zimmasiga bozorning tabiatidan kelib chiqadigan ayrim holatlarni qisman engillashtirish vazifasini oladi. Bozor hamma uchun to'lovga qobil talabini qondirishga teng imkoniyatni ta'minlaydi. Ammo bu bozorning milliy boylikni ijtimoiy - adolatli taqsimlashni ta'minlashini bildirmaydi. Bunday sharoitda davlat aholining kam ta'minlangan qatlamini turmush darajasi haqida g'amxo'rlik qilishi, pulsiz (yoki imtiyozli) bilim berish, tibbiy xizmat ko'rsatish va shu kabilarni o'z zimmasiga oladi.

Beshinchidan, hozirgi sharoitda iqtisodiy o'sishning barqaror izchilligini rag'batlantirish vazifasi ham davlatning zimmasiga tushadi.

Iqtisodiyotni Davlat tomonidan tartibga solish, uning maqsadi va vazifalari.

Bozor xo'jaligi sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish qonunchilik, ijro etish va nazorat qilish xarakteridagi tadbirlar tizimidan iborat bo'ladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish (IDTTS) ning ob'ektiv imkoniyati iqtisodiy rivojlanish, ishlab chiqarish va kapital to'planishi ma'lum darajaga erishganda vujudga keladi. Iqtisodiy rivojlanishda qiyinchiliklar o'sib va ziddiyatlar to'planib borishi bu imkoniyatlarni haqiqatga aylantirishni zarur qilib qo'yadi.

Hozirgi sharoitda IDTTS takror ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bir qator vazifalarni hal qilishga qaratiladi. Bular jumlasiga iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, bandlilikni tartibga solish, tarmoq va mintaqaviy tuzilmalardagi ijobiy siljishlarni qo'llab -quvvatlash, eksportni himoya qilish kabilarni kiritish mumkin.

IDTTS mexanizmi to'g'risidagi to'laroq tasavvurga ega bo'lishi uchun uning maqsadi, vazifalari va tartibga solish usullari hamda vosita yoki dastaklarini to'laroq tavsiflash lozim.

IDTTSning asosiy maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, mavjud tuzumni mustahkamlash (mamlakat ichida va xalqaro maydonda) va uni o'zgarib turuvchi sharoitga moslashtirish hisoblanadi.

Bu asosiy maqsaddan bir qator aniq maqsadlar kelib chiqadi. Ular jumlasiga iqtisodiy siklni barqarorlashtirish; milliy xo'jaliklarning tarmoq va mintaqaviy tuzilishini takomillashtirish, atrof-muhit holatini yaxshilash kabilarni kiritish mumkin. IDTTS maqsadi uning vazifalarida aniq namoyon bo'ladi. Bozor xo'jaligi sharoitida davlatning iqtisodiy vazifalari asosan bozor tizimining amal qilishini engillashtirish va himoya qilish maqsadiga ega bo'ladi. Bu sohadagi davlatning iqtisodiy vazifalaridan quyidagi ikki turini ajratib ko'rsatish mumkin:

Bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon tug'diruvchi huquqiy asos va ijtimoiy muhitni ta'minlash;

Rahobatni himoya qilish.

Davlatning boshqa vazifalari iqtisodiyotni tartibga solishning umumiy tamoyillaridan kelib chiqadi.

Bu erda davlatning uchta vazifasi alohida ahamiyatga ega:

Daromad va boylikni qayta taqsimlash;

Resurslarni qayta taqsimlash;

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish ya'ni iqtisodiy tebranishlar vujudga keltiradigan inflyatsiya va bandlilik darajasi ustidan nazorat qilish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish.

Davlat bozor iqtisodiyotining samarali amal qilishining shart - sharoiti hisoblangan huquqiy asosni ta'minlash vazifalarini o'z zimmasiga oladi. Bozor iqtisodiyoti uchun zaruriy, huquqiy asosni quyidagi tadbirlar taqozo qiladi: xususiy korxonalarga qonuniy mavqeini berish; xususiy mulkchilik huquqini aniqlash va shartnomalarga amal qilishini kafolatlash; korxonalar, resurslarni etkazib beruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonuniy bitimlarni ishlab chiqarish va shu kabilar. O'zbekiston Respublikasining korxonalar, tadbirkorlik va aksionerlik jamiyatlari to'g'risidagi qonunlari hamda ularga kiritilgan qo'shimcha va tuzatishlar, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish buyicha tadbirlari bozor iqtisodiyoti uchun zaruriy, huquqiy asosni ta'minlashga qaratilgan.

Davlat tomonidan ijtimoiy muhitni ta'minlash o'z ichiga ichki tartibni saqlash mahsulot sifati va og'riligini o'lchashga standartlar belgilash tovarlar va xizmatlar ayirboshlashini engillashtirish uchun milliy pul tizimini muammoga kiritish kabilarni oladi.

Raqobat bozor iqtisodiyotida asosiy tartibga soluvchi mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Bu shunday kuchki, u xaridorlar amriga yoki iste'molchilar erkinligiga ishlab chiqaruvchi va resurslarni etkazib beruvchilarni bo'ysundiradi. Raqobat sharoitida ko'plab xaridorlar tomonidan bildirilgan talab va sotuvchilarning taklifi bozor narxlarini belgilaydi. Bu shuni bildiradiki, ishlab chiqaruvchilar va resurslarni etkazib beruvchilar faqat bozor orqali hisobga oladigan iste'molchilar xohishiga moslashishi mumkin. Bozor tizimining irodasiga bo'ysunuvchi, raqobatlashuvchi ishlab chiqaruvchilar foyda olishni va o'z mavqeilarining mustahkamlashini kutadi, kim bozor qonunlarini buzsa, zarar ko'radi va oxir oqibatda sinadi. Raqobat sharoitida xaridor - bu xo'jayin, bozor ularning gumashtasi, korxona esa ularning xizmatkori hisoblanadi.

Monopoliya raqobatning o'rnini almashtirganda, sotuvchilar bozorga ta'sir ko'rsatishi yoki undagi narxlarni o'z manfaatlarini ko'zlab o'zgartirish mumkin. Monopoliyalar o'zlarining takliflari umumiy hajmini tartibga solish layoqatidan foydalanib, mahsulot hajmini sun'iy cheklash orqali ularga ancha yuqori narx belgilash va shu orqali ancha barqaror foyda olishi mumkin.

Bozor munosabatlari rivojlangan sharoitda monopoliyalar ustidan ikki usulda nazorat o'rnatiladi. Birinchi usulda, texnologiya va iqtisodiy sharoitlar «raqobatli bozor mavjud bo'lish imkoniyatini yo'qqa chiqaradigan tabiiy monopoliyalari deb nomladigan tarmoqlarda davlat narxlarini tartibga soladi va ko'rsatiladigan xizmatlarga standartlarni o'rnatadi. Transport, aloqa, elektr-energiya ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy foydalanishdagi korxonalar ma'lum darajada shunday tartibga solinadi. Ikkinchi usulda, samarali ishlab chiqarish juda ko'pchilik bozorlarda raqobat rivojining juda yuqori darajasida ta'minlanishi sababli davlat raqobatini kuchaytirish va himoya qilish maqsadida monopoliyalarga qarshi qonunlar qabul qiladi.

Bizning Respublikada ham monopol faoliyatni cheklash, tovarlar bozorida raqobatni rivojlantirish, iste'molchilar va tadbirkorlar manfaatini himoya qilishga qaratilgan qator qonunlar qabul qilingan.

Bozor tizimi kishilarning tabiiy qobiliyati, orttirgan bilimi va malakasi hamda mulkka egaligini hisobga olib, ularning yuqori daromad olishini ta'minlaydi. Shu bilan birga jamiyatning moddiy-vositalarga ega bo'lmagan, bilim va malaka darajasi past, layoqati ham yuqori bo'lmagan a'zolari, qariyalar, nogironlar, ishsizlar yolg'iz va qaramog'ida bolalari bo'lgan ayollar juda kam daromad oladi yoki bozor tizimi doirasida ishsizlar kabi umuman daromadga ega bo'lmaydi. qisqasi, bozor tizimi pul daromadlarini va milliy mahsulotni jamiyat a'zolari o'rtasida taqsimlashda birmuncha tengsizliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli davlat o'z zimmasiga daromadlar tengsizligini kamaytirish vazifasini oladi. Bu vazifa bir qator tadbir va dasturlarda o'z ifodasini topadi.

Birinchidan, transfert to'lovlari orqasi muhtojlarni, nogironlarni va birovning qaramog'ida bo'lganlarni nafaqalar bilan ishsizlarni ishsizlik nafaqalari bilan ta'minlaydi. Ijtimoiy ta'minot dasturlari orqali pensionerlar va qariyalarga moliyaviy yordam ko'rsatiladi.

Bu barcha dasturlar davlat byudjeti mablag'larini, jamiyatning kam daromad olgan yoki umuman daromadga ega bo'lmagan a'zolari hisobiga qayta taqsimlaydi.

Ikkinchidan, davlat bozorni tartibga solish yo'li bilan ya'ni, talab va taklif ta'sirida o'rnatiladigan narxlarni o'zgartirish yo'li bilan ham daromadlarning taqsimlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Me'yordagi oziq-ovqat tovarlariga o'rnatiladigan imtiyozli narxlar va ish haqining eng kam (minimal) darajasi haqidagi qonunchilik davlatning, aholining ma'lum qatlami daromadlarini oshirishga qaratilgan tadbirlarining yana bir misolidir.

Davlat jamiyat a'zolari o'rtasida daromadlarni qayta taqsimlashda soliq tizimidan ham keng foydalanadi (soliq imtiyozlari orqali).

Bozor mexanizmining resurslarni qayta taqsimlashdagi layoqatsizligi ikki holatda ko'rinadi, ya'ni raqobatli bozor tizimi, 1) ma'lum tovarlar va xizmatlarning kam miqdorini ishlab chiqaradi; 2) ishlab chiqarishi o'zini oqlagan ayrim tovarlar va xizmatlarga resurslarning har qanday turini ajratish holatida bo'lmaydi.

Resurslarni qayta taqsimlanishi tovarlarni ishlab chiqarish yoki iste'mol qilish bilan bog'liq foyda yoki zarar, uchinchi tomonga, ya'ni bevosita xaridor yoki sotuvchi hisoblanmaganlar tomonga "joyini o'zgartirsa" vujudga keladi. Bu qo'shimcha samara deb ataladi, chunki u bozor qatnashchisi hisoblanmaganlar xissasiga to'g'ri keluvchi foyda yoki zararni ifodalaydi. Bunga atrof muhitning ifloslanishini misol qilib keltirish mumkin. Kimyo korxonasi o'zlarining sanoat chiqitlarini ko'l yoki daryoga oqizsa bu cho'miluvchilar, baliqchilar va atrofdagi aholiga - zarar keltiradi.

Ishlab chiqaruvchi esa muhofaza inshoot va uskunalar o'rnatmaganligi hisobiga ishlab chikarish harajatlarining ancha past darajasini ta'minlaydi. Davlat resurslarining nomutanosib taqsimlanish vujudga keltiradigan bu holatlarni tartibga solish uchun qonunchilik tadbirlarini qo'llaydi, yoki maxsus soliq va jarimalardan foydalanadi.

Masalan, atrof - muhit va suv havzalarining ifloslanishini taqiqlovchi yoki cheklovchi qonunlar, ishlab chiqaruvchilarni o'zlarining sanoat chiqitlarini ishlab chiqarish jarayonida ifloslangan suvni tozalovchi qurilmalar sotib olish va o'rnatish bilan yo'qotishga majbur qiladi.

Boshka holda davlat maxsus soliqlarni kiritish yordamida, atrof- muhitni ifloslantiruvni korxonalarga boshqalarga keltirishi mumkin bo'lgan zararni yuklashga harakat qiladi.

Davlat bir qator yo'llar bilan resurslarning nomutanosib taqsimlanishi keltirib chiqaradigan oqibatlarni yumshatishga ham harakat qiladi.

Birinchidan, iste'molchilarning aniq tovar va xizmatlarni xarid qilish qobiliyatini oshirish yo'li bilan ularning talabi kengaytirildi. Malasan, bizning Respublikamizda islohatlarning dastlabki davrida oziq-ovqat mahsulotlariga talon tizimi joriy etilishi past daromadli oilalarning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini oshiradi va shu orqali resurslarning nomutanosib taqsimlanishini bartaraf qiladi.

Ikkinchidan, davlat taklifni oshirish maqsadida ishlab chiqarishni subsidiyalashi mumkin. Subsidiyalar ishlab chiqaruvchilarning zararlarini qisqartiradi va mahsulotlarni ishlab chiqarishda resurslarning etishmasligi bartaraf qiladi.

Uchinchidan, davlat ayrim tovarlar va ijtimoiy ne'matlarni ishlab chiqaruvchisi sifatida chiqadi. Bunday tarmoqlar davlat mulkchiligiga asoslanadi va davlat tomonidan bevosita boshqariladi yoki ularni moliyalashtirishni davlat o'z zimmasiga oladi.

Bular fan, ta'lim, soliqni saqlash, milliy mudofaa, favqulodda ro'y beradigan tabiiy hodisalarga qarshi kurash ichki tartibni saqlash shular jumlasidandir.

Davlat, byudjet mablag'lari hisobiga resurslarni xususiy sohada qo'llanilishdan bo'shatadi, hamda ularni ijtimoiy ne'mat va xizmatlar ishlab chiqarishga yo'naltirish mumkin. Shunday qilib, davlat mamlakat milliy mahsuloti tarkibida muhim o'zgarishlarni amalga oshirish maqsadida resurslarni qayta taqsimlaydi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya'ni iqtisodiyotning barcha sohalarini resurslar bilan ta'minlash, to'liq bandlilik va narxlarning barqaror darajasiga erishishda yordam berish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish davlatning eng muhim vazifasi hisoblanadi.

Iqtisodiyotda to'liq bandlilikni ta'minlash uchun umumiy sarflar, ya'ni xususiy va davlat sarflarining hajmi etarli bo'lmasa davlat bir tomondan ijtimoiy ne'matlar va xizmatlarga o'z xarajatlarini ko'paytiradi, boshqa tomondan xususiy sektorning sarflarini rag'batlantirish iaqsadida soliqlarni qisqartiradi.

Agar jami sarflar to'liq bandlilik sharoitida taklif hajmidan oshib ketsa, bu narxlar darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Jami sarflarning mazkur ortiqcha darajasi inflyatsion xarakter kasb etadi. Bunday holda davlat soliqlarni oshirish orqali xususiy sektor sarflarini qisqartirish va shu yo'l bilan ortiqcha sarflarni tugatishga harakat qiladi. Iqtisodiyotda ishsizlik mavjud bo'lganda davlat sarflarining ko'payishi jami sarflar, ishlab chiqarish hajmi va bandlilikning o'sishiga olib keladi. O'z navbatida, soliqlarning qiskarishi yoki transfert to'lovlarining ko'payishi daromadlarni ko'paytiradi. Bu daromadlar shaxsiy sarflarni o'sishini rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Davlat o'z ishlab chiqarishini moliyalashtirishdan tashqari ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minotning bir qator dasturlarini amalga oshiradi, iqtisodiyotning xususiy va kooperativ sektorida daromadlarni qayta taqsimlaydi. Davlat tartibga soluvchi xarakterga ega bo'lgan bir qator

vaziyatlarni ham amalga oshiradi. Bularga atrof - muhitni himoya qilish, aholi sog'lig'ini saqlash, bo'sh ishchi o'rinlariga ega bo'lishning teng sharoitini ta'minlash va ma'lum sohalarda narx belgilash Seminaroti ustidan nazorat qilish va shu kabilarni kiritish mumkin.

Davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari va vositalari.

Davlat milliy iqtisodiyotni tartibga solishda bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullarni umumlashtirib quyidagicha guruxlash mumkin:

- bevosita ta'sir qilish usullari;
- bilvosita ta'sir qilish usullari;
- tashqi iqtisodiy usullar.

Markazdan boshqarish tartibi ustun bo'lgan mamlakatlarda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvida bevosita ta'sir qilish usullari ustun bo'lsa, bozor iqtisodiyoti esa birinchi navbatda iqtisodiy jarayonlarni bilvosita tartibga solish bilan bog'langan. Shu bilan birga barcha mamlakatlarda iqtisodiyotning davlat sektori mavjud. Davlat xilma - xil shakldagi kapitalga egalik qiladi, kreditlar beradi, korxonalarga mulkdor hisoblanadi. Bu davlatning ijtimoiy kapitalning bir qismiga egalik qilishiga olib keladi.

Davlat iqtisodiyotni bevosita tartibga solishda ma'muriy vositalardan foydalaniladi. Ma'muriy vositalar davlat xokimiyati kuchiga tayanadi va taqiqlash, ruxsat berish va majbur qilish xarakterdagi tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Tartibga solishning ma'muriy vositalaridan foydalanilganda yaxlit takror ishlab chiqarish jarayoni yoki uning alohida tomonlarini to'g'ridan-to'g'ri tartibga solish ko'zda tutiladi. Ayniqsa ishlab chiqarish tanazzulga uchragan davrda iqtisodiyotga bilvosita ta'sir qilish tadbirlari kam samarali bo'lib, ma'muriy vositalardan foydalanishga ustunlik beriladi. Bu usullardan quyidagilarni alohida ko'rsatish mumkin:

a) iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlari - transport, aloqa, atom va elektr - energetika, kommunal xizmat va boshkalarni bevosita boshqarish. Bunda davlat mulk sohibi va tadbirkor sifatida o'ziga qarashli korxona va tashkilotlar iqtisodiy hayotida faol qatnashadi. Davlat tadbirkorligi, ma'lum doirada amal qilib, ko'pincha texnologiya sharoiti xususiy kapital uchun qulay bo'lmagan korxonalar doirasi bilan cheklanadi. Davlat tadbirkorligi bir tomondan, ma'lum sharoitlarda iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lsa, ikkinchi tomondan vaqt o'tishi bilan samarasiz bo'lib qolishi ham mumkin. Bunday holda ular xususiy tadbirkorlik ob'ektiga aylantiriladi.

b) narxlar va ish haqini qotirib qo'yish siyosati:

Bu iqtisodiyotga aralashishning antiinflyatsion tadbirlari hisoblanib, inflyatsiyani yumshatishga qaratiladi. Mazkur siyosatni yuritishda narxlar va ish haqini oshirish qonun bilan taqiqlandi yoki ma'lum doira bilan cheklanadi. Antiinflyatsion tadbirlar orqali inflyatsiya darajasini pasayishi investitsiyalarga rag'bat beradi.

v) ish bilan bandlilik xizmati faoliyati (mehnat birjalari) ni tashkil qilish.

Davlat bu faoliyatni tashkil qilish bilan ishsizlikni qisqartirish choralarini ko'radi. Ularni zarur kasblarga qayta tayyorlaydi, ish bilan ta'minlanmaganlarga nafaqa beradi, muhtojlarga yordam ko'rsatadi.

g) iqtisodiy sohani tartibga solishni ko'zda tutuvchi qonuniy aktlarni ishlab chiqish va qabul qilish (monopoliyaga qarshi qonunchilik, sohibkorlik to'g'risidagi, bank sohalari, qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyatini tartibga solishni ko'zda tutuvchi qonunlar).

Shu orqali bozor munosabatlarining rivojlanishi qonun yo'li bilan kafolatlanadi, turli mulk shakllarining daxlsizligi ta'minlanadi, monopoliyalarga yo'l berilmaydi va erkin raqobatga sharoit yaratiladi.

Iqtisodiyotni bilvosita tartibga solishda iqtisodiy dastak va vositalarga ustunlik beriladi. U davlatning pul - kredit va byudjet siyosatida o'z ifodasini topadi.

Pul - kredit siyosatining asosiy vositalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- hisob stavkasini tartibga solish;

- moliya kredit muassasalalarining markaziy bankdagi ehtiyotlari minimal hajmini o`rnatish va o`zgartirish;
- davlat muassasalalarining qimmatli qog`ozlar bozoridagi operatsiyalari (davlat majburiyatlarini chiqarish, ularni sotish va to`lash).

Davlat bu dastaklar yordamida moliya bozorida talab va taklif nisbatini kutilgan yo`nalishda o`zgartirishga harakat qiladi. Jumladan, ssudaga beriladigan pul miqdorini o`zgartirish uchun foiz stavkasi vositasidan foydalanadi. Davlat kreditga bo`lgan talab va taklifni markaziy bank orqali quyidagi yo`llar bilan o`zgartiradi.

Birinchidan, davlat markaziy bank ehtiyojlari orqali banklar mablag`larining qarzga beriladigan va extiyot (rezerv)da turadigan qismlari ulushini o`zgartiradi. Natijada qarzga beriladigan pul miqdori o`zgaradi, ya'ni uning taklifi osha foiz kamayadi, aksincha u kamaysa foiz oshadi. Foizning kamayishi kredit olishga intilishni kuchaytiradi va bu investitsiya faolligi orqali iqtisodiy o`shishni rag`batlantiradi.

Ikkinchidan, Markaziy bank boshqa banklarga past foiz stavkasida qarz berib, ularning kreditlash ishida faol qatnashib, iqtisodiy o`shishga ta'sir qilishini ta'minlaydi.

Uchinchidan, davlat markaziy bank orqali xazina majburiyatlarini tarqatadi, o`z obligatsiyalarini sotadi yoki qimmatli qog`ozlarini sotib oladi. Natijada taklif etilgan pul miqdori o`zgarib, bu foizga ta'sir etadi. Davlatning pulga bo`lgan talab va taklifini o`zgartirish borasidagi siyosati monetar siyosat deb yuritiladi.

Davlat byudjet siyosati uning daromadlar va harajatlar qismini o`zgartirishga qaratiladi. Davlat harajatlarni qoplash uchun moliyaviy mablag`larni jalb qilishning eng asosiy dastagi soliqlar hisoblanadi. Ulardan xo`jalik sub'ektlari faoliyatiga va ijtimoiy barqarorlikka ta'sir ko`rsatishda xam keng foydalaniladi.

Soliqlar yordamida davlat tomonidan tartibga solish tanlangan soliq tizimiga, soliq stavkasi darajasiga hamda soliq turlari va soliq to`lashda berilgan imtiyozlarga bog`liq bo`ladi.

Davlat iqtisodiyotni tartibga solish vositasi sifatida byudjet harajatlardan ham foydalanadi.

Bunga birinchi navbatda, davlat kreditlari, subsidiyalari va kafolatlari, hamda xususiy sektordan tovarlarni sotib olishga qilinadigan sarflar misol bo`ladi.

IDTTSda asosiy kapitalga hisoblanadigan jadallashgan amortizatsiya ajratmalari aloxida rol o`ynaydi. U hozirgi sharoitda jamg`arish va iqtisodiyotdagi tarkibiy o`zgarishlarni rag`batlantirishning asosiy vositasi hamda iqtisodiy sikli va bandlikka ta'sir ko`rsatuvchi muhim dastak hisoblanadi.

Iqtisodiyotni tartibga solishda davlat kapital qo`yilmalari muhim rol o`ynaydi. Jumladan, bozor kon'yukturasi yomonlashgan, turg`unlik yoki inqiroz sharoitida xususiy kapital qo`yilmalar qisqaradi, davlat investitsiyalari esa odatda o`sadi. Shu orqali davlat ishlab chiqarishda tanazzul va ishsizlikning o`shishiga qarshi turishga harakat qiladi.

Davlat kapital qiymatlari iqtisodiyot tarkibiy tuzilishidagi o`zgarishlarda ham sezilarli o`ringa ega bo`ladi, masalan, davlat xususiy kapitalining oqib kelishi etarli bo`lmagan mintaqalar, tarmoqlar yoki faoliyat sohalarida yangi ob'ektlar qurish va eskilarini qayta qurollantirish orqali iqtisodiyot tarkibiy tuzilishiga ta'sir ko`rsatadi. Bulardan tashqari davlat kapital quyilmalari ilmiy - tadqiqot ishlarida, kadrlar tayyorlashda, tashqi savdo va chetga kapital chiqarishda ham katta rol o`ynaydi.

IDTTS ning oliy shakli davlat iqtisodiy dasturlari hisoblanadi. Uning vazifasi tartibga solishning barcha usuli va vositalaridan kompleks foydalanishdan iborat.

Iqtisodiy dasturlar o`rta muddatli, favqulodli va maqsadli bo`lishi mumkin. O`rta muddatli umum iqtisodiy dasturlar odatda besh yilga tuziladi. Favqulodli dasturlar tig`iz vaziyatlarda, masalan, inqiroz, ommaviy ishsizlik va kuchli inflyatsiya sharoitlarida ishlab chiqilib, qisqa muddatli xarakterga ega bo`ladi. Bunday maqsadli dasturlarning ob'ekti tarmoqlar mintaqalar, ijtimoiy sohalar va ilmiy tadqiqotlarning har xil yo`nalishlari bo`lishi mumkin.

IDTTS tashqi iqtisodiy usullar yordamida ham amalga oshiriladi. Bunda maxsus vosita va dastaklar orqali mamlakatning tashqi dunyo bilan amalga oshiriladigan xo`jalik aloqalariga bevosita ta'sir ko`rsatiladi.

Tovarlar, xizmatlar, kapital va fan - texnika yutuqlari eksportini rag`batlantirish tadbirlari, eksportni kreditlash, chet ellardan investitsiyalar va eksport kreditlarini kafolatlash, tashqi iqtisodiy aloqalarga cheklashlar kiritish yoki bekor qilish, tashqi savdoda boj to`lovlarini o`zgartirish, mamlakat iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilish yoki cheklash bo`yicha tadbirlar, mamlakatga chetdan ishchi kuchini jalb qilish, xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda va davlatlararo uyushmalarda qatnashish mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga solishning asosiy vositalaridir.

Shunday qilib, IDTTSning qarab chikilgan barcha ichki va tashqi iqtisodiy usullari (vosita va dastaklari) birgalikda milliy iqtisodiyotdagi takror ishlab chiqarish jarayoniga va mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalariga o`z ta'sirini ko`rsatadi.

Davlatning ijtimoiy siyosati. O`zbekistonda ijtimoiy siyosatning asosiy yo`nalishlari.

Davlatning ijtimoiy siyosati tegishli markazlashgan daromadlarni tabaqalashgan soliq solish yo`li bilan shakllantirish va uni byudjet orqali aholi turli guruhlarini o`rtasida qayta taqsimlashdan iborat. Davlat daromadlarni qayta taqsimlashda ijtimoiy to`lovlar bilan birga bozor narxlarini o`zgartirish (masalan, fermerlarga narxlarini kafolatlash) va ish haqining eng kam darajasini belgilash usullaridan foydalanadi.

Ijtimoiy to`lovlar – kam ta'minlanganlarga pul yoki natural yordam ko`rsatishga qaratilgan tadbirlari tizimi bo`lib, bu ularning iqtisodiy faoliyatda qatnashishi bilan bog`liq bo`lmaydi. Ijtimoiy to`lovlarning maqsadi jamiyatdagi munosabatlarni insonparvarlashtirish hamda ichki talabni ushlab turish hisoblanadi.

Aholi real daromadlari darajasiga inflyatsiya sezilarli ta'sir ko`rsatishi sababli daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning muhim vazifasi iste'molchilik tovarlariga narxning o`shirishini hisobga olish va daromadlarni indeksatsiyalash, ya'ni nominal daromadlarni narxlar o`shirishga bog`liqlikda oshirib borish hisoblanadi.

Shaxsiy daromadni himoya qilishda ijtimoiy siyosatning muhim yo`nalish aholi kambag`al qatlamini qo`llab-quvvatlash hisoblanadi.

Seminar hayotda qashshoqlikning o`zi hayot kechirish minimumi yordamida aniqlanadi. Bu ijtimoiy va fiziologik (jismoniy) minimumda ifodalanadi. Ijtimoiy minimum jismoniy ehtiyojlarni qondirishning minimal normasi (me'yori) bilan birga ijtimoiy talablarning minimal xarajatlarini ham o`z ichiga oladi. Fiziologik minimum esa faqat asosiy jismoniy ehtiyojlarni qondirishni ko`zda tutadi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda aholining ijtimoiy yordamiga muhtoj qismini aniqlashda turli xil mezonlar asos qilib olinadi. Ular jumlasiga daromad darajasi, shaxsiy mol-mulki miqdori, oilaviy ahvoli va shu kabilar kiritiladi.

Ijtimoiy siyosat – bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni yumshatishga va bozor iqtisodiyoti qatnashchilari o`rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo`naltirilgan siyosatdir. Respublikada bozor munosabatlariga o`tish davrida ijtimoiy siyosat aholini ijtimoiy qo`llab-quvvatlash va himoya qilishga qaratiladi hamda alohida yirik yo`nalishlarda amalga oshiriladi. Bu yo`nalishlar I.A. Karimovning “O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida”1 kitobida to`liq bayon qilib berilgan.

Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng asosiy yo`nalish – bu narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o`rtacha darajasini muntazam oshirib borish hisoblanadi. Bunda respublikaning o`ziga xos yondashuvi ishlab chiqilib, daromadlar nisbatini o`zgartirish, ish haqi, pensiyalar, stipendiyalarning, jamg`arma banklardagi aholi omonatlari stavkalarining eng oz miqdorini bir vaqtning o`zida qayta ko`rib chiqish yo`li bilan amalga oshiriladi. Daromadlar nisbatini o`zgartirishda 1993 yil joriy etilgan yangi yagona ta'rif setkasi katta ahamiyatga ega bo`ldi. Bu barcha toifadagi xodimlarning mehnat haqi miqdorlarini tarif koeffitsientlari orqali, eng kam ish haqi vositasi bilan bevosita o`zaro bog`lash imkonini berdi.

Aholini ijtimoiy himoyalashning ikkinchi yo`nalishi - ichki iste'mol bozorini himoya qilish, hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish bo'ldi. Bunga erishishda muhimi mahsulotlar eksportini bojxona tizimi orqali nazorat qilish va ularga yuqori boj to'lovlari joriy etish, kundalik zarur tovarlarni me'yorlangan tarzda sotishni tashkil qilish kabi tadbirlar katta ahamiyatga ega bo'ldi. Milliy valyuta joriy etilishi bilan oziq-ovqat mahsulotlarini me'yorlangan tarzda sotishdan voz kechish erkin narxlarga o'tish imkoniyatini yaratadi.

Iqtisodiy islohotlarning ilk bosqichida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning uchinchi yo`nalishi – aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab - quvvatlash borasida kuchli chora-tadbirlar o'tkazilganligi bo'ldi. Bu yo`nalishda aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlari - pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o'quvchi yoshlar hamda qayd etilgan miqdorda daromad oluvchi kishilar turli xil yo'llar bilan himoya qilib borildi.

Yalpi ijtimoiy himoyalash tizimidan ishonchli ijtimoiy kafolatlar va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimiga izchillik bilan o'tish – ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga, ijtimoiy himoya vositasini kuchaytirishda sifat jihatdan yangi bosqich boshlashini bildiradi.

Yangilangan ijtimoiy siyosat adolat tamoyillariga izchillik bilan rioya qilishga asoslanib, ijtimoiy ko'maklashishning mavjud usullarini va pul bilan ta'minlash manbalarini tubdan o'zgartirishni taqozo qiladi. Bu siyosat ijtimoiy himoya aniq maqsadi va aholining aniq tabaqalarini qamrab olishni ko'zda tutadi. Yordam tizimi faqat kam ta'minlangan va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nisbatan qo'llanilib, shu maqsad uchun davlat manbalari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, turli tashkilot hamda jamg'armalarning mablag'laridan ham foydalaniladi.

Ijtimoiy ko'maklashishning yangi tizimida bolalar va kam daromadli oilalar yordamdan bahramand bo'luvchi asosiy kishilar hisoblanib, ular uchun hamma nafaqa va moddiy yordamlar faqat mahalla orqali etkazib beriladi. Bu tizimda kam daromadli oilalarga beriladigan moddiy yordam mahalla orqali etkaziladi. Shu maqsadda mahallalarda byudjet mablag'lari, korxona va tashkilotlar, tadbirkorlik tuzilmalari va ayrim fuqarolarning ixtiyoriy o'tkazgan mablag'lari hisobidan maxsus jamg'armalar hosil qilindi.

Ijtimoiy ko'maklashishning yangi tizimi mehnatga rag'batlantiradigan omillar va vositalar yangi tuzilmasi paydo bo'lishini ham taqozo qiladi.

Shunday qilib, islohotlar davrida davlat aholining muhtoj tabaqalarini qo'llab-quvvatlash bilan birga, o'z mehnat faoliyati orqali oilasining farovonligini ta'minlashga intiluvchi kishilar uchun teng sharoit va qulay imkoniyat yaratishga harakat qiladi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar.

- 1.Davlatning iqtisodiyotdagi roliga turlicha qarashlarini baholang?
- 2.Davlat asosiy iqtisodiy vazifalarini sanab chiqing va ularning qisqacha tavsifini bering?
- 3.Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurligini nima taqozo qiladi? Tartibga solish o'z oldiga qanday maqsad va vazifalarni qo'yadi?
- 4.IDTTSning bevosita va bilvosita usullariga tavsif bering. Tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalarini sanab ko'rsating.
- 5.IDTTSda davlat sektori qanday rol o'ynaydi? Davlat iqtisodiy dasturlari qanday amalga oshiriladi?
- 6.Davlatning aholi daromadlarini shakllantirish siyosati deganda nimani tushunasiz? Ijtimoiy adolatni ta'minlashda bu siyosatning roli qanday?
- 7.O'zbekistonda davlat yordam dasturlari tizimini isloh qilish va uni hozirgi davrdagi asosiy yo'nalishlariga o'zingizning fikringizni bildiring.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. SHavkat Mirziyoev. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birkalikda barpo etamiz" - T.: "O'zbekiston" 2016.
2. SHavkat Mirziyoev "Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini Ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" 2016 yil 7 dekabr: T., "O'zbekiston" 2017.
3. SHavkat Mirziyoev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz". T., "O'zbekiston" 2017 .
3. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: «O'zbekiston» 1998.
4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.: «O'zbekiston». 2000.
5. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir. T.: «O'zbekiston» 2005.
6. O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi. T.: «Adolat», 1999.
7. «Byudjet tizimi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 14 dekabr, 2000 y.
8. Shodmonov Sh.Sh., Alimov R.H., Jo'raev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: «Moliya» nashriyoti, 2002. XX bob, 323-336-b.
9. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma'ruzalar matni G`Mualliflar jamoasi.-TDIU. IPO "Polipaper", 2005
10. Borisov E. F. Ekonomicheskaya teoriya: ucheb. – 2-e izd., pererab. i dop. – M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2005, s.477-490.
11. Ioxin V.Ya. Ekonomicheskaya teoriya: Uchebnik G` V.Ya. Ioxin. – M.: Ekonomist', 2005, s.635-652, 654-670.
12. www.pca.uz

9-MAVZU. JAHON XO'JALAGI VA IQTISODIY INTEGRASIYA.

2. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari. Jahon infratuzilmasining rivojlanishi
3. Xalqaro savdoning mazmuni, tuzilishi va xususiyatlari
4. To'lov balansi, uning tuzilishi va taqchilligi
5. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va valyuta tizimlari

Asosiy tayanch tushunchalar:

Xalqaro mehnat taqsimoti - alohida mamlakatlarning tovar va xizmatlarning ayrim turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya - jahon mamlakatlari o'zaro iqtisodiy aloqalarining chuqurlashtirish va barqaror rivojlanishi hamda milliy xo'jaliklar o'rtasidagi mehnat taqsimoti asosida ular xo'jalik aloqalarining birlashish jarayoni.

Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi - mehnat resurslarining ancha qulay sharoitda ish bilan ta'minlanish maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tishi.

Emigratsiya - ishchi kuchining mamlakatdan doimiy yashash joyiga chiqib ketishi.

Immigratsiya - ishchi kuchining mamlakatga doimiy yashash uchun kirib kelishi.

Erkin savdo zonalari - iqtisodiy integratsiyaning eng oddiy shakli bo'lib, uning dorasida savdo cheklashlari bekor qilinadi.

Boj ittifoqi - yagona tashqi savdo ta'riflari o'rnatishni va uchunchi mamlakatga nisbatan yagona tashqi savdo siyosati yuritishini taqazo qiladi.

To'lov ittifoqi - milliy valyutalarning o'zaro almashinuvi va hisob-kitobda yagona pul birligining amal qilishi.

Umumiy bozor - bunda uning qatnashchilari o'zaro erkin savdoni amalga oshirish va yagona tashqi savdo siyosati o'tkazish bilan birga kapital va ishchi kuchining erkin xarakati ta'minlanadi.

Iqtisodiy va valyuta ittifoqi - iqtisodiy integratsiyaning eng oliy shakli bo'lib, bunda iqtisodiy integratsiyaning barcha qarab chiqilgan shakllari iqtisodiy va valyuta-moliyaviy siyosat o'tkazish bilan birga uyg'unlashadi.

Eksport – tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar mamlakatdan tashqariga chiqariladi.

Import – chet ellik mijozlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga kiritish.

Reeksport – qandaydir mamlakat ishlab chiqaruvchi mamlakatdan tovarlarni o'z iste'moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun sotib olishi.

Reimport – iste'molchi mamlakatdan reeksport tovarlarni sotib olish.

Xalqaro valyuta tizimi – xalqaro valyuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan shakli.

Valyuta kursi –bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalangan bahosi.

To'lov balansi - mamlakat rezidentlari (uy xo'jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o'rtasida ma'lum vaqt oralig'ida (odatda bir yilda) amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar natijasining tartiblashtirilgan yozuvi. Iqtisodiy bitimlar - qiymatning har qanday ayirboshlanishi, ya'ni tovarlar ko'rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o'tishi bo'yicha kelishuvlar. Iqtisodiy rivojlanishning umumjahon tomonlari va ishlab chiqarishning baynalminallashuvi

Hozirgi davrda jahon iqtisodiy rivojlanishining eng muhim xarakterli xususiyatlaridan biri - turli mamlakatlar va xo'jalik regionlari o'rtasidagi o'zaro bog'liklarning o'sib borishi hisoblanadi.

Jahon xo'jaligida har bir o'zgarishlar (jahon bozoridagi narxlar harakati va alohida mamlakatning eksport imkoniyatidan tortib dunyo iqtisodiyotidagi tarkibiy siljishlar va xalqaro monopoliyalar faoliyatigacha) dunyodagi barcha mamlakatlar manfaatini o'ziga tortadi. Mamlakatning savdo, ishlab chiqarish, valyuta moliya sohalaridagi jahon tamoyillariga bog'liqlik ob'ektiv reallik hisoblanadi. Hozirgi davrda har qanday mamlakatni uning iqtisodiy qanday rivojlangan bo'lishidan qat'iy nazar, jahon xo'jaligi aloqalariga jalb qilmasdan uning to'la qonli iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash mumkin emas.

Shu sababli Prezidentimiz I.Karimov «Mamlakatning jahon xo'jalik aloqalarida, xalqaro mehnat taqsimotida keng miqyosda ishtirok etishi ochiq turdagi iqtisodiyotni barpo etishning asosidir»¹, deb ta'kidlaydi.

Dunyo bir-biridan maqsadlari, amal qilish mexanizmi bilan farqlanuvchi turli xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar, xalqaro guruhlariga bo'lingan. Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlash har xil mezonlar asosida amalga oshiriladi. Yaqin vaqtlargacha bizning adabiyotimiz sotsializm dunyosi, kapitalizm dunyosi va uchinchi dunyo mamlakatlari degan tushunchani singdirib keldi.

Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlashga umumiy asosda yondashib xo'jalik tizimlarining xususiyatlariga mos ravishda davlatlarning uchta guruhini ajratib ko'rsatish mumkin: rivojlangan, bozor iqtisodiyotida rivojlanayotgan va bozor iqtisodiy mavjud bo'lmagan mamlakatlar. Rivojlanganlik darajasi bo'yicha ham o'z navbatida uchta guruh farqlanadi: kam, o'rtacha va yuqori rivojlangan mamlakatlar. Shimoliy-Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasidagi yangi industrial mamlakatlar (YaIM), yuqori daromadli neft eksport qiluvchi mamlakatlar (Saudiya Arabistoni,

quvayt va boshqalar) eng kam rivojlangan mamlakatlar (EKVI), shu jumladan eng kambag'al mamlakatlar (Chad, Baengladesh, Efiopiya), har xil regional ittifoqlar va internatsional guruhlariga ajratiladi.

Bu barcha turli-tumanlik bir butun yaxlitlikka o'zaro iqtisodiy bog'liqlikning har xil jixatlari orqali tortiladi. Hozirgi xo'jalik aloqalarining chuqurlashib borayotganligi baynalminallashuvining kuchayishi hamda fan-texnika revolyutsiyasining keng qamrovli xarakteri, aloqa va kommunikatsiya vositalarining butunlay yangi roli sharoitida milliy iqtisodiyot o'z-o'zini ta'minlash orqali samarali amal qilish mumkin emas.

Jahon xo'jalik aloqalarining tez o'sishi shunday davrlarga to'g'ri keladiki, bu davrda ishlab chiqarish omillarining harakati tezlashadi, kapital milliy chegaradan o'sib chiqadi, ishchi kuchi migratsiyasi kuchayadi, xalqaro mehnat taqsimotining shakllanish jarayoni tezlashadi. Bu shundan guvohlik beradiki, xo'jalik aloqalarining baynalminallashuvini ko'p jihatdan ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish mantiqi taqozo qiladi, ya'ni u milliy chegaradan o'sib chiqadi va ob'ektiv ravishda ishlab chiqarishning baynalminallashuvini zarur qilib qo'yadi.

Milliy xo'jaliklar va ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar negizida shakllangan jahon xo'jaligi asosida xalqaro mehnat taqsimoti yotadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti (XMT) alohida mamlakatlarning tovar va xizmatlarning ma'lum turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini ifodalaydi. Alohida mamlakatlarning bunday ixtisoslashuvi mahsulotlari ustun darajada eksportga yo'naltirilgan xalqaro ixtisoslashgan tarmoqlarning shakllanishiga olib keladi.

Dastlabki vaqtlarda xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi asosan tabiiy sharoitlardagi tafovutlarga asoslangan edi. Binobarin, faqat sanoat to'ntarishidan keyin, ya'ni ishlab chiqaruvchi kuchlar baynalminal xususiyat kasb etib, milliy xo'jaliklar doirasidan tashqariga o'sib chiqarib boshlagach, ularning negizidan barqaror mehnat taqsimoti va jahon bozori tarkib topadi. Hozirgi vaqtda xalqaro mehnat taqsimoti turli ijtimoiy tizimlarni o'z ichida oluvchi umumjahon xo'jaligi doirasida rivojlanmoqda. Xalqaro mehnat taqsimoti va ayirboshlashda qatnashayotgan mamlakatlar bir xil sharoitda emas. Bu hol ularning turli jo'g'rofiy ahvoli, tabiiy resurslarining tarkibi va miqdori, rivojlanish ko'lam, darajasi va iqtisodiyotini tuzilishi, ichki bozorning hajmi bilan belgilanadi. Ana shu farqlar sababli ayrim mamlakatlarda bir xil tovarlarni ishlab chiqarishdagi xarajatlar darajasi ham turlicha bo'ladi. Shuning uchun har bir mamlakat o'zi nisbatan qulayroq, kamroq xarajat bilan ishlab chiqaradigan tovarlarni boshqa mamlakatlarga sotishga va aksincha, jahon bozori o'zidan ishlab chiqarish uchun xarajat ko'proq bo'ladigan yoki tabiiy yoxud boshqa sharoitlarga ko'ra umuman ishlab chiqarib bo'lmaydigan tovarlarni sotib olishga intiladi. Tovarlar mamlakatlar o'rtasida jahon narxlariga asosida ayirboshlanadi. Ular baynalminal qiymatga asoslanadi. Buning ma'nosi shuki, ijtimoiy zaruriy baynalminal mehnat sarflari jahon bozorida e'tirof qilinadi. Umuman olganda, jahon narxlarining tashkil topishi odatda, sof holda amalga oshmaydi. Baynalminal qiymatning hosil bo'lishiga to'sqinlik qiluvchi maxsus omillar jahon narxlariga ta'sir qiladi. Tashqi savdo va valyuta cheklashlari, valyutalar qiymatining o'zgarib turishi, xalqaro monopoliyalar siyosati, birjadagi chayqovchiliklar va hakazolar shular jumlasidandir. Shu sababli ayrim mamlakatlarning jahon bozoriidagi raqobatlashuv qobiliyatidagi farqlar, pirovard natijada mehnat unumdorligining milliy darajadagi farqlarini aks ettiradi. Rivojlangan mamlakatlarda keyingi o'n yilliklarda yangi texnologik asoslarga o'tish jahon xo'jalik aloqalarining tez o'sishi bilan birga bordi. Takror ishlab chiqarish jarayonlarining baynalminallashuvi o'zining har ikkala shaklida: integratsion (milliy xo'jaliklarning yaqinlashuvi, o'zaro moslashuvi orqali) va transmilliy (xalqaro ishlab chiqarish majmuasining tuzilishi orqali) shakllarida kuchayadi. Jumladan, butun dunyoda regional davlatlararo iqtisodiy integratsiyaning qaror topish tamoyili kuzatiladi. Jumladan, rivojlangan Evropa integratsion hamjamiyati (EI) doirasida tovarlar, xizmatlar va ishchi kuchining erkin harakati amalga oshiriladi. Shimoliy Amerika umumiy iqtisodiy hamkorlik AqSh, Kanada va Meksika iqtisodiyotining integratsiyasini ko'zda tutadi. Davlatlararo integratsiyaning kuchayishi janubiy-sharqiy Osiyo, O'rta Osiyo, arab dunyosi, Afrika va Markaziy Amerika mamlakatlari uchun ham xarakterli bo'lmoqda. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari.

Jahon infratuzilmasining rivojlanishi Xalqaro mehnat taqsimoti xalqaro iqtisodiy munosabatlar, ya'ni turli mamlakatlar o'rtasidagi xo'jalik aloqalari negizida yotadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- tovar va xizmatlar bilan xalqaro savdo;
- kapital va chet el investitsiyalarining harakati;
- ishchi kuchining migratsiyasi;
- ishlab chiqarishning davlatlararo kooperatsiyasi;
- fan va texnika sohasidagi ayirboshlash;
- valyuta-kredit munosabatlari;

Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishi natijasida jahon bozori tarkib topadi. Jahon bozoriga tovar va xizmatlarning xalqaro harakati sifatida qarash mumkin. Jahon bozori o'zining rivojlanishida bir qator bosqichlardan o'tadiki, ulardan har biri milliy xo'jalikning xalqaro iqtisodiy munosabatlarga jalb qilinishining ma'lum darajasi bilan xarakterlanadi.

Kapitalning xalqaro harakati - bu kapitalning chet elda joylashtirilishi va faoliyat qilishi. U chet elga quyidagi shakllarda chiqariladi:

- xususiy yoki davlat kapitali shaklida. Kapitalning xalqaro tashkilotlar yo'li bilan harakati ko'pincha mustaqil shakl sifatida ajratiladi.

- pul va tovar shaklida. Jumladan, kapital chiqarish mashina va uskunalar, patentlar, nau-xau hamda tovar kreditlari shaklida bo'lishi mumkin.

- qisqa va uzoq muddatli kreditlar shaklida;

- ssuda va tadbirkorlik kapitali shaklida. Ssuda shaklidagi kapital quyilmalar bo'yicha foiz, tadbirkorlik shaklidagi kapital esa foyda keltiradi. Tadbirkorlik kapitali to'g'ridan-to'g'ri va portfelli investitsiyalardan iborat bo'ladi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar shu kapital hisobiga qurilgan ob'ekt (korxona)lar ustidan nazorat qilish huquqini beradi, portfelli investitsiyalar esa bunday huquqni bermaydi. U odatda aktsiya paketlari hamda obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar shaklida beriladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ancha murakkab jihatlaridan biri ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi hisoblanib, u o'z ifodasini mehnat resurslarining ancha qulay sharoitda ish bilan ta'minlash maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tishida topadi.

Xalqaro migratsiya jarayonini iqtisodiy omillar bilan birga siyosiy, etnik, madaniy, oilaviy va boshqa xarakterdagi omillar ham taqozo qiladi.

Xalqaro migratsiya ikkita asosiy tarkibiy qismni o'z ichiga oladi: emigratsiya va immigratsiya. Emigratsiya-mamlakatlardan doimiy yashash joyiga chiqib ketishni, immigratsiya-mamlakatga doimiy yashash uchun kirib kelishni bildiradi.

Fan-texnika yutuqlari bilan xalqaro ayirboshlash bir qator shakllarda amalga oshiriladi. U ilmiy-texnikaviy axborotlar, mutaxassislar, fan sohasi xodimlari bilan ayirboshlashni, tadqiqot va yangiliklarni litsenziya asosida berishni, ilmiy-tadqiqot ishlari o'tkazishni, umumiy fan-texnika va texnologiyani ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma tadbirkorlikni o'z ichiga oladi.

Ilmiy texnikaviy hamkorlikning muhim shakllaridan biri injiniring hisoblanadi. Xalqaro injiniring bir davlat tomonidan boshqasiga sanoat va boshqa ob'ektlarni loyihalashtirish va qurish jarayoniga kerakli hisob-kitob loyihalarini berish hamda injenerlik-qurilish xizmati ko'rsatishdan iborat bo'ladi.

Jahon infratuzilmasi. Tovarlar, ishchi kuchi, moliyaviy vositalarning milliy chegaralar orqali to'xtovsiz o'sib boruvchi harakati butun jahon infratuzilmasining rivojlanishi va takomillashuvini tezlashtiradi. Juda muhim transport tizimi (dengiz, daryo, havo, temir yo'l transporti) bilan bir qatorda jahon iqtisodiyotining rivojlanishida axborot kommunikatsiyalar tarmog'i tobora ko'proq ahamiyat kasb etib boradi. Munosib umumjahon infratuzilmasi bo'lmasa, hozirgi ishlab chiqaruvchi kuchlarning baynalminallashuvini rivojlantirib bo'lmaydi. Bunday infratuzilmaning ayrim tarkibiy qismlari jahon savdosi vujudga kelayotgan, jahon bozori tashkil topayotgan vaqtda paydo bo'lgan.

Hozirgi davrda birjalar, moliya markazlari, yirik sanoat va savdo birlashmalari misli ko'rilmagan tezlik bilan operativ ma'lumotlar olishga va ularni ishlab chiqishga imkon beruvchi eng yangi texnik vositalar bilan jihozlangan. Rivojlangan mamlakatlarda keng tarmoqli axborot

majmuasi tashkil topmoqda, uning ta'siri amalda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalariga yoyilmoqda.

Hozirgi sharoitda ilmiy va tijorat axborotlar ayniqsa qimmatlidir. Shu sababli turli xalqaro darajalarda maxsus «ma'lumotlar banklari» tashkil topmoqda, bular ilmiy va ishlab chiqarish maqsadlari uchun zarur axborotni qidirib topishni ancha engillashtiradi. Jahon infratuzilmasi turli ziddiyatlarni bartaraf qilish orqali rivojlanadi.

Xalqaro ayirboshlash tovarlarda materiallashgan shakllardan nomaterial aloqalarga tobora ko'proq o'rin bo'shatadi, ya'ni fan-texnika yutuqlari, ishlab chiqarish va boshqarish tajribasi, xizmatning boshqa turlari bilan ayirboshlash o'sib boradi. Hisob-kitoblarga ko'ra hozirgi kunda xizmatlar jahon yalpi milliy mahsuloti (YaMM)ning 46 foizini tashkil qiladi.

Xalqaro savdoning mazmuni, tuzilishi va xususiyatlari.

Xalqaro savdo bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Iqtisodiy resurslarning harakatchanligi mamlakatlar o'rtasida, mamlakat ichidagiga qaraganda ancha past bo'ladi. Masalan, ishchilar mamlakat ichida viloyatdan viloyatga, hududdan hududga erkin o'tishi mumkin. Mamlakatlar o'rtasidagi til va madaniy to'siqlar haqida gapirmaganda ham, immigratsion qonunlar ishchi kuchining mamlakatlar o'rtasidagi migratsiyasiga qattiq cheklashlar qo'yadi. Soliq qonunchiligidagi, davlat tomonidan tartibga solishning boshqa tadbirlaridagi farqlar va boshqa qator muassasaviy to'siqlar real kapitalning milliy chegara orqali migratsiyasini cheklaydi.

2. Har bir mamlakat har xil valyutadan foydalanadi. Bu mamlakatlar o'rtasida xalqaro savdoni amalga oshirishda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi.

3. Xalqaro savdo siyosiy aralashuv va nazoratga mahkum bo'lib, bu ichki savdoga nisbatan qo'llaniladigan tadbirlardan xarakteri va darajasi bo'yicha sezilarli farqlanadi.

qiyosiy xarajatlar nazariyasiga ko'ra erkin savdo tufayli, jahon xo'jaligi resurslarni samarali joylashtirishga va moddiy farovonlikning yuqori darajasiga erishishi mumkin. Proteksionizm, ya'ni erkin savdo yo'lidagi to'siqlar xalqaro ixtisoslashuvdan olinadigan nafni kamaytiradi yoki yo'qqa chiqaradi. Erkin savdo yo'lida juda ko'p to'siqlar mavjud bo'ladi. Ularning asosiylari quyidagilar: - boj to'lovlari import tovarlarga aktsiz soliqlari hisoblanadi, u daromad olish maqsadida yoki himoya uchun kiritilishi mumkin. Import kvotalari yordamida ma'lum bir vaqt oralig'ida import qilinishi mumkin bo'lgan tovarlarning maksimal hajmi o'rnatiladi.

Ta'rifsiz to'siqlar deyilganda litsenziyalash tizimi, mahsulot sifatiga standartlar qo'yish yoki oddiy ma'muriy taqiqlashlar tushuniladi; Eksportni ixtiyoriy cheklashlar savdo to'siqlarining nisbatan yangi shakli hisoblanadi. Bu holda chet el firmalari o'zlarining ma'lum mamlakatga eksportini «ixtiyoriy» cheklaydi. Mamlakatlar xalqaro savdo yordamida o'zlarining davlatlararo ixtisoslashuvini rivojlantirishi, o'zlarining resurslari unumdorligini oshirish va shu orqali ishlab chiqarishning umumiy hajmini ko'paytirishi mumkin. Alohida davlatlar, eng yuqori nisbiy samaradorlik bilan ishlab chiqarish mumkin bo'lgan tovarlarga ixtisoslashishi va ularning o'zlari samarali ishlab chiqarish holatida bo'lmagan tovarlarga ayirboshlash hisobiga yutish mumkin.

Bu erda mamlakatlar nima uchun savdo-sotiq qiladi? degan savol tug'iladi. Birinchidan, iqtisodiy resurslar dunyo mamlakatlari o'rtasida juda notekis taqsimlanadi: mamlakatlar o'zlarining iqtisodiy resurslar bilan ta'minlanishi keskin farqlanadi. Ikkinchidan, har xil tovarlarni samarali ishlab chiqarish har xil texnologiya yoki resurslar uyg'unlashuvini talab qiladi. Bu ikki holatning xalqaro savdoga ta'sirini oson tushuntirish mumkin. Masalan, Yaponiya ko'p va yaxshi tayyorlangan ishchi kuchiga ega, malakali mehnat ortiqcha bo'lganligi sababli arzon turadi. Shu sababli, Yaponiya tayyorlash uchun ko'p miqdorda malakali mehnat talab qilinadigan turli-tuman mehnat sig'imli tovarlarni samarali ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Avstraliya esa aksincha, juda keng maydonlariga ega bo'lgan holda etarli bo'lmagan miqdorda inson resurslari va kapitalga egaqisqacha aytganda, himoya qilinadigan tarmoqlar savdo to'siqlarini kiritishdan oladigan foyda, butun iqtisodiyot uchun ancha katta yo'qotish hisoblanadi. To'lov balansi, uning tuzilishi va

taqchilligi. To'lov balansi - mamlakat rezidentlari (uy xo'jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o'rtasida ma'lum vaqt oralig'ida (odatda bir yilda) amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar natijasining tartiblashtirilgan yozuvi. Iqtisodiy bitimlar - qiymatning har qanday ayirboshlanishi, ya'ni tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlari o'tishi bo'yicha kelishuvlar. Har qanday bitim ikki tomoniga ega bo'ladi va shu sababli to'lov balansida ikki tomonlama yozuv tartibiga rioya qilinadi. Bitta bitim to'lov balansining debet va kredit qismlarida o'z ifodasini topadi.

Kredit - qiymatning mamlakatdan chiqib ketishi bo'lib, uning hisobiga mazkur mamlakat rezidentlari chet el valyutalarida qoplovchi to'lovlar ekvivalentini oladi. Debet - qiymatning mazkur mamlakatga kirib kelishi bo'lib, uning hisobiga rezidentlar chet el valyutalarning sarflaydi. To'lov balansida kreditlar umumiy summasi debetlarning umumiy summasiga teng bo'lishi zarur. To'lov balansidagi barcha bitimlar o'z ichiga joriy va kapital bilan operatsiyalarni olishi sababli u uchta tarkibiy qismdan iborat bo'ladi:

- joriy operatsiyalar hisobi;
- kapital harakati hisobi;
- rasmiy ehtiyojlarning o'zgarishi.

To'lov balansining tuzilishi.

I. Joriy operatsiyalar hisobi	
1. Tovar eksporti	2. Tovar importi
Tashqi savdo balansi qoldig'i	
Xizmatlar eksporti (chet el turizmidan daromadlar va h.k. - kreditli xizmatlar)	Xizmatlar importi (turizm uchun chet elga to'lovlar va h.k. - kreditli xizmatlar)
5. Investitsiyalardan sof daromadlar (kreditli xizmatlardan sof daromadlar)	
6. Sof transfertlar	
Joriy operatsiyalar bo'yicha balans qoldig'i	
II. Kapital harakati hisobi	
7. Kapital kirishi	8. Kapital oqib chiqishi
Kapital harakati balansi qoldig'i	
Joriy operatsiyalar va kapital xarakati bilansi qoldig'i	
III. Rasmiy ehtiyojlarning o'zgarishi.	

Mamlakatning tashqi savdo balansi (to'lov balansi) mazkur davlatning chet ellik sheriklari bilan xalqaro iqtisodiy munosabatlarning holatini ifodalab, uning kredit-pul, valyuta, byudjet-soliq, tashqi savdo siyosatini amalga oshirish va davlat qarzlarini tartibga solishi uchun indikator bo'lib xizmat qiladi.

Joriy operatsiyalar hisobi o'z ichiga tovar va xizmatlar eksporti («Q» belgisi bilan), import («-» belgisi bilan), investitsiyalardan sof daromad va sof transfertlarni oladi. Tovarlar eksporti va importi o'rtasidagi farq savdo balansini tashkil qiladi.

Tovar eksporti kredit sifatida chiqib, milliy bankda chet el valyutalari zahiralarini vujudga keltiradi. Import esa («debet» grafasida «-» belgisi bilan) mamlakatdagi chet el valyutalari zahirasi qisqartiradi.

Investitsiyalardan sof daromadlar (chet eldan sof omilli daromadlar) kreditli xizmatlardan olinadigan sof daromad hisoblanib, u chet ellarga qo'yilgan milliy pul kapitali hisobiga keladi. Agar chet elga qo'yilgan milliy pul kapitali hisobiga vujudga keladi. Agar chet elga qo'yilgan milliy kapital mazkur mamlakatga qo'yilgan chet el kapitaliga qaraganda foiz va deidentlarning ko'proq xajimini keltirsa, bunda investitsiyalardan olinadigan sof daromad ijobiy, aks holda esa salbiy bo'ladi.

Sof transfertlar xususiy va davlat mablag'larning boshqa mamlakatlarga o'tkazilgan summasini bildiradi (pensiya, sovg'a, chet elga pul o'tkazishlar yoki chet mamlakatlarga insonparvarlik yordamlari). Bunday to'lovlar mamlakatda mavjud chet el valyutalari zahirasi kamaytiradi.

Makroiqtisodiy modelda joriy operatsiyalar hisobi qoldig'i quyidagicha ifodalanadi.

$$X_{\text{eksp ort}} - M_{\text{im po rt}} = X_{\text{sof eksport}} = U_{\text{YaI M}} - (s+1+G_{\text{Absorb atsiya}})$$

Absorbatsiya - yalpi ichki mahsulotning mazkur mamlakatdagi uy xo'jaliklari, korxonalar va davlatga realizatsiya qilinadigan qismi.

Importga to'lovlar eksportdan olingan daromaddan ortiqcha bo'lsa, bu mamlakatning joriy operatsiyalar bo'yicha balansi taqchilligini bildiradi. Bu taqchillik chet el qarzlari yordamida, yoki aktivlarning bir qismini chet elliklarga sotish yo'li bilan moliyalashtiriladi va bu kapital harakati hisobida aks etadi.

Eksportdan olinadigan daromad importga sarflardan ortiq bo'lsa joriy operatsiyalar hisobi ijobiy qoldiqqa ega bo'ladi.

Kapital harakati hisobida aktivlar bilan amalga oshiriladigan barcha xalqaro bitimlar o'z ifodasini topadi. Bular chet elliklarga aktsiyalar, obligatsiyalar, ko'chmas mulk va h.k. sotishdan olinadigan daromadlar hamda chet eldan aktivlar sotib olish natijasida vujudga keladigan sarf xarajatlari.

Kapital
harakati
balansi

Aktivlar
sotishdan
tushumlar

Chetdan aktivlar
sotib olishga
sarflar

Chet el aktivlarini sotish chet el valyutalari zahiralarini ko'paytiradi, ularni sotib olish esa kamaytiradi. Kapital xarakati hisobi ham taqchillikka va ijobiy qoldiqqa ega bo'ladi.

To'lov balansining taqchilligi Markaziy bank (MB) rasmiy ehtiyojlarini qisqartirish hisobiga moliyalashtirilishi mumkin. Rasmiy ehtiyojlarning asosiylari quyidagilar:

chet el valyutalari;

oltin;

mamlakatning XVFDagi kredit ulushi;

qarz olishning maxsus huquqi (SDR) va h.k.

Balans taqchilligi rasmiy ehtiyojlar hisobiga moliyalashtirilganda, ichki bozorda chet el valyutalari taklifi ortadi, milliy valyutalar taklifi esa nisbatan kamayadi va uning ayirboshlash kursi nisbatan o'sib milliy iqtisodiyotga inqirozli ta'sir ko'rsatadi.

Aksincha, to'lov balansining aktiv qoldig'i MB rasmiy valyuta ehtiyojlarining o'sishi bilan birga borganda ichki bozorda chet el valyutalari taklifini kamaytiradi, milliy valyuta taklifi esa nisbatan ortadi va uning ayirboshlash kursi pasayib, iqtisodiyotga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. MB tomonidan chet el valyutalarining bunday sotilishi va sotib olinishi rasmiy ehtiyojlar bilan operatsiyalar deyiladi. (Bu MBning ochiq bozordagi operatsiyalari bilan bir xil emas). Rasmiy ehtiyojlar bilan operatsiyalar natijasida joriy hisobdagi qoldiq summasi, kapital harakati hisobi va ehtiyojlar miqdorining o'zgarishi «nol»ni tashkil qilishi zarur. Mamlakat uzoq davr davomida joriy operatsiyalar bo'yicha taqchillikni bartaraf qilishni kechiktirishi va o'zining rasmiy valyuta ehtiyojlarini to'liq sarflashi, natijasida to'lov balansi krizisi kelib chiqadi. Mamlakatda tashqi qarzlarni to'lash holatida bo'lmaganligi sababli, chet eldan kreditlash imkoniyati mavjud bo'lmaydi. Iqtisodiyot sub'ektlarining davlat va MB siyosatiga ishonchsizligi to'lov balansi krizisini chuqurlashtiruvchi omil hisoblanadi. Milliy valyuta qadrsizlanishining kutilishi chet el valyutalariga chayqovchilikka qaratilgan talabni rag'batlantiradi. Bu MB ning milliy valyuta qadrsizlanishining oldini olishga qaratilgan harakatini ancha qiyinlashtiradi, chunki uning rasmiy valyuta ehtiyojlari bir vaqtda to'lov balansining taqchilligini moliyalashtirish va chet el valyutalariga o'sib boruvchi chayqovchilik talabini qondirish uchun etarli bo'lmay qoladi. Bunday holda valyutalarning, «xufyona bozori» vujudga kelib, rivojlana boshlaydi. Respublikamizda davlat byudjeti taqchilligi ijobiy xarakterga egaligi, tashqi savdo aylanmasida ijobiy saldoga erishilganligi (2000 yil 317,3 mln. AqSh dollari miqdorida) va oltin-valyuta zahiralарimizning yildan-yilga ko'payib borayotganligi «...mamlakatimiz to'lov balansining barqarorligini ta'minlashda mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi va tashqi iqtisodiy sherik sifatidagi O'zbekistonga bo'lgan ishonchni orttiradi»¹. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va valyuta tizimlari.

Pulning jahon xo'jaligida amal qilishi va turli xalqaro iqtisodiy aloqalarga (tashqi savdo, ishchi kuchi va kapital migratsiyasi, daromadlar, qarzlار va subsidiyalar oqimi, fan-texnika ayirboshlash, turizm va h.k.) xizmat qilishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar-xalqaro valyuta-kredit munosabatlari deb ataladi. U pulning xalqaro to'lov munosabatida amal qilish jarayonida vujudga keladi. Valyuta-bu mamlakatlar pul birligi (masalan, so'm, dollar, funt sterling va h.k.). Har bir milliy bozor o'zining milliy valyuta tizimiga ega bo'ladi. Bunda milliy va xalqaro valyuta tizimini farqlash zarur. Milliy valyuta tizimi-valyuta munosabatlarining milliy qonunchilik bilan belgilanadigan, mazkur mamlakatda tashkil qilinish shaklini ifodalaydi. Xalqaro valyuta tizimi-xalqaro valyuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan shakli.

Uning tarkibiy elementlari qo'yidagilar hisoblanadi: asosiy xalqaro to'lov vositalari (milliy valyutalar, oltin, xalqaro valyuta birliklari-SDR, Evro), valyuta kurslarini belgilash va ushlab turish mexanizmi, xalqaro to'lovlarini balanslashtirish tartibi, valyutaning qaytaruvchanlik sharoiti, xalqaro valyuta bozori va oltin bozori tartibi, valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi davlatlararo muassasalar tizimi.

Jahon valyuta tizimi o'zining rivojlanishida uchta bosqichdan o'tdi va ularning har biriga xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilishning o'z tiplari mos keladi. Birinchi bosqich 1879-1934 yillar davrini o'z ichiga olib, bunda oltin standart sifatidagi pul tizimi ustunlikka ega bo'lgan. Ikkinchi jahon urushi oxiri (1944 y.) dan 1971 yilgacha oltin –devizli (Breton-Vudsk tizimi deb nomlanuvchi) tizim ustunlikka ega bo'lgan. Bu ikki tizim qayd qilinadigan valyuta kurslariga asoslangan. Hozirgi davrda amal qiluvchi jahon valyuta tizimi 1971 yilda tashkil topgan bo'lib, bu tizim boshqariladigan suzib yuruvchi valyuta tizimi nomini oldi. Chunki davlat ko'pincha o'z valyutalarining xalqaro qiymatini o'zgartirish uchun valyuta bozorining faoliyat qilishiga aralashadi.

Oltin standart tizim qayd qilingan valyuta kursining mavjud bo'lishini ko'zda tutadi. Banklar

¹ Каримов И.А. Ватан равнаки учун ҳар биримиз масъулмиз. «Халқ сўзи».2000 йил 17 февраль. № 37.

o'zlari chiqargan banknotlarni oltinga almashtirgan. Xalqaro to'lovlarni muvofiqlashtirish vositasi bo'lib, oltinni erkin chiqarish va kiritish xizmat qilgan. Mamlakat, uchta shartni bajarsa oltin standart qabul qilingan deb hisoblangan. a) O'z pul birligining ma'lum oltin mazmuni o'rnatadi; b) O'zining oltin zahirasi va pulning ichki taklif o'rtasidagi qattiq nisbatni ushlab turadi; v) Oltinning erkin eksport va importiga to'sqinlik qilmaydi. Oltin standart pul birligining oltin mazmuni nisbatiga asoslanadi. Oltin standart sharoitida, turli mamlakatlar pul birligining nisbati ularning rasmiy oltin mazmuni bo'yicha o'rnatiladi.

Oltin standart barbod bo'lgandan keyin, valyuta sohasini tartibga solishning o'zaro maqbul yo'lini topishga harakat qilindi. Yangi jahon valyuta tizimi asoslarini ishlab chiqish maqsadida, 1944 yil Bretton-Vudsdagi (AqSh) ittifoqchi davlatlarning xalqaro konferentsiyasi chaqirildi. Bu konferentsiyada o'zaro bog'liq valyuta kurslarini tartibga solish tizimini yaratish haqidagi kelishuvga erishildi va bu ko'pincha Bretton - Vuds tizimi deb ataladi. Mazkur tizim oldingi oltin standartdan keskin farq qilmaydi. Uning asosida oltin - valyuta standart (AqSh dollari) yotadi va bu erda rezervlar sifatida oltin va dollar chiqadi.

Dollarning oltinga almashinishi rasman to'xtagandan keyin, valyutaning qayd qilingan kursi, suzib yuruvchi kursiga o'rin bo'shatadi. Xalqaro valyuta tizimidagi bu o'zgarish 1976 yil Kingston (Yamayka) dagi kelishuvga binoan huquqiy jihatdan mustahkamlanadi. qog'oz pul tizimiga o'tish bilan, qog'oz pullar oltinga almashtirilmaydi. Beqaror kurslar sharoitida valyuta kursi ham har qanday boshqa baho kabi talab va taklifning bozor kuchlari bilan belgilanadi.

Har qanday valyuta tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri valyuta kursi hisoblanadi. Valyuta kursi bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasidagi ifodalanishini ko'rsatadi.

Valyuta kurslariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar ichidan quyidagilarni ajratib kursatish mumkin:

- milliy daromad va ishlab chiqarish xarajatlari darajasi;
- milliy iste'molchilarning real xarid qilish layoqati va mamlakatdagi inflyatsiya darajasi;
- valyutalarga talab va taklifga ta'sir ko'rsatuvchi to'lov balansi holati;
- mamlakatdagi foiz stavkasi darajasi;
- valyutaga jamon bozoridagi ishonch va m. k.

Nazariy jihatdan valyuta kurslarining tebranishini tushuntirish, xarid qilish layoqatining paritet (turli mamlakatlar pul birliklari qiymatining bir-biriga nisbati) nazariyasi yordamida beriladi. Bu nazariyaga ko'ra, kurslar nisbatlarini aniqlash uchun, ikki mamlakat iste'molchilik tovarlari «savati» narxlarini taqqoslash talab qilinadi. Masalan, agar O'zbekistonda bunday «savat», aytaylik 25 ming so'm, AqShda esa 100 dol. tursa, 25 mingni yuzga bo'lib, 1 dol. ning bahosini hosil qilamiz, bu 250 so'mga teng.

Agar O'zbekistonda muomaladagi pul massasining ko'payishi oqibatida, tovarlar bahosi ikki marta oshsa va barcha sharoitlar teng bo'lganda dollarning so'mga ayirboshlash kursi ikki marta oshadi. Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:

Hozirgi davrda jahon iqtisodiy rivojining eng muhim o'ziga xos xususiyati nimadan iborat? Jahon xo'jaligining milliy iqtisodga ta'siri qanday?

Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlash qanday mezonlarga asoslanadi? Ularni turkumlashga hozirgi davrda yondashuvlarga asoslanib davlatlarning asosiy guruhlarini ajratib ko'rsating. Xalqaro mehnat taqsimoti qanday tamoyillarga asoslanadi? Unda tabiiy sharoitdagi tafovutlar qanday rol o'ynaydi?

Jahon narxlarini qanday qiymatga asoslanadi? Jahon narxlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tavsifini bering. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar nima uchun turli shakllarga ega bo'ladi? Ularning asosiy shakllarini sanab ko'rsating.

Jahon infratuzilmasi tarkibiy qismlarining tavsifini bering va ularning har birining ahamiyatini ko'rsating. Xalqaro mehnat taqsimotini mutloq va qiyosiy ustunlik nazariyasidan foydalanib tahlil qiling. qiyosiy ishlab chiqarish xarajatlari nima?

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishni nima zarur qilib qo'yadi?

O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarning ustuvor yo'nalishlarini ko'rsating.

Ichki va tashqi savdoning o'xshashliklari nimadan iborat? Ularning farqi-chi? Xalqaro savdo qanday ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi?

Nima uchun xalqaro savdoda sun'iy to'siqlar mavjud bo'ladi? Ularning tavsifini bering.

Proteksionistik siyosatning ijobiy va salbiy tomonlari qanday? Ularni taqqoslang.

Xalqaro savdoda iqtisodiy integratsiyaning ahamiyati qandayligi va unda O'zbekistonning ishtirok etishi imkoniyatlarini aniqlang.

Xalqaro valyuta tizimini tushuntiring. Har bir tizim qanday ustunlik va kamchiliklarga ega?

Davlat valyuta kurslarini barqarorlashtirish uchun qanday usullardan foydalanadi? Chet el valyutalariga talab va taklifga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?



II. AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLARI

1-Seminar mashg'ulot: «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining predmeti. Iqtisodiy tizimlar

Mashg'ulotning maqsadi "Iqtisodiyot nazariyasi" fanining predmeti va bilish

usullari, rivojlanish tarixi boshqa fanlar bilan aloqasi to'g'risida bilimlarni hamda to'liq tasavvurni shakllantirish.

Vazifalar

Iqtisodiyot va uning bosh masalasi, iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti, iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar, iqtisodiy hodisa va jarayonlarni ilmiy bilishning asosiy usullari.

Motivatsiya. Ijtimoiy xo'jalikni samarali yuritish va boshqarish, milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning omillari, qonuniyatlarini va yo'llarini o'rganish hamda ko'rsatib berishdan iboratdir.

Fanlararo va fan ichidagi bog'liqlik. soliq, moliya, kredit, pul muomalasi va boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liqdir

Guruh bilan ishlash qoidalari

Guruh a'zolarining har biri

- o'z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;

- yordam so‘raganlarga ko‘mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- “Biz bir kemadamiz, birga cho‘kamiz yoki birga qutilamiz” qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

1. Bitta gap bilan savolga javobni shakllantiring.

Iqtisodiyot, iste‘mol, iqtisodiyot nazariyasi, iqtisodiy resurslar, iqtisodiyotning bosh masalasi tushunchalari qanday bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi?

2. “Iqtisodiy maktablar va ulardagi iqtisodiy yondoshuvlar” bo‘yicha sxema tuzing.

3. Ushbu tushunchalarning mazmunini yoriting.

4.

Iqtisodiyot, ehtiyoj, iqtisodiy resurslar, iqtisodiyot nazariyasi tushunchalarining mazmuni.

Iqtisodiyotning doimiy va bosh muammosi – ehtiyojlarning cheksizligi va iqtisodiy resurslarning cheklanganligidir.

Iqtisodiyot nazariyasidagi asosiy iqtisodiy oqimlar, ularning ta‘limotlari.

Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida qaror topishi.

B.B.B. usuli asosida bilimlarni sinash uchun tarqatma materiallar

№	Tushuncha	Bilaman “+”, Bilmayman “-”.	Bildim “+”, Bila olmadim “-”.
1	Iqtisodiyot va uning bosh masalasi		
2	Iqtisodiyresurslar		
3	Iqtisodiyotning doimiy va bosh muammosi		
4	Ehtiyojlarning cheksizligi		
5	Iqtisodiyresurslarning cheklanganligi		
6	Asosiy iqtisodiy oqimlar		
7	Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida qaror topishi		
8	Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar		
9	Ehtiyojlarning tarkibi		
10	Ehtiyojlarning turlari		
11	Ehtiyojlarni qondirish muammolari		
12	SHarq va G‘arbdagi iqtisodiy g‘oyalar		
13	Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti		
14	Iqtisodiy qonunlar		
15	Iqtisodiy kategoriyalar		

Guruh bilan ishlash qoidalari

Guruhning har bir a'zosi:

- o'z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- yordam so'raganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- "Biz bir kemadamiz, birga cho'kamiz yoki birga qutilamiz" qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

Guruhlar uchun topshiriqlar.

1- guruh.

Iqtisodiyot, ehtiyoj, iqtisodiy resurslar, iqtisodiyot nazariyasi tushunchalarining mazmunini yoriting.

"Iqtisodiyot" so'ziga klaster tuzing.

2- guruh.

Iqtisodiyotning bosh masalasi qanday? U bilan bog'liq qanday muammolar mavjud?

"Ehtiyoj" tushunchasiga klaster tuzing.

3- guruh.

Iqtisodiyot nazariyasidagi asosiy iqtisodiy oqimlar qaysilar va ular ta'limotining mazmuni qanday? "Iqtisodiy oqimlar" tushunchasiga klaster tuzing.

4- guruh.

Iqtisodiyot nazariyasining asosiy bilish usullari qanday?

"Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar" tushunchasiga klaster tuzing

"Insert usuli"

Insert - samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma'lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo‘shimcha ma’lumot zarur.

Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
Iqtisodiyot				
Ehtiyoj				
Iqtisodiyotning bosh masalasi				
Iqtisodiy resurslar				
Iqtisodiy qonunlar				
Iqtisodiy kategoriyalar				
Iqtisodiy oqimlar				
O‘rganish uslublari				

2-Seminar mashg‘ulot: «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining predmeti. Iqtisodiy tizimlar

Mashg‘ulotning maqsadi mazkur mavzuda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari va ularni bilishga bo‘lgan turlicha yondashuvlar, ishlab chiqarishning ijtimoiy va texnologik usullari hamda iqtisodiy tizim tushunchalarini yoritib berish. Tahlil davomida iqtisodiy tizim modellari va ularning xususiyatlari ko‘rsatib berish.

Vazifalar.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari, iqtisodiy tizimlar, mulkchilik munosabatlari, shakllari, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish

Motivatsiya. Iqtisodiy tizim modellari va ularning xususiyatlarini ko‘rsatib berish. Mulkchilik munosabatlarining mohiyati, mulk shakllarining iqtisodiy mazmuni va bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonida mulk shakllarining o‘zgartirish yo‘llari va usullari kabi masalalarni talabalarga etkazish

Fanlararo va fan ichidagi bog‘liqlik. Soliq, moliya, kredit, pul muomalasi va boshqa fanlar bilan chambarchas bog‘liqdir

Ijtimoiy-iqtisodiy tizim, mulk, o‘zlashtirish, egalik qilish, foydalanish, davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, milliylashtirish.

Kategoriyalarni tavsiflashni o‘tkazish qoidasi

1. Guruxda “Aqliy hujum” o‘tkazasiz va mavzu bo‘yicha barcha tushunchalarni yozib olasiz.
2. Biron-bir belgisi bo‘yicha olingan ma’lumotlarni umumlashtiruvchi kategoriyalarni aniqlaysiz.
3. Kategoriyani qog‘ozga yozing va olingan ma’lumotlarni ma’lum mezonlar bo‘yicha taqsimlang.
4. Taqsimlash jarayonida biron-bir kategoriyani nomini o‘zgartirish yoki qo‘shish mumkin.
5. Kategoriya jadvalini tuzing.

Mavzu	Turlari/ko‘rinishlari/xususiyatlari /sifati			
Kategoriyalar/belgilar	1	2	3	...

Masalan. Mavzu: Ijtimoiy rivojlanish bosqichlari.

Mavzu	Turlari/ko'rinishlari/xususiyatlari /sifati		
Kategoriyalar/belgilar	1	2	3
Yondoshuv	Formatsion	Texnologik	Madaniylashgan
Bosqichlarni ajratish mezonlari	Ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlarini rivojlanganlik darajasi	Texnika va texnologiyalarni rivojlanganlik darajasi	Madaniy rivojlanganlik darajasi
Bosqichlar nomi	ibtidoiy; quldorlik; feodal	industrial; postindustrial; neostindustrial; axborotlashgan jamiyat	neolitik; sharqiy quldorlik; antik; ilk feodal

Kategoriya bo'yicha tavsiflash uchun mavzular

1-guruh. Ijtimoiy rivojlanish bosqichlarini bilishga turli yondoshuvlar.

2-guruh. Ijtimoiy tizimlar turlari.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

Savollar	Javoblar
1. Taraqqiyot bosqichlarini bilishda qanday yondashuvlar mavjud?	
2. Ishlab chiqarish usuli nima va uning tarkibiy qismlari nimalardan iborat?	
3. Ishlab chiqarish usullarining eng muhim o'ziga xos belgilarini ko'rsating.	
4. Ishlab chiqarish texnologik usulining tarkibiy qismlarini sanang.	
5. Ishlab chiqarish texnologik usullarining bosqichlari bir-biridan nima bilan farqlanadi?	
6. Iqtisodiy tizim nusxalarini farqlantiradigan asosiy belgilarini sanab ko'rsating.	
7. Mulkchilikning mohiyatiga ta'rif bering va uning turli shakllarining iqtisodiy mazmunini tushuntiring.	
8. Mulk sub'ektlarining ko'p darajali bo'lishiga sabab nima?	
9. Bozor iqtisodiyotiga o'tish nima uchun mulkchilikning turli shakllarini taqozo qiladi?	
10. Xususiylashtirishning qanday usullarini bilasiz?	

3-Seminar mashg'ulot: Mulkchilik, tovar va pul munosabatlarining shakllanishi.

Mashg'ulotning maqsadi ijtimoiy xo'jalik, ya'ni ijtimoiy ishlab chiqarish shakllarini tahlil qilish. Tovar va uning xususiyatlari, tovar qiymatining miqdori, uni aniqlashga bo'lgan yondashuvlar, pulning vujudga kelishi, mohiyati va vazifalarini yoritib berish.

Vazifalar

Natural va tovar ishlab chiqarish. Tovar ishlab chiqarishning tarixan vujudga kelishi va rivojlanish sabablari, tovar va uning xususiyatlari, pulning kelib chiqishi va mazmuni, pulning asosiy vazifalari

Motivatsiya. Ijtimoiy xo'jalikni samarali yuritish va boshqarish, milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning omillari, qonuniyatlarini va yo'llarini o'rganish hamda ko'rsatib berishdan iboratdir.

Fanlararo va fan ichidagi bogʻliqlik. soliq, moliya, kredit, pul muomalasi... SHu fanlar bilan iqtisodiyot nazariyasi chambarchas bogʻliqdir
Ishni bajarish uchun namuna



Blits-so'rov uchun savollar

1. Tovarning xususiyatlaridan qaysi biri asosiy hisoblanadi?
2. Tovar qiymatining miqdoriga ta'sir etuvchi omillar qaysilar?
3. Pul sotiladimi, sotilsa qiymati nimaga teng bo'ladi?
4. Tovarning nafliligi va aniq mehnat o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
5. Tovarning almashuv qiymati va abstrakt mehnat o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
6. Tovar qiymatining asosini nimalar tashkil etadi?
7. Muammoli seminarga savollar

1-savol.

1. Natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishga o'tishning asosiy sabablari.

2-savol.

1. Ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalarining qiymati qaysi mehnat turi bilan yangi tovarga o'tkaziladi?
2. Tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan uning qiymat tarkibida qanday o'zgarish paydo bo'ladi? (O'tkazilgan qiymat va yangi yaratilgan qiymat ulushlari qanday o'zgaradi?).

3-savol.

1. Marjinalistik tovar qiymatining asosini nima tashkil etadi:

A) marjinalistlar fikri bo'yicha;
B) klassik iqtisodiy maktab fikri bo'yicha;
V) Sizning fikringizcha?

4-savol.

1. Oltin va qog'oz pullarning qanday xususiyatlari bor?
2. Oltin pul xususiyatlaridan qaysi biri qog'oz pullarga o'tadi?
3. Hozirgi zamon qog'oz va kredit pullari tovarmi yoki tovar emasmi?
Fikringizni asoslang

Jadvalni to'ldiring.

Natural va tovar xo'jaliklarining bir-biridan farqlanishi

Asosiy jihatlar	Natural xo'jalik	Tovar xo'jaligi
1. Moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish maqsadi		
2. Ishlab chiqariladigan mahsulot tarkibining aniqlanishi		
3. Iste'molchini o'ziga jalb etish uchun kurash		
4. Ishlab chiqarilgan mahsulotning iste'mol qilinishi darajasi		
5. Ishlab chiqarish jarayonida ishchi kuchining ishtirok etish tamoyillari		

4-Seminar mashg'ulot: Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilish mexanizmi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning xususiyatlari.

Mashg'ulotning maqsadi mavzu bozor iqtisodiyotining mazmunini bayon qilib berish bilan, uning asosiy belgilari, sub'ektlari va rivojlanish bosqichlari talqiniga alohida o'rin ajratish.. Bozor iqtisodiyotining doimiy va asosiy muammolari, bunday iqtisodiyotning afzalliklari va ziddiyatlari tahlili etish..

Vazifalar

Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari, afzalliklari va ziddiyatlari, bozor infratuzilmasi va uning elementlari, bozor tushunchasi va uning turlari .

.Motivatsiya. bozor va uning turlari, bozor infratuzilmasi, uning tarkibiy qismlari hamda elementlarini yoritib ko'rsatib berishdan iboratdir.

Fanlararo va fan ichidagi bog'liqlik. soliq, moliya, kredit, pul muomalasi... SHu fanlar bilan iqtisodiyot nazariyasi chambarchas bog'liqdir

Ishni bajarish uchun namuna

Guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar

1-guruh

1-topshiriq. Ushbu fikr to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlang (javobni asoslang).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qanday tovar va xizmatlar ishlab chiqilishi kerakligini iste'molchi aniqlaydi.

2-topshiriq. Muammoli savolga aqliy hujum usulida javob toping.

Bozor iqtisodiyoti tavsiflanadi, masalan, xususiy mulkchilik mavjudligi, ijtimoiy mehnat taqsimoti, tovarni ekvivalentlik asosida pulga ayirboshlanishi.

2-guruh

1-topshiriq. Ushbu fikr to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlang (javobni asoslang).

Aralash iqtisodiyoti - bozor iqtisodiyoti bo'lishiga qaramasdan, nima, qancha, kim uchun kabi muammolarni davlat tomonidan narxlarni nazorat qilish orqali hal etilishi kerak.

2-topshiriq. Muammoli savolga aqliy hujum usulida javob toping.

Bozor iqtisodiyotini ushbu tavsiflari yuqori texnologik ishlab chiqarish, yuqori sifatli mahsulot, bozorlarda tovar assortimentlarini ko'pligi va taqchillikning yo'qligi qanday o'rin tutadi?

3-guruh

1-topshiriq. Ushbu fikr to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlang (javobni asoslang).

Avtomobilga yoqilg'i quyish shahobchasi – bu bozorga misol bo'ladi.

2-topshiriq. Muammoli savolga aqliy hujum usulida javob toping.

Bozor iqtisodiyoti tavsiflanadi, masalan, xususiy mulkchilik mavjudligi, ijtimoiy mehnat taqsimoti, tovarni ekvivalentlik asosida pulga ayirboshlanishi.

Guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar

1-guruh

1-topshiriq. Ushbu fikr to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlang (javobni asoslang).

Bozor bu iste'molchi va sotuvchi o'rtasidagi iqtisodiy munosabat (oldi-sotdi asosida).

2-topshiriq. Muammoli savolga aqliy hujum usulida javob toping.

Bozor turlari tavsiflanadi, masalan, xaridorlar, sotuvchilar, intellektual mulk, xizmatlar bozori

2-guruh

1-topshiriq. Ushbu fikr to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlang (javobni asoslang).

Aralash iqtisodiyoti - bozor iqtisodiyoti bo'lishiga qaramasdan, nima, qancha, kim uchun kabi muammolarni davlat tomonidan narxlarni nazorat qilish orqali hal etilishi kerak.

2-topshiriq. Muammoli savolga aqliy hujum usulida javob toping.

Bozor iqtisodiyotini ushbu tavsiflari yuqori texnologik ishlab chiqarish, yuqori sifatli mahsulot, bozorlarda tovar assortimentlarini ko'pligi va taqchillikning yo'qligi qanday o'rin tutadi?

3-guruh

1-topshiriq. Ushbu fikr to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlang (javobni asoslang).

Avtomobilga yoqilg'i quyish shahobchasi – bu bozorga misol bo'ladi.

2-topshiriq. Muammoli savolga aqliy hujum usulida javob toping.

Bozor iqtisodiyoti tavsiflanadi, masalan, xususiy mulkchilik mavjudligi, ijtimoiy mehnat taqsimoti, tovarni ekvivalentlik asosida pulga ayirboshlanishi.

5-Seminar mashg'ulot Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilish mexanizmi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning hususiyatlari.

Mashg'ulotning maqsadi: o'tish davri nazariyasi, xususan bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llarini yoritib berish.. SHuningdek, O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning tamoyillari va xususiyatlari, respublikada bozor islohotlarini amalga oshirishning mazmuni, maqsadi va asosiy yo'nalishlarini ochib berish.

Vazifalar; O'tish davrining mazmuni, bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari,

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning tamoyillari va xususiyatlari

Motivatsiya bozor munosabatlariga o'tish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, strategik vazifalarni amalga oshirish yo'llarini tahlil qilish .

Fanlararo va fan ichidagi bog'liqlik iqtisodiy nazariyasi fani. solik va solikka tortish fani, moliya nazariyasi va davlat byudjeti fani bilan xam o'zaro bog'liq chunki iqtisodiy nazariya si qonuniyatlaridan chetga chiqib keta olmaydi, ularga asoslanadi va rivojlantiriladi

Ishni bajarish uchun namuna

Guruh bilan ishlash qoidalari

Guruhning har bir a'zosi:

- o'z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari

lozim;

- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- yordam so'rganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim.

Guruhlarga topshiriqlar.

1-guruh.

1-topshiriq. Test.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning qanday modellari mavjud?

- a) Osiyocha model;
- b) sobiq sotsialistik mamlakatlar modeli;
- v) Afrika va lotin Amerikasi mamlakatlari modeli;
- g) barcha javoblar to'g'ri.

2-topshiriq. O'tish davri tushunchasining zamonaviy jihatlari va uni jahonda namoyon bo'lish xususiyatlarini tavsiflang.

Javob berishda grafik organayzerdan foydalaning: "Mantiqiy-tarkibiy sxema".

3-topshiriq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridan ilovalar keltiring.

I.A.Karimov iqtisodiyotni erkinlashtirish, mamlakatdagi siyosiy o'zgarishlar va davlat qurilishi to'g'risida.

4-topshiriq. Qisqacha xulosa qiling.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tishning xususiyatlari nimadan iborat?

2-guruh.

1-topshiriq. Test.

Bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o'tishning qanday yo'llari mavjud?

- a) induktiv va deduktiv;
- b) evolyusion va inqilobiy;
- v) «karaxt qilib davolash»;
- g) barcha javoblar to'g'ri.

2-topshiriq. O'zbekistonni bozor iqtisodiyotiga o'tish modeli, uning tamoyil va xususiyatlarini tavsiflang.

Javob berishda grafik organayzerdan foydalaning: "Mantiqiy-tarkibiy sxema".

3-topshiriq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridan ilovalar keltiring.

I.A.Karimov o'tish davrida aholini ijtimoiy himoya qilish to'g'risida.

4-topshiriq. Qisqacha xulosa qiling.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar konsepsiyasi va strategiyasini roli nimada?

3-guruh.

1-topshiriq. Test.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish qaysi yo'l bilan boryapti?

- a) Turkiya modeli asosida;
- b) «karaxt kilib davolash», yo'li bilan;
- g) evolyusion yo'l bilan;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

2-topshiriq. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda isloxotlar bosqichi va masalalarni tavsiflang.
Javob berishda grafik organayzerdan foydalaning: "Mantiqiy-tarkibiy sxema".

3-topshiriq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridan ilovalar keltiring.

I.A.Karimov mulk egalarini shakllanishi va valyuta bozorini shakllanishi to'g'risida.

4-topshiriq. Qisqacha xulosa qiling.

Nima uchun bozor iqtisodiyotiga o'tishda turli isloxotlar va masalalar mavjud bo'ladi?

Muammoli savollar.

1. Boshqarishning ma'muriy usullariga asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos xususiyatlari?
2. O'tish davri iqtisodiyotida davlatning pul-kredit siyosati?
3. Respublikada iqtisodiy islohotlarni bosqichlari, asosiy yakunlari va vazifalari?
4. O'zbekistonda ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish vazifalari?

Ақлий ҳужум ва масалани ечиш босқичлари

1. Мустақил фикрланг ҳаёлингизга келган барча ғоя, фикрларни қоғозга ёзинг.
2. Барча ғоя ва фикрларни ёзинг, агар улар такрорланаётган бўлса, махсус белги қўйинг.
3. Ғояларни баҳоланг.
4. Энг мақбул ғоя гурӯҳ ғояси сифатида шакллантиради.
5. Барча ёзилган ғоялар гурӯҳ муаммосини ечиш учун гурӯҳлаштириш мумкин.
6. Гурӯҳнинг умумий жавоби шакллантирилади.

6-Seminar mashg'ulot: Biznes va tadbirkorlik faoliyati. Raqobat va narxning shakllanishi.

Mashg'ulotning maqsadi: raqobat uning turlari haqida, narxning iqtisodiy mazmuni va vazifalari, shakllanish tamoyillari va uning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni yoritib berish. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati, maqsadi va bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida amal qiladigan shakllarini batafsil bayon etish, tadbirkorlik kapitalining mazmunini va uning harakat shakllarini tahlil qilish,

Vazifalar; talab tushunchasi va uning miqdoriga ta'sir etuvchi omillar, taklif qonuni, raqobat va uning shakllari, narx va narx turlari.

Talaba bilishi lozim: talab va taklif, raqobat, monopoliya, narx, deping narx, narx siyosati.

Motivatsiya. Bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan raqobatchilik munosabatlari ham takomillashib, o'z shakllarini o'zgartirib borishi, Tadbirkorlik faoliyati va uning shakllari haqida, kapital harakatida vujudga keladigan jarayonlar va uning namoyon bo'lishi, shuningdek, kapitalning aylanish tezligi va undan foydalanish samaradorligini oshirish masalalarini yoritish narx turlari bilan

bir qatorda davlatning narx siyosati va uning O'zbekistondagi o'ziga xos jihatlarini o'quvchilarga etkazib berish.

Fanlararo va fan ichidagi bog'liqlik. Iqtisodiyot nazariyasi fani moliya nazariyasi va davlat byudjeti fan, solik va solikka tortish fani bilan xam o'zaro bog'liq .

Ishni bajarish uchun namuna

Munozara qatnashchilariga eslatma

1. Munozara munosabatlar yig'indisi emas, balki muammo echimi uslubiyatidan iborat.
2. Ko'p gapirmasdan boshqalarning so'zlashiga imkon ber.
3. Maqsadga erishish yo'lida xisssiyotlarinni jilovlab, batafsil o'ylagan holda so'zla.
4. Raqiblaring vaziyatini o'rganib, ularga xurmat bilan murojaat qil.
5. Raqiblaring tomonidan aytilgan fikrlarga tanqidiy va istehzoli yondash.
6. Munozara predmeti bo'yicha chetga chiqmagan holda to'g'ri yondashib gapir.

Muammoli seminarning boshqaruv dastaklari

Boshlovchi barcha vazifalarni o'ziga oladi – munozara bosqichlarini boshqarish, javoblarning asoslanishi va to'g'riligini tasdiqlash, qo'llangan termin va tushunchalarning aniqlash, munosabatlarni to'g'ri qo'llash va boshqalar. Taqdimotlarning taqsimotini to'g'ri boshqarish.

Taqrizchi – tomonlarning ma'ruzalarini yo'nalishlar bo'yicha belgilash va to'liq xarakterda baholash: dolzarbligi, ilmiy jihati, mantiqiyliigi va masalalarning aniq qo'yilganligi, xulosalarning aniq ko'rsatilishi.

Raqib – qabul qilingan tadqiqot o'rtasida raqobatchilik jarayonini shakllantiradi. U faqatgina ma'ruzachining asosiy holatini tanqid qilish emas, shu bilan birgalikda, uning aytgan fikrlaridan zaif yoki xato tomonlarini topish hamda o'zining hal qiluvchi fikrlarini taklif qilishi ham mumkin.

Ekspert – barcha munozaralarning, jumladan, munozara qatnashchilari tomonidan aytilgan fikrlarning, qilingan xulosalarning, taklif va gipotezalarning maxsuldorligini baholaydi.

Munozara reglamentini o'tkazish tartibi

1. Boshlovchi ma'ruza mavzusi va ma'ruzachilarning taqdimotlarini e'lon qiladi.
2. Ma'ruza 5 minut davom etadi.
3. Taqrizchi – 2 minut.
4. Raqib – ma'ruza mavzusi bo'yicha fikrlarini 1-3 minut taqdim etadi.

5. Jamoaviy muhokama – 5-10 minut.

Muhokama va xulosalar chiqarish uchun savollar

1. Talab qonunini tushuntiring. Talabga qanday omillar ta'sir qiladi? Bu omillardan har biri o'zgarisa, talab egri chizig'ida qanday o'zgarish ro'y beradi?
2. Taklif qonunini tushuntiring. Taklifga qanday omillar ta'sir qiladi? Bu omillardan har biri o'zgarisa, talab egri chizig'ida qanday o'zgarish ro'y beradi?
3. Engel qonunining mohiyatini tushuntirib bering.
4. Iste'molchi xatti-harakati nazariyasining asosida nimalar yotadi? Bu nazariyaning asosiy qonun-qoidalarini izohlang.
5. Iste'molchining afzal ko'rish nima? U iste'molchi tanloviga qanday ta'sir ko'rsatadi?
6. YAlpi (umumiy) nafililik va so'nggi qo'shilgan nafililik tushunchalari o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
7. Befarqlik egri chizig'i nimani ifodalaydi? Befarqlik kartasi-chi? Ularning iste'molchi xatti-harakatini tushuntirishdagi ahamiyatini izohlang.
8. Iste'molchi byudjeti chizig'iga narx va daromaddagi o'zgarishlar qanday ta'sir ko'rsatadi?

“Sinkveyn” (5 qator) texnikasi

Maqsad – kategoriyaga xarakteristika berish

Sinkveyn sxemasi:

1-qator – tushuncha

2-qator – tushunchani tavsiflovchi 2 sifat

3-qator – ushbu tushuncha vazifalari to'g'risidagi 3 ta fe'l

4-qator – ushbu tushuncha mohiyati to'g'risidagi 4 so'zdan iborat so'z so'z birikmasi

5-qator – ushbu tushuncha sinonimi.

O'quv topshiriqlar

1-guruh

1. «Tadbirkorlik», «kapital» tushunchalariga sinkveyn tuzing.

2. Jadvaldan foydalanib tadbirkorlik shakllarini taqqoslang:

Tadbirkor-lik shakllari	Qanday shakllanadi	Kimga tegishli	Kim boshqaradi	Foyda (zarar) qanday taqsimlanadi	Asosiy ustuvor tomonlar	Asosiy kamchiliklar
SHaxsiy						

Xususiy						
Aksionerlik jamiyati						

2-guruh

1. «Menedjment», «marketing» tushunchalariga sinkveyn tuzing.
2. Jadvaldan foydalanib kapitalning funksional shakllarini taqqoslang:

Kapital	Aylanish bosqichlari (formula)	Funksiyasi (vazifasi)	Sohasi
Pul ko‘rinishida			
Tovar ko‘rinishida			
Ishlab chiqaruvchi (unumli)			

3-guruh

1. «Obligatsiya», «amortizatsiya» tushunchalariga sinkveyn tuzing.
2. Jadvaldan foydalanib samaradorlik ko‘rsatkichlarini taqqoslang:

Samaradorlik ko‘rsatkichi	Hisoblash formulasi
Umumiy	
Asosiy fondlardan foydalanish	
Aylanma fondlardan foydalanish	

4-guruh

1. “Samaradorlik”, “aksiya” tushunchalariga sinkveyn tuzing.
2. Jadvaldan foydalanib aksiya va obligatsiyalarga tavsif bering:

	Iqtisodiy mohiyati	Daromadlilik	Amal qilish muddati	Emitent	Tavakkalchilik (risk)	Asosiy umumiy belgilari	Asosiy farqlar
Aksiya							
Obligatsiya							

7-8- Seminar mashg‘ulot: Milliy iqtisodiyot va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, milliy boylik. Iqtisodiy o‘rinish va uning omillari.

Ishdan maqsad Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o‘lchamlari to‘g‘risidagi olingan bilimlarni mustahkamlash, muammoni hal etish malakasini shakllantirish.

Masalaning qo‘yilishi: Muammoli usul, aqliy hujum, muhokama, texnikalar: suxbat, blits so‘rov.

Fanlararo va fan ichidagi bog'liqlik. Iqtisodiyot nazariyasi fani moliya nazariyasi va davlat byudjeti fan, solik va solikka tortish fani bilan xam o'zaro bog'liq .

Ishni bajarish uchun namuna

O'quv materiallari

1. Muammoli vazifa

Milliy iqtisodiyot holatini tahlil qilish, shuningdek, ikki va undan ortiq mamlakat iqtisodiyotini taqqoslash imkonini beruvchi usulni ishlab chiqishingiz zarur.

2. Uslubiy ko'rsatma: harakat ketma-ketligi (algoritm)

1. Muammoni savol shakliga keltiring.

2. Asosiy masalani shakllantiring, uning echimi muammoli savolga javob berish darajasida bo'lsin.

3. Milliy iqtisodiyot holatini tavsiflash imkonini beruvchi asosiy mezonlarni (belgi, tahlil yo'nalishi) ayting.

4. Echish algoritmini tuzing.

5. Jamoa bo'lib tanlangan ko'rsatkichni baholang, ularni yoritish ketma-ketligini o'rning.

6. Milliy iqtisodiyot holatini baholash bo'yicha tanlangan ko'rsatkich asosida bir qator kichik muammolarni shakllantiring va jadvalga yozing.

7. "Echimning mazmuni" ustuniga ularni aniqlash, hisoblash algoritmini (formulasi, tartibini) yozing.

8. Muammoni echish jadvalini to'ldiring.

9. Siz tomonigizdan keltirilgan ko'rsatkichning milliy iqtisodiyot uchun ahamiyatini yoritish va oraliq xulosalarni shakllantiring va yozing.

10. YAkuniy xulosani aniq va lo'nda qilib shakllantiring.

3. Muammoni echish jadvali

Muammoning shakllantirishi:	YAkuniy xulosa:	
Quyi muammolarni shakllantirish	Echimlar mazmuni	Xulosalar
1	2	3
1.		
2.		
n.		

Masalaning qo'yilishi Hamkorlikda o'qish, muammoli usul, texnika: "kop-kop", prezentatsiya, sinkveyn.

Ishni bajarish uchun namuna

O'quv topshiriqlari1- ilova.

Guruh bilan ishlash qoidalari

Har biri o'z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;

Har biri berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;

Har biri o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;

Har biri yordam so'raganlarga ko'mak berishlari lozim;

Har biri guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;

Har biri: “Biz bir kemadamiz, birga cho‘kamiz, yoki birga qutilamiz” atamasini yaxshi bilishlari lozim.

2-ilova

1-guruh

1- topshiriq. Savolga javob bering. *Iqtisodiy inqirozning moddiy asosi va sabablari nimada?*

2-topshiriq. Venna diagrammasi asosida siklik, tarkibiy va agrar inqirozlarni taqoslang.

3-topshiriq. Boshqa guruhlarni tekshirish uchun 3 ta savol tuzing.

2-guruh

1-topshiriq. Savolga javob bering. *Iqtisodiy inqirozning qanday turlari mavjud. Ularga tavsif bering.* “Iqtisodiy inqiroz turlari”ga klaster tuzing.

2-topshiriq. Venna diagrammasi asosida ishlab chiqarishning pasayishi

va iqtisodiy inqirozlarni taqoslang.

3-topshiriq. Boshqa guruhlarni tekshirish uchun 3 ta savol tuzing.

3-guruh

1-topshiriq. Savolga javob bering. *Iqtisodiyot siklliligining mohiyati nimada, iqtisodiy sikl nazariyasi mazmunini ochib bering.*

2-topshiriq. Jadvalni to‘ldiring.

3-topshiriq. Boshqa guruhlarni tekshirish uchun 3 ta savol tuzing.

	Sikl bosqichlari		Umumiy tavsifi
YUksalish	1	Jonlanish	
	2	YUksalish	
Inqiroz	3	Inqiroz	
	4	Turg‘unlik	

Blits-so‘rov savollari

1. Iqtisodiy o‘sish nima?
2. Iqtisodiy o‘sishni qaysi ko‘rsatkichlar tavsiflaydi?


3. Qanday omillar evaziga iqtisodiy o'sish ta'minlanadi?
4. Milliy boylik nima va u qanday ko'payadi?
5. Mamlakat ekstensiv yoki intensiv o'sish yo'lidan rivojlanayotganini qanday ko'rsatkichlardan bilish mumkin?
6. Iqtisodiy o'sishga erishish qanday ziddiyatlarni keltirib chiqaradi?
7. Alohida sohalar iqtisodiy o'sishi evaziga umumiy iqtisodiy o'sishga erishish mumkinmi?
8. Siklli tebranishlar va uning ko'rinishlari: milliy daromad, investitsiyalar va bozor kon'yunkturasidagi tebranishlar.

Vizual materiallar

Iqtisodiy o'sish

Иқтисодий ўсиш потенциал ялпи ички маҳсулот ҳажмининг мутлақ кўрсаткичларда ва аҳоли жон бошига узок муддатли ортиб боришини ёки ўтган даврга нисбатан ўсишини намоён этади.



▢ **Iqtisodiy o'sish sur'ati** – mazkur mamlakat iqtisodiyoti qanchalik tez rivojlanayotganini aniqlash imkonini beruvchi ko'rsatkichdir.



Iqtisodiy o'sishning salbiy va ijobiy jihatlari




Iqtisodiy o'sishning ikki yo'li



6-ilova.

Real mahsulot o'sishini aniqlab beruvchi omillar.



9-10-Seminar mashg'uloti: Moliyaning mohiyati va moliya tizimi, davlatning soliq byudjet siyosati. Pul muomilasi, kredit va banklar.

Ishdan maqsad mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.

Masalaning qo'yilishi Birgalikda o'qish, munozara, taqdimot, Blits so'rov, grafik tashkil etuvchilar, T- jadval, sinkveyn

Ishni bajarish uchun namuna

Guruhlarda ishlash uchun o'quv topshiriqlar

1-guruh

Topshiriq 1

1. Pul va moliya tushunchalari o'rtasidagi farq nimada?
2. Iqtisodiyotda moliyaning asosiy vazifalari nimalar02an iborat?

(Jaavob berishda grafik organayzer: sxema, klaster, jadvallardan foydalaning.)

Topshiriq 2

To'g'ri juftlikni toping

Pul mablag'larining harakati, ya'ni ularning shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishi bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan munosabatlar	
--	--

	Laffer egri chizig'i
Moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalardir	Soliq stavkasi
Davlat xarajatlari va ularni moliyaviy ta'minlash manbalarining tartiblashtirilgan rejasi	Soliqlar
Byudjet xarajatlarining daromadlar qismidan ortiqcha bo'lishi natijasida vujudga kelgan farq	Davlat qarzlar
Byudjet taqchilligini qoplash maqsadida davlat tomonidan jalb qilingan moliyaviy resurslar	Byudjet taqchilligi
Jamiyatda vujudga keltirilgan sof daromadning bir qismini byudjetga jalb qilish shakli	Davlat byudjeti
Soliq summasining soliq olinadigan summaga nisbatining foizdagi ifodasi	Moliya tizimi
Davlat byudjeti daromdlari va soliq stavkasi o'rtasidagi bog'liqlikning tasvirlanishi	Moliya

Topshiriq 1.

1. Davlat moliyasi va davlat byudjeti tushunchalari o'rtasidagi farq nimada?
2. Moliya tizimi tarkibining asosiy unsurlari nimalardan iborat?

(Jaavob berishda grafik organayzer: sxema, klaster, jadvallardan foydalaning.)

Topshiriq 2.

To'g'ri juftlikni toping.

Pul mablag'larining harakati, ya'ni ularning shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishi bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan munosabatlar	Laffer egri chizig'i
Moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalardir	Soliq stavkasi
Davlat xarajatlari va ularni moliyaviy ta'minlash manbalarining tartiblashtirilgan rejasi	Soliqlar
Byudjet xarajatlarining daromadlar qismidan ortiqcha bo'lishi natijasida vujudga kelgan farq	Davlat qarzlar
Byudjet taqchilligini qoplash maqsadida davlat tomonidan jalb qilingan moliyaviy resurslar.	Byudjet taqchilligi
Jamiyatda vujudga keltirilgan sof daromadning bir qismini	Davlat byudjeti

byudjetga jalb qilish shakli.	
Soliq summasining soliq olinadigan summaga nisbatining foizdagi ifodasi	Moliya tizimi
Davlat byudjeti daromadlari va soliq stavkasi o'rtasidagi bog'liqlikning tasvirlanishi	Moliya

Topshiriq 1.

1. Moliya tizimining mohiyati nimada?
2. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida O'zbekistonning moliya siyosatining yo'nalishlari ifodalang.

(Jaavob berishda grafik organayzer: sxema, klaster, jadvallardan foydalaning.)

Topshiriq 2.

To'g'ri juftlikni toping.

Pul mablag'larining harakati, ya'ni ularning shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishi bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan munosabatlar	Laffer egri chizig'i
Moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalardir	Soliq stavkasi
Davlat xarajatlari va ularni moliyaviy ta'minlash manbalarining tartiblashtirilgan rejasi	Soliqlar
Byudjet xarajatlarining daromadlar qismidan ortiqcha bo'lishi natijasida vujudga kelgan farq	Davlat qarzlar
Byudjet taqchilligini qoplash maqsadida davlat tomonidan jalb qilingan moliyaviy resurslar.	Byudjet taqchilligi
Jamiyatda vujudga keltirilgan sof daromadning bir qismini byudjetga jalb qilish shakli.	Davlat byudjeti
Soliq summasining soliq olinadigan summaga nisbatining foizdagi ifodasi	Moliya tizimi
Davlat byudjeti daromadlari va soliq stavkasi o'rtasidagi bog'liqlikning tasvirlanishi	Moliya

Munozara uchun umumiy savollar

1. Pul muomilasi va pul tizimi.
2. Pulga bo'lgan talab va taklif, pul bozorida muvozanatning o'rnatilishi.
3. Inflyasiya, uning sabablari va oqibatlari.

“Sinkveyn” (5 qator) texnikasi

Maqsad – kategoriyaga xarakteristika berish

Sinkveyn sxemasi:

1–qator – tushuncha

2-qator – tushunchani tavsiflovchi 2 sifat

3-qator – ushbu tushuncha vazifalari to'g'risidagi 3 ta fe'l

4-qator – ushbu tushuncha mohiyati to'g'risidagi 4 so'zdan iborat so'z so'z birikmasi

5-qator – ushbu tushuncha sinonimi.

“Sinkveyn” (5 qator) texnikasi

Maqsad – kategoriyaga xarakteristika berish

Sinkveyn sxemasi:

1-qator – tushuncha

2-qator – tushunchani tavsiflovchi 2 sifat

3-qator – ushbu tushuncha vazifalari to'g'risidagi 3 ta fe'l

4-qator – ushbu tushuncha mohiyati to'g'risidagi 4 so'zdan iborat so'z so'z birikmasi

5-qator – ushbu tushuncha sinonimi.


B.B.B. usuli asosida tarqatma materiallar

	Bilaman	Bilmayman	Bildim
1	Pul		
2	Inflyasiya		
3	Bank		
4			
5			

Vizual materiallar.

Pul muomalasi – bu tovarlar aylanishi, notovar tavsifidagi bitimlar va hisoblarga xizmat qiluvchi naqd pullar va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar (kredit pullar) harakati.





Пул муомаласи қонуни - муомала uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash va unga muvofiq muomalaga pul chiqarishni taqozo qiladi.

Пул тизими – bu mamlakatda mavjud pul birligi muomalasining tashkil qilish tartibi, usullari va unga nazorat qiluvchi kredit muassasalaridir.

Пул тизимining tarkibiy qismlari.

Пул birligi (dollar, marka, iena, rubl, so'm va h.k.).

Пул turlari (bank billetlari, tanga, chaqalar).

Пул emissiyasi tarkibi.

Muomaladagi pul massasini tartibga soluvchi davlat muassasalari.

Naqd pulsiz hisob kitobni amalga oshirish tartibi.

Milliy valyutani chet el valyutasiga almashtirish tartibi.

Пул bozori – moliyaviy bozorning tarkibiy qismi bo'lib, unda pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar harakati ularga bo'lgan talab va taklif ta'sirida uyg'unlashtiriladi.

Ўзбекистонда умумий пул миқдорини ҳисоблаш учун қўлланиладиган **пул агрегатлари**.

M0= нақд пуллар

M1= M0 + ҳисоб варақларидаги пул қолдиқлари + маҳаллий бюджет маблағлари + бюджет, жамоат ва бошқа ташкилот маблағлари

M2= M1 + банклардаги муддатли омонатлар

M3= M2 + чиқарилган сертификатлар + аниқ мақсадли заём облигациялари + давлат заём облигациялари + хазина мажбуриятлари

Inflyasiya – bu pul aylanish kanallarining ortiqcha pul massasi bilan to‘lib ketishi oqibatida narxlar o‘rtacha (umumiy) darajasining ko‘tarilib borishini va natijada milliy pul birligining qadrsizlanishini anglatadi.

Инфляция намоён бўлади:


Товар (хизмат)ларнинг мавжуд таклифига нисбатан муомаладаги нақд пуллар ёки молиявий активлар ҳажмининг ҳаддан ташқари ортиб кетишида;

Пулнинг сотиб олиш лаёқатининг пасайиб бориши

Нархларнинг узоқ муддатли умумий ўсишида

Deflyasiya – inflyasiyaga qarama-qarshi jarayonni, ya'ni narxlarning umumiy darajasining pasayib borishini bildiradi.

Инфляция даврида миллий пул бирлиги қуйидагиларга нисбатан қадрсиланади




Inflyasiya sur'ati narx indeksi (**Ri**) yordamida aniqlanadi. Narx indeksi – bu joriy davrdagi narxlarning (**Rj**) bazis davrdagi narxlarga (**Rb**) nisbatidir


Rj - Rb

Ri= ----- x 100

Rb

Нарх индекси турлари





“Sinkveyn” (5 qator) texnikasi

Maqsad – kategoriyaga xarakteristika berish

Sinkveyn sxemasi:

1–qator – tushuncha

2-qator – tushunchani tavsiflovchi 2 sifat

3-qator – ushbu tushuncha vazifalari to‘g‘risidagi 3 ta fe‘l

4-qator – ushbu tushuncha mohiyati to‘g‘risidagi 4 so‘zdan iborat so‘z so‘z birikmasi



5-qator – ushbu tushuncha sinonimi.

B.B.B. usuli asosida tarqatma materiallar

	Bilaman	Bilmayman	Bildim
1	Kredit		
2	Ssuda		
3	Bank		
4			

Vizual materiallar


Пул-кредит сиёсати – Мамлакат Марказий банки томонидан иктисодиётнинг барқарор, самарали амал қилишини таъминлаш мақсадида ўтказиладиган курс ва барқарор пул тизимини қўллаб-қувватлашга қаратилган пул муомаласи ва кредит соҳасидаги чора-тадбирлар.




Markaziy bank siyosatininginstrumentlari

Siyosat instrumentlari	Umumiy tavsif
Pul emissiyasiyasi	Muomaladagi naqd pullar o'sishi
Zahira siyosati	Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining(va boshqa moliyaviy institutlar) depozit hisoblariga tushuvchi mablag'larning bir qismini majburiy zahiraga ajratish me'yorini belgilanishi.
Valyuta	Mamlakatda pul taklifi miqdoriga bevosita ta'sir ko'rsatish. MB valyuta sotib pul miqdorini qisqartiradi, xarid qilib esa uning

<i>siyosati</i>	miqdorini oshiradi
<i>Ochiq bozor</i>	MB tomonidan qimmatli qog'ozlar savdosi va xaridi
<i>siyosati</i>	
<i>Hisob siyosati</i>	MB tomonidan tijorat banklariga ssudalar berish uchun hisob stavkasi yoki qayta moliyalashtirish stavkasi belgilanishi



Банк ишини янада такомиллаштириш йўллари



О‘quv materialлари

Blits-so‘rov savollari.

Pul muomalasi –

Pul tizimi –

Inflyasiya –

Kredit –

Foiz normasi (stavkasi) –

Bank krediti –

Tijorat krediti –

Iste'mol krediti –

Ipoteka krediti –

Davlat krediti –

Lizing –

Bank –

Bank foyda normasi –

1. Guruhlarda ishlash uchun vazifa.

1. Pul tizimi va uning turlari ifodalang.
2. Pul agregatlari mazmunini yoritib.
3. Inflyasiya, uning sabablari va turlari tavsiflang.

2. Uslubiy ko'rsatma: xarakat ketma-ketligi (algoritm)

1. Muammoni savol shakliga keltiring.
2. Asosiy masalani shakllantiring, uning echimi muammoli savolga javob berish darajasida bo'lsin.
3. Milliy iqtisodiyot holatini tavsiflash imkonini beruvchi asosiy mezonlarni (belgi, tahlil yo'nalishi) ayting.
4. Echish algoritmini tuzing.
5. Jamoa bo'lib tanlangan ko'rsatkichni baholang, ularni yoritish ketma-ketligini o'rnatib.
6. Milliy iqtisodiyot holatini baholash bo'yicha tanlangan ko'rsatkich asosida bir qator kichik muammolarni shakllantiring va jadvalga yozing.
7. "Echimning mazmuni" ustuniga ularni aniqlash, hisoblash algoritmini (formulasi, tartibini) yozing.
8. Muammoni echish jadvalini to'ldiring.
9. Siz tomoningizdan keltirilgan ko'rsatkichning milliy iqtisodiyot uchun ahamiyatini yoritib va oraliq xulosalarni shakllantiring va yozing.
10. YAkuniy xulosani aniq va lo'nda qilib shakllantiring.

3. Muammoni echish jadvali

Muammoni shakllantirilishi:	YAkuniy xulosa:	
Quyi muammolarni shakllantirish	Echimlar mazmuni	Xulosalar
1	2	3
1.		
2.		

11-Seminar mashg'ulot: Innvestitsiya va investitsion siyosat. Ishchi kuni bandligi va mehnat bozori.

Ishdan maqsad: mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish, muammoli vazifalarni hal etish ko'nikmalarini hosil qilish.

Masalaning qo'yilishi Hamkorlikda o'qish, muammoli usul, texnika: "kop-kop", prezentatsiya, sinkveyn.

Fanlararo va fan ichidagi bog'liqlik. Iqtisodiyot nazariyasi fani moliya nazariyasi va davlat byudjeti fan, solik va solikka tortish fani bilan xam o'zaro bog'liq .

Ishni bajarish uchun namuna

O'quv topshiriqlar.

Ekspert varag'i №1.

Siz "Iste'mol mazmuni. Sof milliy mahsulotni taqsimlash va iste'mol fondini shakllantirish" savoli bo'yicha ekspertsiz.

Sizning vazifangiz – uning mazmuni va mohiyatini boshqalarga tushuntirish.

1. Savolni yoritishda grafik organayzerdan foydalaning.
2. "Iste'mol" so'ziga sinkveyn tuzing.
3. Umumlashtiruvchi xulosa chiqaring.

Ekspert varag'i №2.

Siz "Jamg'arish mazmuni va manbalari. Nominal va real jamg'arma. Iste'mol va jamg'armaga bo'lgan o'rtacha va qo'shilgan moyillik." savollari bo'yicha ekspertsiz.

Sizning vazifangiz – uning mazmuni va mohiyatini boshqalarga tushuntirish.

Savolni yoritishda grafik organayzerdan foydalaning.

"Jamg'arma" so'ziga sinkveyn tuzing.

Umumlashtiruvchi xulosa chiqaring.

Ekspert varag'i №3.

Siz "Investitsiyaning mazmuni, tarkibi va turlari uning darajasini aniqlovchi omillar." savoli bo'yicha ekspertsiz.

Sizning vazifangiz – uning mazmuni va mohiyatini boshqalarga tushuntirish.

1. Savolni yoritishda grafik organayzerdan foydalaning.
2. “Investitsiya” so‘ziga sinkveyn tuzing.
3. Umumlashtiruvchi xulosa chiqaring.

Muammoli topshiriq.

Mavzu: O‘zbekistonda investitsion faollikni ta’minlash.

Muammoli savol: O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti sharoitida sub’ektlarni investitsion faolligini qanday qilib oshirish mumkin?

“Sinkveyn” (5 qator) texnikasi

Maqsad – kategoriyaga xarakteristika berish

Sinkveyn sxemasi:

1-qator – tushuncha

2-qator – tushunchani tavsiflovchi 2 sifat

3-qator – ushbu tushuncha vazifalari to‘g‘risidagi 3 ta fe‘l

4-qator – ushbu tushuncha mohiyati to‘g‘risidagi 4 so‘zdan iborat so‘z so‘z birikmasi

5-qator – ushbu tushuncha sinonimi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi iqtisodiy o‘rish sur‘atlarida keskin o‘zgarish sodir bo‘lgan. Inqirozdan jiddiy aziyat chekayotgan Buyuk Britaniya va Germaniyada 2009 yilda yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarishida 2008 yilga nisbatan 0,1% va 0,2%ga pasayish jarayoni kutilmoqda.

O‘quv materiallar

Guruhlarda ishlash reglamenti va tartibi

1. Guruhda ishlash va qog‘ozda prezentatsiyani yozish – 15 min.
2. Kichik guruhlar (juftliklarga) bo‘linadi va umumiy vazifa taqsimlanadi hamda alohida javobni shakllantirish 5 min.
3. Guruhda o‘zining individual echimini taqdim etish – 5 min.
4. O‘zaro fikr almashadi, qo‘shimchalar qiladi, to‘g‘rilaydi va umumiy guruh prezentatsiyasini tayyorlaydi – 5 min.
5. Savol bo‘yicha guruh nuqtai-nazarini aytish – 3 min.
6. Jamoa bo‘lib muhokama qilish, xulosalarni shakllantirish – 2 min.

O‘quv topshiriqlari

Ekspert varag‘i 1

Iqtisodiy o‘rish va ijtimoiy yuksalish

1. Iqtisodiy o‘rishni mazmuni va asosiy maqsadi nimadan iborat?

(Iqtisodiy o'sishni ijobiy va salbiy oqibatlarini bo'yicha T-sxemasini tuzing)

2. Iqtisodiy o'sishni qanday o'lchash mumkin, buni ifodalash uchun qaysi ko'rsatkichlardan foydalaniladi?

Ekspert varag'i 2

Iqtisodiy o'sish va ijtimoiy yuksalish

1. Iqtisodiy o'sishning qanday sur'ati eng maqbul hisoblanadi?

(Iqtisodiy o'sish sur'atining har bir turi bo'yicha T-sxemasini tuzing)

YUqori o'sish sur'ati	
Nolli o'sish sur'ati	
Salbiy o'sish sur'ati	
Maqbul o'sish sur'ati	

2. Iqtisodiy o'sish va ijtimoiy yuksalish tushunchalari qanday bog'langan?

Ekspert varag'i 3

Iqtisodiy o'sish omillari

1. Iqtisodiy o'sishga nimalar ta'sir etadi?
2. Iqtisodiy o'sishning taklif omiliga nimalar kiradi?

(Iqtisodiy o'sishning taklif omillarining har birini jadvalda ifodalang)

Ekspert varag'i 4

Iqtisodiy o'sish omillari

1. Iqtisodiy o'sishga nimalar ta'sir etadi?
2. Iqtisodiy o'sishning talab omiliga nimalar kiradi?

(Iqtisodiy o'sishning talab omillarining har birini jadvalda ifodalang)

Muammoli topshiriq

Vaziyat.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tib bormoqda.

Topshiriq.

Siz mamlakatning iqtisodiy potensialidan samarali foydalanish yo'nalishlarini ishlab chiqing.

Munozara qatnashchilariga eslatma

1. Munozara munosabatlar yig'indisi emas, balki muammo echimi uslubiyatidan iborat;
2. Ko'p gapirmasdan boshqalarning so'zlashiga imkon ber.
3. Maqsadga erishish yo'lida hissiyotlaringni jilovlab, batafsil o'ylagan holda so'zla.
4. Raqiblarning vaziyatini o'rganib, ularga hurmat bilan murojaat qil;
5. Raqiblarning tomonidan aytilgan fikrlarga tanqidiy va istehzoli yondash;
6. Munozara predmeti bo'yicha chetga chiqmagan holda to'g'ri yondashib gapir.

Muammoli seminarining boshqaruv dastaklari

Boshlovchi barcha vazifalarni o'ziga oladi – munozara bosqichlarini boshqarish, javoblarning asoslanishi va to'g'riligini tasdiqlash, qo'llangan termin va tushunchalarni aniqlash, munosabatlarni to'g'ri qo'llash va boshqalar. Taqdimotlarning taqsimotini to'g'ri boshqarish.

Taqrizchi – tomonlarning ma'ruzalarini yo'nalishlar bo'yicha belgilash va to'liq xarakterda baholash: dolzarbligi, ilmiy jihati, mantiqiyligi va masalalarning aniq qo'yilganligi, xulosalarning aniq ko'rsatilishi.

Raqib – qabul qilingan tadqiqot o'rtasida raqobatchilik jarayonini shakllantiradi. U faqatgina ma'ruzachining asosiy holatini tanqid qilish emas, shu bilan birgalikda, uning aytgan fikrlaridan zaif yoki xato tomonlarini topish hamda o'zining hal qiluvchi fikrlarini taklif qilishi ham mumkin.

Ekspert – barcha munozaralarning, jumladan, munozara qatnashchilari tomonidan aytilgan fikrlarning, qilingan xulosalarning, taklif va dalillarning mahsuldorligini baholaydi.

Munozara reglamentini o'tkazish tartibi

1. Boshlovchi ma'ruza mavzusi va ma'ruzachilarning taqdimotlarini e'lon qiladi.
2. Ma'ruza 5 minut davom etadi.
3. Taqrizchi – 2 minut.
4. Raqib – ma'ruza mavzusi bo'yicha fikrlarini 1-3 minut taqdim etadi.
5. Jamoaviy muhokama – 5-10 minut.

Munozara savollari

1. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati va undan samarali foydalanish muammolari?
2. Fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida iqtisodiy o'sishda intensiv omillarning o'sishi?
3. Iqtisodiy o'sish samaradorligi va ijtimoiy yo'nalishi

Masalalar.

1. Ishsizlikning tabiiy darajasi 4% ni, haqiqiy darajasi 9,3 % ni tashkil qilsa, Ouken qonuni bo'yicha YAMM ning orqada qolishi necha foizni tashkil qiladi?
2. Milliy iqtisodiyotda nominal YAMM 560 mlrd so'mni, ishsizlikning tabiiy darajasidan ortiqligi tufayli YAMM ning orqada qolishi 9,65% ni tashkil qilsa iqtisodiyot qancha mahsulot yo'qotgan bo'ladi?
3. Mamlakatda yil boshida ish bilan bandlar soni 180 mln kishi, ishsizlar soni esa 20 mln kishi. Yil davomida xar oyda o'rtacha 1% ishchilar turli sabablarga ko'ra ishdan bo'shagan, ishsizlar sonidan 20 %i esa ishga joylashgan. Ishsizlikning tabiiy darajasini aniqlang.

Ish tartibi va reglament

1. Blits-so'rov – 15 min.
2. Guruhda ishlash va uni prezentatsiyaga yozish – 20 min.
3. Muammo bo'yicha guruhning yondoshuvi – 5 min.
4. Jamoa bo'lib muhokama qilish va umumiy xulosalar chiqarish – 5 min.
5. Test o'tkazish – 5 min.

Munozara uchun muammoli savollar

1. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning bosqichlarini tavsiflab bering.
2. FTT va yalpi ishchi kuchining bandligi o'rtasida qanday ziddiyat bor?
3. Nufus qonunining ishsizlik darajasiga ta'siri qanday?
4. Ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif qanday olimlarga bog'liq?
5. Rivojlangan mamlakatlar ishsizlik muammolarini qanday xal qiladilar?
6. To'la va samarali bandlikka erishish mumkinmi?

12-Seminar mashg'ulot: Iqtisodiyotni tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlari.

Fanlararo va fan ichidagi bog'liqlik. Iqtisodiyot nazariyasi fani moliya nazariyasi va davlat byudjeti fan, solik va solikka tortish fani bilan xam o'zaro bog'liq .

Ishdan maqsad: mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish muammoli masalalarni echish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Masalaning qo'yilishi Muammoli usul, suhbat, aqliy hujum, munozara, prezentatsiya. usullaridan foydalanish

Ishni bajarish uchun namuna

Blits so'rov savollari.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish -

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi –

Davlatning iqtisodiy vazifalari -

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning usullari –

Bevosita usullar –

Bilvosita usullar -

1. Muammoli vazifa

Davlatni iqtisodiyotga aralashuvi qay darajada bo'lishi kerak.

2. Uslubiy ko'rsatma: xarakat ketma-ketligi (algoritm)

1. Muammoni savol shakliga keltiring.

2. Asosiy masalani shakllantiring, uning echimi muammoli savolga javob berish darajasida bo'lsin.

3. Milliy iqtisodiyot holatini tavsiflash imkonini beruvchi asosiy mezonlarni (belgi, tahlil yo'nalishi) ayting.

4. Echish algoritmini tuzing.

5. Jamoa bo'lib tanlangan ko'rsatkichni baholang, ularni yoritish ketma-ketligini o'rnat.

6. Milliy iqtisodiyot holatini baholash bo'yicha tanlangan ko'rsatkich asosida bir qator kichik muammolarni shakllantiring va jadvalga yozing.

7. "Echimning mazmuni" ustuniga ularni aniqlash, hisoblash algoritmini (formulasi, tartibini) yozing.

8. Muammoni echish jadvalini to'ldiring.

8. Siz tomoningizdan keltirilgan ko'rsatkichning milliy iqtisodiyot uchun ahamiyatini

9. yoritish va oraliq xulosalarni shakllantiring va yozing.

10. YAKuniy xulosani aniq va lo'nda qilib shakllantiring.

3. Muammoni echish jadvali

Muammoni shakllantirilishi:	YAKuniy xulosa:	
Quyi muammolarni shakllantirish	Echimler mazmuni	Xulosalar
1	2	3
1.		
2.		
n.		

Ish tartibi va reglament

1. Muammoni echish va prezentatsiya varog'ini yozish uchun guruhda ishlashga - 20 min.

2. Muammo echimini prezentatsiya qilish – 8 min. gacha.

3. Jamoa bo'lib muhokama qilish, xulosalarni shakllantirish - 10 min. gacha.

4. O‘zaro baholash – 1 min.

Nazorat savollari

1. Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqaruvning zaruriyati nimada?
2. Bozor iqtisodiyotida davlatning iqtisodiy vazifasi nimadan iborat?
3. Iqtisodiyotni boshqarishning modellarining farqi nimada?
(klassik, monetar, keyns va niokeynscha)
4. Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqaruvi usullarini ayting?.

Nazorat savollari.

1. Davlatning ijtimoiy siyosati deganda nimani tushunasiz?
2. Bozor iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan tizimda ijtimoiy adolat qanday namoyon bo‘ladi?
3. Daromadlarnidan iborat?
4. Aholi daromadlari oshishi nimalarga bog‘liq?

Masalani eching.

1. AQSH da kambag‘al aholining 20 % i yalpi daromadning 4,7% ini, boy kishilarning 20 % i esa yalpi daromadning 42,7% ini oladi. Ushbu ma’lumotlar asosida Lorens egri chizig‘ini chizing va DJ ini koefitsentini toping.
2. Quyidagi jadvalda oila a‘zolarining bir yil davomidagi daromadlari ko‘rsatilgan.

Oila a‘zo	Faoliyati	Daromadi (so‘m)
Otasi	O‘qituvchi	30000
Onasi	Vrach	28000
O‘g‘li	Talaba	12000
Qizi	O‘quvchi	-
O‘g‘li	Bog‘cha tarbiyalanuvchisi	-

Agar minimal ish haqi darajasi 8000 so‘m bo‘lsa, bu oila kam ta‘minlangan oilalar qatoriga kiradimi?

Mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalar

Daromad	
Nominal daromad	
Real daromad	
Daromadlar tengsizligi	
Lorens egri chizig'i	
Djini koeffitsienti	
Oila byudjeti	
Ijtimoiy siyosat	
Ijtimoiy himoya	

13-Seminar mashg'ulot: Jahon xo'jalagi va iqtisodiy integrasiya.

Ishdan maqsad ma'ruzada olingan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.

Masalaning qo'yilishi Birgalikda o'qish, munozara, taqdimot, Blitz so'rov, grafik tashkil etuvchilar, T- jadval, diagramma "Vena" usullaridan foydalanish lozim.

Ishni bajarish uchun namuna

1. Muammoli vazifa

Jahon xo'jaligi globallashuvi jarayonlarining ziddiyatli tomonlarini aniqlang va uni bartarf etuvchi yo'llarni ko'rsating.

2. Uslubiy ko'rsatma: xarakat ketma-ketligi (algoritm)

1. Muammoni savol shakliga keltiring.
2. Asosiy masalani shakllantiring, uning echimi muammoli savolga javob berish darajasida bo'lsin.
3. Milliy iqtisodiyot holatini tavsiflash imkonini beruvchi asosiy mezonlarni (belgi, tahlil yo'nalishi) ayting.
4. Echish algoritmini tuzing.
5. Jamoa bo'lib tanlangan ko'rsatkichni baholang, ularni yoritish ketma-ketligini o'rnatish.
6. Milliy iqtisodiyot holatini baholash bo'yicha tanlangan ko'rsatkich asosida bir qator kichik muammolarni shakllantiring va jadvalga yozing.
7. "Echimning mazmuni" ustuniga ularni aniqlash, hisoblash algoritmini (formulasi, tartibini) yozing.
8. Muammoni echish jadvalini to'ldiring.
10. Siz tomonigizdan keltirilgan ko'rsatkichning milliy iqtisodiyot uchun ahamiyatini yoritish va oraliq xulosalarni shakllantiring va yozing.
10. YAkuniy xulosani aniq va lo'nda qilib shakllantiring.

3. Muammoni echish jadvali

Muammoni shakllantirilishi:	YAkuniy xulosa:

Quyi muammolarni shakllantirish	Echimlar mazmuni	Xulosalar
1	2	3
1.		
2.		
n.		

Ish tartibi va reglament

1. Muammoni echish va prezentatsiya varog'ini yozish uchun guruhda ishlashga - 20 min.
2. Muammo echimini prezentatsiya qilish – 8 min. gacha.
3. Jamoa bo'lib muhokama qilish, xulosalarni shakllantirish - 10 min. gacha.
4. O'zaro baholash – 1 min.

14-Seminar mashg'ulot: Jahon xo'jaligi va iqtisodiy integrasiya.

Ishdan maqsad ma'ruzada olingan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.

Masalaning qo'yilishi Hamkorlikda o'qish, munozara, texnika: taqdimot, blits-so'rov usullaridan foydalanish

Fanlararo va fan ichidagi bog'liqlik. Iqtisodiyot nazariyasi fani moliya nazariyasi va davlat byudjeti fan, solik va solikka tortish fani bilan xam o'zaro bog'liq .

Ishni bajarish uchun namuna

Talabalarni kichik guruxlarga bo'lib quyidagi vazifalar yuklatiladi

1-guruh

1. Bozor iqtisodiyotining iqtisodiy qoida va talqinlarini o'qing.
2. Ularning qaysilari "Iqtisodiyot nazariyasi" fanining 1 va 4 bo'lim mavxulariga mos keladi?
3. Mavzuga mos keluvchi to'g'ri qoida va talqinlarni mos holatda jadvalning o'ng tomoniga yozing.
4. YOzganingizni asoslang.

№	Mavzuning nomi	Iqtisodiy qoida va talqinlar
I bo'lim. Iqtisodiy rivojlanishning umumiy asoslari		
1	«Iqtisodiyot nazariyasi» fanining predmeti va bilish uslublari	
2	Ishlab chiqarish jarayoniva uning natijalari	
3	Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari	
4	Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bozor iqtisodiyoti shakllanishi va amal kilishining asosidir	
IV bo'lim. Jahon xo'jaligi		
25	Jahon xo'jaligi va uning evolyusiyasi	

26	Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi	
27	Jahon bozori. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari	

2-guruh

1. Bozor iqtisodiyotining iqtisodiy qoida va talqinlarini o'qing.
2. Ularning qaysilari "Iqtisodiyot nazariyasi" fanining 1 va 4 bo'lim mavxulariga mos keladi?
3. Mavzuga mos keluvchi to'g'ri qoida va talqinlarni mos holatda jadvalning o'ng tomoniga yozing.
4. YOzganingizni asoslang.

<i>№</i>	<i>Mavzuning nomi</i>	<i>Iqtisodiy qoida va talqinlar</i>
II bo'lim. Bozor iqtisodiyoti nazariyasi		
5	Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal kilishi	
6	Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri va uning O'zbekistondagi xususiyatlari	
7	Talab va taklif nazariyasi. Bozor muvozanati	
8	Raqobat va monopoliya	
9	Narxning mohiyati va shakllanish xususiyati	
10	Tadbirkorlik faoliyati va uning shakllari. Tadbirkorlik kapitali va uning aylanishi	
11	Korxona (firma)xarajatlari va foydasi	
12	Ish haqi va mehnat munosabatlari	
13	Agrar munosabatlar va agrobiznes	

3-guruh

1. Bozor iqtisodiyotining iqtisodiy qoida va talqinlarini o'qing.
2. Ularning qaysilari "Iqtisodiyot nazariyasi" fanining 1 va 4 bo'lim mavxulariga mos keladi?
3. Mavzuga mos keluvchi to'g'ri qoida va talqinlarni mos holatda jadvalning o'ng tomoniga yozing.
4. YOzganingizni asoslang.

<i>№</i>	<i>Mavzuning nomi</i>	<i>Iqtisodiy qoida va talqinlar</i>
III bo'lim. Milliy iqtisodiyot (makroiqtisodiyot)ning amal qilishi va rivojlanish qonuniyatlari		
14	Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o'lchamlari. YAlpi milliy mahsulot va uning harakat shakllari	
15	YAlpi talab va yalpi taklif	
16	Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar	
17	Iqtisodiy o'sish va milliy boylik	
18	Milliy iqtisodiyotning nisbatlari va muvozanati	
19	Iqtisodiyotning siklligi va makroiqtisodiy beqarorlik	
20	YAlpi ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik	
21	Moliya tizimi va moliyaviy siyosat	

22	Pul-kredit tizimi. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi roli	
23	Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning iqtisodiy roli	
24	Aholi daromadlari va davlatning ijtimoiy siyosati	

Iqtisodiy qoida va talqinlar

Iqtisodiyot fanining 10 ta qoida va talqinlari

1. Rag'batlantirish inson ruhiyati va xulqiga ta'sir etadi.
2. Xamma narsa uchun to'lash kerak.
3. Sovdoda doim foyda (naf) bor.
4. To'siqlar savdoga salbiy ta'sir etadi.
5. Daromadlar ishlab chiqarishda aniqlanadi.
6. Aholi daromadlarini o'sishining to'rt manbai: malakali ishchi kuchi, kapitalni jamg'arilishi, fan-texnika taraqqiyoti, jamiyatda iqtisodiy tizimni yaxshilanishi.
7. SHaxsiy daromad bu boshqalarga ko'rsatilgan xizmatni rag'batlantirilishi.
8. Foyda, biznesda, jamiyat farovonligi uchun ishlash hissini uyg'otadi.
9. "Ko'rinmas qo'l" nazariyasi: bozor narxlarini shaxsiy manfaatni umumiy farovonlikka yo'naltiradi.
10. Iqtisodiy inqiroz iqtisodiyotda yangi turdagi tovar va xizmatlarni yaratishga undaydi.

Iqtisodiy rivojlaning etti manbai

1. Xususiy mulkchilik: mulk xususiy bo'lganda insonlar ko'p mehnat qiladi va resurslardan samarali foydalanadi.
2. Erkin savdo: savdoga xalaqit beruvchi to'siqlar iqtisodiy o'sishni sustlashtiradi.
3. Raqobat: bellashish resurslardan samarali foydalanishga majbur qiladi va progressiv yangiliklarning doimiy manbai hisoblanadi.
4. Kapital bozori: mamlakat o'z resurslaridan ratsional foydalanishi uchun kapitalni samarali ishlab chiqarishga yo'naltirish mexanizmi bo'lishi kerak.
5. Moliyaviy barqarorlik: inflyatsiyani me'yorida ortishi bozor iqtisodiyotini izdan chiqaradi.
6. Past darajadagi soliqlar: insonlarda ko'proq mablag' qoladi, shuningdek, ko'proq ishlab chiqaradi.
7. Tashqi savdodagi erkinlik: mamlakat ishlab chiqarishi arzonga tushadigan tovarlarni sotish va uning evaziga ishlab chiqarish qimmatga tushadigan tovarlarni sotib olish orqali yutadi

III.MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Tinglovchilarning mustaqil ishi o'rganilayotgan mavzu yuzasidan ma'lumotlarni axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan keng foydalangan xolda yig'ish, olingan ma'lumotlarni mustaqil ravishda ishlab chiqish, tahlil qilish va amaliyotda qo'llay olishdan iborat bo'lib, uning shakllari turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Mustaqil ishga mo'ljallangan mavzular quyida keltiriritilgan.

Tinglovchilarning mustaqil ishiga shuningdek, bitiruv malakaviy ishlarini bajarilishi borasida olib boradigan faoliyati ham kiradi. Mustaqil ishni bajarish natijalari baholanadi. Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar tinglovchilarning mashg'ulotlarda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.

Fan buyicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

Talaba "Iqtisodiyot nazariyasi" fanidan mustaqil ta'limni tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlarini xisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi va joriy nazorat sifatida baxolanadi:

1) mavzular buyicha konspekt (referat, takdimot) tayyorlash.

Nazariy materialni puxta uzlashtirishga yordam beruvchi bunday usul o'quv materialiga diqqatni kuprok jalb etishga yordam beradi. Talaba konspekti turli nazorat ishlariga tayyorgarlik ishlarini osonlashtiradi, vaktni tejaydi;

2) o'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Talabalar ma'ruza va amaliy (seminar) mashg'ulotlar davomida olgan bilimlarini o'zlashtirishlari, turli nazorat ishlariga tayyorgarlik ko'rishlari uchun tavsiya etilgan elektron manbalar, innovatsion dars loyixasi namunalari, uz-uzini nazorat uchun test topshiriklari v.b;

3) fan bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash. Mustaqil o'rganish uchun berilgan mavzular buyicha talabalar tavsiya etilgan asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha o'quv, ilmiy adabiyotlardan foydalanadilar. Bunda rus va xorijiy tillardagi adabiyotlardan foydalanish ragbatlantiriladi;

4) internet tarmog'idan foydalanish. Fan mavzularini o'zlashtirishda mavzu buyicha internet manbalarini topish, ular bilan ishlash nazorat turlarining barchasida qo'shimcha reyting ballari bilan ragbatlantiriladi;

- 5) mavzuga oid masalalar, keys-stadilar va o'quv loyihalarini ishlab chiqish va ishtirok etish;
- 6) amaliyot turlariga asosan material yig'ish, amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish, hisobotlar tayyorlash;
- 7) ilmiy seminar va anjumanlarga tezis va makolalar tayyorlash va ishtirok etish;
- 8) masofaviy (distansion) ta'lim asosida mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha metodik ko'rsatmalar tayyorlash va xk. Uyga berilgan vazifalarni bajarish, yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yullarini aniqlash, Internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola (tezis) va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.

Mustaqil ishni tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar, keys-stadi, vaziyatli masalalar to'plami ishlab chikiladi. Unda talabalarga asosiy ma'ruza mavzulari buyicha amaliy topshirish, keys-stadilar echish uslubi va mustaqil ishlash uchun vazifalar belgilanadi.

• ***Shuningdek talabaning mustaqil ishi bo'lib:***

- Grafik organayzerlash ishlab chiqish va to'ldirish;
- Krossvordlar tuzish va echish;
- Prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash xamda mustakil ish jarayonida keng kullash va xk.

Mustaqil ta'lim mavzulari:

1. Qadimgi sharq va G'arb xalqlaridagi iqtisodiy g'oyalar(5 soat)
2. Iqtisodiyotni isloh qilishda mulkchilikning o'rni.(5 soat)
3. O'zbekistonda islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirishning asosiy yo'nalishlari(5 soat)
4. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Xarakatlar strategiyasi"ining mazmuni va yo'nalishlari.(2 soat)
5. Biznes va tadbirkorlik faoliyatida izlanish, innovatsiya va kengaytirish(4 soat)
6. Raqobat muhitini kuchaytirishning zarurligi va yo'nalishlari.(4 soat)
7. Mehnat munosabatlarini targ'ibga solishda davlatning roli.(4 soat)
8. Xufyona iqtisodiyot, uning o'lchamlari va namoyon bo'lish shakillari.(3 soat)
9. Investitsion faoliyatni ta'minlash va uning shart-sharoitlari.(4 soat)

10.Eksportni rag'batlantirish usullari.(4 soat)

GLOSSARIY

Iqtisodiyot – cheklangan Iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, insonlar uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va etkazib berishga qaratilgan va chambarchas bog'liqlikda amal qiladigan faoliyatlar birligini ta'minlovchi Iqtisodiy tizim.

Ehtiyoj – insonning yashashi va kamol topishi uchun kerakli hayotiy vositalarga bo'lgan zaruriyat.

Iqtisodiy resurslar – ma'lum davrda ma'lum bir mamlakat ixtiyorida to'plangan va mavjud bo'lgan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ularni iste'molchilarga etkazib berish va iste'mol jarayonlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan vositalar, qo'r-qutlar, imkoniyatlar va manbalardir

Iqtisodiy rivojlanish - ko'p o'lchamli jarayon bo'lib, jamiyatning ijtimoiy, Iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotida o'z ifodasini topadi.

Iqtisodiy o'sish - YAMM (IMM, SMM, MD) miqdorining mutloq va aholi jon boshiga hamda Iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishida va sifatning yaxshilanishida ifodalanadi

Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi va siyosati fanining predmeti – iqtisodiy rivojlanishning sharoitlarini, omillarini va ahamiyatini aniqlash maqsadida iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish maqsadida hayotiy ne'matlarni (va xizmatlarni) ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va ularni iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimini, ijtimoiy xo'jalikni samarali yuritish qonun-qoidalarini o'rganishdan iboratdir.

Uslubiyat – Iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishning prinsiplari, yo'llari, qonun – qoidalari, aniq hadislari tizimidir.

Ilmiy abstraksiya – Iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishda qo'llaniladigan usullardan biri bo'lib, tahlil paytida halaqit beruvchi ikkinchi darajali voqea – hodisalarni e'tibordan chetlashtirib, asosiy o'rganilayotgan hodisaning asl mohiyatiga fikrni qaratishdir.

Ishlab chiqarish usuli - ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari birligi hamda o'zaro ta'siri.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar - ishlab chiqarishning shaxsiy va moddiy omillari, ya'ni ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalari birligi.

Ijtimoiy-Iqtisodiy munosabatlar - bu kishilar uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va is'temol qilish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

Ishlab chiqarishning texnologik usuli - mehnat vositalari, materiallar, texnologiya, energiya axborotlar va ishlab chiqarishni tashkil etish majmui.

Mulkchilik munosabatlari - mulkka egalik qilish, undan foydalanish, uni o'zlashtirish va tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

Mulkdan foydalanish - mol-mulkning Iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi yoki ijtimoiy hayotda qo'llanilishi, ya'ni uning nafli jihatlarining bevosita iste'mol qilinishi.

Mulkni tasarruf etish - mol-mulk taqdirini mustaqil hal qilish.

Mulkka egalik qilish - mulkdorlik huquqining uning egasi qo'lida saqlanib turishi va yaratilgan moddiy boyliklarni o'zlashtirishning ijtimoiy shakli.

Mulk ob'ektlari - mulkka aylangan barcha boylik turlari.

Mulk sub'ektlari - mulk ob'ektini o'zlashtirishda qatnashuvchilar, mulkiy munosabatlar ishtirokchilari.

Xususiylashtirish - mulkka egalik huquqining davlatdan xususiy shaxslarga o'tishi.

Davlat tassarrufidan chiqarish - davlat mulki hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirilishi.

Iqtisodiy o'sish – YAIM, SMM, MD miqdorining mutloq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishida va sifatining yaxshilanishida ifodalanadi.

Iqtisodiy o'sish mezoni – iqtisodiy o'sishni nisbatan to'liq darajada baholash imkonini beradigan ko'rsatkichni xarakterlaydi.

Iqtisodiy o'sishning ko'rsatkichlari – iqtisodiy o'sishni aniqlashda foydalaniladigan qiymat, ijtimoiy naflilik va natural (jismoniy) ko'rsatkichlar tizimidan iborat.

Ekstensiv iqtisodiy o'sish – ishlab chiqarishga qo'shimcha iqtisodiy resurslarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmining ortib borishi.

Intensiv iqtisodiy o'sish – ishlab chiqarish omillarining mavjud darajasida, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko'payib borishi.

Iqtisodiy o'sish omillari – iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatishda o'z o'rniga ega bo'lgan va uni aniqlab beruvchi talab, taklif va taqsimlash omillarini bildiradi.

Iqtisodiy inqiroz — ishlab chiqarish xajmining keskin tushib ketishidir.

Iqtisodiy sikl — ishlab chiqarishning bir Iqtisodiy inkirozidan ikkinchisi boshlanguniga kadar takrorlanib turadigan xarakati.

Turg'unlik (depressiya) — ishlab chiqarishning bir joyda deysinib turishini bildiradi va bu fazada Iqtisodiy faollik jonlanishi uchun shart sharoit vujudga kelish nixoyasiga etadi.

Jonlanish — Iqtisodiy siklning ishlab chiqarishning barqaror kengayib borishiga utishini xarakterlovchi fazasi.

YUksalish — Iqtisodiy siklning Iqtisodiyotda tulik bandlikka erishilishi, ishlab chiqarishning inkirozdan oldingi darajadan ham ortib ketishi va tulovga layokatli talabning kengayib borishini xarakterlovchi fazasi.

Tarkibiy inqirozlar — Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va sohalari rivojlanishi o'rtasidagi chuqur nomutanosibliklarni ifodalaydi.

Agrar inqirozlar — qishlok xo'jaligida ruy beradigan Iqtisodiy inqirozlar bulib, sikllik xarakterga ega bulmaydi va sanoat sikllariga Karaganda ancha o'zoq xarakterlanadi.

Iqtisodiy o'sishning ko'rsatkichlari - Iqtisodiy o'sishni aniqlashda foydalaniladigan qiymat va natural (jismoniy) ko'rsatkichlar tizimidan iborat.

Ekstensiv Iqtisodiy o'sish - ishlab chiqarishga qo'shimcha Iqtisodiy resurslar jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmining ortib borishi.

Intensiv Iqtisodiy o'sish - ishlab chiqarish omillarining rivojlanib, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko'payib borishi.

Ustuvor ekstensiv Iqtisodiy o'sish - Iqtisodiy o'sishda ekstensiv omillarning ustuvor o'rniga ega ekanligini bildiradi.

Ustuvor intensiv Iqtisodiy o'sish - Iqtisodiy o'sish intensiv omillarning yuqori o'rniga egaligini bildiradi.

Natural ishlab chiqarish - bunda mehnat mahsulotlari ishlab chiqaruvchining o'z ehtiyojlarini qondirish, ichki xo'jalik ehtiyojlari uchun mo'ljallanadi.

Tovar ishlab chiqarish - bunda tovarlar o'zining iste'moli uchun emas, balki bozorda sotish, ayirboshlash uchun va boshqalarning iste'molini qondirish maqsadida ishlab chiqariladi.

Bozor iqtisodiyoti – tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun – qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan Iqtisodiy tizimdir.

Bozor mexanizmi – bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va Iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirishni ta'minlaydigan dastak va vositalardir.

Bozor – ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar (sotuvchilar va xaridorlar) o'rtasida pul orqali ayirboshlash jarayonida bo'ladigan munosabatlar yig'indisidir.

Bozor ob’ekti – bozorga, ayirboshlash munosabatlariga jalb qilingan Iqtisodiy faoliyatning natijalari va Iqtisodiy resurslar, tovar, pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlardir.

Bozor sub’ekti – bozorning, ayirboshlash munosabatlarining qatnashchilaridir.

Bozor infratuzilmasi – ayirboshlash munosabatlariga xizmat qiluvchi muassasaviy tuzilmalardir.

O’tish davri – bir Iqtisodiy tizimdan boshqasiga, mavjud Iqtisodiy munosabatlardan butunlay boshqa, yangi Iqtisodiy munosabatlarga o’tish taqozo qilinadigan davrdir.

Bozor islohotlari – bozor Iqtisodiyotini va bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

Iqtisodiy islohotlar – Iqtisodiyotda tub (yoki qisman) o’zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan tadbirlardir.

Iqtisodiy ukld – turli mulkchilikka asoslangan xo’jalik yuritishning shakllari va turlari.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish – nima va qancha ishlab chiqarishni qaerga, qanday bahoda sotishni tadbirkorning o’zi belgilashi lozim. Iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarini erkinlashtirish, xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning erkinligi va mustaqilligini ta’minlash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish demakdir.

Islohotlar konsepsiyasi – ijtimoiy–Iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsad va yo’nalishlari, uni amalga oshirishning vazifalari va strategik yo’llarining umumiy g’oyasidir.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish – tanglik holatlariga barham berish asosida makroIqtisodiy muvozanatlikni saqlash va ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirishdir.

Iqtisodiy muvozanat - Iqtisodiy jarayonlar, xodisalarning ikki yoki bir necha tomonining bir-biriga mos kelish holati.

Xususiy muvozanatlik - bu ikkita o’zaro bog’liq bo’lgan Iqtisodiy miqdorlar yoki Iqtisodiyot tomonlarining miqdoran teng kelishi.

Umumiy muvozanatlik - jamiyat ehtiyojlari bilan mavjud Iqtisodiy resurslar va ishlab chiqarish xajmining o’zaro mos kelishi.

Retseesion farq - yalpi sarflarning sof milliy mahsulot xajmidan kam bo’lgan miqdori.

Inflyasion farq - yalpi sarflarning sof milliy mahsulot xajmidan ortiqcha bo’lgan miqdori.

Multiplikator samarasi - bu sof milliy mahsulotdagi o'zgarishning yalpi sarflardagi o'zgarishga nisbati.

Iqtisodiy mutanosiblik - Iqtisodiyotning turli tomonlari va soxalari o'rtasida miqdor va sifat o'lchamlarning mos kelishlik darajasi.

Iqtisodiy manfaatlar - iqtisodiy kategoriya bo'lib, ular ishlab chiqarishning alohida qatnashchilari (individlari, ularning guruhlari, sinfiy birlashmalari) o'rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlarida ifodalanadi.

Moddiy rag'batlantirish – insonni uning mehnat natijalaridan kelib chiqib, ish haqi, mukofot shakllarida taqdirlashdir.

Ma'naviy rag'batlantirish – insonni uning faoliyat natijalari asosida orden, medal, faxriy yorliq, hurmat taxtasiga kiritish kabi shakllarda taqdirlashdir.

Yakka shakldagi manfaat- bir kishining ehtiyojlarini ifoda etuvchi manfaatlar majmuidir

Jamoa manfaati – kishilar guruhi, korxona va firmalarga tegishli manfaatlar majmuidir.

Ijtimoiy manfaat – bu barcha jamiyat a'zolarining birgalikda ro'yobga chiqadigan manfaatlaridir.

Mehnat salohiyati - jamiyatdagi mehnatga layoqatli, bilim va malakaga, ishlab chiqara olish qobiliyatiga ega bo'lgan kishilardir.

Ilm-ma'rifat salohiyati- ilm-ma'rifatga xizmat qiluvchi moddiy va insoniy resurslar fan erishgan darajadir.

Texnika- texnologiya salohiyati- jamiyatdagi mashina –mexanizmlar miqdori, ularning tarkibi, texnikaviy darajasi va texnologik tizimlar majmuini o'z ichiga oladi.

Tabiiy salohiyat- tabiiy resurslar miqdori va sifati ishlab chiqarishning ob-havo sharoiti.

Fan-texnika taraqqiyoti - fan va texnikaning muttasil ravishda va o'zaro bog'liq holda rivojlanishidir.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish (IDTTS) - qonunchilik, ijro va nazorat qilish xarakteridagi tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish.

IDTTS maqsadi - Iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, Iqtisodiy tizimni mustahkamlash va uni o'zgarib turuvchi sharoitga moslashtirishga qaratiladi.

Davlatning Iqtisodiy vazifalari - Iqtisodiy tizimning amal qilishiga shart-sharoit yaratish va Iqtisodiyotni tartibga solish hamda Iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlardan iborat bo'ladi.

IDTTS usullari - tartibga solishning ma'muriy va Iqtisodiy vositalari birligi.

Bevosita usullar - Iqtisodiyotni tartibga solishning ta'qiqlash, ruxsat berish va majbur qilish xarakteridagi ma'muriy vositalari.

Bilvosita usullar - Iqtisodiyotni tartibga solishning Iqtisodiy vosita va dastaklari.

Xalqaro mehnat taqsimoti - alohida mamlakatlarning tovar va xizmatlarning ayrim turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi.

Xalqaro Iqtisodiy integratsiya - jahon mamlakatlari o'zaro Iqtisodiy aloqalarining chuqurlashtirish va barobar rivojlanishi hamda milliy xo'jaliklar o'rtasidagi mehnat taqsimoti asosida ular xo'jalik aloqalarining birlashish jarayoni.

Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi – ishchi kuchi resurslarining ancha qulay sharoitda ish bilan ta'minlanish maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tishi.

Emmigratsiya - ishchi kuchining mamlakatdan doimiy yashash joyiga chiqib ketishi.

Immigratsiya - ishchi kuchining mamlakatga doimiy yashash uchun kirib kelishi.

Erkin savdo zonalari - Iqtisodiy integratsiyaning eng oddiy shakli bo'lib, uning dorasida savdo cheklashlari bekor qilinadi.

Boj ittifoqi - yagona tashqi savdo ta'riflari o'rnatishni va uchunchi mamlakatga nisbatan yagona tashqi savdo siyosati yuritishini taqozo qiladi.

To'lov ittifoqi - milliy valyutalarning o'zaro almashinuvi va hisob-kitobda yagona pul birligining amal qilishi.

Umumiy bozor - bunda uning qatnashchilari o'zaro erkin savdoni amalga oshirish va yagona tashqi savdo siyosati o'tkazish bilan birga kapital va ishchi kuchining erkin xarakati ta'minlanadi.

Iqtisodiy va valyuta ittifoqi - Iqtisodiy integratsiyaning eng oliy shakli bo'lib, bunda Iqtisodiy integratsiyaning barcha qarab chiqilgan shakllari Iqtisodiy va valyuta-moliyaviy siyosat o'tkazish bilan birga uyg'unlashadi.

Eksport – tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar mamlakatdan tashqariga chiqariladi.

Import – chet ellik mijozlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga kiritish.

Reeksport – qandaydir mamlakat ishlab chiqaruvchi mamlakatdan tovarlarni o'z iste'moli uchun emas, balki uchunchi mamlakatga qayta sotish uchun sotib olishi.

Reimport – iste'molchi mamlakatdan reeksport tovarlarni sotib olish.

Xalqaro valyuta tizimi – xalqaro valyuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan shakli.

Valyuta kursi – bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalangan bahosi.

To'lov balans - mamlakat rezidentlari (uy xo'jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o'rtasida ma'lum vaqt oralig'ida (odatda bir yilda) amalga oshirilgan barcha Iqtisodiy bitimlar natijasining tartiblashtirilgan yozuvi.

Iqtisodiy bitimlar - qiymatning har qanday ayirboshlanishi, ya'ni tovarlar ko'rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o'tishi bo'yicha kelishuvlar.



Yuridik shaxslar -O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida soliq to'lovchilar ikki guruhga bo'linadi: yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida xilma-xil mulk shaklidagi birlashmalar, korxonalar va tashkilotlar qiskacha yuridik shaxs deb ataladi.

O'z mulkiga ega bo'lgan va o'z majburiyatlarini shu mulklar bilan bajaradigan, soliq idoralarida ro'yxatdan o'tgan, bankda hisob raqamiga, mustaqil buxgalteriya balansiga ega bo'lgan korxona, tashkilot, birlashma va ularning mustaqil shaxobchalariga yuridik shaxslar deb ataladi.

Yuridik shaxs maqomidan tashqari soliq to'lovchi bo'lish uchun yana, albatta biror ruxsat etilgan faoliyatdan daromad (foyda) olgan bo'lishi, tovar (ish, xizmat) sotishdan oborotga va boshqa mulklarga ega bo'lishlari shart.

Yuridik shaxslarning byudjetga to'laydigan soliqlari to'g'ri va egri soliq'larga bo'linadi. To'g'ri soliqlar daromad (foyda) solig'i va resurs soliqlaridan, egri soliqlar esa qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona bojidan iboratdir.

Jismoniy shaxs (fuqaro) tushunchasi - —uqarolar (jismoniy shaxslar) deganda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi.

Yuridik shaxslarning daromadidan (foydasidan) soliq - —u yuridik shaxslarning hamma faoliyatidan olgan daromadlarini (foydasini) bir qismini byudjetga majburiy to'lovidir. Bu erda soliq to'lovchilar soliqqa tortish maqsadida rezidentlarga bo'linadi.

Rezidentlar - —'zbekiston hududida tashkil etilgan va ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar yoki bosh korxonasi O'zbekistonda joylashgan bo'lib, O'zbekistondan tashqarida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar bo'lib, O'zbekiston hududida hamda chet elda olgan daromadlaridan soliq to'lovchilar hisoblanadi.

Norezidentlar-O'zbekiston hududida tashkil etilmagan yoki bosh korxonasi O'zbekistonda joylashmagan yuridik shaxslardir. Norezidentlar faqat O'zbekiston hududida olgan daromadlaridan soliq to'laydilar.

CHet el yuridik shaxslari- rezidentlar va norezidentlarga bo'linadi. Rezidentlar O'zbekistondagi yuridik shaxslar kabi soliqqa tortiladi. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatuvchi norezident yuridik shaxslar:

- doimiy muassasa orqali faoliyat ko'rsatuvchi;
- doimiy muassasa bo'lmasdan faoliyat ko'rsatuvchi yuridik shaxslarga bo'linadi.

Birinchi guruhdagilarning O'zbekistonda olgan daromadlari ularning soliq idoralariga taqdim etadigan deklaratsiyalari orqali soliq idoralari tomonidan hisoblab chiqilib soliqqa tortiladi.

Ikkinchi guruh norezidentlarning O'zbekiston hududidagi korxona va tashkilotlardan olgan daromadlari manbaida jami daromaddan hech qanday chegirmasiz soliqqa tortiladi (ushlanib qolinadi).

«Doimiy muassasa» tushunchasi - —oliqqa tortish maqsadida O'zbekiston hududida daromad olish uchun faoliyat ko'rsatayotgan har qanday joy hamda har qanday tashkilot yoki vakolatli funksiyani bajarayotgan yuridik shaxsdir. Bu tushuncha o'z ichiga: boshqaruv o'rnini, bo'limi, ofisi, idora, fabrika, ustaxona, shaxta, neft yoki gaz quvuri, tosh qazish yoki har qanday foydali qazilmalar qazib oluvchi joylarni oladi.

Royalti - –u in 150 o'var 150 ektual ulklardan kelgan daromadlardir. Intellektual mulklarga yangilik yaratilganligi to'g'risidagi patent, litsenziya, to'lovarelgisi va boshqalar kiradi.

Investitsiya - –orxonaning o'zi amalga oshirgan quyidagi:

- yangi qurilish shaklidagi kapital qurilishga, ishlab turgan korxonalarni rekonstruksiyalash, kengaytirish va texnikaviy qayta qurollantirishga sarflangan mablag'lar;

Qo'shilgan qiymat solig'i - –u korxona, tashkilot va birlashmalarda yangi yaratilgan (qo'shilgan) qiymatning bir qismini byudjetga majburan olishdir.

QQSdan imtiyozlar - –u korxonaning iste'molchilarga tovar ortganda, ish bajarganda, xizmat sotganda QQSni hisoblamaslik hamda byudjetga soliq to'lamaslikni ifodalaydi.

QQS to'lovchilari - –u O'zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar tovarlar importi bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Aksiz solig'i - –u ishlab chiqarish korxonalarida yaratilgan yoki eksport va import qilingan ba'zi tovarlar qiymatining bir qismini majburiy byudjetga to'lovdir.

Aksiz solig'i ob'ekti - –u O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chikarilgan tovarlar, eksport va import qilingan ba'zi tovarlar oboroti hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i - –u korxonalar mulklarining dastlabki qiymati, o'rnatilmagan mulklar qiymatidan hisoblanib, ularning daromadidan byudjetga to'lanadigan majburiy to'lovlardir.

Mol-mulk solig'ini to'lovchilar - –u o'z mulkiga ega bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Soliq to'lashning ixchamlashtirilgan tizimiga o'tgan yuridik shaxslar (savdodan tashqari) va imtiyoz olgan yuridik shaxslar bu soliqni to'lamaydilar.

O'rtacha qiymat - –u asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, lizing shartnomasi bo'yicha sotib olingan vositalarning hamda ishga tushirilmagan mulklar qiymatining yil boshi va oxiridagi summalarini yarmi, boshqa oylar boshidagi balans qiymatining to'liq summolari yig'indisini 12ga bo'lish bilan aniqlanadigan qiymatdir. Bu qiymat choraklik va yil bo'yicha aniqlanadi.

Qishloq xo'jalik tovar ishlab chikaruvchilarning yagona er solig'i - –agona er solig'ini to'lovchilar bo'lib, qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlar), fermer

xo'jaliklari, agrofirmalar, boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar hisoblanadi. Bu korxonalar o'z hohishlari bo'yicha byudjetga yoki yagona er solig'i to'lovchilar yoki qishloq xo'jalik korxonalari uchun belgilangan yagona soliq to'lovchilari bo'lishi mumkin.

YUridik shaxslarning (noqishloq xo'jalik) er solig'i - –'zining mulkida, egaligida va foydalanishida er uchastkalari bo'lgan yuridik shaxslar er solig'i to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.

Soliq to'lovchilarning identifikatsion raqami (STIR) - –oliq to'lovchining soliq idoralaridan ro'yxatdan o'tganligini ko'rsatuvchi dalildir. Bu raqam soliq to'lovchining tegishli hisobot va hisoblarini, boshqa hujjatlarini tez topishda yordam beruvchi sonidir.

Soliq qonunchiligi buzilganda qo'llaniladigan jazolar (sanksiyalar) - –u intizomsiz soliq to'lovchilarga nisbatan soliq qonunchiligi buzilganda beriladigan jazolardir. Ular uch xil bo'ladi: ma'muriy, moliyaviy va jinoiy.

YAipi ichki mahsulot (YAIM)- bu ma'lum bir davrda (yil) mamlakat ichida bozor bahosida yaratilgan hamma tovarlar va xizmatlarning qiymatidir.

Byudjet jarayoni - –avlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayoni.

Byudjet dotatsiyasi - –'z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar etishmagan taqdirda quyi byudjetning harajatlari bilan daromadlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

Byudjetdan mablag' ajratish - –onun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Davlat byudjetidan byudjet tashkilotlariga hamda boshqa byudjet mablag'lari oluvchilarga ajratiladigan pul mablag'lari.

Byudjet profitsiti - –uayyan davrda byudjet daromadlarining byudjet harajatlaridan ortiq bo'lgan summasi.

Byudjet ssudasi - –uqori byudjetdan quyi byudjetga yoxud respublika byudjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag'.

Byudjet subvensiyasi - –onun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari.

Byudjet so‘rovi - –yudjet tasnifi bo‘yicha tushumlarni shakllantirish va byudjetdan mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi so‘rov.

Byudjet tashkiloti - –immasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z faoliyatini amalga oshirishi uchun Davlat byudjetidan mablag‘ ajratish nazarda tutilgan va bu mablag‘ moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo‘mitasi, idora, davlat tashkiloti.

Byudjet taqchilligi - –uayyan davrda byudjet harajatlarining byudjet daromadlaridan ortiq bo‘lgan summasi.

Byudjet transferti - –yudjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoxud vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag‘lari.

Davlat byudjeti - –avlat pul mablag‘larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining) markazlashtirilgan jamg‘armasi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Davlat ichki qarzlari - –avlat tomonidan ichki mablag‘ni jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisi.

Davlat maqsadli jamg‘armalari - –avlat byudjeti tarkibida jamlantiriladigan jamg‘armalar bo‘lib, ularning har biri uchun mablag‘lar manbalari, har bir manbadan mablag‘ tushishi normalari va shartlari, shuningdek shu mablag‘lardan foydalanilishi mumkin bo‘lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Davlat tashqi qarzi - –avlat tomonidan xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisi.

Davlat tomonidan ichki mablag‘ni jalb qilish - –ktivlarni ichki manbalardan (rezident-yuridik va jismoniy shaxslardan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o‘z kreditlarini (qarzlarini) to‘lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari vujudga kelishi.

Davlat tomonidan xorijdan mablag‘ jalb qilish - –ktivlarni xorij manbalaridan (chet el davlatlaridan, norezident yuridik shaxslardan va xalqaro

tashkilotlardan) jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlarini (qarzlarini) to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga kelishi.

Davlat qarzi - –avlat tomonidan ichki mablag'ni va xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi.

Mahalliy byudjet - –avlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Moliya yili - –irinchi yanvardan o'ttiz birinchi dekabr kuni oxirigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oluvchi davr.

Respublika byudjeti - –avlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKACSI
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

Рўйхатга олинди:
№ БД-1.06

2017 йил "18" 08



Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги

2017 йил "29" 08

ИҚТИСОДИЁТ НАЗАРИЯСИ

ФАН ДАСТУРИ

Барча иқтисодий таълим йўналишлари учун

f

Тошкент – 2017

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2017 йил "14" 08 даги 603 -сонли буйруғи билан фан дастури рўйхати тасдиқланган.

Фан дастури Олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълими йўналишлари бўйича Ўқув-услубий бирлашмалар фаолиятини Мувофиқлаштирувчи Кенгашнинг 2017 йил "18" 08 даги 4 -сонли баённомаси билан маъқулланган.

Фан дастури Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетида ншлаб чиқилган.

Тузувчилар:

1. Абулқосимов Х.П. – Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети "Иқтисодиёт назарияси" кафедраси профессори, иқтисод фанлари доктори;
2. Эгамбердиев Ф.Т. – Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети "Иқтисодиёт назарияси" кафедраси профессори, иқтисод фанлари доктори;
3. Хошимов П.З. – Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети "Иқтисодиёт назарияси" кафедраси доценти, иқтисод фанлари номзоди;
4. Олиножнова Ш.О. – Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети "Иқтисодиёт назарияси" кафедраси доценти, иқтисод фанлари номзоди;
5. Муминов Н.Г. – Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети "Иқтисодиёт назарияси" кафедраси mudiri, иқтисод фанлари номзоди, доцент

Такризчи:

- Т.С.Расулов – Тошкент давлат шарқшунослик институти "Яқин Шарқ ва МДХ мамлакатлари иқтисодиёти ва мамлакатшунослиги" кафедраси mudiri, иқтисод фанлари доктори, профессор

Фан дастури Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Кенгашида кўриб чиқилган ва тасвир қилинган (2017 йил "18" 07 --6" -сонли баённома).

I. Ўқув фанининг долзарблиги ва олий касбий таълимдаги ўрни

Ушбу фан жамиятнинг иқтисодий негизи, унинг таркибий қисмлари, умумиқтисодий қонунлар ва категориялар, иқтисодий ҳодиса ва жараёнларнинг моҳияти, иқтисодий-иқтисодий тизимлар ва уларнинг амал қилиш қонунликлари, иқтисодий ўсиш каби масалаларни қамраб олади. Жамиятда мажбурий иқтисодий қонунларни билиш ва уларнинг амал қилишига оғли муносабатда бўлишда, мамлакатни демократлаштириш ва иқтисодиётни бозор тамойиллари асосида ислоҳ қилиш жараёнларининг моҳиятини тушунишда талабаларни зарур бўлган билимлар билан қуроллантиради.

“Иқтисодиёт назарияси” фани гуманитар ва иқтисодий-иқтисодий фанлар блокига киритилган курс ҳисобланиб, барча неиқтисодий бакалаврият таълим йўналишларида ўқитилади. “Иқтисодиёт назарияси” фанини 3-курсда ўқитилиши мақсадга мувофиқдир. Мазкур фан бошқа иқтисодий фанларнинг назарий ва услубий асосини ташкил қилиб, ўз ривожда аниқ йўналишдаги иқтисодий фанлар учун замин бўлиб хизмат қилади.

II. Ўқув фанининг мақсади ва вазифаси

Фани ўқитишдан мақсад - талабаларга иқтисодий билимларнинг назарий асосларини, иқтисодиётнинг асосий тушунчалари ва категорияларини, иқтисодий қонунлар ва тамойилларини ўргатиш ҳамда уларни амалиётда татбиқ этиш қўникмасини ҳосил қилишдан иборат.

Ушбу мақсадга эришиш учун фан талабаларни назарий билимлар, амалий қўникмалар, иқтисодий ҳодиса ва жараёнларга услубий ёндашув ҳамда илмий дунёқарашни шакллантириш вазифаларини бажаради. §

Фан бўйича талабаларнинг билим, қўникма ва амалакаларига қуйидаги талаблар қўйилади. *Талаба:*

- иқтисодий билим асослари, бозор иқтисодиёти субъектлари, иқтисодий категориялар тўғрисида *маълумотга эга бўлиши;*
- иқтисодиёт назарияси асосларини, иқтисодий қонунлар, тушунчалар, категорияларни, иқтисодий жараёнларнинг хусусиятларини *билиши ва улардан фойдалана олиши;*
- талаба иқтисодий ҳодиса ва жараёнларни таҳлил қилиш усулларини қўллаш, иқтисодий муаммолар бўйича ечимлар қабул қилиш *қўникмаларига эга бўлиши керак.*

III. Асосий назарий қисм (маъруза машғулотлари)

I-маъруза. “Иқтисодиёт назарияси” фанининг предмети.

Иқтисодий тизимлар

Иқтисодиёт тушунчаси. Иқтисодий фаолиятнинг мазмуни. Такрор ишлаб чиқариш фазалари. Эҳтиёжларнинг мазмуни ва уларнинг туркумланиши. Иқтисодий ресурсларнинг мазмуни ва туркумланиши. Иқтисодиётга оид билимларнинг шаклланиши ва ривожланиши. Иқтисодиёт назариясининг фан сифатида шаклланишидаги асосий оқимлар. Иқтисодиёт назарияси фанининг

предмети. Иктисодиёт назарияси фанининг вазифалари. Иктисодий қонуनлар ва категориялар.

2-мавзу. Мулкчилик, товар ва пул муносабатларининг шаклланиши

Мулкчилик муносабатларининг иктисодий мазмуни. Мулк объекти ва субъекти. Мулкчиликнинг иктисодий ва ҳуқуқий жиҳатлари. Мулк шакллари ва таснифланиши. Иктисодиётни ислоҳ қилишда мулкчиликнинг ўрни. Мулкчилик шакллари ва ўзгартириш усуллари. Ишлаб чиқариш жараёнининг мазмуни ва унинг иктисодий асослари. Товар ва унинг хусусиятлари. Товар қийматининг миқдори. Пулнинг келиб чиқиши ва мазмуни. Пулнинг асосий вазифалари.

3-мавзу. Бозор иктисодиётининг мазмуни ва амал қилиш механизми. Ўзбекистонда бозор иктисодиётига ўтишнинг хусусиятлари

Бозорнинг мазмуни ва белгилари. Бозор механизми. Бозорнинг вазифалари. Бозорнинг туркумланиши. Бозор инфратузилмаси. Бозор иктисодиётига ўтишнинг миллий моделлари. Бозор иктисодиётига ўтишнинг "Ўзбек модели", унинг тамойиллари ва хусусиятлари. Иктисодий ислохотларнинг мазмуни. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича "Ҳаракатлар стратегияси"нинг мазмуни ва йўналишлари. Талаб тушунчаси. Талаб қонуни. Таклиф тушунчаси. Таклиф қонуни. Бозор мувозанати.

4-мавзу: Бизнес ва тадбиркорлик фаолияти. Рақобат ва нархнинг шаклланиши

Бизнес ва тадбиркорлик фаолиятининг мазмуни. Тадбиркорлик фаолиятининг ривожланиш шарт-шароитлари. Изланиш, инновация ва кенгайтириш. Тадбиркорлар ва бошқа иxtирочиларнинг аҳамияти. Тадбиркорлик фаолиятининг шакллари. Хуфёна иктисодиёт. Агробизнес ва унинг турлари. Иктисодий харажатлар. Корхона ишлаб чиқариш харажатлари. Фойда ва рентабеллик. Рақобатнинг моҳияти, вазифалари ва турлари. Рақобатлашиш усуллари ва рақобат курашининг замонавий шакллари. Монополиянинг моҳияти ва унинг вужудга келиши сабаблари. Монополияларнинг турлари.

Нархнинг мазмуни. Нархга таъсир этувчи омиллар. Нарх турлари.

5-мавзу. Миллий иктисодиёт ва макрониктисодий кўрсаткичлар, миллий бойлик. Иктисодий ўсиш ва унинг омиллари

Асосий макрониктисодий кўрсаткичлар. Иктисодий фаолиятни баҳолаш. Ялпи миллий маҳсулот ва ялпи ички маҳсулот. Уй хўжаликларининг истеъмол сарфлари. Инвестицион сарфлар. ЯИМни ҳисоблашга даромадлар бўйича ёндашув. Миллий ҳисоблар тизими. Соф миллий маҳсулот, миллий даромад ва шахсий даромад. Иктисодий ўсишнинг омиллари. Иктисодий ўсиш назариялари, концепция ва моделлари. Иктисодий ўсишнинг кейнсча ва неокейнсча моделлари. В.Леонтьевнинг "харажатлар-натияжалар" модели.

Ялпи талаб. Ялпи талаб эри чизиги. Ялпи таклиф. Мувозанат ва мувозанатли узгартиришлар. Ялпи талабнинг ўсиши. Инфляциянинг мазмуни. Инфляцияни ҳисоблаш. Макроиктисодий барқарорлаштириш сиёсатини амалга ошириш натижалари.

6-мавзу. Молиянинг моҳияти ва молия тизими, давлатнинг солиқ- бюджет сиёсати. Пул муомаласи, кредит ва банклар

Молиянинг мазмуни. Молиявий муносабатлар объекти ва субъекти. Молиянинг вазифалари. Молия тизими ва унинг бўғинлари. Давлат бюджети ва унинг молиявий ресурсларни шакллантиришдаги аҳамияти.

Солиқ-бюджет сиёсати. Бюджет тақчиллиги ва давлат қарзлари, уларнинг иктисодиётга таъсири. Молиявий сиёсатнинг амал қилиши. Солиқларнинг ўсиши. Солиқ солиш тамойиллари. Солиқ имтиёзлари. Солиқ юкининг тақсимланиши. Пул агрегатлари. Пул муомаласи қонунлари. Пул бозорида талаб ва таклиф. Пул таклифи ва унинг мультипликатори.

Кредитнинг моҳияти, вазифалари ва турлари. Кредит ресурсларининг манбалари. Кредит бериш тамойиллари. Кредит-пул тизимини давлат томонидан тартибга солиш.

Тижорат банкларнинг мазмуни. Банк тизими. Марказий банк ва унинг вазифалари. Тижорат банклари ва уларнинг вазифалари. Банк операциялари ва банк фойдасининг ҳосил бўлиши.

7-мавзу. Инвестиция ва инвестицион сиёсат. Ишчи кучи бандлиги ва меҳнат бозори

Истеъмол фонди ва истеъмол сарфлари. Фонд ставкаси – инвестицион муносабатлар сифатида. Истеъмол ва жангарма ҳажмига таъсир этувчи омиллар. Жангарма ва инвестиция ўртасидаги нисбат.

Инвестицияларнинг мазмуни. Инвестициянинг вазифалари. Инвестиция манбалари ва тузилиши. Инвестициянинг турлари.

Ишчи кучи ва унинг бандлиги. Меҳнат бозори. Ишсизлик ва унинг турлари. А.Оукен қонуни. Ишсизлик ва инфляциянинг ўзаро боғлиқлиги.

8-мавзу. Иктисодиётни тартибга солишнинг бозор ва давлат механизмлари

Иктисодиётни тартибга солишнинг моҳияти ва зарурлиги. Иктисодиётни тартибга солишнинг классик, монетаристик, кейнсча назариялари.

Давлат аралашуви. Иктисодиётни давлат томонидан тартибга солишнинг мақсади. Давлатнинг иктисодий ўрни ва вазифалари. Фан-техника тараққиёти, таркибий, иқтисодий ва минтақавий сиёсатни амалга оширишда давлатнинг ўрни. Лоренц эри чизиги. Динцель ва Жини коэффициентлари.

Аҳоли даромадлари, уларнинг турлари ва шаклланиш манбалари. Иш ҳақи ва унинг шакллари. Номинал ва реал даромад. Турмуш даражаси ва сифати. Турмуш даражаси кўрсаткичлари. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича

“Харакатлар стратегияси”да ижтимоий соҳани ривожлантириш масалалари.

9-мавзу. Жаҳон хўжалиги ва иқтисодий интеграция

Жаҳон хўжалигининг ташкил топиши, босқичлари ва асосий белгилари. Ишлаб чиқаришнинг байналмиллалашуви. Халқаро меҳнат тақсими. Глобаллашуви жараёнининг моҳияти ва асосий йўналишлари. Халқаро иқтисодий муносабатларнинг мазмуни ва шакллари. Халқаро иқтисодий интеграциянинг мазмуни, асосий шакллари ва ривожланиш омиллари. Очик иқтисодиёт ва унинг ўзига хос белгилари. Халқаро савдонинг мазмуни. Тўлов баланси ва унинг таркиби. Халқаро валюта-кредит муносабатлари. Жаҳон валюта тизимининг ривожланиш босқичлари. Валюта курси ва унга таъсир кўрсатувчи омиллар. Ўзбекистоннинг жаҳон иқтисодиётига қўшилишининг шарт-шароитлари.

IV. Семинар машғулотлари бўйича кўрсатма ва тавсиялар

Семинар машғулотлари учун қуйидаги мавзулар тавсия этилади:

1. “Иқтисодиёт назарияси” фанининг предмети. Иқтисодий тизимлар
2. Мулкчилик, товар ва пул муносабатларининг шаклланиши
3. Бозор иқтисодиётининг мазмуни ва амал қилиш механизми. Ўзбекистонда бозор иқтисодиётига ўтишнинг хусусиятлари
4. Бизнес ва тадбиркорлик фаолияти. Рақобат ва нархнинг шаклланиши
5. Миллий иқтисодиёт ва макroiқтисодий кўрсаткичлар, миллий бойлик. Иқтисодий ўсиш ва унинг омиллари.
6. Молиянинг моҳияти ва молия тизими, давлатнинг солиқ- бюджет сиёсати. Пул муомаласи, кредит ва банклар
7. Инвестиция ва инвестицион сиёсат. Ишчи кучи бандлиги ва меҳнат бозори
8. Иқтисодиётни тартибга солишнинг бозор ва давлат механизмлари
9. Жаҳон хўжалиги ва иқтисодий интеграция.

Семинар машғулотлари мультимедиа қурулмалари билан жиҳозланган аудиторияда бир академ.гуруҳга бир ўқитувчи томонидан ўтказилиши лозим. Машғулотлар фаол ва интерактив усуллар ёрдамида ўтилиши, мос равишда муносиб педагогик ва ахборот технологиялар қўлланилиши мақсадага мувофиқ.

V. Муستaqил таълим ва мустaqил ишлар

Мустaqил таълим учун тавсия этиладиган мавзулар:

1. Ҳозирги замон иқтисодий тафаккурининг шаклланишида, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш муаммоларини таҳлил қилиш ва билишда иқтисодиёт назарияси фанининг роли.
2. Қадимги Шарқ ва Ғарб халқларидаги иқтисодий гоялар.
3. Иқтисодиёт назарияси - барча иқтисодий фанларнинг услубий пойдевори ва давлат иқтисодий сиёсатининг илмий асоси.
4. Иқтисодиётни ислох қилишда мулкчиликнинг ўрни.
5. Ўзбекистонда ислохотларни чуқурлаштириш ва иқтисодиётни эркинлаштиришнинг асосий йўналишлари.
6. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича “Харакатлар стратегияси”нинг мазмуни ва

йўналишлари.

7. Бизнес ва талбиркорлик фаолиятида изланиш, инновация ва кенгайтириш.
8. Ишлаб чиқариш омилларининг ўзаро боғлиқлиги ва бир-бирининг ўрнини босиши
9. Меҳнат унумдорлиги ва интенсивлигининг товар қиймати миқдorigа таъсири.
10. Маъмурий-бўйруқбозликка асосланган иқтисодиётдан бозор иқтисодиётига ўтишнинг хусусиятлари.
11. Иқтисодий ресурсларга талаб ва таклифнинг хусусиятлари.
12. Рақобат муҳитини кучайтиришнинг зарурлиги ва йўналишлари.
13. Антимонопол конунчилик ва монополияларни тартибга солиш.
14. Меҳнат муносабатларини тартибга солишда давлатнинг roli.
15. Миллий маҳсулот (ЯИМ) ни кўпайтириш омиллари ва йўллари.
16. Хуфёна иқтисодиёт, унинг ўлчамлари ва намоён бўлиш шакллари.
17. Жамғаришнинг мазмуни ва унинг манбалари.
18. Инвестицион фаолиятни таъминлаш ва унинг шарт-шаронглири.
19. Таркибий ўзгаришларни итчил амалга оширишда қулай инвестиция муҳитининг қратилиши.
20. Иқтисодий ривожланишдаги номуносивлиялар ва уларнинг намоён бўлиш шакллари.
21. Даромадларни давлат томонидан қайта тақсимлаш гоҳси, мақсади ва дастаклари
22. Ялпи ишчи қучининг миқдор ва сифат жиҳатдан аниқланиши
23. Экспортни рақбатлантириш усуллари.
24. Валюта-молия соҳасидаги давлатлараро ташқиротлар фаолиятининг ривожланиши

Мустақил ўрлаштирилаётган маълумлар бўйича талабалар томонидан рефератлар тайёрлаш ва уни тақдимот қилиш таъсири этилади.

VI. Асосий ва қўшимча ўқув адабиётлар ҳамда ахборот манбалари

Асосий адабиётлар

1. Mc. Connell, Brue. Economics. 17th edition. McGraw-hill/Irwin, USA, 2014.
2. N. Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7th edition. Amazon, USA 2016.
3. Paul A. Samuelson, William D. Nordhaus. Economics. 19th Edition. McGraw-Hill Companies, USA, 2015.
4. Ўлмасов А., Вахобов А.В. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. – Т.: «Iqtisod-moliya», 2014. - 480 бет.
5. Шодмонов Ш.Ш., Гофуров У.В. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик – Т.: Iqtisod-moliya, 2010. - 728 бет.

Қўшимча адабиётлар

6. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этиш. Ўзбекистон Республикаси президенти лавозимига

қиринчи тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ, Тошкент, 2016. 56 б.

7. Мирзиев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда иқтисмоний-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 Январь – Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 104 б.

8. Мирзиев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш - юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза, 2016 йил 7 декабрь- Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 48 б.

9. Мирзиев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевни 2016 йил 1 ноябрдан 24 ноябрга қадар Қорақолпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри сайловчилари пайиллари билан ўтказилган сайловдаги учрашувларидаги нутқлар. Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 488 б.

10. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси - Т.: Ўзбекистон, 2014. - 46

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармони

12. Egamberdiyev F.T. "O'quv qo'llanma/ F.T.Egamberdiyev, S.R.Topildiyev, J.X.Hamroqulov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti-T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2014. -224 b."

13. И.К.Станковская, И.А.Стрелец. Экономическая теория. Учебник. 3-е изд., испр. – М.: «Эксмо», 2009. – 448 стр.

Интернет сайтлари

14. www.gov.uz - Ўзбекистон Республикаси ҳукумат портали.
15. www.lex.uz - Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.
16. www.economist.com
17. www.world-economics.com
18. www.trading-economics.com
19. <http://grad-schools.rankingsandreviews.com> / [best-graduate-schools / top-humanities-schools/economics-rankings](http://best-graduate-schools/top-humanities-schools/economics-rankings)
20. www.catback.ru – научные статьи и учебные материалы по экономике

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi
Toshkent farmatsevtika instituti

“Tasdiqlandi”

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

T.A.Nabiev_____

2018 yil “__” _____

IQTISODIYOT NAZARIYASI fanidan

FANINING ISHCHI O`QUV DASTURI

Ta'lim sohasi: 510000 – Sog'liqni saqlash

Ta'lim yo'nalishi: 5510600-Sanoat farmatsiyasi
5310901 – Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot
sifati, menejmenti (dori vositalari).
5510500 – Farmatsiya

Umumiy o`quv soati - 96 soat
shu jumladan:

Ma'ruza - 26 soat (6-semestr-26 soat)

Amaliy (seminar) mashg'ulot – 28 soat (6-semestr-28 soat)

Mustaqil ish - 42 soat (6-semestr-42 soat)

Toshkent - 2018

